Amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish bo‘yicha kafedra professor-o‘qituvchilari tomonidan ko‘rsatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Unda talabalar ma’ruza mavzulari bo‘yicha olgan bilim va ko‘nikmalarini amaliy tahlil orqali yanada boyitadilar. Shuningdek, darslik va qo‘llanmalar asosida talabalar bilimlarini mustahkamlashga erishish, tarqatma materiallardan foydalanish, ilmiy maqolalar va tezislarni chop ettirish orqali bilimni oshirish, matn ustida ishlash, mavzular bo‘yicha ko‘rgazmali qurollar tayyorlash, test savollari tuzish tavsiya etiladi.

Amaliy mashg‘ulot uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Tilshunoslikda falsafa kategoriyalarining voqelanishi.
2. Tilshunoslikda mantiq tamoyillarining qo‘llanilishi
3. Tilshunoslik va badiy adabiyot munosabati
4. Psixoterapiyada nutq va intonatsiyaning o‘rni
5. Tilshunoslik va sotsiologiya
6. Tilshunoslik, antropologiya va tarix
7. Til bilan boshqa belgilar tizimining o‘xhashlik va farqli jihatlari. Axborot va signal tushunchasi.
8. Tilshunoslikning biologiya va fiziologiya bilan munosabati
9. Tilshunoslik va kimyo
10. Tilshunoslikning fizika, geografiya bilan munosabati
11. Tilshunoslikning axborot nazariyasi bilan bog‘liqligi.
12. Matematik metodlarning tilshunoslikda qo‘llanishi.
13. Lingvogeografiya va areal tilshunoslik.
14. Tilshunoslikda statistik metoddan foydalanish.
15. Tilning leksik taraqqiyotidagi ichki va tashqi omillar.
16. Tilning leksik-semantik sathi.
17. Tilshunoslikning logopediya va defektologiya bilan munosabati
18. Tilshunoslikning zamonaviy yo‘nalishlari va dolzarb muammolari. Sotsiolingvistika. Paradigmatika, pragmatika, lingvokulturologiya.
19. Tilning muloqot funksiyasi.
20. Tilshunoslikning tabiiy fanlarga ta’siri

Izoh: Mazkur ro‘yxatdagi mavzulardan amaliy mashg‘ulotlar uchun ajratilgan soatlar hajmiga mos holda tanlab foydalanish, mavzuga doir adabiyotlarning mavjudligiga e’tibor berish tavsiya etiladi.

“Tilshunoslik va tabiiy fanlar” kursi bo‘yicha amaliy mashg‘ulotning TAQVIM-REJASI

№	Mavzu	Soat	vaqt	
			I	II
1.	Tilshunoslikda falsafa kategoriyalarining voqelanishi	2		
2.	Tilshunoslikda mantiq tamoyillarining qo‘llanilishi	2		
3.	Tilshunoslik va badiy adabiyot munosabati	2		
4.	Tilshunoslik va badiy san’atlar	2		
5.	Psixoterapiyada nutq va intonatsiyaning o‘rni	2		
6.	Tilshunoslik va sotsiologiya	2		
7.	Tilshunoslik, antropologiya va tarix	2		
8.	Til bilan boshqa belgilar tizimining o‘xhashlik va farqli jihatlari. Axborot va signal tushunchasi	2		
9.	Tilshunoslikning biologiya va fiziologiya bilan munosabati	2		
10.	Tilshunoslik va kimyo	2		
11.	Tilshunoslikning fizika, geografiya bilan munosabati	2		
12.	Tilshunoslikning axborot nazariyasi bilan bog‘liqligi	2		
1-Joriy nazorat				
13.	Matematik metodlarning tilshunoslikda qo‘llanishi	2		
14.	Lingvogeografiya va areal tilshunoslik	2		
15.	Tilshunoslikda statistik metoddan foydalanish	2		
16.	Tilning leksik taraqqiyotidagi ichki va tashqi omillar	2		
17.	Tilning leksik-semantik sathi	2		
18.	Tilshunoslikning logopediya va defektologiya bilan munosabati	2		

19.	Tilshunoslikning zamonaviy yo‘nalishlari va dolzARB muammolari. Sotsiolingvistika	2		
20.	Paradigmatika, pragmatika.	2		
21.	Lingvokulturologiya	2		
22.	Tilning muloqot funksiyasi	2		
23.	Tilshunoslikning tabiiy fanlarga ta’siri	2		
	2-Joriy nazorat			
	JAMI	46		

Mustaqil ta’limni tashkil etishning shakli va mazmuni

“Tilshunoslik va tabiiy fanlar” fanini o‘rganuvchi talabalar auditoriyada olgan nazariy bilimlarini muctahkamlash va tilshunoslik va tabiiy fanlar munosabatining asosiy masalalarini tahlil qilishda muayyan ko‘nikma hosil qilish uchun mustaqil ta’lim tizimiga asoslanib, kafedra o‘qituvchilari rahbarligida, mustaqil ish bajaradilar. Bunda ular qo‘srimcha adabiyotlarni o‘rganib hamda Internet saytlaridan foydalanib referatlar va ilmiy dokladlar tayyorlaydilar, amaliy mashg‘ulot mavzusiga doir uy vazifalarini bajaradilar, ko‘rgazmali quollar va slaydlar tayyorlaydilar.

1. amaliy mashg‘ulotlarga tayyorgarlik;
2. seminar mashg‘ulotlariga tayyorgarlik;
3. darslik va o‘quv qo‘llanmalar bo‘yicha fan boblari va mavzularini o‘rganish;
4. tarqatma materiallar bo‘yicha ma’ruza qismini o‘zlashtirish;
5. maxsus adabiyotlar bo‘yicha fan bo‘limlari yoki mavzulari ustida ishlash;
6. o‘quv, ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog‘liq bo‘lgan fan bo‘limlari va mavzularini chuqur o‘rganish;
7. faol va muammoli o‘qitish metodlaridan foydalaniladigan o‘quv mashg‘ulotlari;
8. masofaviy ta’lim.

Mustaqil ta’lim uchun quyidagi topshiriqlarni bajarish tavsiya etiladi

1. Tilshunoslik va semiotika. Semiotika va uning tarkibiy qismlari.
2. Tilshunoslik va antropologiya. Nutqning paydo bo‘lish masalalari
3. Neyrolingvistikaning mohiyati. Afaziologiya. Nerolingvistikaning shakllanishi.
4. Tilshunoslik va fizika. Maydon nazariyasi.
5. Tilshunoslik va tabiiy fanlarning o‘zaro ta’siri.
6. Fanlarning o‘zaro bog‘liqligi

Izoh: Ishchi dasturni shakllantirish jarayonida mustaqil ta’lim soatlari hajmiga assoslanish, mavzulardan tanlab foydalanish, mustaqil ishni bajarish jarayonida belgilangan ko‘rsatmalarga amal qilish tavsiya etiladi.

Talaba mustaqil ta’limining mazmuni va hajmi

Nº	Mavzu nomi	Berilgan topshiriq	Soat	Bajarish muddati
1	Tilshunoslik va antropologiya	Ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlarga tayyorgarlik ko‘rish	6	
2	Tilshunoslik va fiziologiya	Maxsus adabiyotlar bo‘yicha fan bo‘limlari yoki mavzulari ustida ishlash	6	
3	Tilshunoslik va psixiatriya	Ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlarga tayyorgarlik ko‘rish	6	
4	Tilshunoslik va semiotika	Referat tayyorlash	8	
5	Tilshunoslik va antropologiya	Darslik va o‘quv qo‘llanmalar bo‘yicha fan boblari va mavzularinio‘rganish	6	

6	Neyrolingvistik aning mohiyati	Ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rish	6	
7	Afaziologiya	Maxsus adabiyotlar bo'yicha fan bo'limlari yoki mavzulari ustida ishlash	6	
8	Tilshunoslik va fizika	Darslik va o'quv qo'llanmalar bo'yicha fan boblari va mavzularinio'rghanish	6	
9	Maydon nazariyasi	Ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rish	6	
10	Valentlik nazariyasi	Darslik va o'quv qo'llanmalar bo'yicha fan boblari va mavzularinio'rghanish	6	
11	Tilshunoslik va tabiiy fanlarning o'zaro ta'siri	Ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rish	6	
Jami soat			76	

Dasturning axborot-uslubiy ta'minoti

"Tilshnoslik va tabiiy fanlar" fanini o'qitish jarayonida ta'limning zamonaviy metodlari, pedagogik texnologiyalarini qo'llash nazarda tutilgan. Ilmiy-nazariy adabiyotlar, o'quv-uslubiy qo'llanmalar, lug'atlar, shuningdek, axborot texnologiyalari (kompyuter, internet materiallari, proyektor, slaydlar, prezentsiyalar va hokazolar) dan o'rinali foydalaniladi. Ayrim mavzular bo'yicha talabalar bilimini baholash test asosida va kompyuter yordamida bajariladi. "Internet" tarmog'idagi materialdan foydalaniladi, tarqatma materiallar tayyorlanadi, test tizimi hamda tayanch so'z va iboralar asosida oraliq va yakuniy nazoratlar o'tkaziladi.

Ma'ruza darslarida talabalarning mustaqil tayyorgarligidan keyingi leksiya metodi, aqliy hujum metodi, sinektika metodi, munozara leksiya metodlari qo'llaniladi.

Amaliy, seminar mashg'ulotlarda dumaloq stol, ruchka stol ustida, rotatsiya, ajurli arra, bir kishi hamma uchun, hamma bir kishi uchun metodlaridan foydalaniladi.

Noan'anaviy ma'ruza darslarida blits-oyin texnologiyasi, muloqot treningi, galereyani aylanish, qor bo'ron, asalari galasi, dumalovchi qor uyumi, davra suhbatlari, mojaro metodi, blits-so'rov, FSMU texnologiyalarini qo'llash ma'qul.

Foydalilanidigan adabiyotlar ro'yxati Asosiy adabiyotlar

- Нурмонов А. Танланган асарлар. З жилдлик.1-жилд. –Тошкент: Академнашр, 2012.– 416 б.
- Nurmonov A., Yo'ldoshev B. Tilshunoslik va tabiiy fanlar. –Toshkent: Sharq, 2001.
- Borbala Richter. First steps in theoretical and applied linguistics. –Budapest, 2006.
- Пўлатов А. Компьютер лингвистикаси. - Тошкент: Академнашр, 2011.
- Rahimov A. Kompyuter lingvistikasi. – Toshkent: Akademnashr, 2011.

Qo'shimcha adabiyotlar

- Sodiqov K. Kibernetika va uning ba'zi falsafiy masalalari. – Toshkent, 2000.
- Mamedov Q., Shoumarov G'. Aqli zaif bolalar psixologiyasi. -Toshkent, 1994.
- Джураев А.Б. Теоретические основы ареального исследования узбекоязычного массива. – Тошкент: Фан, 1991.
- Пўлатов А.К., Мухамедова С. Компьютер лингвистикаси (ўкув қўлланма). -Тошкент, 2008
- Peter T. Daniels. (2001) Writing and Language. In The Handbook of Linguistics. Edited by Arnoff, M., Rees-Miller, J.
- Азизов О. Тилшунослика кириши, Тошкент, 1996.
- Лиймбетов М. К. Проблемы и методы квантитативно-типолоического измерения близости тюркских языков (на материале каракалпакского, казахского и узбекского языков) АДД, Ташкент, 1997.

8. Анисимов А. В. Компьютерная лингвистика для всех (мифы, алгоритмы, язык), Киев, 1991.
9. Валихонов М. Одам маймундан пайдо бўлганми ёки одамдан маймун // Фан ва турмуш, 1997, 6-сон; 1998, 1-сон, 8—10-бетлар.
10. Джураев А. Б. Атласирование, лингвогеография и узбекская диалектология // Сов. тюркология, 1990, 4-сон, 100—102-бетлар.
11. Джураев А. В. Теоретические основы ареального исследования узбекоязычного массива, Ташкент, Фан, 1991, 220-бет.
12. Журавлёв В. К. Язык, языкоzнание, языковеды, М., 1991.
13. Ирискулов М. Тилшуносликка кириш, Тошкент, 1992.
14. Инженерная лингвистика и оптимизация преподавания иностранных языков, сборник научных статей, Л., 1980.
15. Йўлдошев Б. Фразеология тарихидан лавҳалар, Самарқанд, СамДУ нашри, 1998.
16. Кабардин О. Ф. Физика, справочник материаллар, Тошкент, 1992.
17. Лаптев Ю. П. Биологик инженерия, Тошкент, «Мехнат», 1990.
18. Отамирзаева С. Унли товушлар талқини борасида // Ўзбек тили ва адабиёти, 1996, 2-сон.
19. Тўрақулов Ё. Ҳ. ва бошқалар. Умумий биология. Тошкент, 1996.
20. Тўрақулов Ё. Ҳ. Молекуляр биология, Тошкент, 1993.
21. Қурунбеков А. Қўлёзмалар компьютер фондини тузиш ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти, 1997, 3-сон, 47-48-бетлар.
22. Шахнарович А. М., Юрьева Н. М. Психолингвистический анализ семантики и грамматики. М., Наука, 1990.
23. Нурмонов А. Ўзбек тилининг паралингвистик воситалари. Андижон, 1990.
24. Katz J. Propositional Structure and Illocutionary Force. – New York: Crowell, 1977. – P.19.
25. Kempson R.M. Presupposition and Delimitation of Semantics. – Cambridge: Univ. Press, 1975. – 236 p.
26. Levinson S. Pragmatics. – Cambridge: Cambridge University Press, 1984. – 420 p.
27. Lightfoot D. Principles of Diachronic Syntax. – Cambridge Univ. Press, 1979. – P.43.
28. Nuyts J. Aspects of a Cognitive-Pragmatic Theory of Language. On cognition, functionalism, and grammar. – Amsterdam, 1992. – 400 p.
29. Prigogine I., Stengers I. Order out of Chaos, Bantam Books. – New York, 1984. – P.94.
30. Robinson W. Language and social behaviour. – Harmondsworth: Penguin, 1972. – 60 p.
31. Schegloff E.A., Jefferson G., Sacks H. The preference for self-correction in the organization of repair in conversation // Language. 1977. – P.361 – 382.
32. Searle J. Contemporary philosophy in the United States // The Blackwell companion to philosophy. – Oxford, 1996. – P.1 – 24.

Internet materiallari:

1. http://www.google.com/lib.pomorsu.ru/.../Pospelova-Filosofia_i_metodologiya_nauki.pdf
2. <http://www.google.ru>. Системавий тадқиқотлар тарихи. – Самарқанд, 2008.
3. <http://www.google.ru>. Тилнинг белгилар системаси эканлиги. – Тошкент, 2008.
4. <http://www.literature.uz>
5. <http://www.Manning C, Raghavan P., Schutze H. Introduction to Information Retrieval // Cambridge University Press. 2008. - P. 5.>
6. <http://en.wikipedia.org/wiki/Structuralism>.
7. <http://www.brocku.ca/english/courses/4F70/struct.html>.

“Tilshunoslik va tabiiy fanlar” kursi bo‘yicha ballar taqsimoti va baholash mezonlari
Reyting nazorati jadvali

Nº	Reyting nazorati shakli, ball	1-JN	2-JN	ON	YN	Jami ball
1	Maks. ball	20 (12x1.7) 1.7 (0.9+0.8*)	20 (11x1.8) 1.8 (0.9+0.9*)	30 (20+10*) (3x7)	30 (5x6=30)	100
2	Shakli:	Og‘zaki yozma, test	Og‘zaki yozma, test	Og‘zaki, yozma	Yozma	
3	Muddati (haftalarda)	10	18	9	19	

BAHOLASH MEZONLARI

Mustaqil ishni baholash mezoni

* Amaliy (seminar) mashg‘ulotlarda 50% ball mustaqil bajarish uchun berilgan og‘zaki topshiriqlar hisobidan qo‘yiladi.

* Oraliq mashg‘ulot uchun ajratilgan balldan 10 ball mustaqil bajarish uchun berilgan yozma va og‘zaki topshiriqlarga qo‘yiladi. Shundan 5 ball og‘zaki, 5 ball yozma ish (referat) ga qo‘yiladi.

Ball	Baholash mezoni
5-4 ball	Talaba fanning mohiyatini, o‘tilgan materialni chuqur tushunadi, savolga aniq va to‘liq, mustaqil fikrlab javob berganda, mavzuga ijodiy yondashsa, mohiyatni tushunib, o‘z fikrini amalda qo‘llay olsa, imlo, uslubiy xatolarga kam yo‘l qoysa, berilgan tahlillarni to‘g’ri bajsa, to‘g’ri xulosalar chiqara olsa
4-3 ball	Talaba mavzuni mustaqil fikri asosida yoritsa, savollarga umuman to‘liq javob bersa, ammo ayrim qirralar to‘la ochilmay qolsa, imlo, uslubiy xatolarga kam yo‘l qoysa, berilgan amaliy ishlarni to‘g’ri bajarsa
3-2 ball	Talaba mavzu mohiyatini tushunsa, biroq mustaqil xulosalar chiqara olmasa, o‘z fikrini og‘zaki yaxshi bayon qila olmasa, imlo, uslubiy xatolarga yo‘l qoysa, xulosalarida noaniqliklar uchrasa beriladi.

Joriy nazoratni baholash mezonlari

Ball	Baholash mezoni
34-40 ball	Talaba rejalashtirilgan joriy nazoratning barchasida faol qatnashsa; morfologiya bo‘yicha mustaqil ta‘limda o‘zlashtirishi kerak bo‘lgan adabiyotlarni topshirs; adabiyotlarni o‘zlashtirishda va amaliy, seminar mashg‘ulotlardagi savollarga javob berishda mustaqil fikr-mulohazalarga ega bo‘lsa
28-33 ball	Talaba rejalashtirilgan joriy nazoratning barchasiga qatnashsa; o‘zbek tili masalalari yoritilgan ilmiy adabiyotlarni mustaqil o‘zlashtirgan bo‘lsa; adabiyotlarni o‘zlashtirishda va amaliy, seminar mashqulotlardagi savollarga javob berishda faol ishtirop etsa.
22-27 ball	Talaba rejalashtirilgan joriy nazoratning ikkitasiga qatnashsa; adabiyotlarni o‘zlashtirishda va amaliy, seminar mashqulotlardagi savollarga javob berishda

	mustaqil fikrga ega bo'lmasa.
0-21 ball	Talaba joriy nazoratning 1 tasiga qatnashsa; morfologiya bo'limi bo'yicha savollarining ko'p qismiga javob bera olmasa; mustaqil ta'linda o'zlashtirilgan adabiyotlar bo'yicha berilgan savollarga qoniqarsiz javob bersa; ko'zda tutilgan uch joriy nazorat topshiriqlarini o'z vaqtida topshirmasa.

Oraliq nazoratni baholash mezonlari

Ball	Baholash mezoni
26-30 ball	Talaba berilgan har uch savolga to'liq javob bersa; ma'ruza mashg'ulotlarda faol ishtirok etsa, savollarga javob berishda izchillik va mantiqiylik bilan yondashsa, mustaqil fikr-mulohazalarga ega bo'lsa, nutqi ravon bo'lsa.
21-25 ball	Talaba berilgan savollarning barchasiga yetarlicha javob bersa, ayrim javoblarda noaniqlik bo'lsa, nutqi ravon bo'lsa, savol mohiyati javobda qisman ochilsa.
17-20 ball	Talaba berilgan 3 ta savolning 2 tasiga qisman javob bersa, javoblarda aniqlik sezilmasa, nutqi ravon bo'lmasa, savollarga javob berishda mustaqil fikrga ega bo'lmasa.
0-10 ball	Talaba berilgan savollarining ko'p qismiga javob bera olmasa; mustaqil ta'lif bo'yicha berilgan savollarga qoniqarsiz javob bersa, nutqi ravon bo'lmasa.

Yakuniy nazoratni baholash mezoni

Ball	Baholash mezoni
26-30 ball	savol mohiyati to'la va sifatli bayon qilingan bo'lib, mavzu boyicha talabaning fikrlashi ijodiy bo'lsa, talaba mustaqil xulosa va qarorlar qabul qilib, amalda qo'llay olsa
21-25 ball	savolning mohiyati ochilgan, to'g'ri bayon qilingan bo'lsa, talaba mavzuni mustaqil fikri asosida yoritsa, savollarga umuman to'liq javob bersa, ammo ayrim qirralar to'la ochilmay qolsa, imlo, uslubiy xatolarga kam yo'l qoysa, berilgan amaliy ishlarni to'g'ri bajarsa
17-20 ball	savollarga javoblar to'liq bo'lmay, kamchiliklari bo'lsa, talaba mavzu mohiyatini tushunsa, biroq mustaqil xulosalar chiqara olmasa, o'z fikrini yaxshi bayon qila olmasa, imlo, uslubiy xatolarga yo'l qoysa, xulosalarida noaniqliklar uchrasa
0-16 ball	savollarga javoblar to'liq bo'lmasa, talaba mavzu mohiyatini tushunmasa, mustaqil xulosalar chiqara olmasa, o'z fikrini yaxshi bayon qila olmasa, imlo, uslubiy xatolarga yo'l qoysa, xulosalarida noaniqliklar uchrasa

MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI


“CHALKASHTIRILGAN MANTIQIY ZANJIRLAR KETMA-KETLIGI” INTERFAOL METODINI QO'LLASH

O'qituvchi doskaga mavzuga doir tushinchalarini chalkashtirilgan holda yozib qo'yadi. So'ngra, ulardan ularni qaysi fanga tegishliligiga qarab tasniflashni taklif etadi.

Kategoriya, valentlik, dialektik, umumiylilik, xususiylik, sistema, derivatsiya, qolip, paradigma, sintagmatika, pradigmatika, tashbeh, tajnis, tazod, tanosib, iyhom, maydon, oraliq uchinchi, akustika, nutq apparati, o'pka, kekirdak, tilchak, tembr, chastota

Falsafa	kimyo	adabiyot	fizika	fiziologiya
Kategoriya, dialektik, umumiylilik, xususiylik, sistema, derivatsiya, paradigma, sintagmatika, pradigmatika, oraliq uchinchi	qolip, valentlik,	tashbeh, tajnis, tazod, tanosib, iyhom	maydon, akustika, tembr, chastota,	nutq apparati, o'pka, kekirdak, tilchak

«Venn» diagrammasi asosida faoliyatni tashkil etish bosqichlari



VENN DIAGRAMMASI

Venn diagrammasi bir-birini kesadigan ikki yoki undan ortiq doiralarda qo'llaniladi, ular o'rtasida yozish uchun etarli joy qolishi kerak. U g'oyalarni zidlash uchun ishlatilishi yoki ularning umumiy xususiyatlarini ko'rsatib berishi kerak.

Grafik organayzerning turi, ahamiyati va xususiyatlari: tizimli fikrlash, solishtirish, taqqoslash, tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.



O'quv faoliyatini tashkillashtirishning jarayonli tuzilmasi:

1) o'quvchilar Venn diagrammasini tuzish qoidasi bilan tanishadilar. Alovida yoki kichik guruhlarda Venn diagrammasini tuzadilar va kesishmaydigan joylarni to'ldiradilar;

2) juftliklarga birlashadilar, o'zlarining diagrammalarini taqqoslaydilar va to'ldiradilar;

3) doiralarni kesishuvchi joyida, ikki-uch doiralar uchun umumiy bo'lgan, ma'lumotlar ro'yxatini tuzadi.

VENN DIAGRAMMASI




«NIMA UCHUN?» METODI

Nima uchun sxemasi mavjud muammoni keltirib chiqargan sabablarini aniqlashga yordam beruvchi sxemadir. Sabab-oqibat qonuniga asosan muammoni keltirib chiqaruvchi sabablarni aniqlamay turib muammoni hal etish qiyin. Muammoniyechimini topish uchun uni keltirib chiqargan sababalarni aniqlash va yo'qotish talab etiladi. Talabalarda sabab-oqibat qonuniyatini asosida fikr yuritishni tarbiyalash muhim. Ushbu sxema talabalarda aynan ana shu xususiyatni rivojlantiradi. Talabalarda tizimli, ijodiy, tahliliy mushohada qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

«Nima uchun?» sxemasini tuzish qoidalari

1. Qanday pictogrammadan foydalanishni o'zingiz hal etasiz.
2. Mulohazalarning sxematik ko'rinishi qanday bo'lishini o'zingiz hal etasiz.
3. Har bir strelka fikr yo'nalishini ko'rsatishi lozim.

NIMA
UCHUN?



muammoni aniqlash, uni hal etish, tahlil qilish va rejalashtirish jarayonida

Savol: Nima uchun tilshunoslik fani yaqin tarixga qadar boshqa fanlar tarkibida o‘rganib kelingan?

“SWOT-TAHLIL” METODI

Metodning maqsadi: mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo‘llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandard tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.

S – (strength) – kuchli tomonlari

W – (weakness) – zaif, kuchsiz tomonlari

O – (opportunity) – imkoniyatlari

T – (threat) – to‘siqlar

S	Kuchli tomoni	<ul style="list-style-type: none">- muammoli ta’lim asosida talabalar bilimlarni faol o‘zlashtiradilar- mustaqil va ijodiy fikrlash qibiliyatini rivojlantiradi- mavzuning mohiyatini chuqur tushunishga yordam beradi
W	Ojiz tomoni	<ul style="list-style-type: none">- ko‘p vaqt talab etadi- alohida tayyorgarlik talab etadi- ko‘p kuch talab etadi
O	Imkoniyatlari	<ul style="list-style-type: none">- talabalar soni cheklangan bo‘lishi lozim- barcha mavzularni muammoli ta’lim asosida o‘rganish imkonini yo‘q- pedagogdan maxsus tayyorgarlikni talab etadi
T	Xavflar	<ul style="list-style-type: none">- belgilangan vaqt oralig‘ida muammoning yechimi topilmasligi mumkin- barcha talabalar faol ishtiroy etmasligi mumkin

QANDAY?

«QANDAY?» TEXNOLOGIYASI



muammoni hal etishning barcha imkoniyatlarini tadqiq etiadi va ularni amalga oshirish usullarini ham o‘rganadi

«Qanday?» iyerarxik diagrammasi

«Qanday?» iyerarxik diagrammasi asosida faoliyatni tashkil etish qoidalari:

1. Vujudga kelgan muammoni sababini aniqlash zarur, ammo ana shu muammoni qanday yo'llar bilan hal etish mumkin degan savolga javob berishni o'rganish muhim vazifalardan biridir. «Qanday?» iyerarxik diagrammasi ana shunday hollarda samarali natija beradi.

«Qanday?» iyerarxik diagrammasi muammo haqida butunligicha umumiy tasavvurga ega bo'lishga imkon beradigan savolarning mantiqiy zanjiri ko'rinishida namoyon bo'ladi.

Ketma-ket ravishda «Qanday?» savolini qo'yish orqali siz faqat muammoni hal etishning barcha imkoniyatlarini tadqiq etibgina qolmay, balki ularni amalga oshirish usullarini ham o'rganasiz.

Diagramma strategik darajadagi savol bilan ish boshlaydi. Muammoni hal etishning quyi darajasi birinchi navbatdagi harakatlar ro'yxatiga mos bo'ladi.

2. O'ylamay, baholamay va ularni o'zaro solishtirmay tezlikda barcha g'oyalarni yozish lozim bo'ladi.

3. Diagramma hech qachon tugallanmaydi: unga yangi g'oyalarni kiritish mumkin bo'ladi.

4. Agarda savol sxemada bir qancha «shoxlar»da qaytarilsa, demak u nisbatan muhimdir. U muammoni hal etishning muhim qadami bo'lishi kerak.

5. Yangi g'oyalarni qanday grafik ko'rinishda qayd etishni o'zingiz tanlab oling(daraxt, kaskad va b.) Bunda muammo shajarasi ko'z oldingizda namoyon bo'ladi.

6. To'g'ri mulohaza qilish va xulosalar chiqarish orqali muammoning yechimini topish yengil kechadi.


«FSMU» METODI

Ushbu texnologiya munozarali masalalarni xal etishda, baxs-munozaralar o'tkazishda yoki o'quv-seminari yakunida yoki o'quv rejasidagi asosida Biron bo'lim o'rganib bo'lingach qo'llanilishi mumikn, chunki bu texnologiya tinglovchilarini o'z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va o'z fikrini boshqalarga o'tkazishga, ochiq holda baxslashishga, shu bilan bir qatorda o'quvchi talabalarni, o'quv jarayonida egallagan bilimlarini tahlil etishga, qay darajada egalliklarini baholashga hamda tinglovchilarini bahslashish madaniyatiga o'rgatishga xizmat qiladi.

Texnologiyaning maqsadi: Mazkur texnologiya ishtiroychilardagi umumiy fikrlardan xususiy xulosalar chiqarish, taqqoslash, qiyoslash orqali axborotni o'zlashtirish, xulosalash, shuningdek, mustaqil ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur texnologiyadan ma'ruza mashg'ulotlarida, mustahkamlashda, o'tilgan mavzuni so'rashda, uyga vazifa berishda hamda amaliy mashg'ulot natijalarini tahlil etishda foydalanish tavsiya etiladi.

FIKR. MULOHAZA. ISBOT

FSMU



- F – Fikringizni bayon eting
- S – Fikringizni bayoniga sabab ko'rsating
- M – Fikringizga misol keltiring
- U -Fikrlaringizni

«FSMU» texnologiyasini qo'llashga oid namuna

XIX asr boshlaridan tilshunoslikni boshqa fanlardan ajratildi. Bugungi kunda kelib uning boshqa fanlar bilan aloqasi yanada chuqurlashib bormoqda. «Tilshunoslik boshqa fanlar tarkibiga kiritib yuborilishi mumkinmi?» degan savol muhokamaga qo'yilgan.

F	Fikringizni bayon eting	Bugungi kunda tilshunoslikning boshqa fanlar bilan aloqasi nihoyatda kuchayib bormoqda. Sotsiolingvistika, etnolingvistika, lingvokulturologiya, psixolingvistika, neyrolingvistika, lingvogeografiya, lingvodidaktika, areal tilshunoslik, sud lingvistikasi, antropolinguistika, matematik lingvistika, kompyuter lingvistikasi, pragmalingvistika kabi tarmoqlarning rivojlanishi tilshunoslikning boshqa fanlarga singish jarayonlarini kuchaytirmoqda.
S	Qarorning sababi	Tilshunoslik jamiyat uchun amaliy natija berishi kerak. Tilni uning egasi bilan birga o'rganish kerak. Antropotsentrik tilshunoslikning taraqqiy etishi. Shu bois amaliy tilshunoslik masalasi kun tartibiga chiqmoqda. Tilshunoslikda maydon, valentlik, derivatsiya, oraliq uchinchi, til va nutq dixotomiyasi tushunchalarining qo'llanishi shunday fikrga kelishga asos bo'lmoqda.
M	Misol	Masalan, tilshunoslikning fonetika bo'limida nutq tovushlarining akustik tomoni fizikaning akustika bo'limi ma'lumotlari asosida o'rganiladi. Nutq tovushlarning paydo bo'lishida ishtirok etadigan nutq organlarining vazifasini fiziologiya materialarisiz bayon qilish mumkin amas. Yoki nutq patalogiyasi muammolari tibbiyot fani bilan uzviy aloqada hal qilinadi.
U	Xulosa	<p>Tilshunoslikni u yoki bu fanlar sinfiga kiritishda bu fan o'rganadigan obyektning tabiatini asos qilib olinadi. Bu jihatdan uning o'rganish obyekti ham ko'p qirrali, murakkabdir.</p> <p>Birinchidan, til kishilarning eng muhim aloqa vositasi, bilimlarini saqlovchi va kelajak avlodga yetkazuvchi, kishilarga estetik zavq uyg'otuvchi qudratli vositadir. Ana shu vazifalarini e'tiborga olganda, til ijtimoiy hodisadir. Chunki u muayyan jamiyat uchun xizmat qiladi. Agar shu jamiyat bo'lmasa, uning tiliga ham zarurat bo'lmaydi. Jamiyatdagi har bir o'zgarish uning tilida o'z izini qoldiradi. Tilni ana shunday ijtimoiy mohiyat sifatida o'rganish tilshunoslikni ijtimoiy fanlar tarkibiga kiritishga asos bo'ladi.</p> <p>Ikkinchidan, mohiyatan ijtimoiy xarakterga ega bo'lgan til muayyan fizik va fiziologik jarayonlar asosida modsiylashadi. Tilning ana shu moddiylashish tomonini o'rganish tilshunoslikni tabiiy fanlar sirasiga kiritish imkonini tug'diradi. Shuning uchun ham A.A.'zamov tilshunoslikni tabiiy fanlar qatorida qaraydi.</p> <p>Uchinchidan, til va tafakkur o'zaro ajralmasdir. Til fikrni shakllantiruvchi va ifodalovchi moddiy vositadir. Bu jihatdan til va tafakkur shakl va mazmun dialektikasini o'zida namoyon etadi. Tilning ana shu jihatlarini o'rganish tomoni tilshunoslikni falsafa, mantiq, psixologiya fanlari tizimiga kiritishga asos bo'ladi.</p> <p>To'rtinchidan, til uzlusiz rivojlanib, takomillashib boruvchi hodisadir. Bu jihatdan u jonli organizmga o'xshaydi. Tilning ana shu dinamik xususiyatlarini o'rganish tomonidan tilshunoslik biologiya fanlari bilan umumiy belgilarga ega.</p> <p>Tilshunoslikda lisoniy birliklarning boshqa lisoniy birliklar bilan birikish imkoniyatlari va ushbu imkoniyatning yuzaga chiqish masalalari bilan shug'ullanuvchi valentlik nazariyasining vujudga kelishi bevosita kimyo fanining ta'siri bilan bog'liqdir.</p> <p>Keyingi davrlarda avtomatikaning rivojlanishi tilshunoslik faniga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Tilshunoslikda lingvistik modellashtirish, avtomatik tarjima muammolari paydo bo'ldi. Ana shunday muammolar tilshunoslik fanining matematika, kibernetika kabi fanlar bilan aloqasini kuchaytirdi.</p>

«BLITS - SO‘ROV» TEXNOLOGIYASI

Ushbu texnologiya biror jarayonning ketma-ketligini to‘g‘ri joylashtirishga, bu jarayon haqida guruh a’zolari va boshqa guruhlarning a’zolarini fikrlari bilan tanishishga imkon beradi.

Harakatlar ketma-ketligi aval yakka holda mustaqil ravishda belgilab, so‘ngra o‘z fikrini boshqalarga o‘tkaza olish yoki o‘z fikrida qolish, boshqalar fikri bilan tanishiga yordam beradi.

«Blits-so‘rov»
texnologiyasi



Ketma-ketlikni va
izchillikni o‘rnatishga
qaratilgan texnologiya

«BLITS - SO‘ROV» TEXNOLOGIYASI O‘TKAZISH

To‘g‘ri ketma-ketlikni o‘rnating

t/r	Grux bahosi	Grux xatosi	To‘g‘ri javob	Yakka xato	Yakka baho	Yillarning nomlanishi
1			11			Ijtimoiy himoyalash yili
2			10			Xomiyalar va shifokorlar yili
3			1			Inson manfaatlari yili
4			9			Sixat-salomatlik yili
5			2			Oila yili
6						Mehr-muruvvat yili
7			3			Ayollar yili
8			7			Obod maxala yili
9			4			Sog‘lom avlod yili
10			6			Qariyalarni qadrlash yili
11			12			Yoshlar yili
12			5			Ona va bola yili
J		« »		« »		

56 foiz to‘g‘ri javob – «qoniqarli»

71-85 foiz to‘g‘ri javob - «yaxshi»

86- 100 foiz to‘g‘ri javob - «a’lo»

“ASSESSMENT” METODI

Metodning maqsadi: mazkur metod ta’lim oluvchilarining bilim darajasini baholash, nazorat qilish, o‘zlashtirish ko‘rsatkichi va amaliy ko‘nikmalarini tekshirishga yo‘naltirilgan. Mazkur texnika orqali ta’lim oluvchilarining bilish faoliyati turli yo‘nalishlar (test, amaliy ko‘nikmalar, muammoli vaziyatlar mashqi, qiyosiy tahlil, simptomlarni aniqlash) bo‘yicha tashhis qilinadi va baholanadi.

Ma’lumki, ta’lim-tarbiya jarayonida test topshiriqlari to‘rt darajada qo‘llaniladi.

- Oson (reproduktiv) (I)** - talabalar tomonidan o‘quv materiali qayta ishlanmasdan, ularning xotirlash qobiliyatini aniqlovchi, hodisa, voqeа, qonun va atamalarning mohiyatini bilishni talab qiladigan daraja;
- O‘rtacha qiyin (produktiv) (II)** - talabalardan obyektlarni tahlil qilish, sintezlash, taqqoslash, bir nechta qonun va qonuniyatlarini bir vaqtda qo‘llab, umumlashtirish orqali xulosa yasashni talab qiluvchi daraja;

3. **Qiyin (qisman-izlanishli) (III)** – talabalar tomonidan avval o‘zlashtirilgan bilim, ko‘nikma va malakalarni yangi kutilmagan vaziyatlarda qo‘llash, obyektlarni tahlil qilish, sintezlash, qiyosiy taqqoslash, qonun va qonuniyatlarni qo‘llab, umumlashtirish orqali xulosa yasashni talab qiluvchi daraja;
4. **Eng qiyin (kreativ) (IV)** - talabalar tomonidan avval o‘zlashtirilgan bilim, ko‘nikma va malakalarni kutilmagan vaziyatlarda vujudga keltirilgan o‘quv muammolarni hal etishda qo‘llash, tahlil, sintezlash, qiyosiy taqqoslash, umumlashtirish, xulosa yasash kabi aqliy operatsiyalarni bajarishni talab qiluvchi daraja;

O‘tkazilgan ma’ruzaning samaradorligini aniqlash maqsadida ma’ruza so‘ngida mazkur mazmunni qamrab olgan 10 ta test topshiriqlari talabalarga tavsiya etiladi.

Test topshiriqlarining dastlabki 3 tasi 1-(oson) darajada, keyingi 3 tasi 2-(o‘rtacha) darajada bo‘lib, 2 tasi 3- (qiyin) darajada, qolgan 2-tasi 4-(kreativ) darajada bo‘lishi tavsiya etiladi.

Ochiq testlar

1. Tizim nima?
 - Bu savolga hozirga qadar javob berilmadi
 - Tizim va uning xususiyatlari talqini fan tushunchasi bilan tengqur deyish mumkin.
 - Sistemani vujudga keltiruvchi elementlar bir xil va turli-tuman bo‘lishi mumkin.
 - O‘zaro bog‘liq va shartlangan ikki va undan ortiq elementlarning munosabatidan tashkil topgan va yangi sifatga ega bo‘lgan barqaror butunlik
2. O‘zaro bog‘liq va shartlangan ikki va undan ortiq elementlarning munosabatidan tashkil topgan va yangi sifatga ega bo‘lgan barqaror butunlik sistemadi. Ta’rif muallifi?
 - A.Nurmonov
 - Sosyur
 - S. Boduen de Kurtene
 - D. H.Ne’matov

Yopiq testlar

1. Inson paydo bo‘libdiki, o‘zini qurshab turgan olamni va shu olamning tarkibiy qismi bo‘lgan o‘zini ham bilishga qiziqib keladi. Ana shunday qiziqish ayniqsa Qadimgi Sharq mamlakatlarida, xususan, singari mamlakatlarda kuchaydi.
 - Misr
 - Hindiston
 - Xitoy
 - Misr, Hindiston, Xitoy
2. O‘zbek tilida fan ma’nosida atamasi ham qo‘llaniladi.
 - ilm
 - adabiyot
 - tilshunoslik
 - kasb

MA’RUZA MATERIALLARI

1-ma’ruza. Kirish. Tilshunoslikning fanlar tizimida tutgan o‘rni

REJA

1. Kirish. Fan va uning paydo bo‘lishi
2. Bilish bosqichlari
3. Fanlar tizimi tushunchasi
4. Tilshunoslikning fanlar tizimida tutgan o‘rni

Tayanch tushunchalar: Fan va uning paydo bo‘lishi, bilish bosqichlari, fanlar tizimi va bu tizimda tilshunoslikning tutgan o‘rni

Inson paydo bo‘libdiki, o‘zini qurshab turgan olamni va shu olamning tarkibiy qismi bo‘lgan o‘zini ham bilishga qiziqib keladi. Ana shunday qiziqish ayniqsa Qadimgi Sharq mamlakatlarida, xususan, Misr, Hindiston, Xitoy singari mamlakatlarda kuchaydi va tabiat va jamiyatning taraqqiyot qonunlarini amaliy asosda kuzatib, bashorat qiluvchi maxsus kishilar – mutafakkirlar yetishib chiqdi. Bunday mutafakkirlarning olamni amaliy kuzatishlari natijasida chiqargan xulosalari jamlana borib matematika, astronomiya, mantiq, etika singari fanlarning asoslari paydo bo‘ldi¹.

O‘zbek tilida fan ma’nosida ilm atamasi ham qo‘llaniladi. Lekin ilm atamasining ma’nosini kengroq.

Islom Sharqida «ilm» tushunchasi ham diniy, ham dunyoviy mazmun kasb etgan. Ayni paytda ilmnинг bu ikki pallasi o‘ziga xos jihatlarga egaligi ham inkor etilmagan. Bu hakda A.A’zamov quyidagilarni yozadi: «Fan inson yashaydigan muhit – tabiat (metogalaktikadagi jarayonlardan miya faoliyatigacha) va jamiyat bilan (BMT faoliyatidan shaxs ruhiyatigacha) ish tutsa, din insonning ichki dunyosi – qalb va ruhiga taalluqlidir. Har ikki jabha ong va tafakkur ko‘priklari bilan tutashgan»²

Har qanday fan asosida kishilarning olamni bevosita kuzatishi yotadi, Inson o‘zini qurshab turgan olam uzvlarini sezgi organlari yordamida his qiladi. Boshqalariga solishtiradi, farqli va o‘xshash belgilarni aniqlaydi. So‘ngra muayyan xulosaga keladi. Demak, har bir fan insonlarining olamni kuzatishi, bilishi jarayonida, uning natijasida paydo bo‘ladi.

Fanning asosi bo‘lgan bilish uzoq vaqtlardan buyon mutafakkirlarni qiziqtirib keladi. Jumladan, bizning bobokalonlarimiz ham bu sohada o‘zlarining qimmatli fikrlarini bayon qilganlar.

Dunyo allomalari ichida ikkinchi muallim nomi bilan mashhur bo‘lgan Farobi bilishning ikki darajasini ajratadi. Xususan, u «Ilmlarning kelib chiqishi to‘g‘risida» («Ixso al-ulum») asarida ilmlarni keltirib chiqaradigan sabablar haqida fikr yuritib, quyidagilarni bayon qiladi: «Olamda substansiya (javhar) va aksidensiya (oraz) hamda substansiya va aksidensiyani yaratuvchi Marhamatli ijodkordan boshqa hech narsa yo‘qdir»³

Farobiyning javhar va oraz haqidagi bu fikri bilish nazariyasida buyuk inqilob edi. Chunki bizni qurshab turgan olam va uning unsurlari javhar va orazlarning o‘zaro dialektik munosabatidan tashkil topgandir.

Hissiy bilim bilishning asosi, tayanch nuqtasi sanaladi. U insonni qurshab turgan olam uzvlaridan har birini alohida ko‘rish, ushslash, eshitish, mazasini tatish, hidlash orqali hosil qilinadi.

Hissiy bilim bilish jarayonining markaziy nuqtasi sanalsa ham, lekin u ko‘pincha aldab qo‘yishi mumkin. Masalan, Quyosh yer atrofida aylanayotganday ko‘rinadi. Aslida esa aksincha.

Shuning uchun bizning ajdodlarimiz hissiy bilish bilan idrokiy bilishni ajratganlar. Idrokiy bilish hissiy-bilimlarni solishtirish, qiyoslash, umumlashtirish, hissiy bilimlarning hosil bo‘lishiga asos bo‘lgan orazlar (aksidensiyalar) zamirida yashiringan mohiyatni-jovharni aniqlash orqali hosil qilinadi. Masalan, tanada isitmaning ko‘tarilishini aniqlash hissiy bilim sanaladi. Lekin har qanday harorat o‘z- o‘zidan ko‘tarilmaydi. Uning ma’lum ichki sabablari bor. Ana shu sababni aniqlash

¹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. М., 1981, 194-бет

² Абдулла Аъзам. Фан ва дин: муносабат диалектикаси. Тафаккур, 1999, 1-сон, 42-бет

³ Абу Наср Фаробий. Фозил одамлар шаҳри. Тошкент, 1983, 151-бет.

isitmaga o‘xshash, u bilan bog‘liq bo‘lgan bir qancha hissiy bilimlarni solishtirish, qiyoslash, umumlashtirish orqali amalga oshiriladi va isitma nimaning tashqi alomati ekanligi aniqlanadi.

Solishtirish, qiyoslash, mantiqiy umumlashtirish orqali hosil qilingan bilim idrokiy, nazariy bilim sanaladi. Bu bilim orqali orazlar zamiridagi javhar belgilanadi. Har qanday fan ana shu bilimlarni keltirib chiqaradi.

Bundan ko‘rinadiki, hissiy (fahmiy) bilim tajriba, amaliyat, bevosita kuzatish bosqichi sanalib, haqiqiy nazariy (idrokiy) bilim amaliy bilimlarning o‘zaro munosabatini o‘rganish, umumlashtirish orqali hosil qilinadi va bu bilimga ega bo‘lish har qanday fanning bosh maqsadi sanaladi.

Bilishning bu ikki bosqichi hozirgi davrda barcha fan vakillari tomonidan e’tirof qilinadi. Ana shu ikki bosqich haqida ilk marta ma’lumot bergen bobokalonimiz Abu Nasr Farobiyan har qancha faxrlansak arziydi.

Har bir fan kishilarning amaliy ehtiyoji tufayli vujudga keladi. Buyuk ajdodimiz Abu Rayhon Beruniy ham «Geodeziya» asarining kirish qismida har bir fanning inson hayotidagi zaruriy ehtiyojlar tala- bi bilan vujudga kelishini aytadi.

Tizim nima? Bu savolga hozirga qadar turlicha javoblar beriladi.

Tizim va uning xususiyatlari talqini fan tushunchasi bilan tengqur deyish mumkin. Zero, to‘laqonli fan o‘rganish obyektiga sistema sifatida yondashib, u yoki bu darajada uning makrosistemada tutgan o‘rni, elementlari tasnifi va tavsifi bilan shug‘ullanadi.

Sistemani vujudga keltiruvchi elementlar bir xil va turli-tuman bo‘lishi mumkin. Bir xil elementlarning sifati va xususiyatlari o‘xshash. Turli-tuman elementlar esa, aksincha, bunday o‘xshashlikka ega emas.⁴

Sistema haqidagi ilk tasavvurlar antik falsafada shakllangan. Yunon falsafasi va fanida sistema tushunchasi bilimlarga nisbatan qo‘llanilgan (Yevklid, Platon, Aristotel va b.). Keyinchalik bu tushunchani B.Spinosa va G.Leybnits rivojlantirib, umuman borliqqa nisbatan tatbiq qilishgan.⁵

Ko‘rinadiki, sistema leksemasi dinamik konsept sifatida «borliq haqidagi bilim» mohiyatidan «yaxlitlik» mohiyatiga chuqurlashgan. Har ikkala holatda ham «yaxlitlik» ko‘zga tashlanadi. Birinchi holatda borliq in’ikosining yaxlitligi, ikkinchi holatda esa borliqning o‘zining yaxlitligi nazarda tutiladi. Shu asosda sistema tushunchasiga kognitiv nuqtai nazardan yaxlitlik konsepti bilan ham ma’nodosh birlik sifatida qarash mumkin.

Sistema konsepti, bir tomondan, unsur, munosabat konseptlari bilan, boshqa tomonдан esa sistem, sistemaviy, sistematika, sistemalashtirish tushunchalari bilan ma’noviy va konseptual uyg‘unlik kasb etadi.

Demak, sistema leksemasining sanalgan shakllari munosabat turi uning konseptual mohiyatini tavsiflashda asos bo‘lib xizmat qiladi:

- 1) «sistema» ↔ «bilim»;
- 2) «sistema» ↔ «yaxlitlik»;
- 3) «sistema» ↔ «unsur» ↔ «munosabat»;
- 4) «sistema» ↔ «sistemaviy» ↔ «sistemalashtirish» ↔ «sistematika» ↔ «sistemalogiya».

Prof. A.Nurmonov til tizimi ta’rifidagi umumiylar xulosalariga tayangan holda: «O‘zaro bog‘liq va shartlangan ikki va undan ortiq elementlarning munosabatidan tashkil topgan va yangi sifatga ega bo‘lgan barqaror butunlik sistema sanaladi... Sistemaning muhim belgilari: 1) tarkibiy qismlarga bo‘linish; 2) tarkibiy qismlarning butun tarkibidagi o‘zaro va butun bilan bo‘lak, tur bilan jins o‘rtasidagi shartlangan munosabatning bo‘lishi; 3) ko‘pincha butunning tarkibiy qismlarida mavjud bo‘lmagan yangi sifatga ega bo‘lishidir»⁶, – deb ta’kidlasa, prof. A.Hojiyev o‘zbek tilshunosligida til sistemasining shakllanishi bilan bog‘liq hodisalarning mohiyati yetarli darajada yoritilmaganligini va bu bo‘yicha bildirilgan fikrlarni tahlil qilib, o‘z xulosasini bildiradi: «Sistemaning asosi, muhim xususiyati bir xil qiymatga ega bo‘lgan til birliklarining muayyan belgi asosida birlashuvidan tashkil

⁴ Бушуй Т.А., Сафаров Ш.С. Тил қурилиши: таҳлил методлари ва методологияси. – Тошкент: Фан, 2007. – Б.29.

⁵ Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. 7-жилд. – Тошкент: ЎЗМЭ, 2004. – Б.654.

⁶ Нурмонов А., Шахобиддинова Ш., Искандарова Ш., Набиева Д. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Морфология. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2001. – Б.7.

topgan butunlik bo‘lishidir, bu birliklar sistemani tashkil etuvchilar hisoblanadi. Shu bilan birga, o‘ziga xos mohiyat bilan bir til birligi ham muayyan sistemaga mansub bo‘ladi».⁷

Albatta, «sinergetikaning urflashuvi, uning erkin talqin qilinishi biroz ranjitudigan holatda, albatta. Ammo tarix bunday modalardan ko‘pini ko‘rgan: kibernetika, dialektika, sistem tahlil, nisbiylik nazariyasi, XVIII asrga o‘tadigan bo‘lsak, Volterning yangi mexanika haqidagi salon oqshomlari, hatto «Nyuton xonimlari» jamiyati pirovardida Nyuton ibtidolarining Yevropa universitetlari kurslariga kiritilishiga olib keldi. Moda, albatta, o‘tib ketadi, madaniyat asoslariga sinergetika tili tamoyillari ham joylashadi, vaqt esa tushunmaslik saroqlarini bartaraf qilib boradi».⁸

«O‘zbek tilining izohli lug‘ati»da sistema leksemasining 10 ta sememasini ajratilgan bo‘lib, bu ma’nolar ham uning konseptual mohiyatini ochishda muhim rol o‘ynaydi:

«SISTEMA [юн. *systema* – yaxlit; qismlardan tarkib topgan] 1. Ish-harakat, turli jarayon va sh.k.larda qismlarning o‘zaro joylashishi va bog‘liqligidagi tartibot, tizim. 2. Narsa, hodisa va tushunchalarning tasnifi. Linneyning botanik sistemasi. 3. Biror ta’limotda asos bo‘lgan qoidalar, qarashlar, tamoyillar majmui. Dekartning falsafiy sistemasi. 4. Biror ish metodlari, tartib-usullari majmui. Davolash sistemasi. Ta’lim-tarbiya sistemasi. 5. Qonuniy tartibda joylashgan va o‘zaro uzviy bog‘langan qismlardan, elementlardan tarkib topgan butunlik. Tilning tovush sistemasi. Terminologik sistema. Qon tomirlar sistemasi. 6. Vazifalariga ko‘ra bir xil yoki tashkiliy jihatdan bir butun bo‘lib birlashgan tashkilotlar yoki muassasalar majmu. Xalq maorifi sistemasi. Fanlar akademiyasi sistemasi. 7. Bir maqsad, ayni bir ish, vazifani bajarish uchun belgilangan moslama. Mashina, mexanizm va sh.k.dan tarkib topgan yaxlit texnik qurilma. Isitish sistemasi. Energetik sistema. Sug‘orish sistemasi. 8. Biror ishni tashkil etish, uyushtirish yoki amalga oshirish shakli, prinsipi. Saylov sistemasi. Mehnatga haq to‘lash sistemasi. 9. Ijtimoiy tuzum, ijtimoiy qurilish shakli. 10. Meyoriy, odatiy, muntazam tusga kirgan, shu tarzda amalga oshadigan ish-harakat, jarayon. Ertalabki gimnastika o‘ziga xos sistemaga aylandi.⁹

“Sistema nima ekanligiga javob berishdan oldin buning qanday muhim belgilardan iborat ekanligiga e’tibor bermoq lozim” – deydi professor A.Nurmonov¹⁰.

Shunday qilib, bir-birini taqozo etuvchi ikki va undan ortiq unsurlarning o‘zaro shartlangan munosabatidan tashkil topgan butunlik sistema sanaladi.

Bu jihatdan fan ham sistemadir. Chunki u ham ichki bo‘linuvchanlik xususiyatiga ega. Shu bilan fanni tashkil etgan har bir uzb o‘zaro shartlangan munosabatda. Bir fan turining mavjud bo‘lishi ikkinchi fanning bo‘lishini taqozo etadi. Masalan, geometriya arifmetika bilan uzviy aloqada. Geometriya va arifmetikasiz astronomiyaning bo‘lishi mumkin emas va h. k.

Fan sistema (butunlik) sifatida ichki bo‘linish xususiyatiga, ya’ni ichki tuzilishga ega. Uning ichki tuzilishi pog‘onalidir. Fan avvalo yo‘nalishlarga, yo‘nalish tarmoqlarga, tarmoqlar yana kichik ixtisosliklarga bo‘linadi.

Bu bo‘linishning har biri bir pog‘onani hosil qilib, keyingi bo‘linishlar uchun kichik sistema vazifasini o‘taydi. Masalan, avvalo, tabiiy fanlar, ijtimoiy-gumanitar fanlar, texnika fanlari kabi yo‘nalishlarga bo‘linadi. Tabiiy fanlar fanlar sistemasida o‘zaro munosabatda bo‘lgan bir necha bo‘laklarning bittasi sifatida sistema elementi sanalsa, keyingi bosqichida, tabiiy fanlarning o‘zi fizika-matematika, kimyo, biologiya, mexanika, texnika kabi fan tarmoqlarini o‘z ichiga olib, bu fanlar uchun sistema rolini o‘taydi. Fizika-matematika fanlari fizika va matematika fanlariga bo‘linadi. Fizika va matematika o‘zi ham yana ichki bo‘linishga ega. Masalan, matematika: matematik tahlil, geometriya, ehtimollar nazariyasi, algebra va sonlar nazariyasi kabi ixtisosliklarga bo‘linadi. Fanlar sistemasida ma’lum fan tarmog‘i bilan munosabatda bo‘lmagan biror bir tarmoq mavjud emas¹¹.

Yuqorida bayon qilinganlar asosida fanlar sistemasini quyidagi chizmada ifodalash mumkin.


⁷ Ҳожиев А. Ўзбек тили морфологияси, морфемикаси ва сўз ясалишининг назарий масалалари. – Тошкент: Фан, 2010. – Б.15.

⁸ www.google.com/lib/pomorsu.ru/.../pospelova-Filosofia_i_metodologiya_nauki.pdf

⁹ Ўзбек тилининг изохли лугати. 5 жилдлик. 3-жилд. – Тошкент: ЎзМЭ, 2007. – Б.526.

¹⁰ Nurmonov A. Tilshunoslik va tabiiy fanlar /Tanlangan asarlar. 3 jild. 1-jild. – Toshkent, 2012, 48-123-b.

¹¹ Nurmonov A. Tilshunoslik va tabiiy fanlar /Tanlangan asarlar. 3 jild. 1-jild. – Toshkent, 2012, 48-123-b.



Hozirgi kunda mustaqil Respublikamizda yigirmadan ortiq fanlar tarkibiga kirgan besh yuz saksondan ortiq ixtisosliklar bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqsa.

Bir obyekt hozirgi kunda bir necha fanlarning oralig'ida o'rganilishi lozim bo'ladi. Demak, ma'lum bir fan boshqa tutash fanlarsiz to'laqonli muvaffaqiyatga erisha olmaydi.

Sistemaviy talqinlarda sistemaning ikki ko'rinishi farqlanadi:

- a) ideal sistema;
- b) moddiy sistema.

Ideal sistemalar ongda mavjudligi bilan xarakterlanadi. Bundagi ideal sistema atamasi ko'pincha tushunchalar majmuiga nisbatan ishlataladi. Masalan, g'oyalar sistemasi, terminlar sistemasi, obrazlar sistemasi va b. Ammo shunday sistemalar ham mavjudki, ular faqat ijtimoiy ongda sistema sifatida mavjud bo'ladi va ongdan tashqarida boshqa sistemalar tarkibida yashaydi. Masalan, unlilar sistemasi, kelishiklar sistemasi, so'z turkumlari sistemasi kabilar. Bu sistemalar ham, aslida, ong mahsuli. Agar ong mahsuli bo'liganida edi, birinchidan, ularning sistemaviy xususiyatlari, elementlari va ularning tasnifiga doir turlicha qarashlar mavjud bo'lmas edi. Ikkinchidan, bunday sistemalar faqat ongimizdagina tizim sifatida tasavvur qilinadi. Ongdan tashqarida shu holicha mavjud emas. Masalan, aslida, 6 ta unli fonemadan iborat unlilar sistemasi borliqda mavjud emas. U inson tasavvuri mahsuli bo'lgan abstrakt sistema, xolos. Shuningdek, obyektiv sistemalar har xil (turli jinsli) unsurlardan tashkil topishi shart. Masalan, Men o'qiyman gapi sintaktik sistema sifatida ega va kesim degan ikki jinsli unsur hamda ular orasidagi munosabatdan tashkil topgan. Ongdagagi abstrakt sistema unsuri sifatida esa men olmoshi kishilik olmoshlari, o'qi fe'llar tarkibida bo'ladi va b. Shu ma'noda yuqorida ma'noviy izohda 1-(ish-harakat, turli jarayon va sh.k.larda qismlarning o'zaro joylashishi va bog'liqligidagi tartibot, tizim), 5-(qonuniy tartibda joylashgan va o'zaro uzviy bog'langan qismlardan, elementlardan tarkib topgan butunlik. Tilning tovush sistemasi. Terminologik sistema. Qon tomirlar sistemasi), 7-(bir maqsad, ayni bir ish, vazifani bajarish uchun belgilangan moslama. Mashina, mexanizm va sh.k.lardan tarkib topgan yaxlit texnik qurilma. Isitish sistemasi. Energetik sistema. Sug'orish sistemasi), 9- (ijtimoiy tuzum, ijtimoiy qurilish shakli) ma'nolar bevosita real, obyektiv sistemalar tavsifini o'zida aks ettiradi.

Demak, abstrakt va konkret sistemalarning farqi dastlab ular unsurlarining gomogen (bir jinslilik) va geterogen (turli jinslilik) belgisi bilan xarakterlanadi.

Munosabat – sistemaning asosiy sharti. U ziddiyat va bog'liqlik ko'rinishlarida namoyon bo'ladi. Munosabatlarning bunday farqlanishi yana sistemaning abstraktligi va konkretligi, ong mahsuli ekanligi yoki obyektiv mavjudligi bilan belgilanadi.

Amerika pragmalingvistikasi adabiy tilning jonli shakli – og'zaki nutqqa asosiy etibor qaratdi va etnomadaniy omillarga, tabiiy va jonli muloqotga asoslandi. Amerika pragmalingvistikasi asosini ko'proq jonli muloqot tahlili tashkil qiladi. Ularda lisoniy imkoniyat va

uning nutqiy voqelanishi bir-biriga bog'lanmaydi, balki faqat muloqot birliklari bilan lisoniy shaxs va muloqot vaziyati yaxlitligi o'rganish obyekti sifatida olinadi. Goffman, Saks, Schegloff va Jeffersonning ishlari¹² buning yorqin dalilidir.

Tilshunoslikning fanlar tizimida tutgan o'rni. Hali tilshunoslik alohida fan bo'lib ajralib chiqmasdan oldin, unga tegishli muammolar falsafa tarkibida o'rganildi. Xususan, antik davr va o'rta asrlarda til masalalari falsafa tarkibida o'rganildi. Arastu, Aflatun, Farobi singari olimlarning til muammolari bilan shug'ullanishlari ana shu aspektda olib borildi.

Arab tilshunosligida o'rta asrlardayoq tilshunoslik falsafadan ajratildi. Tilshunoslikning leksikografiya, etnografiya, grafika kabi sohalari bilan shug'ullanadigan alohida mutaxassislar dunyoga keldi. Lekin bularning hammasi umumiy filologik yo'nalishda olib borildi.

Tilshunoslik mustaqil fan sohasi sifatida XIX asrdagina ajralib chiqsi. Lekin uning falsafa, psixologiya, mantiq fanlari bilan uzviy aloqadorligi saqlanib qoldi. Shuning uchun ham umumiy va qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning asoschilari bo'lgan Yakov Grimm, Rasmus Rask, Vilhelm Humboldt singari olimlar bir vaqtning o'zida yirik filosof ham edilar. Shu bilan birgalikda barcha ko'zga ko'ringan filosoflar tilshunoslik masalalari yuzasidan ham bahs yuritdilar. Ulardan J. Russo, V. Chernishevskiy singarilarni ko'rsatishimiz mumkin. Tilshunoslik va falsafaning bunday zinchaloqada o'rganish har ikki fanni boyitish uchun katta xizmat qilsa ham, lekin ularning aniq chegarasini belgilash, o'ziga xos xususiyatlarni chuqur tahlil etish uchun halaqit berar edi. Natijada tilshunoslik va falsafa mustaqil va, ayni paytda, aloqador fanlar sifatida o'rganila boshlandi.

Tabiiy fanlarning rivojlanishi, bu fanlarda ulkan kashfiyotlar qilinishi natijasida, tilshunoslikni ham tabiiy fanlar qatoriga kiritish, bu fan o'rganuvchi tilni esa biologik hodisa sifatida qarash holatlari vujudga keldi. Xususan, XIX asrning o'talarida Ch. Darwin ta'lomi asosida tabiatshunoslik fanlarining gullab-yashnashi davrida darvinizmning tilshunoslikka ham ta'siri kuchaydi. Tilshunoslikda nemis olimi A. Shleyxer rahbarligidagi naturalistik yo'nalish maydonga keldi. Bu yo'nalish tarafdarları biologiya qonunlarini tilning ichki tuzilish tarixi taraqqiyotiga nisbatan qo'llashga harakat qildilar. Tilni biologik hodisa, tilshunoslikni esa biologiya fanlari tarkibidagi fan sifatida qarashga urindilar. Natijada tilshunoslik tabiatshunoslik fanlarining asi- rida qoldi.

XIX asr boshlaridan esa tilshunoslikni boshqa fanlardan ajratishga, uning tadqiqot obyektini aniq belgilashga e'tibor qaratildi. Bunday harakat ayniqsa mashhur shveytsar olimi Ferdinand de Sossyur asarlarida yorqin o'z ifodasini topdi. Uning tilni «o'zida va o'zi uchun» o'rganish lozim, degan shiori ana shu harakatning yorqin ifodasidir.

F. de Sossyur lingvistikani tashqi va ichki lingvistikaga ajratgani holda, til bilan aloqador hodisalarni tashqi lingvistikaning o'rganish obyekti hisobladi. Masalan, tilning shu til egasi bo'lgan jamiyatning madaniyati, tarixi, tafakkuri va boshqalar bilan munosabati. Tilning ichki tuzilishi, tuzilish birliklari o'rtasidagi munosabatlari va ularning o'ziga xos xususiyatlari kabi masalalar ichki lingvistikaning o'rganish obyekti sifatida ajratildi. U tilshunoslarni ichki lingvistikadan tashqariga chiqmaslikka chaqirdi. Ana shu da'vat asosida tilshunoslik tarixida struktur tilshunoslik deb yuritiluvchi yo'nalish dunyoga keldi.

Shu bilan birga F. de Sossyur tilni belgilar sistemasi deb hisoblaydi va lingvistik belgilarning boshqa belgilar bilan umumiy jihatlari mavjudligini ta'kidlagan holda, umuman, belgilarni o'rganuvchi alohida fan tarmog'i – semiologiya bo'lishi lozimligini ta'kidlaydi. Demak, tilshunoslik ham semiologiya (semiotika) fanlari tarkibiga kiritiladi.

Struktur tilshunoslik vakillari ichki lingvistika doirasida faoliyat ko'rsatishi bilan umumiyligini tashkil etsalar ham, lekin ular tilning ichki tuzilishi birliklarining qaysi jihatlariga ko'proq e'tibor berishlari nuqtai nazaridan o'zaro farq qiladilar. Xususan, Praga tilshunoslik maktabi vakillari struktur birliklarning funksional tomoniga, Kopenhagen maktabi vakillari esa ularning immanent (zotiy) tomoniga ko'proq e'tiborni qaratdilar.

¹² Schegloff E.A., Jefferson G., Sacks H. The preference for self – correction in the organization of repair in conversation // Language. 1992. – P.361 – 382.

Strukturalistlar tadqiqotning yangi metodlarini qidirdilar. Bu yo‘lda fizika va matematikaning tadqiqot metodlariga yaqinlashishga harakat qildilar. Natijada fizika va matematikaning tadqiqot usuliga bir qadar yaqin keladigan yangi tadqiqot sistemasini yaratdilar.

So‘nggi davrlarda axborot nazariyasining kuchayishi, avtomatik tarjimaning kengayishi natijasida ayrim g‘arbiy Ovrupo olimlari tilshunoslikni aniq fanlar – texnika fanlariga kiritishga urinish hol-lari sezilmoqda.

Til o‘zi bilan bog‘liq bo‘lgan bir qancha hodisalar bilan qanchalik uzviy aloqada bo‘lmasin, u eng avvalo, ijtimoiy hodisadir. Chunki u jamiyatning aloqaaralashuv ehtiyojini qondirish galabi bilan yuzaga kelgan va ana shu jamiyatning taqsiri, tarixiy taraqqiyoti, turmush tarzi, madaniyati va hokazo bilan bog‘liq ravishda rivojlanadi. Shunday ekan, uning ijtimoiy fanlar sirasiga kirishi tabiiydir. Shu bilan birga, boshqa ijtimoiy fanlardan farqchi ravishda tabiiy fanlar bilan tutash nuqtalari mavjudsir. Demak, ijtimoiy fanlar sistemasida tilshunoslik chegara o‘rinni egallaydi. Bu chegara tabiiy fanlar bilan ijtimoiy fanlarning oralig‘ini tashkil etadi.

Mustahkamlash uchun savollar

1. Fanning paydo bo‘lishi haqida ma’lumot bering
2. Bilish bosqichlari
3. Fanlar tizimi tushunchasi
4. Tilshunoslikning fanlar tizimida tutgan o‘rni haqida ma’lumot bering

2-ma’ruza. Tilshunoslik va ijtimoiy fanlar. Tilshunoslikning falsafa bilan munosabati

Reja

1. Tilshunoslikning ijtimoiy fanlar – falsafa, mantiq, adabiyot, psixologiya, sotsiologiya, etnografiya, tarix bilan aloqasi.
2. Tilshunoslik va falsafa munosabati.
3. Til birliklariga substatsional yondashuv.
4. Tilga sistemaviy yondashuv.
5. Dialektik kategoriylar.

tayanch tushunchalar: tilshunoslikning ijtimoiy fanlar – falsafa, mantiq, adabiyot, psixologiya, sotsiologiya, etnografiya, tarix bilan aloqasi. Tilshunoslik va falsafa munosabati. Til birliklariga substatsional yondashuv. Tilga sistemaviy yondashuv. Dialektik kategoriylar.

Bizni qurshab turgan olam sistemaviy xususiyatga ega bo‘lganidek, olamning bir uzviy qismi bo‘lgan insoniyat olami ham sistemadir. Avvalo, insoniyat olami insonlar va ularning o‘zaro munosabatidan tashkil topadi. Demak, insoniyatni tashkil etgan inson o‘zi alohida yashay olmaydi. Inson boshqa inson bilan munosabatda yashaydi. Ana shu munosabat ijtimoiy, ya’ni insonlar munosabatidan tashkil topgan muayyan jamiyatga xos munosabatlar sanaladi.

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy munosabatlarni o‘rganuvchi fanlar ijtimoiy fanlar hisoblanadi. Shu bilan birgalikda ma’lum jamiyatga xos individlarning o‘ziga xos ruhiyati, badiiy-estetik olami, nutqiy xususiyati kabi jihatlari borki, bu tomonlar gumanitar fanlarning gekshirish obyekti sanaladi.

Ijtimoiy fanlar bilan gumanitar fanlar o‘rtasida katta to‘siq, chegara mavjud emas. Ayni bir fan ham ijtimoiy va ham gumanitar fanlarga aloqador bo‘lishi mumkin. Masalan, tilshunoslik tilning aloqa vositasi sifatidagi vazifasini, ijtimoiy mohiyatini ochish bilan ijtimoiylik xususiyatiga ega bo‘lsa, muayyan individ nutqining o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish bilan gumanitarlik kasb etadi. Shuningdek, psixologiya ham individual shaxslar psixologiyasini o‘rganish bilan birgalikda jamiyatga xos bo‘lgan umumiyl psixologiyani ham o‘rganadi (etnopsixologiya). Bu esa ijtimoiy fanlar bilan gumanitar fanlar o‘rtasida o‘zaro zinch aloqa mavjud ekanligini, ularni bir-biridan ajratib bo‘lmasligini ko‘rsatadi. Shu bois har ikki tarmoq birlashtirilib, ijtimoiy-gumanitar fanlar deb yuritiladi¹³.

¹³ Nurmonov A. Tilshunoslik va tabiiy fanlar /Tanlangan asarlar. 3 jild. 1-jild. –Toshkent, 2012, 48-123-b.

Ijtimoiy fanlar tarkibiga, falsafa, mantiq, iqtisodiy nazariya, pedagogika, psixologiya, tarix, adabiyot kabi bir qancha fanlar kiradi.

Tilshunoslik ijtimoiy fanlar sistemasiga mansub bo'lib, bu sistema tarkibidagi barcha fanlar bilan muayyan munosabatdadir. Til o'zi bilan bog'liq bo'lgan bir qancha hodisalar bilan qanchalik uzviy aloqada bo'lmasin, u, eng avvalo, ijtimoiy hodisadir. Chunki u jamiyatning aloqa-aratashuv ehtiyojini qondirish ta-labi bilan yuzaga kelgan va ana shu jamiyatning taqsiri, tarixiy taraqqiyoti, turmush tarzi madaniyat va hokazolari bilan bog'liq rivojlanadi.

Tilshunoslik va falsafa. Har qanday fan amaliy bilish ustiga qo'yilgan nazariy bilishga asoslanadi. Bilish esa falsafa fanining asosi sanaladi. Nazariy falsafa asoschisi Kant uning o'rganish predmeta narsalar (tabiat va jamiyat) emas, balki insonning bilish faoliyatini ilmiy tekshirishdan, inson aqliy faoliyatini aniqdashdan iborat ekanligini ta'kidlagan edi.

Falsafa insonning o'z mohiyatini anglashi, bor- liqning turli sohalariga oid bo'lgan hodisa va voqealar haqida, ularning tub mohiyatini ifodalaydigan umumiylar xulosalar chiqarishi demakdir. Falsafiy tafakkur olamdag'i narsa va hodisalarni fikrda umumlashtirib, o'zaro bog'liqlikda va rivojlanishda o'rganish, ularning mohiyatini chuqurroq va to'laroq bilishdir¹⁴. Фалсафанинг марказида борлик ва уни билиш муаммоси ётади.

Til ham borliqsagi kishilarning aloqa vositasi sifatida inson bilimiga beriladi. Shunday ekan, har qanday fan, jumladan, tilshunoslik ham falsafa bilan uzviy bog'lanadi. Barcha fanlar kabi tilshunoslik uchun ham u yoki bu falsafiy yo'nalish tadqiqot metodologiyasi bo'lib xizmat qiladi.

Tilshunosning o'z tadqiqoti yuzasidan qanday xulosaga kelishi, ilmiy haqiqatni qay darajada obyektiv ochib berishi uning qanday falsafiy yo'nalishga asoslanishiga bog'liq. Shuning uchun ham har bir tilshunos muayyan falsafiy yo'nalishga asoslanmog'i lozim.

Masalan, G'arbiy Ovro'pada umumiylar tilshunoslikning otasi hisoblanuvchi Vilgelm Humboldt tadqiqotlari uchun I. Kant va Hegel falsafasi metodologik asos bo'lib xizmat qildi.

I. Kantning falsafiy qarashlari «Sof aql tanqidi», «Amaliy aql tanqidi» va «Hukm qobiliyati tanqidi» kabi asarlarida o'z ifodasini topgan. I. Kantning ta'kidlashicha, bizning ongimizdan tashqarida, u iga bog'liq bo'lmasligi haqida takror-takror fikr bildiradi. Tilning «xalq ruhi» bilan aloqadorligi va hatgo tengligini ta'kid-lagan holda, bu aloqadorlik tushuntirib bo'lmaydigan sir ekanligini ko'rsatadi.

V. Humboldgning lingvistik ta'limotida I. Kantning ana shu qarashi markaziy o'rinni egallaydi. U tilning u yoki bu hodisalarining bilib bo'lmasligi haqida takror-takror fikr bildiradi. Tilning «xalq ruhi» bilan aloqadorligi va hatgo tengligini ta'kid-lagan holda, bu aloqadorlik tushuntirib bo'lmaydigan sir ekanligini ko'rsatadi.

I. Kantning falsafa tarixidagi katta xizmati shundaki, u obyektiv olamdag'i narsa va hodisalarni o'zaro aloqadorlikda ekanligini ta'kidlaydi va bu aloqadagi har bir narsa va hodisa uzuksiz ichki rivojlanishda janligini, rivojlanish ichki ziddiyatlarga asoslani-shini, aqd tabiatan ziddiyatli xarakterga ega, shuning uchun dialektik zidsiyatlar zarurligini ko'rsatadi.

I. Kantning bu g'oyalaridan ilhomlangan V. Humboldt tilning sistema ekanligini, til sistemasi tarkibidagi har bir a'zo o'zaro munosabatda ekanligini va sistema a'zolari o'rtasida ziddiyatli munosabat mavjudligini, ana shu ziddiyat har qanday taraqqiyotning asosi ekanligini bayon qiladi. Shu asosda V. Humboldt o'zining lingvistik antinomiya haqidagi ta'limotini yaratdi.

Mashhur nemis filosofi A. Hegelning «Rux fenomenologiyasi» asarida bayon qilingan mutloq ruh haqidagi g'oyasi ham V. Humboldtga katta ta'sir qildi. Hegelning fikricha, dastlab olam va tafakkur ayniyati bo'lgan na bu ayniyat dunyoning substansional (zotiy) asosini gashkil etgan. Tafakkur faqat subyektiv inson faoliyatigina emas, balki obyektiv mohiyag, barcha mavjudotning birlamchi manbai bo'lgan. Tafakkur modda, tabiat holida o'zini «begonalashtiradi». «Absolyut g'oya»ning oliy taraqqiyot bosqichi «absolyut ruh», ya'ni insoniyat, insoniyat tarixi sanaladi.

Hegelning bu g'oyasi ta'sirida V. Humboldt tilning «xalq ruhi» ekanligi haqidagi fikrlari dunyoga keldi.

¹⁴ Фалсафа. Э. Ю. Юсупов таҳрири остида. Тошкент, 1999, 7-бет.

Hegel tarixiy jarayonining dialektik xarakterini tadqiq qilar ekan, til taraqqiyotiga alohida ahamiyat beradi. U tilni nazariy aqdning yaratuvchisi hisoblaydi. Chunki til uning tashqi ifodasi sanaladi. Shu bois Hegel til taraqqiyotini ikki bosqichga bo'ladi:

1. hali tili rivojlanmagan holatida bo'lganda, bu tilda gaplashuvchi etnik guruhlar taraqqiyotning yuqori bosqichiga erishdilar;
2. jamiyat va davlat madaniy taraqqiyotga erishuvi natijasida uning tili kambag' alroq bo'ldi¹⁵.

Hegelning til taraqqiyotini bunday ikki davrga ajratishi V. Humboldtga katta ta'sir etdi. V. Humboldt Hegelning yuqoridagi g'oyasi asosida tillarni ikki guruhga - takomillashgan va takomillashmagan tillarga bo'ladi. U tillarni bunday ikki guruhga ajratishda muayyan xalqning o'z tilida obyektiv borlijni yoki subyektiv faoliyatni ifodalay olish imkoniyatiga asoslanadi. Uning fikricha, barcha tillar bir xil qurilishga ega bo'lishi mumkin emas. Chunki bu til egalari va ularning yashash sharoiti bir xil emas. Bundan tashqari turli xalqlarda tilning ichki shakli bilan moddiy (tovush) tomonini sintezlashtirish shakli va darajasi turlicha. Tillarni yuqoridagi kabi ikki guruhga ajratishda tillarning ichki shakli bilan moddiy tomoni o'rtasidagi sintezlanishi darajasi asos qilib olinadi.

V. Humboldtning e'tirof etishicha, takomillashmagan tillarda gaplashuvchi xalqlarda tilning ichki shakli bilan moddiy tomoni o'rtasida sintezlashish darajasi yoki tabiatan kuchsiz, yoki ma'lum holat ta'sirida buziladi. Til qurilishi oliy darajada takomillashgan tillarda esa til va tafakkur harakatining to'liq qo'shilushi kuzatiladi. Ana shunday qarash asosida, V. Humboldt flektiv tillarni takomillashgan, agglyutinativ va inkorporatsiyali tillarni esa takomillashmagan tillar deb hisoblaydi. Shu bilan birga u tilni xalqning aqliy taraqqiyotini ko'rsatuvchi vosita sifatida, tilning yuqoridagi ikki shaklidan qaysisiga mansubligiga ko'ra bu tillarda gaplashuvchi xalq larni ham aqliy rivojlangan va rivojlanmagan xalqlarga bo'ladi. Bu esa V. Humboldt falsafiy qarashidagi cheklanganlikning yorqin ifodasi, Hegel falsafasi- dagi eng ojiz tomonning ta'siri natijasidir.

Bu shuni ko'rsatadiki, tilshunosning qay darajada obektiv haqiqatga erishuvi uchun qanday falsafiy dunyoqarashga tayanishi muhim hisoblanadi.

O'zbek tilshunosligida Sho'rolar davrida marksistik ta'limot metodologik asos qilib olindi. Bu ta'limotning juda ko'p jihatlari Kant va Hegel falsafasidan olingan bo'lsa ham, lekin moddiy borliqda nima birlamchi - ongmi yoki materiyami degan savol falsafaning bosh masalasi sifatida qo'yildi va materianing birlamchi ekanligi g'oyasi olg'a surildi. Shunga kura filosoflar ham ikki guruhga - materialistlar na idealistlarga ajratildi.

Falsafa tarixida minglab yillar davomida shakllanib, rivojlanib kelgan, bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan turli ta'limotlar suniy ravishda materializm va idealizm oqimlariga bo'lib yuborildi.

Insoniyatning ilmiy, ma'naviy, ijtimoiy kamolotiga katta hissa ko'shgan olimlarning merosi chekkaga uloqtirildi. Istiqlol qo'lga kiritilgandan so'ng milliy madaniyatimiz, milliy an'analarimiz, boy ma'naviyatimizni tiklashga jiddiy e'tibor berila boshlandi. Shunday ekan, ilmiy tadqiqotlarning kompasi vazifasini bajaruvchi metodologik asosni ham qayta ko'rib chiqish nayti keldi. Bizning mafkuramiz fikrlar xilma-xilligi, erkin fikrlashga keng yo'l ochgan mamlakatimiz nstiqololiga xizmat qiladigan g'oyalari tizimidan iborat bo'lishi kerak. Chunki fikrlar xilma-xilligi rivojlanish asosidir. Shuning uchun birorta falsafiy sistema bizning yagona mafkuramiz manbai bo'la olmaydi¹⁶.

Ajdodlarimiz uchun ulkan kashfiyotlar qilish im-koniyatini yaratib bergen va g'arb fanining ravnaqi uchun ham jiddiy ta'sir ko'rsatgan metodologiyani tik-lash va undan o'rinali foydalanish payti keldi. Xususan, Abu Nasr Farobi, Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy qo'llagan tadqiqot metodologiyasi bilan Ovro'po olimlari tayangan falsafiy asoslarning eng yaxshi jihatlaridan ijodiy foydalanish lozim. Ularning umumiy jihatlari quyidagilardir:

1. obyektga substansional (zotiy) yondashuv. Bunda umumiylilik-xususiylik, mohiyat-hodisa, imkoniyat-vogelik dialektikasini hisobga olish;
2. obyektning ziddiyatli tabiatini ochish. Har qaysi tadqiqot obyekti ichki ziddiyatlardan iborat ekanligini, ana shu ziddiyatlar obyektning uzluksiz rivojlanishining assosi ekanligini ko'rsatish;

¹⁵ Хегель. Соч. т. 8, 1985, 60-бет.

¹⁶ Расулов И. Фалсафа. ТошДУ, 1998, 142-бет.

3. obyektning sistemaviy xususiyatini yoritish. Buning uchun har qaysi obyekt muayyan katta butunlikning uzviy bir bo‘lagi ekanligi va, ayni paytda, u muayyan ichki unsurlarning o‘zaro munosabatidan tashkil topgan yaxlitlik ekanligini namoyon qilish;
4. shakl va mazmun dialektikasini e’tiborga olish. Ularning o‘zaro munosabatini yoritish;
5. teng qimmatli elementlar o‘rtasida va turli qimmatli birliklar (butun bilan bo‘lak, tur bilan jins) o‘rtasidagi munosabat turlarini yoritish va hokazolar.

Ob’yektga substansional yondashuv va tilshunoslik. Substansiya atamasi falsafada antik davrlardan buyon ishlataladi. Lekin falsafa tarixida bu atama xilma-xil tushunchalarni ifodalash uchun qo‘llanildi.

Antik davr filosoflari substansiya atamasi ostida olamdagи barcha narsa va hodisalarining asosini tashkil etadigan moddiy yoki ruhiy birlamchi narsani tushunadilar.

Orta asr Sharq falsafasining al-Kindiy, ar-Roziy, Farobi, Ibn Sino, Ibn Rushd singari namoyandalar substansiyani hamma narsaning asosi, ularning mohiyati, deb izohlaydilar.

Antik davr filosoflari ham, O‘rta asr Sharq filosoflari ham keyingi davrdagi bir qator filosoflar ham substansiya deganda barqaror, o‘zgarmas mohiyat bilan uning moddiy dunyodagi o‘zgaruvchan, beqaror, xilma-xil ko‘rinishlari dialektikasini e’tiborga oladilar. Ana shu dialektik bog‘lanishni ifodalash uchun g‘arbda substansiya va aksidensiya, sharq falsafasida javhar va oraz atamalarini qo‘lladilar. Substansiya, javhar atamalari bevosita kuzagishida berilgan bir qancha moddiy narsalarning zamirida yashiringan va ularning har birida takrorlanadigan umumiy asos, mohiyatni, aksidensiya, oraz atamalari esa muayyan asos, mohiyatning bevosita kuzatishida sezgi a’zolarimiz bilan fahm qilinadigan bir qancha moddiy ko‘rinishlarini ifodalaydi.

Arastu falsafasining davomchisi bo‘lgan Farobi bu haqda shunday yozadi: «Beadad ziddiyatlar bir-birini almashtirib turadilar. Ushbu tafovutlarda (almashinib turishlarda) bitta o‘zgarmaydigan doimiy narsa bor. U ushbu tanovoblarni saqlab turadi va ularga singib ketadi. Narsalar bir-birlariga ergashib va o‘zgarib turganlari holida doimiy bo‘lib keladigan narsani «javhar» («substansiya») deb ataladi. Almashinib, o‘zgarib turuvchi narsalarni «ora» («aksidensiya») deyiladi¹⁷.

Nazariy falsafaning asoschisi bo‘lgan I. Kant ham ziddiyatni e’tirof etgan holda, substansiya tajriba ma’lumotlarini sintezlashtirish asosida hosil qilingan tafakkurning mavhum shakli ekanligini ta’kidlaydi. Uning fikricha, substansiya shunday bir doimiy, barqaror narsaki, barcha muvaqqat, beqaror narsalar unga nisbatangina aniqlanadi.

Dialektik falsafaning asoschisi bo‘lgan Hegel esa substansiya atamasi ostida «mutloq g‘oya», «mutloq ruh»ni tushunadi va uni narsalarning muhim, o‘zgaruvchan, rivojlanuvchi tomonlarining yaxlitligi sifatida talqin etadi. U substansiyani ayni bir vaqtida ham rivojlanuvchi g‘oya - ibtido, ham subyekt, ya’ni o‘zini o‘zi tug‘diruvchi asos, ham shu rivojlanishning momenti sifatida qaraydi.

Tasavvur falsafasida substansiya va aksidensiya munosabati zot va tazohir (tajalli) atamalari ostida ifodalanadi. Zot goh simurg*, goh go‘zal nodshoh, goh mahbuba; tazohir (tajalli) esa qushlar, go‘zal podshoh- ning oynadagi tasviri, oshiq kabi timsollar orqali beriladi. Olam oyna (mir‘ot) sifatida qaraladi va olamdagи bizning sezgi a’zolarimizga ta’sir etadigan barcha konkret narsalar zotning (substansianing), ya’ni Ollohning oynadagi tasviri, turli ko‘rinishlarda ji- lolanishi deb qaraladi.

Dialektik falsafa substansianing o‘zgarmas ekanligini e’tirof etuvchi filosoflar fikrlariga tanqidiy yondashadi va uni doimiy rivojlanuvchi mohiyat, dunyoning asosi, materiya sifatida baholaydi.

Sezgi a’zolarimizga ta’sir etadigan, bevosita kuzatishda berilgan nutq bo‘laklari nutqiy birliklar, bir turdagи bir qancha nutqiy birliklarga xos umumiy, ularning har birida takrorlanuvchi mohiyat til birliklari sanaladi. Til birliklari umumlashma, mo- shyat, abstraksiya bo‘lib, bevosita kuzatishda ularning har biri bir qancha ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi.

Moddiy olamning asosida yotgan umumiy mohiyatni axtarish materiya haqidagi fikrlarning rivojlanishiga olib keldi.

Filosoflarning ta’kidlashicha, umuman materiya tushuncha, mavhumlashtirish va fikrning mahsulidir. Chunki olamda «umuman materiya» emas, balki materianing ko‘rinishlari uchraydi¹⁸.

¹⁷ Абӯ Наср Фаробий. Фозил одамлар шаҳри. Тошкент, 1993, 75-бет

¹⁸ Фалсафа. Тошкент, 1999, 179-бет.

Demak, bevosita kuzatishda berilgan moddiy obyektlarga xos umumiy xususiyatlarning majmuasi materiyadir. Materiya o'zining mavjudligini behisob xossalari, xususiyatlari orqali namoyon qiladi. Ko'rindiki, substansiya va materiya bir tushunchaning ikki xil falsafiy ta'lomitdagi ifodalaridir.

Mavjudlikni substansional tushunish obyektiv borliqni ma'lum xususiyat va munosabatlardan iborat bo'lgan narsalar majmuasi sifatida qarashdir¹⁹.

Ana shunday qarash tilshunoslikda V. Humboldt, F. de Sossyur kabi olimlar tomonidan nutqiy faoliyatni sistema - funksiya tamoyili asosida til va nutq zidlanishida o'rganishga olib keldi, natijada til birliklari bilan nutq birliklari izchil ravishda farqlandi.

F.de Sossyurning til-nutq zidlanishi haqidagi qarashini struktur tilshunoslikning asosi sifatida qaragan va strukturalizmning Kopengagen mакtabiga (glassematikaga) asos solgan L. Yelmslev substansiya atamasini boshqacharoq ma'noda qo'llaydi.

U substansiya tushunchasini shakl (forma) tushunchasiga qarama-qarshi qo'yadi. Lekin substansiya atamasi ostida mohiyat, asosni emas, balki, aksincha, uning bevosita gavdalanishini, sezgi a'zolarimizga ta'sir etadigan modsiy ko'rinishlarni tushunadi.

Uning ta'kidlashicha, ma'lum ma'no turli modsiy vositalar yordamida ifodalanishi mumkin. Masalan, Men uya ketyapman degan fikr tovushlar orqali, harf-lar yordamida grafik yo'l bilan, telegraf orqali Morze alifbosi bilan, bayroqcha yordami bilan, imo-ishora bilan, qog'ozga igna yordamida (ko'zi ojizlar), mimika yordamida va bir qancha boshqa yo'llar bilan ifodalanishi mumkin. Ana shunday xilma-xil ifoda vositalari (akustik, grafik, semiotik va boshq.) substansiya hisoblanadi. Bu xilma-xil substansiya muayyan bir narsaning turli xil ko'rinishlari sanaladi. Ana shu muayyan bir narsaga shakl (forma) deb qaraladi.

D. Yelmslev shaklga doimiy, barqaror narsa, abstrakt mohiyat sifatida baho beradi. Uning turli substansiyalarda namoyon bo'lishini o'zgaruvchan, tasodif hisoblaydi. Yuqorida keltirilgan misolda bir shakl gurli xil substansiya orqali yuzaga chiqadi. Ana shu asosda, u bir substansiyaning turlicha qiyofaga ega bo'lishini ham ta'kidlaydi. Masalan, uy tushunchasining fizik substaitsiyasi rus va ingliz tillarida grafik belgisi nuqtai nazardan ham (dom, domik), tovushlar ketma-ketlish jihatdan ham turli shaklga ega. L. Yelmslev keltirgan yuqoridagi misollar «shakl - substansiya» dixotomiyasiga mansubdir. Shu bilan birga glossemantiklar boshqa dixotomiyani - «mazmun-ifoda»ni ham kiritadilar. «Shakl-substansiya» va «mazmun-ifoda» dixotomiyalari asosida tilni to'rt qatlamga bo'lishi glossematika nazariyasining o'ziga xos xususiyatidir. Ana shunday bo'linishga asoslanib, glossematiklar ifoda shakli va ifoda substansiyasi, mazmun shakli va mazmun substansiyasi kabi tushunchalarni farqlaydilar.

Tilda o'zining ifodasini topgan borliq fakti, tafakkur orqali shakllangan borliq, tushuncha mazmun substaitsiyasi, til yordamida sistemalashtirilgan tovushlar zanjiri esa ifoda substaitsiyasi hisoblanadi.

Buni L. Yelmslev Berlin so'zi orqali tushuntirib beradi. Uning fikricha, yuqoridagi so'zda biz bir xil ifoda substansiyasiga (tovush zanjiriga) ega bo'lamiz. Lekin bu ifoda substansiyasi turli tillarda turli xil ko'rinishda bo'ladi. Lekin mazmun substansiyasi (Berlin haqidagi tasavvur) o'zgarmaydi. Aksincha, bir xil ifoda substansiyasiga ega bo'lgan ingl. col «oldim», nem. Soy «xudo», daniyacha. god «yaxshi» so'zlarni talaffuz etganimizda turli mazmun substansiyasiga (obyektiv borliq ma'lumotlari) ega bo'lamiz.

Bir xil substansiyaning turlicha ifodalanish imkoniyati boshqa misollar bilan ham dalillanadi. Masalan, Bilmayman jumlasida mavjud bo'lgan fikrni ifodalash kerak bo'lsin. Bu fikr L. Yelmslevning ta'kidlashicha, material (mazmun substansiyasi) hisoblanadi. U barcha tillarda bir xil bo'lsa ham lekin, xilma-xil ifodasiga ega.

Shunday qilib, L. Yelmslev ko'pchilik filosoflar mohiyat, asos deb tushungan substansiyani lingvistikadan chiqaradi. U lingvistik tahlilning yagona usuli lingvistik birliklar o'rtasidagi

¹⁹ Nuyts J. Aspects of a Cognitive-Pragmatic Theory of Language. On cognition, functionalism, and grammar. – Amsterdam, 1992. – 400 p.

munosabatni o'rganish deb biladi. Bundan o'zaro munosabatlarni ifodalash uchun funksiya, funksiya a'zolarini ifodalash uchun esa funkativ atamalarini kiritadi.

Falsafadagi ko'pchilik e'tirof etgan substansiya muammosi tilshunoslikka ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Tilshunoslikda substansional yo'naliш vujudga keldi. Buning natijasida tilning barcha sath birliklari substansiya asosida o'rganila boshladи.

N.S.Trubetskoyning fonologik konsepsiysi ham, L. Yelmslevning figuralar haqidagi qarashlari ham, leksikada uзвiy tahlil tamoyillari ham, S. N. Ivanovning substansional morfologiya haqidagi qarashlari ham til tuzilishiga substansional yondashuv asosida dunyoga keldi.

Substansional - morfologiyada grammatic shakl ham alohida mavjudlik sifatida munosabatga (sintaktik vazifasida) namoyon bo'ladigan muayyan xususiyat (grammatic shakl ma'nosи) larga ega bo'lgan narsa, predmet sifatida qaraladi.

Narsa «sof» substansiya sifatida o'z xususiyatlardan va boshqa narsalarga munosabatidan tashqarida yashamaydi. Narsa haqidagi bilim uning xususiyatlari va boshqa predmetlarga munosabatlarini bilishdan tashkil topadi.

Predmet o'zining xususiyatlardan tashqarida mavjud bo'lmaganidek, uning xususiyati ham bu predmetning boshqa predmetga bo'lgan munosabatidan tashqarida yashamaydi.

Shunday ekan, substansiyani aniqlash uning xususiyatlari va munosabatlarini o'rganishdan boshlanadi.

Shuni ta'kidlash kerakki, narsalar xususiyati uning boshqa narsalarga munosabatida hosil bo'lmaydi, balki bu munosabatlarda namoyon bo'ladi.

Grammatik shaklni munosabatda, sintaktik funksiyada namoyon bo'ladigan ma'lum xususiyat - ma'nolar tashuvchi sifatida substansional tushunish uning ikkilangan va ziddiyatli morfologik-sintaktik tabiatni aks ettiradi. Substansionallik nuqtai nazaridan muayyan munosabatga kirgunga qadar ham o'zining mustaqil mavjudligiga ega. Shu bilan birgalikda u o'zining yakka aloqalaridagina real mavjud bo'ladi. Ana shu nuqtai nazardan grammatic shakllarning bunday ziddiyatli birligi dialektikadagi umumiylig va alohidalikning, mohiyat va hodisaning namoyon bo'lishi sanaladi.

Dialektik kategoriyalar va tilshunoslik. Borliqdagi barcha narsa va hodisalar o'zaro aloqadadir. Ular bir-biriga ta'sir va aksta'sir qilib turadi. Tabiat va jamiyatdagi hech bir narsa va hodisa boshqalardan ajralgan holda mavjud bo'lmaydi. Lekin biz olamni bilish jarayonimizda uni tashkil etgan o'zaro munosabatdagi alohida narsa va hodisalarni umumiy bog'lanishlardan ajratamiz. Bu jarayonda uning o'ziga xos tomonlari va xususiyatlarini ochib berish maqsadida bu narsa va hodisalarning boshqa narsa va hodisalar bilan bo'lgan barcha aloqa va bog'lanishlarini, hamma aloqadorliklarini bilib boramiz²⁰.

Narsa va hodisalarni ilmiy bilish uchun uning barcha tomonlarini, barcha aloqa va bog'lanishlarini birga olib o'rganish lozim bo'ladi. Lekin bunga hech qachon to'la erishib bo'lmasa ham, ularni munosabatlarda namoyon bo'ladi gan xususiyatlar majmuasi sifatida izohyaashning o'zi narsa va hodisalarni bilishda turli xatoliklardan saqlab qoladi²¹.

Dialektikada narsa va hodisalar o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikning xilma-xil ko'rinishlari mavjudki, bunday aloqadorliklar til birliklari uchun ham xosdir.

Alohalik, xususiylik va umumiylig borliqdagi narsa va hodisalarning har qaysisiga xos alohida, ma'lum guruhiga doir maxsus va hammasiga xos umumiy tomonlari, xususiyatlari va ular o'rtasidagi bog'lanishlarni ifodalaydi²².

Bevosita kuzatishda berilgan alohida narsa va hodisalardan farqlaydigan belgi va xususiyatlar birligi alohidalik sanaladi.

Bilish jarayoni alohidaliklarni o'rganishdan boshlanadi. Alohaliklarning o'zlariga xos belgi va xususiyatlarini bir-biriga solishtirish orqali umumiylig hosil qilinadi. Bu turdag'i bir qancha narsa va hodisalarga xos bo'lgan o'zaro o'xshash, ularning har birida takrorlanuvchi belgi va xususiyatlar birligi umumiylig hisoblanadi.

²⁰ Searle J. Contemporary philosophy in the United States // The Blackwell companion to philosophy. – Oxford, 1996. – P. 1 – 24

²¹ Searle J. Contemporary philosophy in the United States // The Blackwell companion to philosophy. – Oxford, 1996. – P. 1 – 25

²² Нурмонов А. Танланган асарлар. З жилдлик. I-жилд. –Ташкент: Атакон, 2016. – 2016

Alohalilik bilan umumiylit o'rtasida xususiylik kategoriysi ham mavjud. Xususiylik kategoriysi narsa va hodisalardagi alohalilik va umumiylit o'rtasidagi alohalilikka nisbatan umumiy, umumiylitka nisbatan alohida bo'lgan belgi va xususiyatlar va aloqadorliklarni ifodalaydi.

Dialektikadagi aloqadorlikning bunday bo'linishi shakliy (formal) mantiqsagi uchinchisi istisno qonunini inkor etadi. Bu bilan har qanday narsa va hodisalarning tarixiy taraqqiyotida oraliq holat bo'lishi mumkinligini tasdiqlaydi.

Alohalilik, xususiylik, umumiylit o'zaro dialektik munosabatdadir. Ularning bir-birisiz bo'lishi mumkin emas. Alohalilik bilan umumiylit xususiylik orqali bog'lanadi. Xususiylik alohaliklardan tashkil topadi va ayni paytda, umumiylitki alohalilik bilan bog'laydi.

Umumiylit esa alohalikdan ajralgan holda bo'lmaydi. U har bir alohalilikda uning umumiy xususiyatlari, belgilari, bog'lanishlari shaklida mavjud bo'ladi. Bundan ko'rindiki, bizning sezgi a'zolarimizga beriladigan har bir alohida narsa va hodisalar alohalilik, xususiylik va umumiylit birligidan iborat.

Alohalilik, xususiylik va umumiylitlarning o'zaro bog'lanishlari ni dialektik nuqtai nazardan tushunish obyektiv olamni to'g'ri bilish uchun katta ahamiyatga ega.²³

Shuni ta'kidlash kerakki, dialektikada oraliq holatni e'tirof etish narsa va hodisalarni doimiy o'zgarishda, rivojlanishda o'rganish imkonini beradi.

Bu nuqtai nazardan alohalilik, xususiylik, umumiylit dialektikasida bir-biriga o'tish holatlari bo'lishi mumkin.

Ma'lum sharoitda alohalilik xususiylikka, xususiylik esa umumiylitka va aksincha, ular bir-biriga o'tishi mumkin. Bu esa tarixiy taraqqiyot, dinamika jarayonini ko'rsatadi.

Dialektikadagi bu kategoriya tilda ham o'z ifodasini topadi. Til birliklaridagi alohalilik, xususiylik va umumiylitlar o'rtasidagi aloqa va bog'lanishlarni tilshunoslikda ilk bor dialektik mantiq tamoyillari aosida ish olib borgan S. N. Ivanov ochib berdi.²⁴

Uning ta'kidlashicha, u yoki bu xilma-xillik mohiyatini bilish shu xilma-xillikning umumiy asosini bilishga olib keladi. Amaliy bilishda bir-biridan ajralgan, bir-biridan uzoq bo'lib ko'ringan hodisalar mohiyatini bilish konkretlikdan mayhumlikka tamoyili aosida ma'lum obyekt haqida ilmiy tushuncha shakllantirish haqidagi dialektik mantiqning mag'zini tashkil etadi.

Dialektik mantiq alohalilik bilan munosabatda bo'lgan umumiylitka sistema sifatida qaraydi va alohaliklar shu sistema doirasida funksiyalashadi, deb hisoblaydi.

Agar alohida narsalar zamirida yashiringan mohiyat shu alohida elementlar munosabatlaridan tashkil topgan ma'lum sistema sanalar ekan, u vaqtida mohiyatni izohlash uchun ana shu sistemani tavsiflash, uning tarkibidagi alohaliklarni o'rganishdan boshlash ke-rak bo'ladi. Masalan, ma'lum kelishikning barcha ma'no noziklklari va ular o'rtasidagi munosabatlarni kuzatdik. Bu vaqtida alohida ma'noning ma'lum sistemadagi xilma-xilligi haqida tasavvurga ega bo'lamiz. Lekin bu holatda ma'noni odsiy sanash bo'ladi, xolos. To'g'rirog'i, kelishik morfologik jihatdan ko'ra sintaktik funksiyasi jihatdan aniqlangan bo'ladi. Bunday halqadan qanday chiqib ketish yo'lini S. N. Ivanov dialektik mantiqsan qidiradi. Ma'lum murakkab sistema haqidagi tushunchani u haqsagi tasavvurga aylantirish lozim. Buning uchun muayyan munosabatlar sistemasi mohiyatini tushuntirish kerak bo'ladi. Agar uni kelishik misolida ko'radigan bo'lsak, grammatic shakl-ning alohida ma'nolar sistemasi mohiyatini shu guruh hodisalarning umumiy asosi sifatida tushuntirish lozim. Muayyan mohiyatning alohida ko'rinishlarining umumiy asosi bu mohiyat o'zida o'zi bo'lgan yagona, muayyan munosabatlardir.

Predmetni aniqlash, demak, uni boshqalardan chegaralash, boshqalardan nimasi bilan farq qilishini belgilash, uning o'z-o'ziga va ayni paytda, boshqa predmetlarga munosabatini aniqlashdir.

Predmet, hodisalarni umumiy aloqada, boshqa predmet, hodisalarga nisbatan munosabatlarda qarash lozim degan dialektik talab bu predmet o'ziga o'zi qanday mansubligi haqidagi konkret bilimga olib kelishi kerak. Bunday umumiy aloqani o'rganishning konkret to'liqligi aloqalardan tashqaridagi predmetni bilishga olib keladi. To'g'rirog'i, bu o'rindagi aloqalar ichkariga, predmetning o'ziga yo'nalgan bo'ladi. Bu esa shu predmetning substansiyasini, mohiyatini, o'ziga o'zining ayniyatligini bilishimiz bo'ladi. Shuning uchun ham morfologiya grammatic kategoriya va shakllarning sub-stansional ma'nosini haqidagi fan bo'lishi lozimligini ta'kidlaydi.

²³ Фалсафа. Тошкент, 1999, 200-бет.

²⁴ Уша асар, 200-бет.

Yuqoridagilardan ko‘rinadiki, bilish jarayoni alohidalikdan boshlanadi. Biz dastlab sezgi a’zolarimiz yordamida alohidalikni, yakka narsa va hodisalarni, masalan, jo‘nalish kelishigining turli shakli va maz-muniy variantini fahm qilamiz. (xususan, -ga, -ka, -qa, -g‘a, -a kabi) So‘ngra tafakkurimizda shu hissiy fahmlashdan vujudga kelgan mavjud faktlarni analiz va sintez qilib, ularning muhim tomonlarini nomuhim tomonlardan, umumiy tomonlarini alohida tomonlaridan ajratamiz. Ularni o‘zaro bir-biri bilan birlashtiramiz, bir-biriga taqqoslaymiz, shular asosida fikrimizda ularni ifodalovchi tushunchani hosil qilamiz. Bu hosil qilingan tushunchada narsa va hodisaning, yuqoridagi holatda jo‘nalish kelishigining ham yakka tomonlari, ham ularning muayyan turga ya’ni kelishikka xos bo‘lgan tomonlari hamda shu narsa va hodisalarning butun bir sinfiga, ya’ni so‘z o‘zgarti-ruvchi qo‘sishchalarga oid bo‘lgan umumiy tomonlari ifodalanadi.

Borliqdagi narsa va hodisalar o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlik, bog‘lanishlardan biri mohiyat va hodisadir.

Mohiyat narsa va hodisalarning ichki, eng muhim o‘zaro bog‘lanishlari, shu bog‘lanishlarning qonuniy aloqadorliklarini tashkil etuvchi tomonlar, xususiyatlar va bog‘lanishlarning namoyon bo‘lish shakli, mohiyatning ifodalanishi sanaladi.

Biz obyektiv borliqda bevosita hodisalarni ko‘ramiz. Ularni sezgi a’zolarimiz orqali his qilamiz. Mohiyat obyektiv olamdagisi narsa va hodisalarning o‘zaro bog‘lanishlari, aloqadorliklarini ifodalaganliklari uchun uni bevosita jonli kuzatishda ko‘rish, ushslash mumkin emas. U narsa va hodisalarning muhim belgisi sifatida bu narsa va hodisalarning o‘zaro munosabatlarini o‘rganish, chuqur tahlil qilish orqali idrok qilinadi. Masalan, bevosita kuzatishda turli xil jonli organizmlarni ko‘ramiz. Ularni bir-biriga solishtirish, chuqur tahlil qilish asosida ularning hammasi uchun umumiy bo‘lgan muhim belgini aniqlaymiz. Bu belgi barcha tirik organizmlar uchun xos bo‘lib, ularning har birida takrorlanishi kerak. Ana shu muhim belgi modda almashinuv belgisidir.

Demak, konkret turli ko‘rinishdagi jonli organizmlar hodisalar bo‘lsa, ularning hammasi uchun umumiy bo‘lgan mohiyat modda almashinuvdir.

Mohiyat bilan hodisa o‘zaro zinch bog‘liq bo‘lishi bilan birga, bir-biri bilan qarama-qarshii xususiyatga ham ega. Ularning qarama-qarshiliqi borliqdagi narsa va hodisalarning o‘z tabiatidan kelib chiqadi. Mohiyat hodisada yashirin bo‘ladi va uni bevosita sezgi a’zolar orqali bilish mumkin emas. Hodisa narsalarning namoyon bo‘lishi shakllaridir. Ular hech qachon miqsor jihatdan bir-biriga mos kelmaydi. Agar narsalarning namoyon bo‘lish shakllari bo‘lgan hodisalar bilan mohiyat o‘zaro mos kelganda edi, har qanday fan ortiqcha bo‘lib qolar edi.

Pragmatika insonning kommunikativ faoliyati, uning mahsuli bo‘lgan muloqot jarayoni va muloqot vaziyati vositasida yuzaga chiqadi. Pragmatika obyekti aniq forma va qiyofadan xoli bo‘lib, uni adresant va adresat tabiatini hamda ularning muloqot jarayonidagi o‘zaro munosabatini kommunikativ vaziyati bilan bog‘laydigan muammolar majmui tashkil qiladi. Masalan, adresant tabiatini bilan bog‘liq bo‘lgan hamda muloqot sifati va samarasini belgilaydigan kommunikativ intensiya; muloqot strategiyasi hamda taktikasi; mulozamat va muloqot odobi; kommunikantlarning lisoniy kompetensiyasi, qarashlari, qiziqishlari, makon va zamon kabilalar muloqot vaziyatining tarkibiy uzvlari sanaladi. Ular asosida lisoniy birliklardan birining tanlanishi e’tiborga olinadi. Buning uchun esa lisoniy birliklarning ma’noviy xususiyatlari, sintaktik imkoniyatlari, funksional qiymati, muqobililik darajasi o‘rganiladi. Shu ma’noda tilshunos Sh.Safarov «Pragmalingvistika» monografiyasida pragmatik lingvistikaning o‘rganish obyekti va tahlil metodologiyasi tahlili jarayonida pragmalingvistik tadqiq doirasini toraytirish sifatida baholagan J.Katsning «Grammatika gap turlari strukturasi haqidagi ta’limotdir, pragmatika esa, aksincha, lisoniy tuzilmalarning qurilishi, ularning grammatic xususiyat va munosabatlarini yoritish bilan shug‘ullanmaydi. Pragmatik nazariyalar gap belgisi va propozitsiyaning matndagi muvofiqligining so‘zlovchi va tinglovchi tomonidan oqilona ta’minlanishini o‘rganadilar. Shunga ko‘ra, pragmatik nazariya nutqiy faoliyat (performatsiya) nazariyasining ma’lum bir qismidir»²⁵ degan fikrini lingvistik pragmatika obyekti nuqtai nazariidan turib oqlash imkoniyatlari borligini ta’kidlash lozim. Zero, pragmatika faoliyat nazariyasi ekan, uning turi sifatida lingvopragmatika emas, balki pragmalingvistika bo‘lishi maqsadga muvofiq. Ustoz Sh.Safarov S.Levinsonning lisoniy hodisani birinchi o‘ringa chiqarib

²⁵ Katz J. Propositional Strukture and Illocutionary Forse. – New York: Crowell, 1977. – P.19.

bildirgan «pragmatika tildan foydalanuvchilarning gaplarining kontekstda o‘rinli qo‘llanilayotganligini o‘rganuvchi sohadir»²⁶ degan fikrini «tor doirada tasavvur qilinish» sifatida bo‘lsa-da, qo‘llab-quvvatlashi, birinchidan, an’anaviy pragmalingvistikani lingvopragmatik mazmunda tushunishga moyilligini ko‘rsatadi. Ikkinchidan, pragmalingvistikaning tadqiq tamoyili sifatida «til – pragmatika» va «pragmatika – til» juftligini olayotganligidan dalolat beradi. Uning mazkur asarning 69-sahifasida bayon etgan «lingvopragmatik tahlil obyekti esa har qanday holda ham lison va uning faoliyat jarayonida voqelanadigan xususiyatlari va, umuman, kommunikatsiya kategoriyasidir» degan fikrining birinchi qismi («har qanday holda ham lison») ham bizning nuqtai nazarimizning ishonchlilik darajasini ko‘rsatadi. Ishning «umuman, kommunikatsiya kategoriyasi» qismi esa lingvopragmatikaning o‘rganish obyekti masalasini ma’lum darajada mavhumlashtirishini istihola bilan ta’kidlashni istardik. Zero, «pragmalingvistika funksional uslubning maxsus bo‘limi sifatida endigina oyoqqa turayotgan va faqat o‘zining kategoriyasi, tadqiqiy usullarini aniqlashga kirishayotgan sohadir».²⁷

Har qanday fanning vazifasi hodisalar zamirida yashirinib yotgan, ularning asosini tashkil qiladigan mohiyatini aniqlashdan iboratdir.

Ana shundan kelib chiqqan holda, tilshunoslik fanida ham tilshunosning vazifasi sezgi a’zolarimiz yordamida his qiladigan nutq birliklari zamirida yotgan umumiylashtirishni topishdan iborat bo‘lishi kerak. Tilshunoslikda tildagi ana shunday mohiyat-hodi-sa zidlanishi til-nutq dixotomiysi orqali ifodalanadi. Nutq birliklari atamasi hodisalarini ifodala-sa, til birliklari bevosita sezgi a’zolarimiz orqali his qiladigan nutq birliklari zamirida yashiringan mohiyatni ifodalaydi. Til birliklari ema bilan tugaydigan (fonema, morfema, leksema kabi) atamalar orqali ifodalanadi. Bu atamalar bilan ifodalangan birliklarni biz hech qachon sezgi a’zolarimiz yordamida his etmaymiz. YA’ni uni talaffuz qilmaymiz va eshitmaymiz.

Har qanday til birliklari bevosita kuzatishda bir qancha nutq birliklari orqali moddiy ifodasini topadi. Ana shunday konkret moddiy ifodalar variant-lar sanaladi: fonema varianti, morfema varianti, leksema varianti kabi. Ularni Amerika tilshunoslari allofon, fon; allomorf, morf; alolek, leke atamalari bilan ham yuritadilar. Tildagi yuqoridaqidek zidlanishi ayrim tilshunoslari emik va etik birliklari atomalari orqali ham ifodalaydilar. Emik birliklar -ema bilan tugagan atamalar (fonema, morfema, leksema kabi) orqali ifodalangan birliklarni o‘z ichiga olsa, etik birliklar variant yoki allo - bilan boshlangan (allofon, allomorf, aloleks) atamalar orqali ifodalangan birliklarni o‘z ichiga oladi.

Borliqdagi narsa va hodisalar o‘rtasidagi aloqadorlikning yana bir turi butun va bo‘lak munosabatidir.

Butun o‘zaro dialektik aloqadorlikda bo‘lgan qism- lar, bo‘laklarning uzviy birligidan iborat yaxlitlikdir. Bo‘lak esa shu butunni tashkil qilgan, uning tar-kibidagi ma’lum element, qism sanaladi. Borliqdagi har bir narsa va hodisalar, jarayonlar ana shu butun va bo‘lakning dialektik birligidan iboratdir. Bu shuni ko‘rsatadi, olamdagisi har bir narsa va hodisa, katta- kichikligidan qat’iy nazар, ichki bo‘linish xususiyatiga ega. Bunday bo‘linish pog‘onali xarakterga ega. Katta butunlikning tarkibiy qismlari bo‘lgan, katta butunlik uchun bo‘lak vazifasini bajaruvchi qism, o‘z navbatida, keyingi bo‘linish uchun butun bo‘lib keladi. Bunday butun bo‘lak asosida bo‘linish bo‘linishning oxirgi nuqtasigacha davom etadi.

Agar buni til materiallari asosida ko‘rib chiqsak, gap butunlik sifatida gap bo‘laklariga, gap bo‘laklari so‘z shakllariga, so‘z shakllari morf (allomorf)larga, morflar esa fonlarga, (allo) fon esa akustik va fiziologik xossalarga bo‘linadi. Bo‘linishning har bir bos-qichi butun-bo‘lak dialektikasini o‘zida namoyon qiladi.

Shuningdek, lisoniy birliklarning har qaysisi (fonemadan tashqari) mazmuniy jihatidan ham muayyan ma’no elementlarining o‘zaro munosabatlaridan tashkil topgan yaxlitlik sanaladi. Masalan, ma’noli birliklar ichida eng kichigi hisoblangan morfema ham ikki va undan ortiq semalarining o‘zaro munosabatidan tashkil topgan butunlik hisoblanadi. Ma’noli birlik bo‘limgan va shakl jihatdan eng kichik birlik sanaluv-chi fonema ham xudsi atom kabi bo‘linuvchanlik

²⁶ Levinson S. Pragmatics. – Cambridge: Cambridge University Press, 1984. – P.24.

²⁷ Ахманова О.С., Магидова И.М. Прагматическая лингвистика, прагмалингвистика и лингвистическая прагматика // Вопросы языкоznания. №3. – М., 1978. – С.46.

xususi- yatiga ega. Uning tarkibiy qismlari farqdovchi belgi- lar sanaladi. Shuning uchun fonema differensial belgilar majmuasi sifatida baholanadi.

Mashhur daniyalik tilshunos L. Yelmslev butun-bo‘lak munosabatini til birliklarining ham shakl va ham mazmun tomoni misolida izchil yoritib berdi.

Shakl (ifoda) tomonini tekst-period-gap-so‘z bo‘g‘in-fonemalarga bo‘lgan bo‘lsa, mazmun tomoniga ham bunday bo‘linishni qo‘llagan holda, uning eng kichik birligi sifatida figurani ajratadi.

L.Yelmslevning figura tushunchasini tilshunoslikka olib kirishi glossematika nazariyasining F. de Sossyur nazariyasidan bir qadar farq qilishini ko‘rsa- tadi. Sossyur har qanday lingvistik belgi ifodalovchi va ifodalanmishning dialektik birligidan iborat, deb hisoblagan bo‘lsa, L. Yelmslev ifodalanmish tomonini yana bo‘lishda davom etadi. Uning fikricha, lingvistik birliklarning mazmun planida lingvistik belgidan tashqari belgi bo‘laman elementlarni ham ajratish mumkin. Belgilar sistemasiga belgining tarkibiy qismi sifatida kiruvchi ana shunday belgi bo‘lamanlar figuralar hisoblanadi. Til shunday tuzil ganki, bir siqim figuralar yordamida va ularning turli xil joylashuvi tufayli belgilar legionini qurish mumkin.

L.Yelmslev ajratgan figuralar elementar ma’noga, semaga to‘g‘ri keladi. Semalar kombinatsiyasi belgi mazmunini tashkil qiladi. Masalan, o‘g‘il belgisi quyidagi figuralardan tashkil topadi: [inson] + [yosh] + [erkak]. Oxirgi figuraning o‘zgarishi esa qiz belgisi- ni bildiradi.

Bundan ko‘rinadiki, butun-bo‘lak munosabati asosida lingvistikada uzviy (komponent) tahsil metodi maydonga keldi.

Shuni ta’kidlash kerakki, butun tarkibidagi har bir qism butunning o‘ziga xos tomonini ma’lum darajada ifodalaydi. Lekin butunni tashkil qilgan bu qismlar butun tarkibida har biri alohida-alohida emas, balki butunning bo‘laklari sifatida ko‘rinadi.

Olamdagi narsa va hodisalar o‘rtasidagi aloqadorlik, bog‘lanishning turlaridan yana biri shakl va mazmun dialektikasidir.

Shaklsiz mazmun bo‘lamanidek, shaklning mavjudligi usuli, strukturasi, tuzilishi ham mazmunsiz bo‘lmaydi.

Morfologiya doirasida so‘z turkumlariga xos bo‘lgan (masalan, otlarda «predmetlik», fe’llarda «jarayonlik» ma’nolari) umumiylar shuningdek, ma’lum morfologik kategoriya ichidagi o‘zaro zidlanuvchi so‘z shakllarining xususiy ma’nolari (zamon, shaxe, kelishik) ana shunday umumlashgan ma’nolar sirasiga kiradi. Grammatik ma’no deganda faqat so‘zning shakllari ma’nosigina emas, balki sintaktik birliklarning umumlashgan ma’nolari ham tushuniladi. Masalan, predikativlik, modallik, tema-rema tuzilishi va boshq.

Grammatik ma’no sistemasida obyektiv borliqsagi predmetlar o‘rtasidagi munosabatlar haqidagi bilimimiz ong orqali aks etadi. Jumladan, harakat tushunchasi fe‘lning umumiylar ma’nosini va uning xususiy kategorial ma’nolari (zamon, nisbat, bo‘lishli, bo‘lisheizlik) orqali namoyon bo‘ladi.

Grammatik ma’no tildan tashqaridagi borliq predmetlar, hodisalar xususiyatlarini aks ettiruvchi nosintaktik (referensional), masalan, miqsor, makon, zamon ma’nolari, shuningdek, gap va so‘z birikmasi tarkibidagi so‘z shakllarining aloqasini bildiruvchi sintaktik (relyatsion) ma’nolarga bo‘linadi. Masalan, bog‘lovchili ko‘rilmalardagi zidlovchilik, ayiruvchilik ma’nolari va boshq. Bundan tashqari, so‘zlovchining fikr bildrayotgan voqeа-hodisaga, yoki tinglovchiga bo‘lgan turli xil subyektiv munosabatini aks ettiruvchi ma’no, alohida xususiyatga ega. Masalan, subyektiv modallik, subyektiv baho, erkalash va boshq.²⁸

Shunday qilib, grammatik ma’noni uch guruhga bo‘lish mumkin:

nosintaktik (referensional)

sintaktik (relyatsion)

subyektiv

Birinchi ma’noni turkumlovchi, ikkinchi ma’noni toifaviy (kategorial), uchinchi ma’noni esa notoifaviy (nokategorial) ma’nolar deb ham tasniflash mumkin²⁹.

Grammatik ma’no sistema sifatida morfologik ma’no va sintaktik ma’nolarni o‘z ichiga oladi³⁰. Shunday ekan, u bo‘linuvchanlik xususiyatiga ega. Shunga muvofiq ularni morfologik

²⁸ Зикриллаев Г. Н. Ўзбек тили морфологияси. Бухоро, 1994, 7-сон;

²⁹ Лингвистическая энциклопедия. М., 1990, с. 116

³⁰ Нурмонов А., Шаҳобиддинова Ш. Грамматик категория муаммосига дойр айрим мулохазалар. — Ўзбек тили ва адабиёти, 1998, 6-сон, 22-бет

ma'no va sintaktik ma'nolarga bo'lish mumkin bo'ladi. Morfologiya morfologik shakllarning morfologik ma'nosini va sintaktik imkoniyatlarini o'rganadi.

Grammatik shakl muayyan grammatik ma'noning tashqi ifodalanish tomoni - moddiy tomonidir. Grammatik shakl bilan grammatik ma'no falsafadagi shakl va mazmun dialektikasini o'zida namoyon qiladi. Shakl va mazmun bir yaxlitlikning ikki tomoni — biri tashqi, ikkinchisi esa ichki tomoni sanaladi. Shuning uchun ular bir-birini taqozo qiladi. Birisiz ikkinchisining bo'lishi mumkin emas.

So'zlar shakliy belgisiga ko'ra so'z o'zgarish shakliga ega bo'lgan, bunday shaklga ega bo'lmagan so'zlarga ajratiladi. So'z o'zgarish shakliga ega bo'lmagan so'zlar so'z yasalish shakliga ega bo'lgan va hech qanday shaklga ega bo'lmagan, shaklsiz so'zlarga bo'linadi.

F. F. Fortunatov so'z o'zgarish paradigmasida nol shaklini ham ajratadi. Natijada so'z shaklini moddiy va shakliy qismlar birligi sifatida tushunishga imkoniyat yaratdi. Dom so'zini uning boshqa shakllariga (dom-a, dom-u) qiyoslaganda, moddiy qism nol shaklga ega ekanligi ma'lum bo'ladi.

Grammatik shaklga sof shakliy tomondan yondashishga A. A. Potebnya chek qo'ydi. Ma'lum grammatik shakl alohida tovush bilan ifodalanishi shartmi? degan savolga u ma'lum so'zdan boshqa so'z yasalganda yasalma tarkibida doimo tovush tomonda o'zgarish ro'y bera-dimi? deb savolga savol bilan javob beradi. Boshqacha aytganda, so'zdagi ma'lum tovushni o'zgartirish bilan uning shaklida o'zgarish ro'y beradimi? Uning fikricha, so'zning tovush qiyofasini o'zgartirish doimo grammatik ma'nosini o'zgartira bermaydi³¹.

Nutqiy ma'no beqarorligi lisoniy ma'no barqarorligi bilan xarakterlanadi. Beqarorlik nutqiy sistemaning dinamikligi va rivojlanuvchanligini ta'minlaydi.

Beqarorlik tamoyili sinergetik sistemalarning yashash shartidir. Bejiz I. Prigojin beqarorlikning rivojlanish sharti, barqarorlik esa turg'unlik meyori ekanligini ta'kidlamagan edi.³²

Avvalo, til kishilar o'rtaсидаги eng muhim aloqa vositasi sifatida ijtimoiy xarakterga ega. Demakki, u boshqa ijtimoiy hodisalar bilan uzviy aloqadadir. Masalan, til egasi bo'lgan xalqning tarixi, madaniyati, ruhiyati va boshqalar.

Bu shuni ko'rsatadiki, o'zaro munosabatda bo'lgan barcha ijtimoiy hodisalarni o'rganuvchi ijtimoiy fanlar ham o'zaro munosabatdadir. Xususan, tilshunoslik falsafa, tarix, etnografiya, sotsiologiya, psixologiya singari fanlar bilan uzviy aloqada.

Til fikrni shakllantiruvchi va ifodalovchi vositadir. Demak, tilshunoslik tilning tafakkur bilan aloqasini o'rganar ekan, tafakkur qonunlarini o'rganuvchi mantiq va psixologiya fanlari bilan tutash nuqtalarga ega bo'ladi.

Til ma'lum jamiyatning aloqa vositasi sifatida shu xalqning tarixi, etnografiyasini bilan ham bevosita aloqada bo'ladi. Ana shu aloqa tilshunoslikning tarix, etnografiya bilan bog'liq ekanligini ko'rsatadi. Xalq madaniy olamining shunday tarmog'i borki, ular uchun til, xudsi rassom uchun rang-bo'yoq, xaykaltarosh uchun loy yoki tosh singari, moddiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Bu tarmoq adabiyotdir. Shuning uchun adabiyot so'z san'ati hisoblanadi. So'z bir vaqtning o'zida ham tilshunoslikning, ham adabiyotshunoslikning o'rganish obyekti sanaladi. Ularning farqi faqat so'zga qanday nuqtai nazardan yondashishga bog'liq.

So'zning atash ma'nosini va uning ontologik tuzilishi tilshunoslikning o'rganish obyekti bo'lsa, uning ta'sir etish, badiiy estetik vazifasi adabiyotshunoslikning o'rganish obyekti bo'ladi. Til garchi vazifa bajarish nuqtai nazardan ijtimoiy xarakterga ega bo'lsa ham, lekin yuzaga chiqish nuqtai nazardan insonning fiziologik tuzilishi bilan uzviy bog'liq. Chunki nutqiy faoliyat bosh miya faoliyatini bilan bog'liq holda, nutq organlarining harakati hosilasi sifatida yuzaga chiqadi. Bu esa tilshunoslik bilan fiziologiyaning o'zaro naqadar bog'liq ekanligini ko'rsatadi.

Har qanday nutq tovushlar silsilasidan tashkil topadi. Tovush esa muayyan moddiy jismning tashqi ta'sir tufayli harakatlanishi va havoning tebranishi natijasida paydo bo'ladi. Tovushning paydo bo'lishi va uning akustik xossasini o'rganish jarayonida tilshunoslik fizikaning akustika bo'limi bilan uzviy aloqada bo'ladi.

Til kishilar o'rtaсида axborot tashuvchi asosiy vositadir. Shu bilan kishilar boshqa axborot vositalaridan ham foydalanadilar. Bu axborot vositalarining hammasi belgili tabiatga egadir. Chunki

³¹

³² Prigogine I. and Stengers I. Order out of Chaos, Bantam Books. – New York, 1994. – P.94.

bu vositalar obyektiv olam haqidagi axborotni bevosita emas, balki bilvosita, belgilar yordamida ifodalaydi. Tilning boshqa axborot tashuvchi vositalar kabi belgili tabiatini, uning belgilar sistemasi ekanligini ochishda tilshunoslik semiotika bilan hamkorlik qiladi.

Axborot muayyan texnik vositalar yordamida uzoqqa uzatilishi ham mumkin. Axborot uzatish vositalarini o'rgatish uchun tilshunoslik axborot nazariyasi bilan aloqa qiladi.

Hozirgi kunda avtomatik tarjima keng tarmoq otmoqda. Avtomatik tarjima esa tarjima qilinayotgan tillarning leksik imkoniyatlarini programmalashtirish mahsuli sanaladi. Demak, avtomatik tarjima tilshunoslik va kibernetikaning o'zaro munosabati tufayli yuzaga keladi.

Shu qisqa dalillar ro'yxatining o'ziyoq tilshunoslikning fanlar sistemasidagi juda ko'p fanlar bilan uzviy aloqador ekanligidan guvohlik beradi.

Falsafiy-metodologik adabiyotda narsani fahmiy o'rganishga zid turgan bilish usuli sifatida idrokiy (botiniy, ichki, aqliy...) bilim qayd etiladi. Fahmiy bilish, asosan nutq birligini yakkalik, hodisa, voqeа va oqibat (qisq. YAHVO) sifatida tahlil va tavsif etsa, umumiylit, mohiyat, imkoniyat va sabab (UMIS) tabiatiga ega bo'lgan idrokiy bilim aniqlangan, tavsiflangan hodisaning xilmassislik sabab va qonuniyatini, ular mohiyatini aniqlashga asoslanadi. Chunonchi, o'zbek gapida eganing eksplitsit (moddiy ifodalanishi shart) emasligi haqidagi xulosa kesim tarkibining morfologik xususiyati, ya'ni unda hamisha shaxs-songa ishora mavjudligi bilan necha yil mobaynida takror va takror o'rganilgan, sistemalashtirilgan gap talqini orqali yuzaga kelgan. Yoxud kelishikning "oldingi so'zni keyingi so'zga bog'lash", egalik shaklining "keyingi so'zni oldingi so'zga bog'lash", ravishdoshning "fe'lni fe'l bilan bog'lash" kabi umumlisoniy mohiyati fahmiy bilishda tasvirlangan, izchil o'rganilgan misol asosida keltirib chiqarilgan.

Empirizm (grekcha emperia – tajriba) hissiy tajribani bilimning birdan-bir manbai deb hisoblaydi.

Empirokrititsizm – "tajribani tanqid" degan ma'noni bildirib, tajriba tushunchasini substansiya, zarurat, sababiyat tushunchasidan tozalaydi³³.

Bu tushunchaga qarama-qarshi o'larоq ratsionalizm, funksionalizm, strukturalizm, semantizm kabi idrokiy bilim usuli nomlanishi mavjudki, bunda narsaning o'zga aloqadori bilan munosabati, uning butun tarkibida tutgan o'rni, vazifasi ochib beriladi, ya'ni narsaga dialektik yondashiladi. Dialektik yondashuv asosida hosil qilingan bilim fahmiy usul bilan aniqlangan, tavsiflangan va sistemalashtirilgan hodisa rang-barangligining sababini ochib berishga asoslangan bo'ladi. Dialektik yondashuv nominalistik yondashuvning davomi, ya'ni nominalistik yondashuv dialetik yondashuvni taqozo qiladi. Fandagi bu bog'liqlik quyidagi fikrda aniq asoslab berilgan: "Insoniyat tarixida fanlar taraqqiyoti dialektikasi shuni ko'rsatadiki, har bir fanning taraqqiyoti uzlusiz "empirik – dialektik – empirik – dialektik..." zanjirdan iborat... avvalo, narsa jonli mushohada, bevosita kuzatish vositasida o'rganilib, uning xususiyati, qirrasi, tomoni aniqlanadi, natijada bu xususiyat, dalil, hodisa to'planadi, saralanadi;... aqliy, dialektik tahlil usuliga o'tish ehtiyoji paydo bo'ladi"³⁴.

Dialektikaning substansiyani aniqlashga doir ta'limotidan ma'lumki, xususiylikka moddiylik, alohidalik va behisoblik xos bo'lsa, umumiylit uchun bevosita kuzatishda berilmaganlik, xususiylikda takrorlanib turish, chegaralanganlik kabi belgi xos. "Umumiylit va xususiylik bir-biriga zid emas. Ularning bir-birini inkori dialektik nisbiy: xususiylikdan moddiy, shakliy, davriy, makoniy muayyanlik chetlashtirilmasa, u umumiylitka aylanadi va aksincha umumiylitning moddiy, shakliy, davriy, makoniy voqelanishi xususiylik".³⁵

Tilshunoslikda lisoniy umumiylit va xususiylikni farq qilish juda katta ahamiyat kasb etadi. Bu esa, tabiiyki, til va nutqni, lisoniy va nutqiy birlikni farqlashda namoyon bo'ladi.

Til qurilishi tadqiqiga substansial yondashish tarixini ikki davrga ajratib o'rganish ma'qul:

1- davr: til qurilishi talqiniga substansial yondashish asosining belgilanishi;

2-davr: til qurilishi talqiniga substansial yondashish-metodologik tamoyil sifatida.

Dialektik taraqqiyotning umumiylit qonuniyatidan ma'lumki, istagan turdagи yangilik inkor etilgan davrda mavjud bo'lgan ratsional (samarali) urug'ning rivojlanishi va oldingi davrdagi yangilik, o'z davri uchun "homeyoriy" bo'lgan hodisaning taraqqiyoti va meyoriylashuvi. Shuning

³³ Философия луғати. – Т.: Ўзбекистон, 1976.

³⁴ Нематов X., Бозоров О. Тил ва нутқ. – Б. 27.

³⁵ Нематов X., Сайфуллаева Р., Курбонова М. Ўзбек тили структурал синтаксиси асослари. – Т.: Университет, 1999.

uchun til qurilishini substansial jihatdan tadqiq qilish jarayoni tilshunoslikning uzoq yillik tarixiy samarasi.

Tarixiy taraqqiyotga shunday yondashilganda, til qurilishi talqiniga substansial yondashishga asos bo'lgan va bu tadqiq tamoyili metodologik asos vazifasini o'tashdan oldingi davrda substansial yondashish "kurtagi" nimadan iborat bo'lgan? degan savolning tug'ilishi tabiiy. Bu asos hind va arab tilshunosligida hamda Yevropa tilshunosligida F.Bopp, A.Shleyxer va xususan Y.Grimm tomonidan qo'yilgan "lisoniy birlikning nutqdan ajratilgan holda o'zining ma'lum bir ma'nosi bormi yoki lisoniy birlik nutqda voqelangan sharoitdagina ma'lum bir ma'no voqelantiradimi?" degan savolga javob bilan bog'liq. Bu savolga javob berish uchun G.Paul va G.Shteyntalning H.G'.Ne'matov monografiyasida keltirilgan quyidagi fikrini bayon etish kifoya. Jumladan, G.Shteyntalning shunday fikri keltirilgan: "Kelishik hech qanday moddiy ma'noga ega emas va faqat grammatik ma'no ifodalashga xizmat qiladi". G.Paul esa bunga tamoman zid fikrni ilgari suradi: "U yoki bu kelishikning tanlanishi boshqaruvchi so'z bilangina emas, balki kelishik shaklining o'zining ma'nosi bilan ham uzziy bog'liq".

O'zbek tilshunosligida sistem-struktur tadqiqotlarni, tilga substansial yondashishni professor S.N.Ivanov boshlab berdi. Hozirgi o'zbek substansial tilshunosligi (O'ST)ning, boshqacha aytganda, formal-funksional, zotiy, dialektik tilshunoslik rivojlanishining 2-davri turkiyshunos olim S.Ivanov nomi bilan bog'liq. Chunki bu yo'nalishdagi ilk tadqiqot S.Ivanovning grammatik shaklining umumlisoniy ma'nosi va nutqiy voqelanishi, nutqiy xususiylikni lisoniy umumiylukka birlashtirish, lisoniy ma'no va sintaktik funksiya masalasiga bag'ishlagan nomzodlik dissertatsiyasi bo'ldi.

O'zbek substansial tilshunosligining keyingi taraqqiyoti va hozirgi kunda O'zbekistonda ommalashishi S.Ivanovning shogirdi prof. H.Ne'matov va u yaratgan lingvistik maktab bilan bog'liq.

S.Ivanovning substansial talqini morfologik kategoriya asosida shakllantirilgan bo'lsa, H.Ne'matov va shogirdlari ishida nafaqat morfologiya, balki fonetika, leksika, sintaksis va boshqa sathning yangicha, milliy, mohiyatga asoslangan tavsif va talqini ishlab chiqildi.³⁶

O'zbek tilshunosligining substansial ilmiy tahlil yo'nalishi yutug'i respublikamizda yaratilgan umumo'rtta hamda oliy ta'lim dastur va darsligida ham o'z ifodasini topdi.³⁷

Darhaqiqat, o'zbek substansial tilshunosligi o'z faoliyatining boshlanish nuqtasida Praga lingvistik to'garagi tanlagan yo'ldan borib, dastavval, o'zining yo'nalishi mohiyatini belgilovchi tezisini e'lon qildi.

H.Ne'matov substansial yondashishning metodologik asosi tasavvufning zot (substansiya) va tajalli (refleksiya) haqidagi ta'limoti bilan bog'liq ekanligini, zotning (majmui asmo va sifot) voqelikda tajallilanishi, uning bevosita kuzatishda berilmaganligini o'zining izlanishida isbotladi.³⁸

O'zbek tilshunosligida rivojlanayotgan va bugungi kunda umumiyl o'rta ta'lim tizimidan tortib oliy ta'lim tizimigacha amalda bo'lgan dastur va darslikda o'zining amaliy tatbiqini topgan bu yo'nalishnng asosiy tamoyili quyidagicha sanaldi:

- 1) lisoniy birlikning zotiy tabiat;
- 2) har bir lisoniy birlikning kamida ikki paradigma mansubligi;
- 3) lisoniy tizimning barcha bosqichida oraliq uchinching mutlaqligi;
- 4) lisoniy tizimning iyerarxik (pog'onaviylik) qurilishi; bu iyerarxiyada har bir bo'g'in uzvining gipo-giperonimik munosabat bilan ochiq mikrosistema sifatida o'zaro bog'lanishi;
- 5) har bir lisoniy birlikning o'z xususiy sinonimik va graduonimik qatoriga ega bo'la olishi va bu qatorning umumiyl lisoniy sistema va mikrosistemaga bevosita aloqador emasligi.

Mustahkamlash uchun savollar

1. Tilshunoslikning falsafa bilan aloqasi nima?

³⁶ Бу хақда қаранг: Менглиев Б. Лисоний тизим яхлитлиги ва унда сатҳлараро муносабатлар: филол.фан.докт...дисс.автореф. – Т., 2000; Курбонова М. Ҳозирги замон ўзбек тили (Содда гап синтаксиси учун материаллар). – Т.: Университет, 2002.

³⁷ Умумий ўрта таълимнинг Давлат таълим стандарти ва ўкув дастури // Таълим тараққиёти, 1999 йил, 1-махсус сон.

³⁸ Нематов X. Тажалли, тасаввuf, билиш назарияси ва tilshunoslikda sintaksisni ўрганиш масалалари // Ўзбек тили ва адабиёти , 1993, – № 2.

2. Tilshunoslikning mantiq bilan aloqasi nima?
3. Tilshunoslikning adabiyot bilan aloqasi nima?
4. Tilshunoslikning psixologiya bilan aloqasi nima?
5. Tilshunoslikning sotsiologiya bilan aloqasi nima?
6. Til birliklariga substatsional yondashuv?
7. Tilga sistemaviy yondashuv?
8. Dialektik kategoriyalar?

3-ma’ruza. Tilshunoslik va mantiq

Reja

1. Tilshunoslik va mantiq munosabati.
2. An’anaviy mantiq.
3. Dialektik mantiq.

tayanch tushunchalar: Tilshunoslik va mantiq munosabati. An’anaviy va dialektik mantiq.

Tilshunoslik mantiq fani bilan ham uzviy aloqadordir. Ularning aloqadorlik tomoni shundaki, har ikkisi ham tafakkur bilan bog’lanadi. Chunki tilshunoslikning o‘rganish obyekti bo‘lgan gil tafakkur bilan munosabatdadir. Til kishilarni olam haqidagi bilimlarini, fikrlarini boshqalarga yetkazuvchi va shakllantiruvchi vositadir. Til va tafakkur o‘zaro dialektik munosabatda ekan, ularni o‘rganuvchi tilshunoslik bilan mantiq o‘rtasida ham ana shunday dialektik aloqaning bo‘lishi tabiiy.

Mantiq tafakkur shakllari, qonunlari va usullarini o‘rganadi. U tushuncha, hukm shakllarini, xulosa chiqarish, isbot va rad etish holatlari orqali obyektiv voqelikning in’ikos etish jarayonida qanday bo‘lish yo‘llarini ko‘rsatib, inson fikrining aniq, ravshan, ketma-ket va asosli bo‘lishini ta’minlaydi. Shunday ekan, mantiq tilshunoslikning grammatika bo‘limi bilan bevosita munosabatdadir. Chunki tushuncha so‘z va so‘z birikmalari orqali ifodalansa, fikr gap orqali ifodalanadi, Bu esa har bir savodli kishi uchun grammatikani bilish qancha zarur bo‘lsa, mantiqning shakl va qonunlarini bilish ham shunchalik zarurdir³⁹.

Shu bilan birgalikda, mantiq va grammatika qanchalik o‘zaro zich bog’lanmasin, o‘zlariga xos xususiyatlarga ham ega. Mantiq shakllari tushuncha, hukm, xulosalar hamma xalqlar uchun umumiy bo‘lsa, ularning turli tillarda ifodalanish shakllari turli-tumandir. Shuning uchun ham har bir til boshqasidan farq qiladigan o‘z grammatikalariga ega. Bu shuni ko‘rsatadiki, mantiq bilan grammatika bir-biri bilan bog‘liq, ular bir-birini to‘ldiradi. Ayni paytda o‘z xususiyatlari bilan bir-biridan farq qiladi.

Hozirgi kunda mantiq tafakkur shakllarini qanday o‘rganish nuqtai nazaridan ikkiga bo‘linadi: 1) an’anaviy mantiq yoki shakliy mantiq; 2) dialektik mantiq.

Dialektik mantiq XIX asr oxirlarida amaliy mantiq bag‘rida uning chegaralangan tomonlarini to‘ldirish asosida dunyoga keldi.

An’anaviy mantiq taffakkur qonunlari, shakllari va usullarini tarixiy taraqqiyotni e’tiborga olmagan holda o‘rganadi. Garchi bu mantiq insonning olamni bilish uchun bir necha asrlar davomida dasturilamal bo‘lib xizmat qilgan bo‘lsa ham, lekin obyektni tarixiy taraqqiyot jarayonidan tashqarida o‘rgangani uchun bir qadar ojizligi sezilib qoldi. Ana shu ojizlikni bartaraf etish talabi bilan dialektik mantiq paydo bo‘ldi.

Dialektikaga asoslangan bilishgina obyektiv olamdagи narsa va hodisalarini har tomonlama chuquq bilib olish, ularning ichki o‘zgarish, rivojlanish qonunlarini to‘g‘ri aks ettirish mumkin.

Dialektikani bilish jarayoniga tatbiq etish, uni mantiq sifatida, insonning ratsional, aqliy bilishi, fikrashi haqidagi fan sifatida o‘rganish dialektik mantiq ta’limotini shakllantirdi. Dialektik mantiq shakliy mantiqsan quyidagi asosiy jihatlari bilan farq qiladi:

1) predmetni har tomonlama — uning barcha tomonlari, aloqalarini nazarda tutgan holda o‘rganish; 2) predmetni uzlucksiz o‘zgarishda, rivojlanishda ekanligini e’tiborga olish va boshqalar.

Dialektik mantiq barcha fanlar uchun, shu jumladan tilshunoslik uchun ham metodologik asos vazifasini o‘taydi.

³⁹ Хайруллаев М., Ҳақбердиев М. Логика. Ташкент 1984. 20 бет

Tilshunoslikda mantiqiy yo‘nalish. Tilshunoslik falsafa bag‘rida shakllangani, til va mantiq o‘zaro zich bog‘langani sababli, bir qator olimlar til kategoriyalarini mantiq kategoriyalariga qiyosan o‘rgandilar. Natijada tilshunoslikda mantiqiy yo‘nalish maydonga keldi.

Tilni tafakkurga munosabati asosida o‘rganuvchi tilshunoslari oqimi mantiqiy yo‘nalishni tashkil qiladi.

Mantiqiy yo‘nalish tilshunoslikdagi quyidagi muammolar bo‘yicha fikr yuritadi:

1) gnoseologiya muammolari;

2) tilning o‘ziga xos tuzilish xususiyatlarini emas, balki barcha tillar uchun universal tomonlarini yoritish;

3) grammatik kategoriyalarni mantiqning universal kategoriyalari asosida aniqlash: so‘zni tushuncha asosida, gapni hukm asosida izohiash va boshqalar;

4) qanday til shakl iga ega bo‘lishidan qat’iy nazar, yagona tahlil tamoyilini ishlab chiqish;

5) diaxronik tahlildan ko‘ra sinxron tahlilni ustun qo‘yish va shu bilan bog‘liq ravishda tarixiy va qiyosiy-tarixiy gram- matikaga nisbatan tavsifiy grammatikaga e’tibor berish;

6) ko‘proq gap va semantika tahdiliga diqqat qilish;

Tilshunoslik va mantiq o‘zlarining ilk davrlaridayoq o‘zaro munosabatda paydo bo‘lgan. Grekcha logika, arabcha mantiq atamalarining negizida so‘z va nutq yotganligi ham fikrimizning dalilidir.

Logika atamasi ilmiy muomalaga stoiklar tomonidan fikrning so‘z yordamida ifodalanishini bildiruvchi agama sifatida kiritildi. Arastu esa tafakkur qonunlarini o‘rganuvchi fan uchun analitika atamasini qo‘llagan edi.

Antik davrlardan boshlaboq grammatik kategoriylar mantiqiy kategoriyalar asosida izohlandi. Gap so‘zlar vositasida anglashilgan fikr deb ta’riflandi. So‘z bilan gap o‘rtasidagi farqdovchi belgi sifatida qaysi mantiqiy kategoriyalarni ifodalashi belgilandi: so‘z tushunchani, gap fikrni bildirishi ta’kidlandi.

Gapning tuzilish birliklari ham ko‘pincha tafakkur shakllaridan biri bo‘lgan hukmning tuzilish birliklari orqali tushuntirildi. Ayniqsa bunday holat bir sostavli gaplarni tushuntirishda yaqqol sezildi. Masalan, rus tilshunosi Babaytseva bir sostavli gaplarni mantiqan sostavlarga bo‘lish mumkin ekanligi bilan izohlaydi. Bir sostavli gaplarning quyidagi modellarini ko‘rsatadi:

WP (subyektsiz predikat ifodalangan gap, ya’ni egasiz kesim gap)

SP (Predikatsiz subyekt ifodalangan gap, ya’ni kesimsiz ega gap)

Xudsi shu mantiqiy yo‘nalishning ta’siri prof. I. Rasulov tomonidan yozilgan «Hozirgi o‘zbek adabiy tilida bir sostavli gaplar» monografiyasida ham seziladi.

Tilni mantiqiy kategoriylar asosida o‘rganish ayniqsa XVII asrdan XIX asrning birinchi yarmigacha o‘z cho‘qqisiga ko‘tarildi. Bu davrda nutqning mantiqiy kategoriyalarga to‘la mos holda shakllanishini e’tirof etgan holda, barcha tillar uchun umumiy, ratsional grammatika yaratish harakati kuchaydi. Ana shunday kurashning boshlovchisi ingliz filosofi Fransis Bekondir (1561-1626). U barcha tillar uchun umumiy, falsafiy grammatika yaratishga urindi. Bunday grammatika yaratishda o‘zi ishlab chiqqan bilishning amaliy, induktiv metodiga tayandi. Bakon turli tillarning qiyosiy grammatikasini barpo etish asosida uning negizida barcha tillarning afzal jihatlarini qamrab olgan va inson tafakkuri va sezgilarini o‘zida ideal joylashtiruvch umumiy bir tilni yaratish mumkin, degan g‘oyani ko‘tardi.

Ko‘rinadiki, u dunyoga kengroq tarqalgan Ovrupo tillari negizida barcha xalqlarning takomillashgan aloqa vositasi bo‘lgan, xudsi esperonto kabi, bir tilni yaratish haqida fikr yuritadi.

Mantiqiy kategoriylar asosida barcha tillar uchun umumiy grammatika yaratish g‘oyasi fransuz olimi Rene Dekart (1596-1650) va uning g‘oyasi asosida sunyoga kelgan kartezian falsafasi tomonidan rivojlantirildi. Aslida kartezian atamasi Dekart familiyasining lotincha yozilishi asosida maydonga kelgan.

Uning fikricha, barcha insonlarga xos bo‘lgan murakkab tushunchalar sistemasi nisbatan ancha kam miqdordagi elementar birlklarga jamlanishi mumkin. Masalaning yechimi inson tafakkurining barcha boyliklarini tashkil etadigan eng kichik, boshqa maytsa bo‘lakka bo‘linmaytsigan mantiqiy birlklarni aniqlash darajasiga, chin falsafaga asoslangan falsafiy til sistemasini topishga bog‘liqsir.

Dekart xудси табиий сон qаторлари каби инсон фикри-г'ояларини ham sanog'ини чиқарish mumkin ekanligini taxmin qiladi. Uning fikricha, o'зига noma'lum bir tilda barcha sonlarni bir kunda yozish va o'qish mumkin bo'lgani каби, инсон tafakkuridagi tushuncha va g'oyalarni ham ana shunday miqsorlarga keltirish mumkin. Natijada ana shu tushuncha va g'oyalarni ifodalovchi so'zlar tizimini yaratish mumkin. Bunday tilni yaratish, eng avvalo, chin falsafaga bog'liq. Dekartning fikriga ko'ra, faqat ana shu falsafagini insonning barcha fikr-g'ояларини sanashi va ularni sodda holda aniq qilib, chiroyli tartibda joylashtirishi mumkin. Bunday til, uning e'tirofiga ko'ra, so'zlarning bir xil tuslanish, turlanish va tuzilishiga ega bo'lishi lozim.

Umumiy grammatika yaratish g'оясини olg'a surgan olimlardan yana biri nemis олими Gotfrid Vilgelm Leybnits sir (1646-1716). U ilmiy kashfiyotlar qilishga imkon beradigan umumiy ilmiy metodni qidirish jarayonida tilga murojaat etdi.

G. V. Leybnits faqat isbotlash bilangina kifoyalanuvchi an'anaviy, shakliy mantiqni tanqid qilgan holda, «ilmiy kashfiyotlar qilish san'ati»га ega bo'lgan yangi mantiqni yaratish zarurligini ta'kidlaydi. Ana shunday mantiqni yaratish yo'lini, u tilning mantiqiy tahlilida ko'radi. Tilning mantiqiy tahlili, uning fikricha, universal mantiqiy simvollarni yaratish va bu simvollar yordamida tafakkur elementlarni ifodalash mumkin bo'ladi. Shunday qilib, Leybnits sun'iy simvolik tilni yaratish g'оясини ko'tarib chiqsi. U bunday sun'iy tilni mantiqiy-falsafiy va matematik qurilmalarga maksimal yaqin bo'lishi lozimligini ta'kidladi.

Leybnits fikricha, barcha murakkab g'оялар sodda g'оялар kombinatsiyasidan, barcha bo'linuvchi sonlar bo'linmaydigan sonlardan tashkil topganligini e'tiborga олган holda, murakkab tushunchalarni sodda tushunchalarga bo'lish chog'ida kombinatorika tamoyillariga amal qilish lozimligini tavsiya qiladi. Birinchi qatordagi atamalar sodda tushunchalar, ikkinchi qatordagi atamalar sodda tushunchalar juftligi, uchinchi qatordagi atamalar esa birinchi qatordagi uch atamaning yoki birinchi qatoridagi ikki atama bilan ikkinchi qatoridagi bir atamaning kombinatsiyasi ekanligini ta'kidlaydi. Shunday qilib, barcha murakkab tushunchalar ma'no «atom»laridan tashkil topganligini e'tirof etadi. Natijada tafakkur uzvlarini algebraik ifodalar bilan belgilash imkoniyati yaratiladi.

Garchi Bekon, Dekart, Leybnitslar mantiqiy kategoriylar asosida umumiy grammatika yaratish g'оясини bergen bo'lsalar ham, lekin ular bu g'оялarni falsafa doirasida bayon qildilar. Mavjud tillarning ichki tuzilishi va tabiatи haqida sof lingvistik tadqiqot olib bormadilar.

Mantiq materiallari asosida til tuzilishini tushuntirish va ratsional grammatika yaratish ilk marta fransuz олимлари A. Arno va K. Landslolariga nasib etdi.

1660 yilda tilshunoslik nazariyasida keskin burilish ro'y berdi. Parij yaqinidagi Por-Royal masjidida mashhur filosof va mantiqchi Arno bilan grammatis Landslo hamkorligida dunyoga «Por-Royal grammatikasi» nomi bilan tarqalgan «Umumiy ratsional grammatika» yaratildi. Bu grammatikaning yaratilishi tilshunoslik tarixida yangi sahifa ochdi.

«Por-Royal grammatikasi» ilk bor bir qator konkret tillarning faktlari asosida umumiy grammatika sistemasini yaratish mumkinligini namoyish etdi.

Dunyoga sistem-struktur tilshunoslikning asoschisi sifatida tanilgan Ferdinand de Sossyur ham bu grammatikaga yuksak baho beradi.

Shu grammatikaning yaratilishi bilan tilni ilmiy o'rganish boshlandi. Unda birinchi marta lingvistik tadqiqot predmeta chegaralab berildi.

«Por-Royal grammatikasi» mualliflari tafakkur universalligiga e'tibor bergen holda, tafakkurning moddiylashtiruvchisi bo'lgan tilda ham universal jihatlar mavjudligini ta'kidladilar. Ularning fikricha, инсон ongiga ta'sir etuvchi har qanday tadqiqot obyektini ratsional tomonlarni topish asosida umumiy grammatikani yaratish mumkinligini bayon qildilar. Bu bilan bir necha tillarni bir vaqgda oson o'rganishning asosiy tamoyillarini belgilashga harakat qildilar.

«Por-Royal grammatikasi»da mualliflar barcha tillar tuzilishi haqida fikr yuritishni maqsad qilsalar ham, amalda faqat grek, lotin, qadimgi yaxudiy, hozirgi tillardan-fransuz, italyan, ispan; qisman ingliz va nemis tillari tekshirish obyekta bo'ldi. Bu tillardan ko'proq fransuz tiliga asosiy e'tibor qara- tildi. Shu tillarning o'ziyoq mualliflarning turli tillar tuzilishi uchun umumiy, ratsional tomonlarni belgilash maqsadini amalga oshirishga kifoya qiladi deb o'ylaydilar.

Universal grammatika umumlashmalarga ko'proq e'tiborni qaratdi. Ularning ta'kidlashlaricha, universalizm - umumlashmalsiz, abstraksiyasisiz bo'lishi mumkin emas. Shuning

uchun ham «Por-Royal» mualliflari konkret tovush bilan tovush tipi, tovush modelini farqlaydilar. Tovush tipi yoki modeli uchun «harf» atamasini qo'llaydilar va «harf» atamasini grafik belgi ifodalovchi «grafema» atamasiga qarama-qarshi qo'yadilar.

Arno va Londslolar tilning tovush tomoni, moddiy plani bilan ma'no tomonini farqlaydilar. Ular mantiqiy qonunlar asosida barcha tillar uchun umumiy jihatlarni belgilash bilan birga, har qaysi tilning o'ziga xos jihatlari mavjudligini ham aniqlashga harakat qildilar.

Ularning ta'kidlashlaricha, mantiq qonunlari barcha insoniyat uchun bir xil. Shunday ekan, barcha tillar uchun grammatik tuzilishning bir xil fundamental (ichki) amal qilish qoidasi mavjud. Shuning uchun u yoki bu tilda boshqa tillarda uchraydigan ayni bir xil qoidalar uchrashidan hayron bo'lmaslik kerak. Bu esa har qaysi tilning o'ziga xos (tashqi) xususiyatlarini rad ham etmaydi. Shunga muvofiq, universal grammatikaning asosida dunyodagi barcha tillar universalligi hech qanday shubha uyg'otmaydigan umumiy mantiqiy sxemalarga mos keluvchi universal til sxemalarining turlicha tashqi ko'rinishlari ekanligi haqidagi bosh tezis yotadi.

«Por-Royal grammatikasi» mualliflari tilni shakliy mantiqqa qiyosan o'rganish yo'llidan borar ekanlar, shakliy mantiqning asosiy vazifasi obyektiv olam haqida chin bilimga ega bo'lmoq uchun amal qilish shart bo'lgan qonun va tamoyillarni belgilashsan iborat ekanligini ta'kidlaydilar. Shunday ekan, ilmiy grammatikaning asosiy vazifasi ham dunyodagi barcha til-lar yoki har qanday alohida olingan tilni o'rganish jarayonida chin bilimga ega bo'lishni ta'minlaydigan qonun va tamoyillarni aniqlashdan iborat bo'lishi kerak.

Ularning ko'rsatishicha, inson o'z ongidagi barcha taassurotlarni ifodalash uchun belgiga ehtiyoj sezadi. Ana shunday belgi vazifasini so'z bajaradi. So'zlar ma'lum sinflarga bo'linadi. «Por-Royal grammatikasi» mualliflari so'zlari sinflarga bo'lishda tafakkur shakllariga qanday munosabatda bo'lish tamoyiliga asoslanadilar. Bir guruh so'zlar fikr predmetami, boshqalari esa fikr usuli, qanday yuz berish tarzini bildiradi. Birinchi guruhdagi so'zlarga substantivlar, artikllar, olmoshlar, sifatdosh, ko'makchi va ravishlar kiritiladi. Ikkinci guruhdagi so'zlarga esa fe'llar, bog'lovchilar va undovlar mansubligi ta'kidlanadi.

Ratsional grammatika mualliflari so'z mohiyatini ham mantiq asosida belgilaydilar. Ularning izohlashlaricha, so'z aniq va bo'laklarga bo'linuvchi tovushlar bo'lib, ulardan inson o'z fikrlarini ifodalash uchun belgilar hosil qilgan.

«Por-Royal grammatikasi»da tafakkur birliklari bo'linishining ma'lum bir tilda yoki turli tillarda uchraydigan xilma-xil yo'llari tahlil etiladi.

Tafakkur birliklarini nutqiy birliklarga kodlashtirish har bir tilning o'ziga xos xususiyati bo'lib, shu tilning material i bilan, uning tuzilish xususiyati bilan bogliqdir.

Har bir til nutqda fikriy bo'linishning muayyan modellariga ega. Demak, turli tillar fikriy bo'linishning nutqsagi turli modellariga ega bo'ladi. Ana shunday xilma-xil tillarning modellarini qiyosiy o'rganish nazariy jihatdan bu modellarning universal nomenklaturasini aniqlashga imkon beradi.

Ularning ko'rsatishlaricha, til ichki va tashqi as-pektga ega. Bu ikki jihat har qanday gapda yorqin namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham gap ikki jihatdan izohlanishi mumkin: a) ichki tomondan va b) tashqi tomondan.

Gapning ichki tavsifi ma'noni qanday modsiy-lashtirish tomonini o'z ichiga olsa, tashqi tavsifi ma'noning moddiy tomoni qanday shakllangani, ya'ni ma'no gapni tashkil etgan elementlarga qanday bo'lin-ganini qamrab oladi. Boshqacha aytganda, tashqi tavsif gapning leksik-semantik sintaktik va fonetik talqinini o'z ichiga oladi. Birinchi tuzilishni ichki tuzilish, ikkinchi tuzilishni esa tashqi tuzilish deb yuritiladi. Shunday qilib, ular gapning ichki va tashqi tuzilishiga ega bo'lishi haqidagi g'oyani sistem-struktur tilshunoslik paydo bo'lishidan ancha oldin ko'tarib chiqsilar.

Arno va Landslolarning ta'kidlashlaricha, ichki struktura mavhumlik belgisiga ega. U nutqiy faoliyatda konkret jumlalar hosil qilishning asosi, boshlang'ich nuqtasi sanaladi. Ichki tuzilish bilan tashqi tuzilish bir-biriga mos kelishi shart emas. Muayyan ichki tuzilish turli tillardagina emas, hatto bir tilning o'zida ham turli tashqi tuzilishlariga ega bo'lishi mumkin. Ko'rinaridiki, bir qancha tillar ichki tuzilish bo'yicha bir-biriga mos keladi. Demak, universal grammatikaning asosiy tadqiqot obyekta tilning ichki tuzilishi bo'lishi kerak.

Ichki tuzilish bilan tashqi tuzilish o'rtasidagi munosabat transformatsiya qoidalariga usoslanishi ko'rsatiladi. Bunda muayyan ichki tuzilish bir qancha tashqi tuzilishlarga transformatsiya qilinadi. Natijada mavhum modellar konkret jumlalar orqali yuzaga chiqadi.

«Por-Royal grammatikasi»da olga surilgan ichki va tashqi strukturalar o'rtasidagi yuqoridagi kubi munosabat keyinchalik Amerika tilshunoslari tomonidan rivojlantirildi va transformatsion lingvistikaning vujudga kelishiga zamin yaratdi.

Lisoniy va nolisoniy omillarning hamkorligi muvofiqlik ko'rinishida namoyon bo'lib, nutqiy sistema tahlilida ulardan birortasining mavqeiga past nazar bilan qarash noo'rin, bunda kompleks tahlil tamoyili ustuvorlik qiladi. «Nutqiy qurilmalarning strukturasi va ma'nosining aniq tavsifini kontekstual omillarga yoki, aniqroq aytganda, ushbu tuzilmalarning qo'llanishiga oid omillarga tuyanmasdan turib bilishning imkoniy yo'q».⁴⁰

Mustahkamlash uchun savollar

1. Tilshunoslik va mantiq munosabatini yoriting.
2. An'anaviy mantiq nima?
3. Dialektik mantiq nima?

4-ma'ruza. Tilshunoslik va adabiyot

Reja

1. Tilshunoslikning badiiy adabiyot bilan munosabati.
2. Lingvopoetika.
3. Badiiy san'atlarni hosil qilishda til vositalaridan foydalanish.
4. Badiiy tasvir vositalari.
5. Poetik sintaksis.

tayanch tushunchalar: Tilshunoslikning badiiy adabiyot bilan munosabati. Lingvopoetika. Badiiy san'atlarni hosil qilishda til vositalaridan foydalanish. Bidiyy tasvir vositalari. Poetik sintaksis.

Tilshunoslik badiiy adabiyot bilan ham uzviy aloqadadir. Chunki til aloqa vositasi sifatida muayyan axborot tashuvchi odsiy belgilar sistemasigina bo'lib qolmay, balki tinglovchiga ta'sir qiluvchi qudratli vosita hamdir. Tilning birinchi funksiyasi an'anaviy va sistem-struktur tilshunoslikning o'rganish obyekta bo'lsa, ikkinchi funksiyasi lingvopoetikaning o'rganish obyektidir.

Lingvopoetika - lingvistik poetikaning qisqargan shakli bo'lib, badiiy asarlarda qo'llanilgan lisoniy birliklarning (fonetik, morfemik, leksik va boshq.) badiiy-estetik vazifalarini, tilning konnotativ funksiyasini o'rGANADI. Boshqacha aytganda, lin-gvoioetika badiiy nutqni o'rganuvchi tilshunoslikning bo'limidir.

Badiiy nutq badiiy adabiyotning bayon qilish vositasi sanaladi.

Filologiya tarixida badiiy asar tili va poetik til atamalari tez-tez uchrab turadi. Bu atamalar, ifodalagan tushunchalar bir-biriga juda yaqin tursa ham, lekin o'zaro ma'lum jihatlari bilan farq qiladi. «Obraz», «Uslug», «Ko'chim (trop)», «Badiiy til», «Stilistika», «Poetika» kabi tushunchalar badiiy asar tili va lingvistik poetika uchun dahldor tushunchalardir.

V. P. Grigoryevning ta'kidlashicha, badiiy til keng qamrovli obyekt sifatida funksional darajalangan qismlarga, fragmentlarga bo'linish xususiyatiga ega.

Amalda keng kamrovli obyektning ayrim fragmentlarigina badiiy nutqning tahliliga beriladi. Ana shunday asosiy fragment badiiy asar tili sanaladi. Ko'rinadiki, badiiy nutq, badiiy asar tiliga nisbatan kengroq tushunchadir. U tilning ekspressiv funksiyasini o'z ichiga oladi. Badiiy asar tili esa badiiy nutqning bir ko'rinishi, bir fragmenta hisoblanadi.

Badiiy nutqni o'rganuvchi lingvistik poetika ham til sistemasining barcha sath birliklarining badiiy-estetik funksiyasini qamrab oladi. Fonetik-fonolo-gik sathsa fonetik birliklar ham badiiy-

⁴⁰ Nuyts J. Aspects of a Cognitive-Pragmatic Theory of Language. On cognition, functionalism, and grammar. – Amsterdam, 1992. – P.68.

estetik vazi- fa bajarishi mumkin. Xususan, bir xil tovushlarning, bir xil bo‘g‘inlarning takrorlanishi she’riyatda go‘zallikni, ta’sirchanlikni ta’minlovchi vosita sanaladi.

Leksik sathda leksemalarning ko‘chma ma’nolarda qo‘llanilishi (metafora, metonomiya va boshk.), mubolaga, meyoziq kabi hodisalar ham ta’sirchanlikni oshiradi va LPning tekshirish obyekta sanaladi.

Shuningdek, gap bo‘laklarning o‘rinlashishi, gap tarkibida bir xil bo‘laklarning takrorlanishi kabi hodisalar ham badiiy nutqni shakllantirishda xizmat qiladi.

Shunday qilib, LP tilning qaysi sath birligining badiiy estetik funksiyasini o‘rganishga qarab, fonetik poetika (FP), leksik poetika (LekP), sintaktik poetika (SP) kabi qismlarga bo‘linadi.

LPning har qaysi turini alohida-alohida o‘rganish va ularning o‘zaro munosabatini ochish hozirgi tilshunoslik oldida turgan muhim vazifalaridan biridir.

Mustahkamlash uchun savollar

1. Tilshunoslikning badiiy adabiyot bilan munosabatini yoriting.
2. Lingvopoetika nima?
3. Badiiy san’atlarni hosil qilishda qaysi til vositalaridan foydalaniladi?
4. Badiiy tasvir vositalariga misol keltiring.
5. Poetik sintaksis nima?

5-ma’ruza. Tilshunoslik va psixologiya


Reja

1. Tilshunoslik va psixoterapiya.
2. Psixoterapiya va notiqlik san’ati.
3. Tilshunoslik va psixiatriya.
4. Tilshunoslik va psixiatriya kesishmasida turli ruhiy kasallikkarda nutqiy xususiyatlarni tadqiqi.

tayanch tushunchalar: Tilshunoslik va psixoterapiya. Psixoterapiya va notiqlik san’ati. Tilshunoslik va psixiatriya. Tilshunoslik va psixiatriya kesishmasida turli ruhiy kasallikkarda nutqiy xususiyatlarni tadqiqi.

Nutqiy faoliyat bir tomondan tilshunoslikning o‘rganish obyekti bo‘lsa, ikkinchi tomonidan psixologiyaning ham tekshirish predmeta sanaladi. Demak, tilshunoslik bilan psixologiyaning ham kesishish nuqtasi mavjuddir. Ikki fan oraligidagi kesishish nuqqasi psixolingvistikaniqning o‘rganish obyekti sanaladi.

Psixolingvistika



Psixolingvistika atamasi amerika olimlari tomonidan ilmiy hayotga olib kirildi. Il k marta bu atama 1946 yilda amerika psixolog N. Pronko tomonidan «Til va psixolingvistika» nomli maqolasida qo‘llanildi. Lekin bu maqolada psixolingvistikaniqning maqomi keng ilmiy jamoatchilik e’tirof etadigan darajada belgilanmagan edi.

1953 yilda Indiana shtatining Blumington shahrida mashhur amerika psixologlari Dj. Keroll va Ch. Osgudlar bilan taniqli tilshunos va etnografi T. Siboyeklar tomonidan o‘tkazilgan universitetlararo semi- narda tilshunoslik bilan psixologiya munosabatlari muhokama etildi va bu

ikki fan oralig‘ida psixolingvistika nomi bilan yuritiluvchi alohida fan yo‘nali- shi bo‘lishi lozimligi ta’kidlandi.

Seminarda turli ixtisoslik vakillari ishtirok etdilar. Xususan, 1953 yilda «Tilni o‘rganish» nomli asar yozib, unda tilshunoslikning boshqa fanlar bilan, ayniqsa, psixologiya bilan munosabatini chuqur tahlil qilib dovrug qozongan Dj. Keroll, folkloristika bo‘yicha shuhrat topgan T. Sibeok, tilshunoslik bo‘yicha ancha mashhur bo‘lib qolgan, induslar tili va madaniyati bo‘yicha taniqli mutaxassis Dj. Jenkins, tillarning geneologik tasnifi va til tarixi bilan shug‘ullanuvchi Dj. Grinberg kabi mashhur olimlar bilan birlikda, bir qator yosh tadqiqotchilar ham ishtirok etdilar.

Ikki oy davom etgan bu seminarda psixolingvistik tadqiqotlarning nazariy asoslari bo‘yicha bir fikrga kelindi.

Seminarda ishtirok etgan olimlarning psixolingvistika bo‘yicha umumiy platformasi. 1954 yilda «Psixolingvistika» nomi bilan nashr etilgan kollektiv monografiyada o‘z ifodasini topdi.

Bu kitob ilmiy jamoatchilik o‘rtasida katta shuhrat topdi. Natijada psixolingvistika tilshunoslik va psixologiya oralig‘idagi alohida fan yo‘nalishi sifatida e’tirof etila boshlandi. Tez orada dunyoning turli mamlakatlarda, xususan, Angliya, Fransiya, Italiya, Ruminiya Polsha, Chexoslovakiya, Gollandiya, Rossiya, Norvegiya, Kanada singari qator mamlakatlarda psixolingvistika maktablari dunyoga keldi.

Psixolingvistika garchi asrimizning 50-yillaridan shakllangan bo‘lsa ham, lekin uning ildizi uzoq davrlarga - tilshunoslikda anchadan buyon davom etib kelayotgan psixologik yo‘nalishga borib taqaladi. Demak, psixolingvistika XIX asr tilshunosligida hukm surgan psixologik yo‘nalishning mantiqiy davomidir. Shuning uchun ham, avvalo, psixolingvistikaning ildizi bo‘lgan tilshunoslik nazariyasidagi psixologik yo‘nalish haqida fikr yuritishga to‘g‘ri keladi.

Tilshunoslikda psixologik yo‘nalish ancha davrlardan buyon xukm surib kelayotgan tilmoxiyatini mantiqiy asosda yoritishga qarama-qarshi ravishda XIX asrning 50-yillarida qiyosiy-tarixiy tilshunoslik negizida vujudga keldi.

Bu yo‘nalishning paydo bo‘lishida V. fon Xumboldtning til falsafasi katta ta’sir ko‘rsatdi. Tilshunoslikda psixologik yo‘nalishning asoschisi buyuk nemis tilshunosi V. fon Xumboldtning shogirdi X. Shteyntaldir.

Psixologik yo‘nalish o‘zining dastlabki davrida bir qator dalillar asosda an’anaviy mantiqiy yo‘nalishdan uzilishga harakat qildi. Bu asoslar quyidagicha:

mantiqiy va grammatik kategoriyalarning o‘zaro muvofiqligi juda kuchsiz darajadadir. Ularning munosabati doyra va qizil tushunchalarining munosabatiga o‘xshaydi. Mantiq umuminsoniy mohiyatga ega. Shuning uchun muayyan xalqning tiliga xos bo‘lgan xususiyatlarni ochib berolmaydi. Mantiq gipotezalarga tayanuvchi fan bo‘lsa, tilshunoslik genetik xususitga ega. YA’ni tilshunoslik «nutqiy jarayon»ni tidqiq etish bilan shug‘ullansa, bu jarayon mantiqni qiziqtirmaydi va boshq.

Psixologik yo‘nalish tarafdarlari tilshunoslikning metodologik asosi sifatida mantiqni emas, balki psixologiyani e’tirof etdilar.

V. fon Humboldt ta’sirida X. Shteyntal tilda «Xalq ruhi»ning xalq-psixologiyasining ifodalananishini ko‘rdi. Shuning uchun ham tilning sotsial tabiatiga alohida ahamiyat berildi.

U davrdagi psixologiya individual psixologiya edi. Shuning uchun X. Shteyntal sotsial psixologiyani (etnopsixologiyani) yaratish va uni targ‘ib etish uchun M. Lotsarus bilan birgalikda «Etnik psixologiya va tilshunoslik» nomli jurnalni nashr etdilar. XX asr boshlarida V. Vundt ham tilshunoslikning metodologik asosi sifatida xalq psixologiyasi haqidagi fanni yaratishga harakat qildi. Lekin u alohida fan sifatida shakllanmadi. Shunday bo‘lishiga qaramay, tilshunoslikda psixologiyaga tayanish harakati bir qator yangi yo‘nalishlarning ochilishiga sababchi bo‘ldi. Jumladan, tilshunoslikda xalq ruhini ochishga intilish tufayli, folkloini, mifologiyani, topishmoq, maqol, matallarga va ularda ifodalangan xalq urf- odatlarini chuqur o‘rganishga e’tibor kuchaydi. Ular xalq donoligining ifodalovchilari sifatida qaraldi.

Psixologik yo‘nalish tarafdarları V. fon Humboldt g‘oyalariga sodiq qolgan holda, tilni doimo rivojlanib boruvchi dinamik, tarixiy hodisa sifatida baholadilar. Bunday yondashuv qiyosiy-tarixiy tilshunoslik g‘oyalariga mos keladi. Shu bilan birgalikda, assotsiativ psixologiya tushunchalari va amalini tilshunoslikka kiritish harakatida psixologik yo‘nalish tarafdarları jonli nutqqa, bevosita nutqiy jarayonga, tilning ichki tomoniga, so‘z va gaplarning ma’no tomoniga asosiy e’tiborni

qaratdilar. Ularning ta'kidlashlaricha, jonli nutqni o'rganish, tilning mohiyatini va kelib chiqishini yaxshiroq tushunishga qulay imkoniyat beradi.

Psixologik yo'nalishi vakillarining bevosita jon- li nutqqa e'tibor qaratishlarida ham V. fon Humboldtning ta'siri kuzatiladi. V. fon Humboldt til va nutqni farqlagan holda, jonli nutqni o'rganish jarayonida, garchi ma'lum bir til vakillari bir umumiyl tilda gaplashsalar ham, ular ayni paytda o'z tillariga ham egadir, degan xulosaga keladi. Shuning uchun jonli nutqni va ayrim paytda, individlar nutqini o'rganish lozim degan g'oyani olga tashlaydi.

Ma'lumki V. fon Humboldt asarlarida «tilning ichki shakli» tushunchasi markaziy o'rinni egallaydi. Bu juda keng tushuncha bo'lib, xalq ruhi, urf-odatlari va hokazolarni o'z ichiga oladi.

Psixologik yo'nalish tarafdorlari ham bu tushun- chaga katta e'tibor berdilar. X. Shteyntal uni til tari- xiga nisbatan ham qo'lllashga harakat qildi. Uning fik- richa, tarixgacha bo'lgan davrda tillar juda boy ichki shaklga ega bo'lgan. Tarix davrida esa ular asta-sekin kamayib borgan. Bu fikrlar mashhur fransuz filosofi J. Russo qarashlariga goyat monandsir.

«Ichki shakl» tushunchasidan psixologik yo'nalish vakillari so'zning paydo bo'lish jarayonini tushuntirib berishda ham foydalanadilar. Xususan, bu tushuncha rus tilshunosligidagi psixologik yo'nalishning yirik vakili A. A. Potebnya asarlarida ham markaziy o'rinni egallaydi. Lekin A. A. Potebnya asarlarida qo'llangan «ichki shakl» atamasi ostida V. fon Humboldt tushungan «xalq ruhi» emas, balki so'zning kelib chiqishiga asos bo'lgan «obraz markazi» tushuniladi. Masalan, Medved so'zining paydo bo'lishi uchun xizmat qilgan ichki shakl, obraz markazi ayiqning asal yeyishi belgisi bo'lgan.

Til birliklarining paydo bo'lishini tushuntirishda psixologik yo'nalish vakillari psixologiyaning «assimilyatsiya», «assotsiatsiya», «appersepsiya» kabi ata- malaridan foydalandilar.

Ayniqsa, «assotsiatsiya» tushunchasi A. A. Potenbnyaning so'zning paydo bo'lishi, so'z etimologiyasini bayon qilishda keng qo'llaniladi.

Psixologik yo'nalish tarafdorlari yuqorida sa- nab o'tilgan psixologik atamalarga ko'proq murojaat qilganliklaridan ko'rinish turibdiki, ular asosan bevosita nutqiy jarayonga asosiy e'tiborni qaratdilar.

Ular birinchilardan bo'lib, V. fon Humboldtning bog'- li nutqni lingvistik tekshirish obyektiga aylanti- rish lozimligi haqidagi fikriga tadqiqotchilar diq- qatini tortdilar.

Psixologik yo'nalish vakillari, garchi tekshirish metodologiyasida psixologizmga asoslanish nuqtai na- zardan umumiyl kni tashkil etsalar ham, lekin ular turli mamlakatlarda bir-biridan farqli jihatlarga ega bo'ldilar. Jumladan, Rossiya psixologik maktabi vakillarining qarashlari, nemis psixologik maktabi vakillaridan bir mucha farq qiladi. Xususan, Shteyn- tal, Vundt singari olimlar psixologiya tomoniga, ya'ni tilning psixologik tomoniga emas, balki psixologiya- ning til tomoniga e'tibor qaratdilar. A. A. Potebnya grammatikaning o'ziga xos xususiyatlarini ochishda psixologik tushunchalardan foydalandi.

Psixologik yo'nalish asoschilarini til taraqqiyoti- da psixologik omillarning rolini oshirib yubordi- lar. Ko'pincha psixologik kategoriylar bilan grammatik kategoriylar qorishtirildi.

Psixologik yo'nalish vakillarining bunday kuchsiz tomonlarini anglash XIX asrning 70- yillarda tilshunoslikda yangi yo'nalishning - yosh grammatikachilar maktabining tughilishiga olib keldi.

Yosh grammatikachilar maktabi g'oyalari Germaniya- ning Leypsig universiteta olimlari tomonidan yaratildi. Bu maktab psixologik yo'nalish bag'rida rivojlandi va unga tanqidiy yondashish asosida shakllandi. Yosh grammatikachilar tilning psixologik tabiatini e'tirof etgan holda, etnopsixologiyani ilmiy uydirma sifatida rad qildi va tilshunoslikning tekshirish obyektiga beriladigan yagona reallik individ tili deb baholanadi. Shuning uchun ham ular asosiy e'tiborni nutqiy jarayonni, nutqiy jarayondagi fonetik o'zgarishlarni o'rganishga qaratdilar.

Tilshunoslikda psixologik yondashuv an'anasi uzoq davom etdi. XX asr boshlarida A. Marti asos solgan universal grammatika nazariyasi uchun ham ana shu yondashuv poydevor bo'lib xizmat qildi.

A. Marti universal grammaтика yaratish mumkinli- gining tayanch nuqtasi sifatida barcha tillarning bir xil psixologik mazmunni ifodalashini va bir xil ichki qurilishga ega ekanligini, chunki bu qanday inson, qaysi tilga mansub bo‘lishidan qat’iy nazar, umumiy psixofiziologik tuzilishga ega bo‘lishini ta’kidlaydi. A. Martinning fikriga ko‘ra, tilshunoslikning assosiy vazifasi universal til vositalari orqali ifodalangan mazmun va psixik funksiyalarni aniq tavsiflash va tahlil qilishdan iborat bo‘lish kerak.

Asrimizning 50-yillarida maydonga kelgan psixolingvistika psixologik yo‘nalishning eng yaxshi jihatlarini davom ettirdi va uni yangi bosqichga olib chiqsi.

Psixolingvistikaning o‘rganish obyektiqa nimalar kiradi? Bu savolga ham bugungi kunda psixolin- gvistlar turlicha javob beradilar. Lekin ularning hammasini jamlagan holda, quyidagi masalalarni psixolingvistika obyekti sifatida ajratish mumkin:

Nutqning vujudga kelish mexanizmini o‘rganish.

Bolalar nutqining shakllanish jarayonini o‘rganish.

Turli nutqiy vaziyatda nutqni so‘zlovchi bilan tinglovchi o‘rtasidagi munosabatni hiyeobga olgan holda o‘rganish.

Nutqning axborot tashish funksiyasini o‘rganish va boshq.

Mustahkamlash uchun savollar

1. Tilshunoslik va psixoterapiya munosabatini yoriting.
2. Psixoterapiya va notiqlik san’ati munosabatini yoriting.
3. Tilshunoslik va psixiatriya munosabatini yoriting.
4. Tilshunoslik va psixiatriya munosabatini yoriting.

6-ma’ruza. Tilshunoslik va sotsiologiya

Reja

1. Tilshunoslikning sotsiologiya bilan aloqasi.
2. Sotsiolingvistika.
3. Til vaziyatlari.

tayanch tushunchalar: Tilshunoslikning sotsiologiya bilan aloqasi. Sotsiolingvistika. Til vaziyatlari.

Til ijtimoiy hodisa bo‘lganligidan, u jamiyat bilan, jamiyatning hayoti bilan uzviy aloqadadir. Demak, tilning ijtimoiy mohiyati, ijtimoiy vazifasi, tilga sotsial omillarning ta’siri, til taraqqiyotida til siyosatining roli kabi qator masalalarni o‘rganish bilan shug‘ullanuvchi tilshunoslik yo‘nalishining tug‘ilishiga katta ehtiyoj tug‘ildi.

Ana shunday amaliy ehtiyoj bilan tilshunoslikda sotsial yo‘nalish va sotsialingvistika dunyoga keldi. Sotsiolingvistikaning asosiy o‘rganish muammolaridan biri tilning sotsial differensiyasi masalasidir.

Muayyan bir tilda gaplashuvchi jamiyatning sosial guruhdanishi xilma-xildir. Shunga kura har qaysi guruhnинг o‘ziga xos lingvistik belgilari mavjud. Masalan, hududiy farqlanish, kasbiy farqlanish va boshqalar. Ana shunga ko‘ra har qaysi sotsial guruhnинг o‘z lingvistik belgisiga ko‘ra farqlanishi, uning ijtimoiy sabablarini o‘rganish muhim ahamiyatga ega.

Sotsialingvistikaning ikkinchi muhim muammosi ma’lum bir jamiyatdagi tilning yashash shakllari majmuasi sifatida baholanadigan til vaziyati masalasidir.

Masalan, sobiq sho‘rolar davrida bir nechta tillarning mavjud bo‘lgani holda, bitga tilga, asosan rus tiliga katta imtiyoz berilganligi tufayli, boshqa tillar rus tili ta’sirida qolib ketdi.

Til vaziyatni ikki guruhgaga bo‘linadi:

ekzogloss vaziyat, ya’ni turli tillar mansub bo‘lgan tillarning bir jamiyatda faoliyat ko‘rsatishi;

endogloss vaziyat, ya’ni bir tilning turli kichik sistemalarining faoliyat ko‘rsatishi.

Shuningdek tillarning o‘zaro ta’siri va leksik olinmalar muammolari ham sotsialingvistikaning o‘rganish obyektidir.

Sotsialingvistikaning eng muhim muammolaridan yana biri bilingvizm masalasidir. O'zbekistonning turli hududlarida ikki tilda teng gaplashuvchi aholi istiqomat qiladi. Ularning har ikki tilda erkin fikr almashishi qonun bilan himoya qilinadi.

Bilingvizm sharoitida, albatta, ikki til o'zaro bir-birining ta'siriga uchraydi. Ana shu ta'sirni o'rganish ham sotsialingvistikaning o'rganish obyektiga kiradi.

Sotsialingvistika muammolari ichida til va til siyosati masalasi eng muhim o'rinni egallaydi. Sobiq Ittifoq davrida millatlarni va ularning tillarini birlashtirish siyosati olib borildi. Buning natijasida yetmis yil ichida ayrim mayda etnoslar va ularning tillari (masalan, yukagirlar) yer yuzidan yo'qolib ketdi. Rus bo'limgan boshqa millatlar va ularning tillarida ham turg'unlik, faoliyat doirasining cheklanishi hukm surdi.

O'zbekiston Respublikasi istiqlolga erishgach, de-mokratik tamoyilga asoslangan til siyosati yurgiza boshladi. Buning yorqin guvohi sifatida Davlat tili haqidagi Qonunning to'qqizta moddasining O'zbekiston hududida yashaydigan boshqa xalq vakillari va ularning tillarining himoya qilinishiga qaratilganligidir.

Bundan tashqari sotsialingvistika millat va milliy til, til va jamiyat kabi masalalar bilan ham shug'ullanadi.

Muloqot kommunikantlarning darak, so'roq yoki buyruq shaklidagi fikr almashishidir. «Tilning mavjudligi insonlarning so'zlash yoki yozish harakatlarini bajarishi bilan bog'liqdir. Bu harakatlarning bajarilishi jarayonida lisoniy birliklar (birinchi o'rinda gap) asl ma'nosidan tashqari tasdiqlash, buyurish, ogohlantirish, va'da berish kabi mazmunni ifodalash imkoniyatini namoyon qiladilar. Bu ma'nolar so'zlovchi shaxs tomonidan bajarilayotgan nutqiy faoliyat natijasidir. Demak, nutqiy akt so'zlovchining ma'lum muhitda, aniq maqsadda tinglovchiga lisoniy murojaatidir».⁴¹ Maqsadning tabiatini va xususiyatiga ko'ra so'zlovchi mavjud lisoniy birliklarni nutqiy vaziyat va ishtirokchilarning, aniqrog'i, tinglovchilarning holati, kayfiyati bilan bog'liq ravishda qayta ishlov beradi – tanlaydi, ma'lum bir ma'no baxsh etadi. Muloqotning lisoniy vositasi, lisoniy ishoralar, lisoniy birliklar, boshqacha aytganda, fonema, morfema, so'z, so'z birikmasi yoki gap emas, hatto ishora ham so'z va gapdagagi shunchaki shartli belgilar emas, balki lisoniy birlik va munosabatlarning nutq jarayonida ishlayotgan ko'rinishidir. Aniqrog'i, gap yaratilishiga asos bo'luvchi ishora (til birliklari)ning muayyan nutqiy sharoit, vaziyatga moslashtirilishi va qo'llanishi natijasida nutqiy akt vujudga keladi, har bir nutqiy akt muloqotning eng kichik tashkil etuvchi birligidir.⁴²

Mustahkamlash uchun savollar

1. Tilshunoslikning sotsiologiya bilan munosabatini yoriting.
2. Sotsiolingvistika nima?
3. Til vaziyatlari nima?

7-ma'ruza. Tilshunoslik, antropologiya va tarix Reja

1. Tilshunoslikning antropologiya bilan aloqasi.
2. Nutqning kelib chiqishi haqida tilshunoslар va antropologlar qarashlari.
3. Nutqning paydo bo'lish bosqichlari.
4. Nutq ontogenezi
5. Tilshunoslikning tarix, etnografiya bilan munosabati

Til bilan shu til egasi bo'lgan xalq uzviy aloqadadir. Xalq tarixidagi har bir voqeа, xalqning urf-odatlari, turmush tarzi uning tilida aks etadi. Shuning uchun ham til bilan shu til egasi bo'lgan

⁴¹ Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент: ЎзМЭ, 2008. – Б.71.

⁴² Searle J. Contemporary philosophy in the United States // The Blackwell companion to philosophy. – Oxford, 1996. – P. I – 24.

etnos o'rtasida qanday mustahkam aloqa mavjud bo'lsa, ularni o'rganuvchi tilshunoslik bilan xalq tarixi va etnografiya o'rtasida ham shunday aloqa mavjudsir.

Xalq elatlarining ijgimoiy, iqtisodiy, madaniy va siyosiy hayotida ro'y bergan har bir o'zgarish uning tilida ham o'z ifodasini topadi. Shuning uchun xalq tarixi uchun tarixiy hujjatlar, arxeologik yodgorliklar guvohlik bera olmagan taqdirda ham, uning tili qimmatli materiallar berishi mumkin. Ayniqsa, toponim, etnonimi, etnotoponimlar xalq tarixini inobatga olmay turib o'rganib bo'lmaydi. Shu bilan birqalikda tilshunoslik etnografiya bilan ham uzviy aloqadadir.

Tilning shu til egasi bo'lgan atnos madaniyatiga bo'lgan munosabatini, tilning funksiyalanish va ri-vojlanish jarayonida til etnomadaniyat, etnopsixologik omillar o'rtasidagi aloqani o'rganishga chtiyoy tufayli etnolingvistika yo'naliishi vujudga keldi.

Etnolingvistika atamasi grekcha etnoz - xalq, qabila va lingvistika so'zlardan olingan bo'lib, mustaqil lingvistik yo'naliish sifatida XIX asrning 70-yillarda Shimoliy va keyinroq Markaziy Amerikadagi indus qabilalarining tili, madaniyati, urf-odatlarni o'rganishning kuchayishi bilan paydo bo'ldi. Lekin bu yo'naliishning ilk davrida ko'proq etnografiya masalalarga diqqat jalgilindi, faqat asrimizning 20-yillarda lingvistik tomoniga ahamiyat kuchaytirildi.

Etnolingvistikaning mustaqil lingvistik yo'naliish sifatida shakllanishida Amerika tilshunosi, etnografi F. Boas va uning o'quvchilarining xizmati katta bo'ldi. Ular yo'naliishning muammolar doirasini va tadqiqot metodlarini belgiladilar. Etnolingvistika Amerika olimlari asarlarida ko'pincha «antropololingvistika», «etnosemantika» atamalari bilan ham almashtirib qo'llaniladi.

Etnolingvistika muammolaridan eng muhimi sifatida Amerika induslari tillarining genetik qarindoshligini aniqlash masalasi qaraldi.

Bu tillarning tasnifi dastlab ma'lum tamoyilga asoslanmagan holda, taxminlarga asoslanib qilingan bo'lsa, keyinchalik E. Sepir, S. Lem, M. Svodesh, Dj. L. Treyjer va boshqalar tomonidan aniq ilmiy metod-larga tayanildi. Induslar tillarini sinflarga bir-lashtirishda hissiy-tarixiy (E. Sepir, S. Lem), glottokronologik (M. Svodesh), tarixiy - tipologik va areal (K. Xeyil, Dj. L. Treyjer) kabi metodlardan foydalanildi.

Tillarning tasnifidan tashqari, yana tillarning va madaniyatlarning o'zaro ta'siri, bilingvism masalalari, til taraqqiyotiga ijtimoiy madaniyatning ta'siri kabi muammolar ham etnolingvistikaning o'rganish doirasiga kiritildi.

Dastlab etnolingvistika doirasiga semantika ham kiritilgan edi. Lekin keyinchalik deskriptiv lingvistikaning avj olishi natijasida semantika lingvistik tadqiqotlar doirasidan chiqarildi.

Tilning semantik tomoniga asrimizning 50-yillarda Sepir - Uorf gipotezasini keng muhokama qilish jarayonida qayta jonlandi. Ayni paytda etnolingvistika masalalariga ham yana e'tibor kuchaydi. Bu davrda semantikaga e'tiborning qaratilishi natijasida uzviy tahlil metodi amaliyotda keng qo'llanildi. Buqday usul yordamida turli tillarda sotsial-madaniy xususiyatlarni ifodalovchi so'zlar guruhi (qarindosh-urug' nomlari, rang bildiruvchi so'zlar) atroflicha tahlil etildi.

Shuningdek, turli etnik guruhlarda qo'llaniladigan paralingvistik vositalar, folklor materiallarni o'rganish ham etnolingvistika obyektiga kiritildi. Xususan, asrimizning 70-80-yillarda etnolingvistikaning folklor materiallariga e'tiborning tortilishi til va madaniyat o'rtasidagi aloqaning yangi turlarini ochishga imkoniyat yaratdi va bu bilan etnolingvistikaning o'rganish doirasini kengaytirdi.

Hozirgi kunda etnolingvistika dunyoning deyarli barcha mamlakatlarida tilshunoslikning bir yo'naliishi sifatida e'tirof etildi va bu yo'naliish bo'yicha keng tadqiqot ishlari olib borilmoqsada.

Til jamiyatning aloqa - aralashuv quroli sifatida jamiyat tarixi bilan uzviy aloqadadir. Chunki jamiyatda ro'y bergan har bir o'zgarish shu jamiyatning tilida o'zining ma'lum izini qoldiradi. Shuning uchun ham jamiyat tarixning muayyan jihatlarini yoritishsa tarixiy hujjatlar, yozma yodgorliklar ojizlik qilib qolgan joyda lingvistik materiallar yordamga kelishi mumkin. Ayni paytda ma'lum lingvistik faktlarni tarixiy materiallarga suyanmasdan turib izohlash yetarli bo'lmaydi. Bu esa jamiyat tarixi bilan shu jamiyat tilining va ularni o'rganuvchi tarix fani bilan tilshunoslik fanining naqadar aloqador ekanligini ko'rsatadi.

Jamiyat uzluksiz harakatda, rivojlanishda, o'zgarishda bo'lgani kabi, uning tili tinimsiz harakatda, o'zgarishda, rivojlanishdadir. Shuning uchun ham tilshunoslik tarixida tilni o'rganishda uning tarixiy taraqqiyotiga turlicha munosabatda bo'ldilar. Xususan, qiyosiy-tarixiy tilshunoslik maktabi vakillari tilni tarixiy aspektida o'rganishga ko'proq e'tibor bergan bo'lsalar. Vosh

grammatikachilar maktabi vakillari ularga tanqidiy yondoshgan holda, tilning statik holatiga, asosan jonli nutqni o‘rganishga jidsiy e’tibor berdilar.

Mashhur shveytsar olimi Ferdinand de Sossyur esa tilning har ikki jihatini o‘zaro aloqada o‘rganish lozimligini ta’kidlaydi. Shuning uchun ham u tilning ikki holatini farqlagan holda, tilshunoslikning tek- shirish metodining ham ikki xil bo‘lishi lozimligini ta’kidladi: sinxroniya va diaxroniya. Hozirgi kunda til ikki yo‘nalishda o‘rganiladi: statik (sinxron) holati va dinamik (diaxron) holati.

Til taraqqiyotining muayyan bir davridagi holati sinxron holat sanaladi. Tilni sinxron holatda o‘rganilganda, uning hozirgi holati tadqiqot obyekta bo‘ladi. Diaxron o‘rganishda esa til birliklarining tarixiy taraqqiyotiga e’tibor beriladi. Lekin sinxroniya bilan diaxroniya o‘zaro aloqadadir. Sinxroniya diaxroniya zanjiridagi bir halqa sanaladi. Shuning uchun ham ko‘p hollarda diaxroniyasiz tilning sinxron holatini tushuntirish qiyin bo‘ladi.

Til tarixi jamiyat tarixining tarkibiy qismidir. Shuning uchun ham til tarixini (tilni diaxronik o‘rganish) jamiyat tarixidan uzilgan holda o‘rganish mumkin emas. Tilda mavjud bo‘lgan bir qator hodisalar mohiyati jamiyat tarixi asosida ochiladi.

Lekin til sistemasining barcha sathpari ham jamiyat tarixi bilan bir xil bog‘langan emas. Jamiyat hayotidagi turli xil yangiliklar shu jamiyat tilining lug‘at tarkibida o‘z ifodasini topganligi tufayli, til sistemasining leksik sathi boshqa sath birliklariga nisbatan ko‘proq jamiyat tarixi bilan bog‘liq bo‘ladi.

Tilning leksik sathida jamiyatning turmush tarzi hayotidagi o‘zgarishlar o‘z ifodasini topganligi tufayli, so‘zni tahlil qilish asosida shu til egasi bo‘lgan jamiyat hayotiga bog‘liq bo‘lgan tarixiy ma’lumotlarga ega bo‘lish mumkin. Masalan, Qozonni osmoq iborasi bor. Hozirgi kunda qozonning osilmasligi, balki o‘choq yoki gaz plitasi ustiga qo‘yilishi ma’lum. Bu iboranining ma’nosini tushuntirish jamiyatning qadimgi ko‘chman- chilik hayot tarzi haqidagi tasavvurimizni kengaytiradi. Qadimda, o‘troqlashmagan jamiyat a’zolari turli joylarda ovqat pishirish uchun tagidan o‘g yoqiladigan moslamaga masalliq solingan idishni ilganlar.

Til materiallarini o‘rganish tarixning uch xil muammosini hal qilishda yordam berishi mumkin:

xalqning kelib chiqishi;

tarixiy taraqqiyotning turli bosqichida xalq madaniyati holati;

boshqa xalqlar bilan munosabati.

O‘zbek xalqi tarixan bir qancha etnik guruhlar- ning uzoq davrlar davomida birga yashab, o‘zaro munosabatda bo‘lish va birlashuvi natijasida tarkib topgan. Qanday etnoslardan tashkil topganligi hozirgi o‘zbek tilining mahalliy shevalari materiallari asosida ma’lum bo‘ladi. Masalan, so‘z boshida [y] ning (j) ga almashinuv, so‘z o‘rtasida ikki unli oralig‘idagi g undoshning y ga (sigir // siyir) yoki, aksincha, y undoshning g ga (keyin // kegin) almashinuv, shu holatda bir qator jarangsiz undoshlarning jarangli undoshga aylanishi (chiqb // chig‘ib) va boshqalar shu til egalarining qadimda qipchoq qabilasiga mansub bo‘lganliklarini bildiradi. Shuningdek, so‘z boshida jarangsiz undoshlarni jarangli undoshga almashinishi (tog‘ // dag‘, tush // dush), cho‘ziq unlilarning mav- judligi (da: g‘) shu tilda gaplashuvchilarning o‘g‘iz qabi- lasidan kelib chiqqanligiga ishora qiladi. Yoki bir qator etnotoponimlar shu joyda yashayotgan etnoslar- ning tarixan qaysi urug‘ yoki qabiladan kelib chiqqanligiga ishora qilib turadi. Masalan, Andijon atrofida Nayman, Sulduz, Munduz, Saroy, Baxrin, Beshkal kabi qishloqlar bor. Bu qishloqdarda yashovchilar o‘zlarining tarixan qipchoqdardan kelib chiqqanligini hozirgi kunda bilmaydilar. Faqat toponimik ma’lumotlarga ularning genetik jihatdan qipchoqlarga mansubligiga ishora qiladi. Qipchoq elementlari bu qishloqlarda yashovchi aholi tilining fonetik tuzili- shida ham sezilmaydi.

Til faktlari shu til egalarining muayyan bir davrdagi turmush madaniyati haqida ham ma’lumot beradi. Masalan, Qadimgi turkiy-run yozma yodgorliklaridan «Kultagin» yodnomasida badia chekmoq, balbal, badiachi kabi so‘z va iboralar uchraydi. Qadimgi turk tilida badiz «qabr ustiga o‘rnatilgan toshga o‘yib yozilgan xotira», badizchi «toshga o‘yib xotira yozuvchi», bal- bal esa bal (balchiq) «loy» va bal (sh) «bosh» o‘zaklarining qo‘shiluvidan hosil bo‘lgan qo‘shma so‘z bo‘lib, «buyust» «loydan qilingan insonning bosh qismi» ma- nolarini beradi. Matnda bayon qilinishicha, Kultagin vafotidan so‘ng uning qabri ustiga badiachn tomonidan badiz chekilib bal bal

qo'yladi. Shu til faktining o'ziyoq o'sha davrdagi turkiy qavmlar nufuzli shaxslar qabriga xotira yozilgan qabr toshi qo'yganlari va byust o'rnatganlari haqida ma'lumot beradi.

Lingvistik materiallar til egalarining boshqa etnoslar bilan o'tmishdagi munosabatlari haqida asbosrot beradi. Masalan, o'zbek tilining leksik qatlamida bir qator forscha-tojikcha, arabcha leksemalar mavjud. Masalan, barg, go'sht, musht, g'isht; ma'no, Ra'no, vaqt, kitob, qalam va boshqa. Bu leksemalar o'zbek xalqining qadimdan fors-tojiklar bilan bir hududda qon-qar-dosh bo'lib yashaganligi, shu bilan birga arab istilosidan so'ng islomning ta'siri haqida ma'lumot berib turadi.

Ba'zan tarixiy muammolarni hal qilishda tarix-chi bilan tilshunosning hamkorligi zarur bo'ladi. Xususan xronologiya muammolari ko'pincha ana shu yo'l bilan o'z yechimini topadi.

Asrimizning 50-60-yillarida til materiallarining yoshini aniqlash bo'yicha Amerika olimi Morris Svodesh tomonidan tavsiya etilgan va leksikostatistik metod deb nomlangan metod keng qo'llanilmoqsa.

U biologiya fanlaridagi radiouglerod yordamida yoshni belgilash metodini tilshunoslikka olib kirdi. Har qanday jonli organizmda (hayvonlarda, o'simliklarda va boshq.) ma'lum miqsorda radioaktiv uglerod mavjud bo'ladi. Bu modsa organizm o'lishi bilan asta sekin muayyan tezlikda tarqala boshlaydi. O'lik organizmdagi uglerod miqsorini o'lchash orqali uning o'lganiga qancha vaqt bo'lganini aniqyaash mumkin bo'ladi. Ana shu yo'l bilan arxeologax yodgorliklar yoshi aniqlanadi.

M. Svodesh ana shu usulni til materiallariga qo'llagan holda, tilning leksik qatlamidagi leksemalarning asosiy qismi barqaror tezlikda o'zgarishga e'tibor berdi. Bunday barqaror tezlikda o'zgarish xususiyatiga ega bo'lgan so'zlarning saqlanish foizi ming yilda 81% + 3% ga teng deb olindi.

O'zaro qarindosh tillarda saqdanib qolgan ularning hammasi uchun umumiyligida leksemalar miqsoriga qarab bu tillarning mustaqil til sifatida ajralib chiqqaniga qancha vaqt bo'lganini aniqlash mumkin ekanligini ta'kidlaydi. Buning uchun 200 so'zdan iborat «taj-riba lug'ati» tuzilib, uning turli qarindosh tillarda uchrash-uchramasligi ko'rib chiqiladi.

Ana shu usul asosida M. Svodesh qadimda umumiyligiga ega bo'lgan cskimoslar bilan acheutlarning mustaqil xalq va bu xalqlar tillarining mustaqil til bo'lib ajralganiga 2900 yil bo'lganini aniqladi.

Aleuglarning eng qadimgi yashagan joylaridan to-iilgan arxeologik yodgorliklarni uglerod miqsoriga ko'ra tekshirish asosida ularning yoshi 3000 yil ekanligi ma'lum bo'ldi. Demak, Svodesh taxmini arxeologik ma'lumotlar asosida o'z tasdig'ini topdi.

Bundan tashqari tilshunoslikda tilning kelib chiqishi haqidagi glottogenez nazariyasi ham tarix fani bilan uzviy bog'liqdir.

Glottogenez (yunoncha glopa - til geneze - kelib chiqish so'zlaridan olingan) inson tabiiy tovush tilining boshqa belgilar tizimidan farqli ravishda shakllanish jarayonini o'zida ifoda etadi Keyingi chorak asr davomida glottogenez muammosi umuman tilning, hayotning kelib chiqishi nazariyasini o'rganuvchi umumfalsafiy, sotsiologik, psixologik muammoga aulandi. Glottogenez kompleks muammo sifatida bir qator lingvistik metodlar (qiyosiy-tarixiy metod, glottokronologiya metodi_kabilar) yordamida o'rganilmoqda, bunda inson haqidagi boshqa fanlar antropologiya, paleonevrologiya kabilar) erishgan yutuqlar ham inobatga olinadi. Umuman, glottogenez kompleks, yaxlit muammo bo'lgani uchun uni faqat sof lingvistik metodlar (ayniqsa, qiyosiy-tarixiy metod va tarixiy topologiya metodi) yordamida emas, balki inson haqidagi boshqa fanlar ishlab chiqqan metodlar yordamida ham o'rganiladi. Qiyosiy-tarixiy tilshunoslik ayrim makrotel oilalariga kiruvchi qadimgi bobo tillarini (bunday tillar o'nga yaqin) aniqlab, ularning ham eng dastlabkisi Noto zarxepz (ya'ni, hozirgi zamon kishisi)ni belgilashga intilishi fan uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Glottogenez nazariyasiga muvofiq, eng qadimgi til bundan yuz ming yil oldin Afrikada va Yevroosiyoda qadimgi odamlarning ko'payishi bilan turli tillarga (makrotel oilalarining qadimgi bobo tillariga) ajrala boshlaydi.

Tarixiy-tipologik tadqiqotlar makrotel oilalarida til kategoriyalari (zamon, nisbat, shaxs-son kategoriym kabilar)ning shakllanish jarayonini aniqlash imkonini beradi. Antropologiya va unga yondosh fanlar (masalan, paleonevrologiya) metodlari yordamida tilning shakllanish jarayonini aniqlash mumkin. Bundan yuz ming yil oldin neondertallar va hozirgi odamlarning dastlabki tipi

orasidagi farqlar paydo bo‘lishi bilan tel ham hozirgi, tabiiy tovush tili shakliga ega bo‘la boshlagan. Boshqacha aytganda, tabiiy tovush tilining neondertallardan eng muhim farqli belgisidir.

Paleonevrologiya fanining xulosalariga qaraganda, bundan 500-600 ming yil burun Noto gurkumga kiruvchi primatlarda miyaning chap qismi rivojlanan boshlagan, bu esa qo‘l harakatlari, turli imo-ishoralar va nutqni idora qilish imkonini bergen.

XX asr davomida glottogenez nazariyasi A. Trombetti, B. Rozenkrans, Vyach. Vs. Ivanov, G. A. Klimov kabi tilshunoslar, V. V. Bunak, G. U. Xyuz, A. Liberman kabi antropologlar. V. I. Kochetkova singari paleonevrologlar tomonidan tadqiq etilgan.

Yuqorida bayon qilingan faktlarning o‘ziyoq tilshunoslik bilan tarix fani o‘rtasida naqadar zinch aloqa mavjud ekanligidan dalolat beradi.

Aytilganlardan anglashiladiki, grammatic shakllarning vazifasi faqat gapning tashqi strukturasi bilan bog‘liq bo‘lib, gap qurilishinigina belgilaydi degan qarashlarga pragmatik omillar ko‘zgusida muloqot tizimiga munosabatda bo‘lish ularning ma’lum darajada cheklanganligini oydinlashtiradi. Muloqot tizimida qatnashadigan lisoniy dalillarning pragmatik tahlili natijalari ayrim tilshunoslar tomonidan qattiq turib himoya qilinadigan «grammatica gap turlari strukturasi haqidagi ta’limotdir, pragmatika esa, aksincha, lisoniy tuzilmalarning qurilishi, ularning grammatic xususiyat va munosabatlarini yoritish bilan shug‘ullanmaydi. Pragmatik nazariyalar gap belgisi va propozitsiyaning matndagi muvofiqligini so‘zlovchi va tinglovchi tomonidan oqilona ta’milanishini o‘rganadilar. Shunga nisbatan pragmatik nazariya nutqiy faollik (performatsiya) nazariyasining ma’lum bir qismidir»⁴³ degan bирyoqlama «mazmundor» fikrlarga ko‘p hollarda zid keladi.

Mustahkamlash uchun savollar

1. Tilshunoslikning antropologiya bilan aloqasini yoriting.
2. Nutqning kelib chiqishi haqida tilshunoslar va antropologlar qarashlari.
3. Nutqning paydo bo‘lish bosqichlari.
4. Nutq ontogenezi nima?
5. Tilshunoslikning tarix, etnografiya bilan munosabatini yoriting.

8-ma’ruza. Tilshunoslik va tabiiy fanlar.

Tilshunoslikning biologiya va fiziologiya bilan munosabati

Reja

1. Tilshunoslikning biologoya bilan aloqasi.
2. I.M.Sechenov va I.P.Pavlovlarning ta’limotining tilshunoslikka ta’siri.
3. Tilshunoslikning fiziologiya bilan aloqasi.

tayanch tushunchalar: Tilshunoslikning biologoya bilan aloqasi. I.M.Sechenov va I.P.Pavlovlarning ta’limotining tilshunoslikka ta’siri. Tilshunoslikning fiziologiya bilan aloqasi.

Bizni qurshab turgan olam, tabiatni, uning tarkibiy qismlarini o‘rganuvchi fanlar tabiiy fanlar hisoblanadi. Tabiiy fanlarga fizika, kimyo, biologiya, geografiya, geologiya, tibbiyat singari fanlar kiradi.

Tilshunoslik ana shu fanlarning barchasi bilan qandaydir jihatdan bog‘langandir.

Tilshunoslik biologiya fani bilan ham uzviy aloqadadir. Avvalo, tilshunoslikning o‘rganish obyekti bo‘lgan til tovushlar silsilasi yordamida moddiylashadi.

Tovushlar esa nutq birligi sifatida muayyan nutq organlarining faoliyati natijasida yuzaga chiqadi. Nutq tovushlarini hosil qilishda ishtirok etadigan nutq organlari nutq apparata sanaladi.

Nutq apparati tarkibiga kiruvchi nutq organlari inson organizmining tarkibiy qismidir. Har qanday nutq organi ikki xil vazifa bajaradi: 1) birlamchi vazifasi insonning fiziologik a’zosi. Bunday a’zo sifatida ular inson organizmining normal yashashi uchun zarur bo‘lgan tabiiy

⁴³ Katz J. Propositional Structure and Illocutionary Force. –New York: Crowell, 1992. – P.19.

chtiyojlarni qondirishga xizmat qiladi. 2) Ikkilamchi vazifasi nutq organi. Shunday qilib, bu organlar ham biologiyaning va ham tilunoslikning tekshirish obyekti bo‘ladi.

Har bir nutq tovushi uch belgini o‘zida mujassamlaydi:

- 1) akustik;
- 2) artikulyatsion;
- 3) vazifaviy (funksional).

Unli tovushlar ham, undosh tovushlar ham artikulyasision belgiga ega. Unli yoki undosh tovushlarining yuzaga chiqishida ishtirok etadigan nutq organlari belgisi artikulyatsion belgi sanaladi. Bu belgiga ko‘ra nutq tovushining tavsifi esa artikulyatsion (fiziologik) tavsif sanaladi. Masalan, unilar tavsifida lab ishtiroki belgisi va og‘izning ochilishi darajasi (tilning ko‘tarilish darajasi) belgisi fiziologik tavsif uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Undoshlar tavsifida esa undoshlarning paydo bo‘lish o‘rni belgisi (bo‘g‘iz tovushlari, til tovushlari - til orqa, til o‘rta, til oldi tovushlari, lab tovushlari, lab-lab, lab-tish tovushlari, tanglay va burun tovushlari) fiziologik jihatdan tavsif asosi bo‘ladi⁴⁴.

Unli va undosh tovushlarni talaffuz qilishda ishtirok etadigan nutq organlari qadimdan tilshunoslar diqqatini tortib keladi. Xususan bobokalonimiz, qomusiy olim Ibn Sino fonetikaga bag‘ishlangan maxsus risolasida tovushlarning fiziologik tomoni haqida batafsil ma’lumot beradi. Bunday aniq ma’lumot berishida Ibn Sinoga inson fiziologiyasini yaxshi bilganligi katta imkoniyat bergen⁴⁵.

Odam genetikasi va tilshunoslik. Odam irsiyati, irsiy o‘zgaruvchanlik qonuniyatlarini o‘rganuvchi fanga odam genetikasi yoki antropogenetika deyiladi. Odamzod bosho Sarlyepz turini tashkil etadi va u organik odamning tarkibiy qismi va uzoq davom etgan evolyutsiya jarayonining mahsuli sanaladi. Odamda uning oliv nerv sistemasi bilan bog‘liq bo‘lgan xususiyatlar:

- a) aql
- b) idrok
- c) qobiliyat
- d) nutq
- e) mehnat qilish kabilalar shakllanadi. Bu xususiyatlarning irsiylanishi juda murakkab bo‘lib, u genetik va ijtimoiy omillar ta’sirida amalga oshadi.

Hozirgi 90-yillar oxiriga kelib, to‘rt mingdan ortiq odamning normal va patologik belgilarining irsiylanishi o‘rganilgan. Yangi tug‘ilayotgan farzandlarning 4,5-5,0 foizi hozirgi davrda irsiy kasalliklar keltiruvchi genlarga ega bo‘lgan holda dunyoga kelmoqda.

Irsiy kasalliklarni aniqlash uchun genealogik (shajara) metodidan ham foydalaniadi. Bu metodning mohiyati shundaki, avlodlarning nasl-nasabi haqida ma’lumot to‘plash va tahlil qilish orqali odamdagи irsiy kasalliklarning sabablari aniqlanadi va o‘rganiladi.

Genealogik metod yordamida odamlardagi qobiliyat, iste’dod, aql-idrokning nasldan-nasnga o‘tishi, rivojlanishi, bu esa o‘z navbatida irsiy omillarga bog‘liq ekanligi genetika fanida aniqlangan. Masalan, tarixda qobiliyatli mashhur kishilar yetishib chiqqan ko‘plab sulolalar, oilalar shajarasiga bir qancha dalillar keltirish mumkin. Jumladan, mashhur rus yozuvchilari L. N. Tolstoy va A. S. Pushkinlar buvilarining onalari tug‘ishgan opa-singil bo‘lganlar. Yoki temuriylar sulolasi insoniyatga bir qancha buyuk davlat arboblarini, sarkardalarni, olimlaru shoirlarni yetkazib bergenlari ma’lum. Ular orasida Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek, Zaxiridsin Muhammad Bobur, Husayn Boyqaro, Gulbadanbegim, Akbarshoh kabilalar alohida o‘rin tutishgan. Bu o‘rinda odamning genotipiga bog‘liq bo‘lgan iste’dodning rivojlanishida, ularning buyuk sarkardalar, olimlar, shoirlar, allomalar darajasiga ko‘tarilishida ijtimoiy muhit va omillarning ahamiyati ham borligini esdan chiqarmaslik kerak.

Shu bilan birga odam genotipiga bog‘liq ravishda bolalarning til o‘rganishga, ayniqsa bir qancha chet tillarni, o‘lik, qadimgi tillarni o‘rganishga iste’dod- dini aniqlash va uni yanada takomillashtirish mumkin. Hozirgi davrda kadrlar tayyorlashning milliy dastu- ridan kelib chiqib xудси ana shunday yo‘l tutilmoqda, ya’ni maxeuye til o‘rganishga yo‘naltirilgan gimnaziya va litseylarga iqtidorli o‘quvchilar tanlab olinib, ular zamonaviy metodlar asosida o‘qitilmoqsa.

⁴⁴ Nurmonov A. Tilshunoslik va tabiiy fanlar /Tanlangan asarlar. 3 jild. 1-jild. –Toshkent, 2012, 58-b.

⁴⁵ Нурмонов А., Махмудов Н. Ўзбек тилшунослиги тарихи. I кисм Тошкент, 2000 йил.

Odamdag'i ayrim normal genlarning o'zgarishi natijasida sindaksiliya (panjalarning tutashib ke-tishi), polidaktiliya (qo'shimcha barmoqlarning hosil bo'lishi), mikrotsefaliya (kalla va qismining g'ayritabiyy katta va bosh qismining esa juda kichik bo'lishi) kabi irsiy kasalliklar sodir bo'ladi. Bunday kasalliklarga duchor bo'lgan shaxslar aqliy jihatdan zaif bo'ladilar, ularga til o'rgatish, filolog mutaxassis sifatida tarbiyalash nihoyatda qiyin kechadi.

Shunday qilib sog'lom avlod uchun kurash, irsiy kasalliklarning oldini olish va ularni diagnostika qilish hamda yangi, samarador usullarini yaratish odam genetikasi va tibbiyot genetikasi fanlarining dolzarb vazifasidir. Bu vazifalarning to'g'ri hal qilinishi esa mamlakatimizda sog'lom mutaxassis kadrlar tayyorlash ishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Molekulyar genetika, mikrobiologiya va biokimyo fanlarining rivojlanishi bilan biotexnologiya fani shakllandi. Bu fan tirik mavjudotlarda (virus, mikroorganizm, o'simlik va hayvon hujayralarida) kecha-yotgan hayotiy jarayonlar to'g'risidagi ilmiy qarashlar, bilimlardan foydalanish asosida tirik mavjudotlar va ularning hujayralari ishtirokida sanoat miqyosida mahsulot ishlab chiqarish texnologiyalarini yaratadi. Odamlar qadim zamonlardayoq sutdan qatiq, bug'doydan bo'za va xamirturush, meva sharbatlaridan sharob yoki sirkaga tayyorlaganlar, lekin bunday mahsulotlar mikrob yoki bakteriyalar ishtirokida hosil bo'lishini tasavvur ham etmaganlar.

Biotexnologiya va keyinchalik genetik injeneriya sohalarining shakllanishi bilan fanda mutatsion jarayon, yo'naltirilgan mutatsiya, transformatsiya, transduksiya, lizogenbakteriya, plaznidlar, gibrodoma kabi atamalar paydo bo'ldi. Umuman olganda, irsiy kasallik keltirib chiqaruvchi turli genlarni qidirib topish, ularni ajratib olib o'rganish, sog'lom genlar bilan almashtirish evaziga irsiy sog'lom avlod yetishtirish biotexnologiya fanining kelgusi taraqqiyot istiqbol-larini belgilaydi. Bu esa kelgusida nutqi ravon, irsiy jihatdan sog'lom, ko'p tillarni mukammal egalla-gan kishilar miqdorining ko'payishi bilan ham aloqadordir.

Botanika va zoologiya fanlarining rivjlanishi bilan bog'liq holda XVIII asrga kelib avval fanga ma'lum o'simlik va hayvon turlarini qayta guruhashga kuchli ehtiyoj paydo bo'ldi. Mashhur shved olimi, botanik Karl Linney (1707-1778) o'simlik va hayvoshgar sistematikasi faniga asos soldi. U o'n mingdan ortiq o'simlik, 4200 dan ortiq hayvon turlarini o'rganib, turlarni avlodlarga, avlodlarni esa oilalarga, oilalarni turkumlarga, turkumlarni esa sinflarga birlashtirdi. Bunday tasnif usullari keyinchalik tilshunoslikda qarindosh tillarini o'rganishga tadbiq etildi. XIX asr Yevropa tilshunoslari jahon tillarining geneologik tasnifi asoslарini ishlab chiqsilar. Bu tasnifga ko'ra konkret tillar til guruhrigiga, til guruhlari til tarmoqlariga, tarmoqlar esa til oilalariga birlashtirildi. Masalan, geneologik tasnifga ko'ra, ingliz tili Hind-Yevropa tillari oilasiga mansub bo'lib, shu oilaning german tillari tarmog'i, g'arbiy german tillari guruhiya mansubdir.

Ko'rindiki, jahon tillarining geneologik tasnifi, tamoyillarining yaratilishida biologiyaning o'simliklar va hayvonlar sistematikasi tarmog'i yutuqlari muhim ahamiyat kasb etdi.

Fransuz tabiatshunosi Jan Batist Lamark (1744—1829) organik dunyoning evolyutsiya nazariyasini yaratdi. U dastlab «Zoologiyaga kirish», keyinchalik 1809 yilda «Zoologiya falsafasi» asarini yaratib, evolyutsiya nazariyasini asosladi. Uning nazariyasiga ko'ra, quyi bosqichdan yuqori bosqichga ko'tarila borgan sari hayvonlarning organlar tizimi ham murakkablashib boradi.

Mustahkamlash uchun savollar

1. Tilshunoslikning biologoya bilan aloqasini yoriting.
2. I.M.Sechenov va I.P.Pavlov larning ta'limotining tilshunoslikka ta'siri.
3. Tilshunoslikning fiziologiya bilan aloqasi.

9-ma'ruza. Tilshunoslikning tibbiyot, nevrologiya bilan munosabati Reja

1. Tilshunoslik va tibbiyot
2. Nutq mexanizmi.
3. Nevrologiyada tilshunoslikning tutgan o'rni
4. Neyrolingvistika fanning ma'lumotlariga tayangan holda nutqdagi norma va patologik holatlarining tahlili.
5. Nutqiy patologiya. Afaziyalar va ularning turlari.

Tayanch tushunchalar: Nutq mexanizmi. Neyrolingvistika fanning ma'lumotlariga tayangan holda nutqdagi norma va patologik holatlarining tahlili. Nutqiy patologiya. Afaziyalar va ularning turlari.

XIX asrning birinchi yarmida seleksiyaning fan sifatida shakllanishi, tabiiy fanlarning rivojlanib borishi, ayniqsa hujayra nazariyasining yaratilishi bilan bog'liq holda hayvonlarning turli sinflarga mansub vakillarining embriologiyasi o'r ganildi hamda hayvonlar embrional rivojlanishining boshlang'ich bosqichlariga ko'ra bir-biriga o'xshash ekanligi aniqlandi. Poleontologiya fani esa o'sha davrda Yerning ostki qatlamlaridan ustki qatlamlariga o'tgan sari qazilma holdagi o'simlik va hayvonlar, ularning almashinib turishi, odsiydan murakkabga tomon o'zgara borishini to'la isbotladi. Bu esa o'z navbatida evolyutsiya nazariyasining asoslanishiga zamin hozirladi.

Fanda evolyutsiya nazariyasining asoschisi sifatida mashhur ingliz olimi Charlz Darwin (1809-1882) tan olingan. U 1831 yildan «Bigl» kemasining tabiatshunosi sifatida 5 yil mobaynida Atlantika, Tinch va Hind okeanlarida, ko'pgina orollarda, Janubiy Amerikaning sharqiy-g'arbiy qirg'oqlarida, Avstraliya, Afrikaning janubiy o'lkalarida bo'ldi, u yerdagi hayvonlar, o'simliklar dunyosiga oid ajoyib kolleksiyalar to'pladi. Ana shu safar unga organik olam evolyutsiyasi haqidagi ta'limot yaratish uchun boy dalillar berdi, 1859 yilda uning «Turlarning paydo bo'lishi» nomli mashhur asari paydo bo'ldi. Shuningdek, olimning «Xo-nakilashtirilgan hayvon, madaniy o'simliklarning o'zgaruvchanligi» (1868), «Odamning paydo bo'lishi va jinsiy tanlanish» (1871), «O'simliklar olamida chetdan va o'z-o'zidan changlanishning ta'siri» (1876) singari qator asarlari ham e'lon qilingan. Bu asarlarda

Ch.Darvin organik olam evolyutsiyasining quyidagi to'rt harakatlantiruvchi kuchini alohida ajratib ko'rsatadi: a) irsiyat, b) o'zgaruvchanlik, v) yashash uchun kurash, g) tabiiy tanlanish.

«Irsiyat» va «o'zgaruvchanlik» atamalari bir-biridan farq qiladi hamda bu atamalar tillar taraqqiyoti va evolyutsiyasi muammosini o'rganishga ham ma'lum da- rajada aloqadordir.

Organizmdagi tuzilish va funksiyaning kelgusi naslga berilishi xossasiga **irsiyat** deyiladi.

Oldingi nayel bilan keyingi nayel orasidagi farq o'zgaruvchanlik deb yuritiladi. O'zgaruvchanlik inson, xayvon va o'simlik organizmining tashqi va ichki tuzilishida, bajarishida, xatti-harakatida namoyon bo'ladi.

Genetik jihatdan qarindosh tillar (slavyan tillari, turkiy tillar, ugor-fin tillari, roman tillari, xom-som tillari kabilar) bir-biriga fonetik, grammatik jihatdan juda yaqin, lekin farqli tomonlari ham bor. Bundan ko'rindiki, Tilshunoslik fani tillar taraqqiyoti va evolyutsiyasi muammosini tadqiq etar ekan, bunda irsiyat va o'zgaruvchanlik xossalaring ulkan ta'siri borligini ham inobatga olishi lozim bo'ladi.

Ch. Darwin ta'limotida turlarning paydo bo'lishi yangi turlarning shakllanishi uchun shart-sharoit omili muhim o'r in tutadi. Evolyutsiya nazariyasida muayyan bir turga oid belgi — xossalalar yig'indisi tur mezonlari deb yuritiladi. Ular beshga bo'linadi: a) morfologik mezon, b) fiziologik mezon, v) geografik mezon, g) ekologik mezon, d) genetik mezon. Tillar rivojida esa bulardan geografik va genetik mezon muhim ahamiyatga ega. Til rivoji ijtimoiy hodisa bo'lgani uchun bular qatoriga ijtimoiy mezon ham kelib qo'shiladi.

Shunday qilib, Ch. Darwin ishlab chiqqan evolyutsiya nazariyasini tillar taraqqiyoti va ulardagi tarixiy ri-vojlanish bosqichlarini o'rganish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Darvinizm va tilshunoslikda naturalizm oqimi. Darvinizmning dunyo fanida katta obro'-e'tibor qozonishi uning boshqa fanlarga ham ta'sirini kuchaytirdi. Bu ta'limotning ta'sirida tilshunoslikda alohida yo'nalish - naturalistik oqim maydonga keldi.

Tilga naturalistik yondashuv konsepsiysi Germaniyaning Iyen universiteti professori Avgust Shleyxerning (1821—1868) «Til haqidagi fanga Darwin na zariyasining tadbiqi» (1863) va «Insonning tabiiy tarixi uchun turlarining ahamiyati» (1865) asarlarida yorqin ifodasini topgan.

A. Shleyxer tilni «tovushlar yordamida ifodalangan tafakkur», «tafakkur jarayonida tovushlar orqali ifodalangan fikr» deb tushunadi. Uning fikricha, til alohida shaxsga bog'liq emas. Tilda inson irodasiga bo'y sunmaydigan ma'lum qonunlar mavjud. Xuddi shunday qonunlar tabiiy fanlardagina kuzatiladi. Tilshunoslik obyekti lingvistga bevosita beriladi. U tadqiqotchi subyektivizmdan xolidir.

Ana shunday fikrga tayangan holda, Shleyxer tilshunoslik inson tabiiy tarixining bir qismini tashkil etadi, degan xulosaga keladi va uni tabiiy fanlar sistemasiga kiritadi.

Bu jihatdan u tilshunoslikni filologiyaga qarama-qarshi qo'yadi. Uning ta'kidlashicha, filologiyada insonning subyektiv munosabati o'z ifodasini topadi:

A. Shleyxer filolog va tilshunos faoliyatini obrazli o'xshatish asosida tushuntirib beradi. Uning fikricha, filolog bog'bonga o'xshaydi. Uning uchun bog'dagi o'simliklarning amaliy qimmati, uning go'zalligi kabi jihatlari muhimdir. Tilshunos esa xuddi botanikka o'xshaydi. Botanik o'simlikning ichki tomonini, uning ichki tuzilish va rivojlanish qonunlarini o'rganadi. O'simlikning estetik va amaliy qimmati botanik uchun ahamiyatsizdir. Tilshunos ham tilning ichki tuzilishi, tuzilish birliklarining o'zaro munosabati va ularning taraqqiyot qonunlarini o'rganadi. Tilning estetik tomoni esa filologning o'rganish obyekti sanaladi. Shunday qilib, u filologiya bilan tilshunoslikni bir-biridan farqlagan holda, birinchisini ijtimoiy-gumanitar fanlar sistemasiga, ikkinchisini esa tabiiy fanlar sistemasiga kiritadi. Shu bilan birga, bu ikki fanning tutash nuqtasi bor ekanligini, sintaksis ana shunday tutashtiruvchi bo'g'in ekanligini ko'rsatadi. Buning sababi sifatida, sintaksisda so'zlovchining subyektiv munosabatlari ifodasini topishi mumkinligi ko'rsatiladi.

A. Shleyxer tilni tirik organizm deb e'tirof etadi. 1850 yilda yozgan «Yevrrpa tillarining sistematik tadqiqi» asarida u tilni organizmga o'xhatgan bo'lsa, oradan 10 yildan so'ng «Nemis tili» asarida jonli organizm deb qaraydi.

Shleyxerning ta'kidlashicha, tilning hayoti barcha jonli organizmlar — o'simlik va hayvonlar hayotidan farq qilmaydi. Jonli organizmlar oddiydan murakkab shakllarga qarab rivojlanish xususiyatiga ega bo'lsa, til ham ana shunday rivojlanib boradi. Shleyxer tilni organizm deb e'tirof etganda biologik ma'noda emas, balki, uni inson irodasidan tashqarida uzlusiz rivojlanuvchi struktura ma'nosida tushunadi. Shu nuqtai nazardan tilni tabiiy organizm (paShg og§ash8t) sifatida e'tirof etadi va uni tabiatdagi organizmlarga qiyoslaydi.

A. Shleyxerga Ch. Darvinni turlarning kelib chiqishi va o'zgarishi haqidagi nazariyasini qattiq ta'sir qildi. Ana shu ta'sir natijasida «Til haqidagi fanga Darwin nazariyasining tadbiqi» asari maydonga keldi. Bu asarida u Darwin tomonidan hayvon va o'simlik turlari uchun belgilangan qonunlarni tillar organizmiga, umumiy tarzda bo'lsa ham, qo'llash mumkin ekanligini ta'kidlaydi. Olimning ko'rsatishicha, bir jins turi tilshunoslikda til, turchalar — dialektlar, alohida shaxslar ko'rinishlari ifodasi esa mahalliy shevalarga to'g'ri keladi.

Darvinni turlarning o'zgarishi haqidagi fikrlarini A. Shleyxer tillar taraqqiyoti orqali isbotlamoqchi bo'ladi. Uning fikricha, botaniklar va zoologlar tomonidan bir jinsning turlari deb qaralgan tabiatshunoslik /gushunchalariga qiyosan, asta-sekin rivojlanish jarayonida kelib chiqqan alohida tillarni bir umumiy tilning farzandlari sifatida qaraladi.

Hayvonlar va o'simliklar dunyosining tarixiy taraqqiyot qonunlariga asoslanib, Shleyxer tilning kelib chiqishi va taraqqiyotining umumiy qonuniyatlarini ochib berishga harakat qiladi. Xudsi organik olam bir hujayrali organizmlardan rivojlangani kabi, dunyodagi barcha tillar ham hali otlarga ham, fe'llarga ham ajralmagan, turlanish va tuslanish shakllariga ega bo'limgan eng sodda tillardan kelib chiqqanligini bayon qiladi.

Ana shunday fikr asosida, A. Shleyxer dunyodagi turli shaklga ega bo'lgan barcha tillar bir umumiy kelib chiqish asosiga ega bo'lgan, degan xulosaga keladi. Lekin bu tillarning tovush materiali, til egalarining turmush sharoiti xilma-xil bo'lganligi tillarning turli-tuman bo'lishiga sababchi bo'lgan, deb tushuntiradi. Ana shunday qarashning sintezi sifatida tillarning shajara daraxti haqidagi ta'limoti maydonga keladi.

A. Shleyxer biologiya erishgan nutqlardan ilhomlangan holda, biologiya qonunlarini tilshunoslikka tadbiq etib, tillarning morfologik tasnifini e'lon qildi.

U tilni tafakkur jarayonining tovushlar silsilasi orqali gavdalaniishi, deb tushunadi. Til o'zining ix- tiyorida mavjud bo'lgan aniq va harakatchan tovushlar orqali tafakkur jarayonining barcha nozik tomonlarimi fotografik anqlik bilan ifodalab bera oladi, deydi. Bu bilan Shleyxer nutqiy faoliyatning moddiy asosini ta'kidlaydi.

U til va tafakkur birligini e'tirof etish asosida, ular o'rtasidagi munosabatni yoritishga harakat qildi.

Shleyxerning fikricha, har qanday fikr material va shakldan iborat. Material tushuncha va tasavvurni o‘z ichiga oladi. Shabl esa tushuncha va tasavvur o‘rtasidagi munosabatni vujudga keltiradi. Tushuncha va tasavvur tovush ifodasiga ega bo‘lib, ma’noni hosil qiladi. U har qanday tilning mohiyati ma’noni qanday ifodalashida ekanligini ta’kidlaydi. Ma’noning ifodalanishi bilan munosabatning ifodalanishining bir-biri- ga nisbatan egallagan holatini Shleyxer shabl deb hisoblaydi.

Ma’no so‘zning o‘zagi orqali, munosabat esa suffikslar orqali ifodalanishini ko‘rsatadi. Uning fikricha, ma’no bilan munosabat birgalikda so‘zni tashkil etadi. So‘zning mohiyati, ayni paytda butun bir tilning mohiyati uch jihat bilan belgilanadi: tovush, shabl va vazifa.

Yuqorida ko‘rsatilgan belgilar asosida Shleyxer tillarning morfologik tasnifini tavsiya etdi. Ma’no va munosabatni qanday ifodalanishiga ko‘ra u dunyo tillarini uch turga ajratadi:

Faqat ma’no ifodalanadigan tillar. Bunday tillarda so‘zlar kristallni eslatuvchi qismlarga bo‘linmaydigan barqaror birlik xususiyatiga ega bo‘ladi. Bir tarkibli (o‘zakdan iborat) bunday tillarga Xitoy va Birma tillarini kiritadi.

Tovushlar yordamida ma’nadan tashqari munosabat ham ifodalanadigan tillar. So‘z bunday tillarda qismlarga bo‘linadi, lekin o‘zaro mustahkam bog‘langan birlikni hosil etmaydi. Bunday tillar agglyutinativ tillar hisoblanadi va ularga turkiy, fin-ugor kabi tillar kiritiladi. Bu tillardagi so‘zlar o‘simlikni eslati- shini ta’kidlaydi.

So‘z ham ma’no, ham munosabatni ifodalab tarkibiy qismlari yaxlitligidan iborat bo‘ladi va uning jonli organizmga o‘xshashligini ko‘rsatadi. Bunday tillar flektiv tillarga xosligini va flektiv tillar til quri- lishining oliy darajasi ekanligini bayon qiladi.

Tilning yuqoridagi kabi 3 tipga ajratilishi ularning rivojlanish jarayonidagi 3 bosqichni ko‘rsatishini va bu uch bosqich tabiatdagi tabiiy mavjudotlar taraqqiyotidagi uch bosqichiga muvofiq kelishini ta’kidlaydi: kristall, o‘simlik, hayvon. Bu uch bosqich kurramiz rivojlanishining uch davri hisoblanadi. Shleyxer botanika materiallariga qiziqsan holda, uning rivojlanish bosqichlari bilan tilning rivojlanish bosqichlari o‘rtasida analogiya topishga harakat qildi. Biologiyada taraqqiyot odsiydan murakkabga qarab bo‘lganidek, tilda ham agglyutinativ tillar o‘zakli tillarning, flektiv tillar esa agglyutinativ tillarning rivojlanishidan kelib chiqqan, deb izohlaydi.

A. Shleyxer Darvinning tabiatdagi hayot uchun kurash haqidagi qarashini ham aynan tilshunoslikka tadbiq etadi. Tabiatda xuddi kuchlilar kuchsizlar ustidan g‘alaba qilib, yashovchanlik xususiyatiga ega bo‘lganidek, uning fikricha, hozirgi kunda hind-german tillari (ya’ni flektiv tillar) yashash uchun kurashda g‘alaba qilmoqda va boshqa tillarni siqib chiqarish hisobiga dunyonи zabit etib bormokda.

A. Shleyxerning bu noto‘g‘ri xulosasi insoniyat boshiga naqadar og‘ir kulfatlarni yog‘dirgan fashizm nazariyasi uchun ma’lum darajada nazariy asos bo‘lib xizmat qilgani g‘oyat achinarlidir.

Tilshunoslikning nevrologiya bilan munosabati. Tilshunoslik tibbiyotning nevrologiya bo‘limi bilan ham uzviy aloqada. So‘nggi davrlarda psixologiya, nevrologiya va tilshunoslik fanlarining oralig‘ida neyrolingvistika nomi bilan yuritiluvchi yangi fan tarmog‘i vujudga keldi.

Bu fan nutqiy faoliyat bosh miyaning mahsuli ekanligi, miya kasallanishining nutqiy faoliyatga ta’siri masalalarini o‘rganadi. Sodsa qilib aytganda, neyrolingvistikaning o‘rganish obyekti afaziyadir.

Miya nutq zonasining zararlanishi va buning natijasida nutqiy faoliyatning buzilishi masalasi bobokalonlarimiz Ibn Sino, Beruniy asarlarida qayd etilgan va bu kasalni davolashga e’tibor bergen bo‘lsa- lar ham, lekin u alohida fan tarmog‘i sifatida shabl- lana olmadi.

Miya zararlanishining nutqqa ta’siri muammosi izchil ravishda XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab o‘rganildi.

Neyropsixologiya va u bilan bog‘liq bo‘lgan neyrolingvistika maxsus fan sifatida yaqindagina — asrimizning yetmishinchi yillarda shakllandı. Bu fanning vujudga kelishida A. A. Leontyev, A. R. Luriya, E. S. Beyn, R. M. Boskis, YE. N. Venarskaya, O. S. Vinogradova, N. A. Eysler singari olimlarning xizmati kattadir.

Neyrolingvistika fani bo'yicha to'liq ma'lumot beruvchi ilk kitob A. R. Luriya tomonidan yozildi⁴⁶.

Nutqiy axborot jarayoni, ya'ni kishilarning o'zaro nutq yordamida bir-biriga axborot berish va bir-biridan axborot qabul qilish jarayoni bir qancha fanlarning o'rghanish obyekti sanaladi. Xususan, bu jarayon tilshunoslik va psixologiya fanlari tomonidan chuqur o'rganilgan.

Tilshunoslik kishilarning asosiy aloqa vositasi bo'lgan til va uning bevosita aloqa-aratashuv jarayonida voqelanuvchi nutqni ajratgan holda, ichki tuzilish, tuzilish birliklari, bu tuzilish birliklarining nutqiy jarayonda turli-tuman voqelanishi, «ichki tuzilish»dan «tashqi tuzilish»ga o'tishning asosiy bosqichlari va yuqoridagi ikki tuzilishning o'zaro munosabatlari kabi qator masalalarni atroflicha o'rgandi.

Inson borliqni ongida aks ettiradi. Aks ettirish sezgi organlari yordamida amalga oshiriladi. Sezgi organlari esa tashqi olam haqida muayyan axborotlarni miyaga uzatadi. Miya esa bu axborotlarni umumlashtiradi. Ko'rinadiki, obyektiv olamni aks ettirish jarayoni markaziy nerv sistemasi, bosh miya orqali yuzaga chiqadi.

Nerv sistemasi odatda ikki guruhdagi nerv siste- malarini o'z ichiga oladi:

markaziy nerv sistemasi va 2) chegara nerv sistemasi. Borliq haqida axborot beruvchi nutq va uni tushunish chegara nerv sistemalari markazga qarab yo'nalishi orqali amalga oshiriladi. Chegara nerv sistemalari markaziy nerv sistemalariga obyektiv borliqdagi narsa va hodisalarning muayyan belgilari haqidagi ma'lumotni beradi. Shuning uchun ham chegara nerv sistemasiga aloqador a'zolarni tahsil qiluvchilar (analizatorlar) deb yuritiladi. Ular ko'rish, eshitish, ta'm-maza a'zolari sanaladi. Har bir analizatorda ikki turdag'i nerv strukturasi ajratiladi.

axborotni mazkur sezgi organidan bosh miya pardasiga eltuvchi struktura;

borliq predmetlariga yo'naltiruvchi struktura (miyaning bilish zonası);

Uchinchi sath sifatida murakkab anatomik tuzilishga ega bo'lgan til pardasi zonasini ajraladi. Bu zonada miyaning turli analizatorlaridan kelgan belgilarni kompleksi birlashtiriladi va natijada sezgi hissiyotidan til umumlashmasiga o'tish imkoniyati tug'iladi.

Nutq hosil qilish, til xulqi aks harakat: markazdan chegaraga tomon harakat orqali yuzaga chiqadi. Miya analizatorlari qoplangan zonada shakllangan nutqiy dastur nutq praksizi zonasida konkretlashadi va nutq organlari (shuningdek yozma nutqni yuzaga chiqaruvchi sistema) ishtirokida proyeksiya harakat sistemasi yordamida yuzaga chiqadi.

Miyaning praksiyali sistemasidan (sensor yoki harakatlanuvchi) farqli ravishda gnostik-praksi parda va pardali analizatorlarni yopish zonasini funksional assimetriya bilan xarakterlanadi: til sistemasi va nutq orqali ifodalangan tafakkur esa uning yarimsha- ri bilan bog'langan.

Inson miyasi murakkab funksional sistema bo'lib, eng kamida uchta asosiy blok ishtirokida muttasil faoliyat ko'rsatadi. Ulardan biri pardaning tetiklanishini ta'minlaydi va tanlash, selektiv faoliyat shaklining uzoq amalga oshirish imkoniyatini beradi. Boshqasi axborotni olish, qayta ishslash va saqlashni ta'minlaydi. Uchinchi esa faoliyatni programmalashtirish, boshqarish va nazorat qilish vazifasini bajaradi.

Yuqorida bayon qilingan bloklarning zararlanishi ularning bir meyordagi vazifasiga salbiy ta'sir qiladi. Birinchi blokka mansub apparatlarning zararlanishi psixik faoliyatni tanlash, selektiv imkoniyatini cheklaydi. Ikkinci blok apparatlarining zararlanishi axborotni qabul qilish, qayta ishslash va saqpash qobiliyatini yo'qotadi. Uchinchi blokning zararlanishi esa programmalashtirish, barqaror ravishda boshqarish va nazorat qilish imkoniyatini cheklaydi.

Ko'rinadiki, miyadagi har qanday zararlanish inson faoliyatining ma'lum qismiga salbiy ta'sir qiladi. Sensor proyeksiya sistemasining zararlanishi eshitish va ko'rish organining kuchsizlanishiga olib keladi. Bu- ning natijasida og'zaki va yozma nutqni qabul qilish imkoniyati pasayadi. Nutqiy agnoziya holatida bemor ko'rish va eshitish qobiliyatini yaxshi saqlagan holda, ona tilining tovush «kiyofasi»ni (nutqiy eshitish ag- noziyasi) yoki yozma nutqda harf ko'rinishini «nutqiy ko'rish agnoziyasi» unutadi. Bunday vaqtida bemor gapirish yoki yozishi mumkin. Nutqiy eshitish agnoziyasiga uchragan bemor o'qishi, nutqiy ko'rish agnoziyasiga uchragan bemor esa og'zaki nutqini tushuntirish mumkin.

⁴⁶ Лурия А. Р. Основные проблемы нейролингвистики. МГУ, 1985

Nutqiy apraksiya ro'y berganda esa buning teskari holatiga duch kelinadi. Bunday vaqtida bemorning nutq organlari harakati va yozish harakati buziladi, tovush va so'zlarni talaffuz qila olmaydi va yoza olmaydi. Lekin atrofdagi odamlar nutqini tushunish, yozuvlarini o'qish qobiliyati saqlanib qolishi mumkin.

Analizatorlar yopqichlarining parda zonasni zararlanganda, afaziya holati kuchayadi. Bu vaqtida har qanday nutqiy faoliyat: eshitish, ko'rish faoliyati ham, talaffuz qilish, o'qish faoliyati ham so'nadi. Agar zararlanish manbai o'rtacha bo'lsa bemorning so'zda tovushni farqlash qobiliyati yo'qoladi. Fonetik jihatdan yaqin bo'lgan so'zlarni aralashtirib yuboradi. Ba'zan afaziya holatida eshitgan yoki o'qigan narsalarning ma'nosini tushunmagan holda mexanik ravishda takrorlashi mumkin.

Neyrolingvistika uchun ikki til va ko'p til egalarining (poliglotlarning) miyasi zararlanishi katta material beradi. Bu vaqtida bemor bir tilni ma'lum darajada saqlagan holda, ikkinchi tilni butunlay unutish yoki bir necha tillarning elementlarini aralashtirib yuborishi mumkin.

Neyrolingvistika yuqoridagi holatlarni aniqlash bilan, bemorlarni samarali davolash uchun katta imkoniyat yaratib beradi.

Lingvistika va tibbiyotning qo'lga kiritgan yangi-yangi yutuqlari neyrolingvistikaning tekshirish usullarini takomillashtirib boradi.

Hozirgi kunda neyrolingvistika psixolingvistika, neyropsixologiya, neyrofiziologiya, psixoakustika, kibernetika kabi oraliq fanlar g'oyalari va metodlaridan barakali oziqlanmoqda. Shunday qilib, neyrolingvistika insonning olamni belgilashtirish tabiatini kompleks ravishda o'rganishning bir tar-mog'i sifatida rivojlanib bormoqsa.

Tinglovchida lisoniy kompetensiya ikki asosda ishga tushadi. Birinchisi maqsadli ravishda asosiyl fikrni uqish shaklida bo'lsa, ikkinchisida maqsadsiz ravishda, ong ostida lisoniy birliklar ifodalayotgan ma'nolarni uqish shaklida. Shu boisdan ayrim tilshunoslar grammatik shakllar ma'nolarini uqish ong ustida bo'limganligi sababli lisoniy qobiliyatning muayyan ishga tushishi jarayonidan tashqarida ko'radilar va pragmatik omil bilan ularni bog'lashdan tiyiladilar.⁴⁷ Biroq «har qanday grammatik tahlil oxir-oqibat lisoniy birlik, shakllarning ma'nosini, ularning mundarijaviy xususiyatlarini aniqlash vazifasini qo'yadi. Bu birliklarning asl ma'nosini va mazmunini matnga, muloqot muhitiga murojaat qilmasdan turib aniqlash hamda tavsiflash qanchalik mushkul ekanligini bilamiz. Shuning uchun pragmatik ma'lumotlarning semantiksintaktik tadqiqotlar samarasi uchun muhimligi inkor etib bo'lmaydigan haqiqatdir. Semiotik maydonda pragmatika – semantika – sintaksis uchligi – trixotomiysi uzviy zanjir hosil qilishini e'tirof etadigan bo'lsak, unda lisoniy tahlilda ham ayirmachilikning xavfli usul ekanligini unutmaslik lozim. Pragmatika lisoniy bilim bilan kommunikativ qobiliyat o'rtasida ko'prik vazifasini o'taydi».⁴⁸

Tahlillarga xulosa sifatida aytish mumkinki, so'zlovchi va tinglovchining o'zaro bevosita yoki bilvosita muloqotidan kelib chiqqan holda grammatik shakllarning, xususan, son kategoriyasi nol shaklining u yoki bu ma'nosini reallashishi hamda anglanishida lisoniy va nolisoniy omillarning hamkorligi o'ta muhimdir. Ularning mazkur hamkorlikdagi hissalarini aniqlash, qaysi hollarda qaysi omilning ustuvorlashuvi va boshqalari rolining susayishini idrok etish til imkoniyatlarini egallah va ular bilan qurollantirish jarayonida muhim ahamiyatga ega. Bu nutq o'stirish, so'zlovchining tinglovchiga nutqiy ta'siri samaradorligini ta'minlash, o'zgalar fikrini to'g'ri uqish va nutqi asosida so'zlovchining intensiyasini xolis baholash va unga munosabat bildirishda, muloqot ssenariysi yo'nalishini ongli idrok etish ko'nikma va malakalarini shakllantirish hamda o'stirishda zaruriy omillardan biri bo'lib xizmat qiladi. Ona tili imkoniyatlaridan nutq so'zlash va nutqni qabul qilish jarayonida samarali foydalanish esa bugungi kunda til sohiblarida yaratuvchanlik, ijodkorlik qobiliyatini o'stirishda, nutq madaniyati va muloqot san'atini egallahda ahamiyatlidir.

Mustahkamlash uchun savollar

1. Tilshunoslik va tibbiyot munosabatini yoriting
2. Nutq mexanizmi nima?

⁴⁷ Lightfoot D. Principles of Diachronic Syntax. – Cambridge Univ. Press, 1979. – P.43; Kempson R.M. Presupposition and Delimitation of Semantics. – Cambridge: Univ. Press, 1995. – P.9

⁴⁸ Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент: ЎзМЭ, 2008. – Б.235.

3. Nevrologiyada tilshunoslikning tutgan o‘rnini yoriting
4. Neyrolingvistika fanning ma’lumotlariga tayangan holda nutqdagi norma va patologik holatlarining tahlili.
5. Nutqiy patologiya. Afaziyalar va ularning turlari.

10-ma’ruza. Tilshunoslik va kimyo

Reja

1. Ximiyada atom-molekulyar ta’limotining vujudga kelishi
2. Valentlik nazariyasining tilshunoslikda tatbiq qilinishi.
3. Lug‘aviy valentlik
4. Morfologik shakl valentligi
5. Sintaktik valentlik

tayanch tushunchalar: Ximiyadagi valentlik nazariyasining tilshunoslikda tatbiq qilinishi.

Tilshunoslik kimyo fanining yutuqlaridan ham bahramand bo‘lib kelmoqda. Kimyo fanida atom-molekulyar ta’limotining vujudga kelishi, eng kichik atomlarning ham bo‘linuvchanlik xususiyatiga ega bo‘lishining kashf etilishi, Y. N. Mendeleyevning elementlar davriy sistemasining vujudga kelishi tilshunoslikka ham o‘z ta’sirini ko‘rsatdi. Tilshunoslikda til bir- liklarining muayyan tuzilishiga ega ekanligi, bevosita kuzatishda eng kichik birlik, tabiiy fanlardagi atomga tenglashtiriluvchi fonemaning ham bo‘linish xususiyatiga ega ekanligi, butun tarkibidagi bo‘laklarining o‘zaro munosabatda, ayni paytda, butun bilan butun ham katta butunlik tarkibida o‘zaro munosabatda ekanligi e’tirof etila boshlandi. Natijada tilshunoslikka sistemaviy tadqiqot usuli kirib keldi.

Shu bilan birgalikda, kimyo fanida molekula va atomlarning to‘xtovsiz harakatda ekanligining e’tirof etilishi tilshunoslikda sinxroniya va diaxroniya nazariyasining vujudga kelishiga turtki bo‘ldi.

Kimyoviy bog‘lanish ta’limotining kuchayishi, kimyoviy bog‘lanishda valentlik tushunchasining markaziy o‘rin egallashi tilshunoslikka ham o‘z ta’sirini ko‘rsatdi. Tilshunoslikda valentlik nazariyasi vujudga keldi.

Shunday qilib, kimyo fanida qo‘lga kiritilgan jiddiy yutuqlar boshqa fanlar qatorida tilshunoslikka ham sezilarli ta’sir etib kelmoqsa.

Atom-molekulyar ta’limot va tilshunoslik. Kimyo fanida atom-molekulyar ta’limotining paydo bo‘lishi tabiatshunoslik olamida buyuk kashfiyot hisoblanadi.

Atom-molekulyar ta’limotining ildizi Farobi, Ibn Sino, Beruniylarga borib taqaladi. Xususan, Farobi substansiyaning qismlarga ajralishi va uning turli bo‘laklardan iborat ekanligi haqida fikr yuritadi_. Ular moddalarning tuzilishi bo‘yicha ilk ma’lumot bergen bo‘lsalar ham, lekin uni ta’limot darajasiga ko‘tarmadilar.

Kimyo fanida atom-molekulyar ta’limot L. M. Lomonosov nomi bilan bog‘likdir. Bu ta’limotning asosiy jihatlari 1741 yilda yozilgan. «Matematik kimyo elementlari» asarida ifodalangan.

Atom molekulyar ta’limotining mohiyati quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

«barcha modsalar korpuskulalardan» (molekulalardan) tarkib topadi.

Molekulalar «elementlardan» (Lomonosov atomlarni shunday nomlagan) tashkil topadi. Molekula va atomlar uzliksiz harakatda bo‘ladi.

Odsiy moddalarning molekulalari bir xil atomlardan, murakkab moddalarning molekulalari turli xil atomlardan iborat.

M. V. Lomonosovdan so‘ng atomistik ta’limotini ingliz olimi Jon Dalton rivojlantirdi. Shunday bo‘lsa-da kimyo fanida atom-molekulyar ta’limot faqat XIX asrning o‘rtalaridan e’tirof etila boshlandi. Kimyogarlarning 1860 yilda Karlsruhu shahrida bo‘lib o‘tgan xalqaro syezdida molekula va atom tushunchalarining ta’rifi bo‘yicha bir fikrga kelindi. Bunga muvofiq molekulaning kimyoviy xossalari uning tarkibi va kimyoviy tuzilish bilan aniqlanadi.

«Musbat zaryadlangan atom yadrosi bilan manfiy zaryadlangan elektronlardan-tarkib topgan elektrneytron zarracha atom» hisoblanadi.

Atom-molekulyar ta'limotida kimyoviy element tushunchasi ham muhim ahamiyatga ega. Bu ta'limotga muvofiq, «Yadrosining musbat zaryadi bir xil bo'lgan atomlarniig muayyan turi kimyoviy element» sanaladi. Hozirgi kunda 107 element ma'lum.

Fizika va kimyo fanidagi elementlarning (moddalarning) ichki tuzilishi haqidagi bunday xulosalar boshqa fanlar, shu jumladan, tilshunoslikka ham jiddiy ta'sir etdi.

Avvalo, bo'linishning ko'p bosqichliliqi (moddaning) molekulalardan, molekulalarning atomlardan, atomlarning neytron va protonlardan tashkil topishi haqidagi nazariya tilning ontologik tabiatini yoritishda qulay imkoniyat yaratdi.

Tilshunoslikda ham tabiiy fanlarga qiyosan bir-liklar tushunchasi paydo bo'ldi. Birliklar umumiyligi va xususiyligi dialektikasiga ko'ra til va nutq birliklariga bo'lindi. Har ikki birlik ichki tuzilish xususiyatiga, bo'linuvchilikka ega.

Til va nutq birliklarining ichki tuzilishi po-gonali xususiyatga ega. Ularning pogonaliligi shunda ko'rindiki, katta (makro) butunlik kichik butunliklarga, kichik butunliklar esa, o'z navbatida, yana kichik butunliklarga bo'linadi. Har bir butunlik o'z tarkibidagi kichik elementlarga (butunliklarga) nisbatan nisbiy butunlik, tarkibidan ajralib chiquvchi bo'laklar esa uning elementa bo'lib xizmat qiladi. Ularning nisbiyligi shunda ko'rindiki, elementga nisbatan butunlik sanaluvchi birlik o'zidan kattaroq butunlik tarkibida element sifatida ishtirok etadi. Aksincha, ma'lum bir butunlikka nisbatan bir element bo'lib kelgan birlikning o'zi yana bo'linuvchanlik xususiyatiga ega bo'lib, bu bo'lingan elementlar uchun butunlik vazifasini bajaradi. Masalan: so'z shakl morfemalardan tashkil topadi. Morfemalar so'z shakl elementi bo'lib xizmat qiladi. Ayni paytda, morfema fonemalardan tashkil topadi. Fonemalar esa morfemaning elementi sifatida uning tarkibida muayyan vazifa bajaradi. Fonema ham xudsi atom kabi yana ichki tuzilish xususiyatiga ega. Farqlovchi (differensial) belgilar fonemaning elementlari sanaladi.

Ko'rindiki, til birliklari yuqorida quyiga qarab pog'onali xususiyatiga ega. Har bir pog'onada yuqori pog'ona birligi quyi pog'ona birligi uchun butun, quyi pog'ona birligi esa yuqori pog'ona birligi uchun bo'lak, element vazifasini bajaradi. Bo'lak, element butun tarkibida funksiyalashadi.

Tilning bunday ontologik tabiatni, til tuzilishining ko'p sathliligi kimyo fanining atom-molekulyar nazariyasi va biologiya fanida 20-yillardan rivojlangan jonli sistemaning sathli tuzilishi konsepsiysi ta'sirida kelib chiqdi.

Tilning ko'p sathliligi, uning sathli tuzilishi tushunchalari tilshunoslikda XX asrning 20-yillaridan boshlab dastlab Amerika deskriptiv tilshunoslari asarlarida paydo bo'ldi.

Keyinchalik polyak tilshunosi Emil Benvenist va rus tilshunosi S. D. Kotsnelsonlar tomonidan rivojlantirildi. Ilgari tilning tuzilish sathi bilan tahlil sathi qorishtirilgan bo'lsa, keyinchalik bu ikki turdag'i sath bir-biridan ajrala boshlandi.

Atom-molekulyar ta'minotning tilshunoslikdagi ta'siri tilga sistema sifatida qarashda ham ko'rindi.

Tilshunoslikda sistemaviy tajiqotlar XX asr boshlaridan paydo bo'la boshladi. Uning shakllanishida V. Humboldt, F. Sossyur, I. A. Boduen de Kurtene singari olimlarning xizmati katta bo'ldi. N. S. Trubetskoy, A. Yelmslev, E. Benvenist, Sepir Blumfeld, Xarris T. P. Lomtev, V. M. Solnsev, X. Ne'matov, I. Ko'chqortoyev, N. Mahmudov, R. Rasulov, A. Berdialihev singari tilshunoslar sistemaviy-struktur ta'limotni rivojlantirdilar.

Tilshunoslikda sistema va struktura deyilganda nima tushuniladi?

O'zaro bog'liq va shartlangan ikki va undan ortiq elementlarning munosabatidan tashkil topgan va yangi sifatga ega bo'lgan barqaror butunlik sistema sanaladi.

Til birliklari voqelanish belgisiga ko'ra ham, tuzilish (ontologik) tabiatiga ko'ra ham sistema sanaladi. Masalan, har bir morfema bevosita kuzatishda bir qancha shakli va mazmuniy variantlar (allomorf-lar, morfema variantlari) orqali namoyon bo'ladigan umumiylilik sifatida sistemadir. Shuningdek, har bir fonema ham bevosita nutq jarayonida bir necha variantlar (allofonlar) orqali namoyon bo'ladigan umumiylilik, butunlik sifatida sistema sanaladi. Bundan tashqari morfema va undan yuqori birliklarning hammasi tuzilish (ontologik) tabiatni jihatidan qurilma (konstruksiya) sifatida ma'lum qurilish (konstruktiv) birliklarning o'zaro barqaror sintagmatik munosabatidan tashkil topgan sistema hisoblanadi. Masalan, morfema ikki va undan ortiq fonemalarning o'zaro sintagmatik munosabatidan tashkil topgan va yangi sifatga ega bo'lgan butunlik sifatida (morfema

bir fonemaning yangi sifatga ega bo'lib, morfemik sathga ko'tarilishi natijasida ham vujudga kelishi mumkin. Masalan, u — unlilar sirasida fonema, lekin shu fonema ko'rsatish olmoshi yoki III shaxe kishilik olmo- shining moddiy asosi bo'lib xizmat qilishi mumkin. Ikki sath birligi bo'lgan fonema va morfema o'rtasida sifat o'zgarishi ro'y beradi.

Sistemaning muhim tuzilish belgilari: 1) tarkibiy qismlarga bo'linishi; 2) tarkibiy qismlarning butun tarkibidagi o'zaro va butun bilan bo'lak, tur bilan jins o'rtasidagi shartlangan munosabatning bo'lishi; 3) ko'pincha tur va butunning tarkibiy qismlariga mavjud bo'limgan yangi sifatga ega bo'lishdir.

Birinchi belgisiga ko'ra, har qanday sistema muayyan qurilish birliklaridan tashkil topadi, bu esa uning ikki bo'laklarga bo'linish xususiyatiga ega ekanligini ko'rsatadi.

Ikkinci belgisiga butun tarkibidagi elementlarni bir-biri bilan va elementlarning butun bilan bo'lgan munosabatini ifodalaydi. Har ikki munosabat zaru- riy va o'zaro shartlangandir. Masalan, fonemasiz morfemoning bo'lishi mumkin emas. Morfema fonemalar- dan tashkil topadi. Fonema morfema tarkibiga uning qurilish birligi sifatida kiradi. Shuningdek, so'z shakl morfemalardan tashkil topadi. Morfema esa so'z shakl tarkibida uning qurilish birligi sifatida fa- oliyat ko'rsatadi. Bularning munosabati butun va bo'lak o'rtasidagi munosabatdir. Bundan tashqari bo'lak bilan bo'lakning, butun bilan butunning ham munosabati mavjud. Masalan, son kategoriyasi tarkibida birlik ko'pliksiz bo'lishi mumkin emas. Birlik shakl ko'plik- ka nisbatan, ko'plikka zidlanganda aniqlanadi.

Uchinchi belgisiga ko'ra, sistema deb qaralayotgan butunlik tarkibiy qismlarining odsiy yig'indisidan iborat emas. U tarkibiy qismlarida sistemaga kirgun- cha mavjud bo'limgan yangi sifatga ham ega bo'ladi. Masalan, ikki xil gazning — vodorod va kislороднинг биримасдан суv hosil bo'ladi. Shuningdek, fonema- lardan tashkil topgan morfema fonemalarga nisbatan yangi sifatga ega bo'ladi. Fonemalar ma'noni farqlash uchun xizmat qiluvchi ma'nosiz birliklar bo'lsa, ularning qo'shiluvidan hosil bo'lgan morfema esa ma'noli birlik sanaladi. Shuning uchun ham har qanday sistemada hosil qiluvchi va sistemada namoyon bo'luvchi belgilari mavjud bo'ladi.

Atom va molekulalarning uzluksiz harakatda ekanligi va tilshunoslikda dinamika hamda statika Obyektiv olamdag'i narsa va hodisalar uzluksiz harakatda, rivojlanishda ekanligi fanda antik davrlardan beri ma'lum. Ayniqsa bunday qarash O'rta Osiyo olimlari tomonidan rivojlantirildi. Xususun, Farobiy «Falsafatu Aristutolis» asarida: «ular (to'rt modsa) abadiy bo'lolmaydilar; chunki havo, suv, tuproq na olov bo'linadilar, birlari boshqasiga aylanadilar na balki har bir unsur boshqasida mavjuddir», - deydi⁴⁹.

Farobiy Aristotelning olam uzvlari doimo harakatda, rivojlanishda ekanligi haqidagi fikrlarini ijodiy rivojlantiradi. Borliqdag'i narsa va hodisalar bir-biriga ta'sir qiladi va ta'sirni qabul qilish harakatida bo'lish bilan birga, shu narsalarni tashkil etgan ichki unsurlar ham o'zaro ana shunday harakatda ekanligini bayon qiladi.

Fanda atom-molekulyar ta'limotining kuchayishi atom va molekulalarning uzluksiz harakatda ekanligini yorqinroq isbotlab berdi. Tabiiy fanlarda erishilgan bu yutuq tilshunoslikka ham o'z ta'sirini ko'rsatdi.

Struktur tilshunoslikning paydo bo'lishiga atom-molekulyar ta'limoti asos bo'ldi. Bu yo'nalihsining asoschisi sanaluvchi mashhur Shveytsariya olimi Ferdinand de Sossyur til birliklari ham borliqdag'i narsa va hodisalar singari doimo rivojlanishda, o'zgarishda ekanligini ta'kidladi va tilning ikki holatini - dinamik va statik holatini ajratdi. Uzluksiz rivojlanayotgan, harakatda - dinamikada bo'lgan ma'lum bir tilning muayyan bir davrga xos holati statika holati hisoblanadi.

Ana shu nuqtai nazardan tilni ham ikki jihatdan o'rganish lozimligini ko'rsatdi.

Diaxroniya grekcha orqali, ikki zamon so'zlaridan olingan. Tilni tarixiy taraqqiyotda, rivojlanishda ekanligini e'tiborga olib o'rganish diaxroniya hisoblanadi.

Sinxroniya grekcha sinxopok so'zidan olingan bo'lib bir vaqtlik demakdir. Til tarixiy taraqqiyotining muayyan bir davrdagi holati sinxroniya sanaladi.

Tilshunoslik tarixida diaxroniya sinxroniya bilan uzviy bog'lanadi. Ularni bir-birisiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

⁴⁹ Абӯ Наср Фаробий. Фозил одамлар шаҳри. Тошкент, 1993 й., 86-бет.

Tilning sinxron tahlili bevosita tadqiqotchi kuzatib, eshitib turgan holatni tekshirishga qaratilganligi, faktik materiallarning boyligi nuqtai nazardan diaxroniyaga nisbatan qulayroq. I. A. Boduen de Kurtene, N. S. Trubetskoy, R. O. Yakobson singari mashhur tilshunoslar sinxron holatdagi til sistemasini to'liq va ishonarli tadqiq etish uchun qanday qilib shu holatga kelganligini, ya'ni diaxronik materiallarga murojaat qilish lozimligini ta'kidlaydilar.

Shuning uchun ham garchi sinxron o'rganish diaxron o'rganishdan oldin bo'lsa ham, lekin ularni bir-biridan ajratish mumkin emas. Sinxron o'rganish diaxron o'rganishga yo'l ochadi. Sinxron tadqiqotlar natijalari asosida diaxroniya ish ko'radi. Muayyan til taraqqiyotiniig ikki davr, ikki sinxron holati o'rtasidagi o'zgarishlar ikki davrdagi materiallarni bir-biriga taqqoslash orqali belgilanadi.

Valentlik nazariyasi va tilshunoslik

Kimyoviy bog'lanish haqidagi ta'limot hozirgi kimyo fanining eng markaziy masalalaridan biridir.

Kimyo fanida atomlarning tuzilishi haqidagi ta'limot kimyoviy bog'lanish tabiatini tushuntirib beradi.

Atomning tashqi pog'onasida bittadan sakkiztagacha elektron bo'lishi mumkin. Kimyoviy bog'lanish valent elektronlar hisobiga vujudga keladi. U uchta usul bilan amalgalashadi:

1) kvalent bog'lanish; 2) ionli bog'lanish; 3) metall bog'lanish.

Elektron juftlar tufayli vujudga keladigan kimyoviy bog'lanish kvalent bog'lanish deyiladi. Bu ikki elektronli va ikki markazli (ikkita yadroni tutib turadi) bog'lanish sanaladi.

Ionlar orasida elektrostatik tortishuv tufayli vujudga keladigan kimyoviy bog'lanish elektrovalent yoki ionli bog'lanish deyiladi.

Ko'pchilik metallar atomlarining tashqi energetik pog'onasida elektronlar soni ko'p bo'lmaydi. Atomlar bir-biriga yaqinlashganda, kristal panjara hosil bo'lishi natijasida qo'shni atomlarning valent orbitallari bir-birini qoplaydi. Shuning uchun elektronlar bir orbitaldan boshqasiga bemalol o'tib, metall kristalidagi barcha atomlar orasida bog'lanish hosil qiladi. Ana shunday bog'lanish turi metall bog'lanish deyiladi.

Atomlar orasida kimyoviy bog'lanish hosil bo'lishida ishtirok etadigan elektronlar valent elektronlar sanaladi. Kimyoviy elementlarda atomdagi valent elektronlarining soni D. I. Mendeleyev elementlar davriy sistemasidagi guruh raqamiga teng keladi. Masalan, oltingugurt I guruhga mansub. Demak, oltingugurt ato- mida 16 elektron bo'lib, ulardan 6 tasi valent elektron hisoblanadi.

Har bir atomning valentligi mavjud. U elementlar atomlarining kimyoviy bog'lanishlar hosil qilish xususiyatidir. Valentlik berilgan atomning boshqa atom- lar bilan birikkan kimyoviy bog'lanishlar soni sifatida aniqlanadi.

Kimyo fanida juda katta muvaffaqiyat qozongan valentlik nazariyasi tilshunoslikka ham asrimizning qirqinchi yillaridan boshlab tadbiq etila boshlandi. Bu tushuncha tilshunoslikka ilk marta S. D. Katsnelson tomonidan 1948 yilda yozilgan «O grammaticeskoy kategorii» («Vestnik LGU», 1948) asarida kiritildi. Shundan boshlab bu tushuncha tilshunoslikda mustahkam urin oldi.

Valentlik atamasi lot. «quvvat», «kuch» degan ma'noni beradi. Bu atama kimyoda bir element atomining boshqa element atomi bilan bog'lanish xususiyatini ifodalash uchun qo'llatilsa, tilshunoslikda leksemaning boshqa leksema bilan bog'lanish qobiliyatini ifodalash uchun qo'llaniladi.

Tilshunoslikda valentlik atamasi keng tarqagan bo'lsa ham, lekin bu atama ostida xilma-xil tushunchalar ifodalandi. G'arbiy Ovrupa tilshunosligiga bog'la- nishni ifodalash uchun bu atamani olib kirgan L. Tenyer uni faqat fe'lga nisbat berdi va valentlikni fe'l qo'shib olishi mumkin bo'lgan aktantlar miqdori sifatida belgiladi.

L. Tenyer fe'larni alevant (shaxssiz fe'llar), bir valentli (o'timsiz fe'llar: Ahmad uxlayapti), ikki valentli (o'timli fe'llar: Ahmad kitob o'qidi), uch valentli fe'llarga bo'ladi.

Valentlikni bunday tushunish verbotsentrik (har qanday gap asosida fe'l yotadi deb hisoblash) nazariyaning asosidir. Unda valentlik verbotsentrik nazariyada mantiq ta'sirida kelib chiqqan bir, ikki, uch o'rinli predikatlarga teng keladi.

Hozirgi tilshunoslikda predikat atamasi ostida faqat fe'l emas, balki otlar ham tushunilgani va predikatlar materialiga ko'ra fe'l va ot predikatlar - Modda tarkibining doimiyligi qonuni va

tilshunoslik Tarkibining doimiyligi qonuni kimyoning asosiy qonunlaridan biridir. Bunga muvoſiq har qanday toza modda, olinish usulidan qat'iy nazar, o'zgarmas sifat va miqdoriy tarkibga ega bo'ladi. Masalan, karbonat angidrid (SO_3) ko'p xil usullar bilan sintez qilinishi mumkin: 1) uglerod (N-oksid bilan kislo-roddan, 2) karbonatlarga kislotalar ta'sir ettirish orqali va boshq.

Lekin barcha hollarda SO_2 ning sifat tarkibi (uglerod va kislorod) va miqsor tarkibi (uglerodning miqdori 27, 27%, kislorodning miqdori 72, 73%) o'zgarmas holda saqlanib qoladi.

Ayniqsa, bu qonunni tushuntirishga atom-molekuliyar ta'lilot katta yordam beradi. Bu ta'lilotga ko'ra, atomlarning massasi o'zgarmas bo'lganligi sababli modda massa tarkibi ham umuman, o'zgarmas bo'ladi.

Tabiiy fanlarda keng qo'llanilgan va katta muvaffaqiyat qozongan modda tarkibining doimiyligi qonuni tilshunoslik faniga ham o'zining ma'lum ta-sirini ko'rsatdi.

Bu nazariyaning eng yirik vakili sanaluvchi Lui Yelsmolev til va nutq birliklarini bir-biriga solishtirar ekan, barqaror (konstant) va o'zgaruvchan birliklarga ajratadi. Bevosita kuzatishda sezgi organlarimiz yordamida fahm etiladigan birliklar o'zgaruvchan birliklar, ularning zamirida yashiringan va har birida takrorlanish xususiyatiga ega bo'lgan mohiyat barqaror birliklar hisoblanadi. Masalan, i, 1: kabi bevosita eshitgan tovushlar bir fonemaning — lablash-magan, tor unli fonemaning bevosita ko'rinishlari- dir. Ular nechta ko'rinishda talaffuz etilmasisin, ham masida bitta mohiyat takrorlandi. Yuqori bevosita kuzatishda sezgi organlarimiz bilan fahm qilingan bir nechta tovushning hammasida torlik, lablanmaganlik belgisi ma'lum darajada saqlanadi. Aks holda boshqa fonemaning varianti bo'ladi.

Ko'rinaradiki, tilshunoslikda invariant — variant tushunchalarining paydo bo'lishida algebradan tashqari kimyo fanining ham roli bor.

D. I. Mendeleyevning elementlar davriy sistemasi va tilshunoslik

Kimyo fanidagi N. D. Mendeleyevning elementlar davriy sistemasi ning dunyo olimlari tomonidan keng e'tirof etilishi va elementlarni sistemaga solishda tutilgan tamoyilning naqadar to'g'riligi boshqa soha olimlarining ham havasini keltirdi.

Butuni bo'laklarga, to'dani turlarga tasniflashda D. I. Mendeleyevga ergashgan holda, tasnif asosiga bir belgini olishga harakat qildilar.

Avvalo, D. I. Mendeleyevning muvaffaqiyati nima? D. I. Mendeleyevgacha bo'lgan olimlar faqat bir-biriga o'xshash bo'lgan elementlarnigina taqqosladi. Noo'x-shash elementlar ularning nazaridan chetda qoldi. D. I. Mendeleyev ulardan farqpi ravishda noo'xshash elementlarni o'zaro taqqosladi. Buning natijasida elementlarning atom massalarining qiymatlari o'zgarishi bilan ularning xossalari davriy ravishda o'zgarishini aniqladi.

Demak, elementlarning atom massalarining ortib borishi tartibida joylashtirilgan uzlusiz qatorida ftordan keyin natriy va magniy, xlordan keyin kalii, bromdan keyin — rubidiy va stronsiy turishi kerak. Agar bu elementlar atom og'irliklarining ortib borishi tartibida joylashtirilsa, davriy ravishda takrorlanadi. Qatorda magniy bilan xlor, kalsiy bilan brom, stronsiy bilan yod orasida nechta element yo'qligidan qat'iy nazar elementlar xossalaring bunday davriy o'zgarishi ko'rinaraveradi. Bularning hammasi D. I. Mendeleyevga o'zining davriy qonunini yaratishga asos bo'ldi.

Uning elementlar davriy qonunining yaratishga elementlarni taqqoslashga to'g'ri tomonli bilan yondoshganligi — davriy sistemani tuzishda atomning asosiy xarakteristikam sifatida uning atom xossasini e'tiborga odganligi bo'ldi. Uning fikricha moddaning masasi uning shunday xossasidirki, qolgan barcha xossa-lari ana shunga bog'liq bo'lishi kerak.

D. I. Mendeleyevning kimyo fanida erishgan bu yutug'ini boshqa fanlar kabi tilshunoslikka ham tatbiq etish mumkin.

Birinchidan, lisoniy birliklarni ma'lum guruhlarga tasniflashda tasnif tamoyili sifatida ularning bitta asosiy belgisiga tayanish ham D. I. Mendeleyev tamoyilini qo'llashdir. Masalan so'z turkumlarini tasniflashda, gap bo'laklarini guruhlarga ajratiisha va boshq.

Ikkinchidan muayyan leksik-semantik guruhgaga mansub bo'lgan leksemalarning o'rnini belgilash, ma'lum bir tilida fonemalarning fonologik sistemasidagi o'rnini belgilashda ham D. I. Mendeleyevga elementlar davriy sistemasi ta'sirini kuzatish mumkin.

Turkiy tillar unililar sistemasini oladigan bo'l-sak, uni ayrim mualliflar quyidagi prizmada joylashtiradilar:

tepishli ma'lumotlar fonetikada, ayniqsa nutq tovushlar tizimini o'qitishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Fonetikani o'rganishda tajribaviy usullar. Nutq tovushlarining fizik, fiziologik jihatlarini aniqlash uchun turli xil tajriba usullaridan keng tarqalgani muayyan fizik asboblardan, muhinalardan foydalanishdir.

Hozirgi kunda nutq tovushlarining bevosita kuza-tishda oddiy eshitish yo'li bilan aniqlash mumkin bo'lmanan ma'lum jihatlarini muayyan tajribaga asoslanib o'rganadigan maxsus ilshunoslik yo'nalishi paydo bo'ladi, bu yo'nalish tajribaviy (eksperimental) fonetika nomi bilan yuritiladi.

Tajribaviy fonetika metodlaridan eng muhimi to-vushni ma'lum asboblar yordamida tekshirishdir. Bunday tekshirish instrumental fonetik tekshirish usuli sanaladi. Fonetikaning xuddi shunday tekshirish usuli fizika bilan bevosita aloqadordir.

Intonografik metod. Tilning fonologik tizimini eksperimentam (tajribaviy) usulda tadqiq etish yo'llaridan biri intonografik metod deb yuritiladi.

Eksperimental-fonetik tadqiqotlar olib borilgan dastlabki davrda talaffuz qonunlari fiziologik, psixologik vositalar, oddiy kuzatish, eshitish yo'li bilan o'rganilgan edi. Bu usullar eksperimental fonetikada pnevmatik metod deb yuritiladi. Bu metod amaliy fonetika taraqqiyotida muhim rol o'yndi, chunki uning yordamida ko'pgina fonetik jarayonlar (nazalizatsiya, aspiratsiya, dissimilyatsiya, sonantizatsiya, dissimilyatsiya, metateza, dizreza, singarmonizm kabilalar)ning mohiyati aniqlandi.

30-yillarga kelib, prof. V. A. Artyomov intonatsiya, pauza, bo'g'in kabi fonetik hodisalarini o'rganishda elektroakustik metodlardan foydalanish ishini boshlab berdi, bu esa ilgari ko'llanilgan pnevmatik metodsan o'z ustunliklariga ega edi. V. A. Artyomov nutqning fonetik xususiyatlarini tadqiq etishga mo'ljallangan elektrodinamik rekurdyor, spektograf singari yangi apparatlar ixtiro qildi. Bu bilan olim eksperimental fonetik tadqiqotlardan elektroakustik metodlarning mustahkam o'rin egallashini ta'minladi.

Intonograf elektroakustik tadqiqotlar uchun mo'ljallangan asboblaridan biridir. U tekshirish uchun zarur materialni fizik jihatdan aniq, to'lasicha yozib oladi va elektromagnit tasmalarga tushiradi. I-67 raqamli shunday intonograf 70-yillarda Uzbeki ston Fanlar akademiyasi Til va adabiyot instituta qoshida-gi eksperimental fonetika laboratoriyasida o'rnatilgan bo'lib, A. Mahmudov, S. Otamirzayeva, H. Yo'ldosheva kabi olimlar shu asbob yordamida o'zbek tilining fonetik xususiyatlarini o'rganish bilan shug'ullanганlar. Ana shu asbob yordamida til (nutq)ning tovush xususiyatlari, o'zbek adabiy tilining boy intonatsion sistemasiga oid aniq eksperimental materiallar to'plandi.

Intonografning asosini funksional bloklar tashkil etadi. Bu bloklarning chiqish klemmalaridagi elektr kuchlanishi nutq to'lqinining ossillogrammasiga, asosiy ton chastotasining harakatiga hamda magnit tasmasiga yozib olingan va tekshirilayotgan signalning tovush bosimi darajasiga muvofiq keladi. Intonografik metod yordamida fonetik hodisalar tadqiq etilar ekan, alohida blok orqali vaqt signallari ham uzatib turiladi. Bunday signallarning intonografda tahlil etish va olingen ma'lumotlarni registratsiya qilish quyidagi ikki usulda amalga oshiriladi:

a) asbobning ichiga o'rnatilgan magnitofon yordamida nutq signal i intonografga uzatiladi. Tahlil natijalari esa 12 sm kenglikdagi fotolentaga yorug'lik nuri ossillograf orqali nutq ossillogrammasi, nutq tovushi bosimining o'rtacha darajasi, tovush paychalari asosiy tonining chastotasi, vaqt belgilari egri chi ziqlar asosida yozib olinadi;

b) olingen eksperimental materiallar (magnitofon lentalari) segmentator yordamida tekshirib ko'ri-ladi. Segmentator ishlayotgan paytda elektron nur trubkasining uzoq vaqt yorishib turadigan ekranida ossilogrammaga, asosiy tonga, tovush bosimining darajasiga yoki vaqt belgilari mos egri chiziqlardan biri operatorning hoxishiga qarab paydo bo'ladi. Segmentatorning bunday holatdagi ish sikli 2,4 sekundga teng keladi, bu esa uni qayta-qayta ko'rish imkonini beradi. Natijada tadqiqotchi butun materialni fotoristratsiya qilmasdan turib qayta ko'rib chiqish imkoniga ega bo'ladi. Umuman, intonografik metod nutq tovushlarini, bo'g'in, so'z, so'z birikmasi yoki gap tarkibida tadqiq etish uchun zamin yaratadi.

Rentgenografik metod. Rentgenografiya talaffuz apparati harakatining ma'lum bir o'rnini emas, balki uning umum, yaxlit ko'rinishini aks ettirish imkonini beradi. Hozirgi rentgenografiya

Til kishilarning eng muhim aloqa vositasi sifatida nutqiy jarayon orqali bevosita voqelanadi. Nutqiy jarayon esa so‘zlovchi va tinglovchilarning o‘zaro fikr almashuvidan iboratdir. Bu jarayonda so‘zlovchi obyektiv olam haqidagi bilimlarini tovush signallari orqali tinglovchiga uzatadi.

Nutqning eng kichik bo‘lagi bo‘lgan tovush ma’lum akustik xossaga, gap muayyan ohangga, so‘z esa urg‘uga ega bo‘ladil

Tovushning akustik xossasi, gapning qanday ohangga ega bo‘lishi, gap va so‘z urg‘usining tabiatini kabi masalalar fizika fani erishgan yutuqlar asosida hal etil ad i.

Shu bilan birgalikda har qanday tovushning paydo bo‘lish o‘rnini, lab va burunlarning ishtirokini aniqlash uchun fizik asboblardan foydalanishga to‘g‘ri keladi.

Shuningdek, fizikadagi magnit maydoni, atomning tuzilishi singari masalalar tilshunoslikdagi leksik-semantik maydon, eng kichik til birliklarining bo‘linuvchanligi singari nazariyalarning kelib chiqishiga zamin yaratdi.

Bularning xammasi tilshunoslik bilan fizika fa- ning uzviy aloqador ekanligini qo‘rsatadi.

Akustika va tilshunoslik. Fizikaning akustika bo‘limi tilshunoslikning fonetika bo‘limi bilan chambarchas aloqadadir, Ayniqsa fizikaning akustika bo‘limi bilan tilshunoslikning fonetika bo‘limi o‘zaro bog‘liq.

Akustika fani fizikaning tarkibiy qismi bo‘lib, tovushning eshitish xususiyatlarini o‘rganadi. Ultra va infrabinafsha tovushlar kashf etilgunga qadar har qanday tovushni qabul qilish vositasi insonning eshitish organi qulqoq deb hisoblangan, shuning uchun fizikaning tovushlarni o‘rganuvchi sohasi akustika (yunoncha eshitish so‘zidan olingan) deb yuritilgan.

Tovush to‘lqinlarining vujudga kelishi va tarqalishi bilan bog‘liq hodisalarini akustik hodisalar deb yuritiladi.

Tovushlarning tarqalish tezligi eksiyermental (tajribaviy) metod asosida o‘rganish yo‘lga qo‘yilishi bilan akustika sohasi taraqqiyotida katta o‘zgarish sodir bo‘ldi. XVII asrga kelib fizik olimlar havoda tovush to‘lqinlarining tezligini o‘lchash bilan aloqador dastlabki tajribalarni o‘tkazdilar (masalan: to‘pdan o‘q otilganda yorug‘lik chaqnagan payt bilan o‘scha tovush yetib kelgan payt orasidagi vaqtini aniqdashga harakat qilingan).

Hozirgi paytda tovushning havodagi tezligi normal sharoitda 331 m/sekundga tengligi asboblar yordamida aniqlangan. Shuningdek, olimlar suvda tovush tezligi 1500 m/s, po‘latda esa 6000 m/s ekanligini o‘lchov asboblari yordamida ma’lum bo‘lgan.

Asosiy akustik tushunchalar qatoriga tovushning balandligi, tovush bosimi, tovush kuchi, tovush tembri, akustik rezonans kabilar kiradi.


Inson o‘zining eshitishiga qarab har qanday tovushning balandlik darajasini aniqlaydi. Odam qulog‘idagi pardaga tovush to‘lqinning ta’sir kuchi tovush bosimi deb yuritiladi. Gaz yoki suyuqlikdan tovush to‘lqini o‘tganda vujudga keladigan qo‘shimcha bosim tovush bosimi sanaladi. Odam qulog‘ining tovushni sezish bilan bog‘liq eng past chegara 10-6 PA tovush bosimiga mos keladi, ya’ni normal atmosfera bosimining 10-10 qismini tashkil etadi. Agar tovush bosimi yuqori chegaraga yetsa (qulqosa og‘riq paydo bo‘ladi), taxminan 100 PAgA teng keladi.

Tovush tebranishlari garmonik tovush bo‘yicha yuz beradi, buni odam qulog‘i musiqaviy ton sifatida qabul qiladi. Shuni inobatga olish lozimki, yuqori chastotali tebranishlar yuksak tondagi tebranishlar sifatida, past chastotali tebranishlar esa past tondagi tovushlar sifatida qulqoqa yetib boradi. Yuqori va past tebranishdagi tovush tebranishlari oralig‘idagi masofa oktava deb yuritiladi. Masalan, birinchi okta- vaning «lya» toni 440 gers chastotaga ega bo‘lsa, ikkinchi oktavaning «lya» toni 880 gersli chastotaga mos keladi.

Garmonik qonunga bo‘ysunmaydigan tovush tebranishlari ham bor. Ularni inson tembriga ega bo‘lgan murakkab tovush sifatida qabul qiladi. Shuning uchun ham tonning balandligi bir xil bo‘lsa ham, g‘ijjak va pianino asboblaridan chiqadigan tovushlar tembriga ko‘ra farq qiladi.

Odam qulog‘i eshitishi mumkin bo‘lgan tovush tebranishlarning chastotasi 20 dan 20000 gersgacha bo‘lgan oralikda ekanligi aniqlangan. 20 gerssan kam chastotali tebranishlar infraqizil tovushlarni, 20 mingdan ko‘p chastotali tebranishlar esa ultrabinafsha tovushlarni hosil qiladi.

Agar jismning xususiy erkin tebranishlari chastotasi tovush to‘lqinining chastotasi bilan kelsa akustik rezonans hodisasi yuzaga keladi. Masalan, puflab chalinadigan cholg‘u asboblarining, jumladan, organning trubalari akustik rezonator vazifasini bajaradi. Fizikaning akustika sohasiga



Bunda quyi qismda lablanish belgisi yo‘q, tepe qismda bor. Oldi qism qattiq, orqa qator, orqa qism yumshoq, old qator, chap qism tor, o‘ng qism keng va kalsiy belgilarga ega bo‘lib, har bir unlining qatiy joylanish o‘rnii bor. D. I. Mendeleyev davriy sistemasida elementlarning davriy joylashuvida atom masalasi ortib yoki kamayib boradi. Yoki fonemalar akustik xossasiga ko‘ra, ovoz ishtirokiga ko‘ra ham qat’iy joylashish o‘rniga ega: shovqunlilar - jaranglilar - sonorlar - unlilar. Bunda unlilar bilan shovqunlilar akustik xossasiga, ovozning ishtiroki belgisiga ko‘ra qatorning ikki qutisida turadi. Biri belgiga ega, ikkinchisi (shovqinlilar) ega emas. Qolgan ikkitasi oraliq holatni xosil qiladi. Lekin ularda belgi chapdan o‘ngga qarab ortib boradi yoki aksincha o‘ngdan chaiga qarab kamayib boradi.

Shuningdek, elementlar davriy sistemasi asosida ayrim leksemalarning leksik-semantik guruhsagi o‘rnini belgilash mumkin. Agar biron bir tushuncha o‘z ifodasini topgan bo‘lsa boshqalariga qiyosan uning o‘rnini, bo‘sh katagini belgilash ham mumkin. Masalan, qarindoshlik bildiruvchi leksemalar.

Shu keltirilgan fikrlarning o‘ziyoq D. I. Mendeleyev elementlar davriy sistemasining tilshunoslikka qanchalar ta’sir etganining yaqqol namunasidir.

Son kategoriyasida [-lar] shaklining sof ko‘plik ma’nosini so‘zlovchining intensiyasiga hamrohlik qiluvchi hissiy-emotsional holatining neytral shakli boshqaradi. Tilshunos V. Robinson ajratgan «affekt (his-hayajon) holatini ifodalash», «emotsional holat, shaxsiy ruhiyatni namoyon qilish» vazifalari⁵⁰ ham intensiyaga qo‘sishimcha ravishda intensiyaga yo‘ldosh omil sifatida grammatik shaklning ma’nosini ro‘yobga chiqaradi. Masalan, shaxs emotsional holati nol darajada bo‘lganida aksar hollarda grammatik shakl sof «ko‘plik» ma’nosini ifodalaydi.

Mustahkamlash uchun savollar

1. Atom-molekulyar ta’limot nima?
2. Valentlik nazariyasining tilshunoslikda tatbiq qilinishi.
3. Lug‘aviy valentlik nima?
4. Morfologik shakl valentligi numa?
5. Sintaktik valentlik nima?

11-ma’ruza. Tilshunoslikning fizika, geografiya bilan munosabati

Reja

1. Fizikadagi maydon nazariyasining tilshunoslikda tatbiq qilinishi.
2. Lingvogeografiya.
3. Tilshunoslik va kartografiya.
4. Lingvistik geografiya va dialektologiya.
5. Lingvogeografiya va areal tilshunoslik.

Tayanch tushunchalar: Fizikadagi maydon nazariyasining tilshunoslikda tatbiq qilinishi. Lingvogeografiya. Tilshunoslik va kartografiya. Lingvistik geografiya va dialektologiya. Lingvogeografiya va areal tilshunoslik.

⁵⁰ Robinson W. Language and social behaviour. – Harmondsworth: Penguin, 1992. – P.49.

metodi tovush artikulyatsiyasining statikasi, ya’ni talaffuz apparati harakatining ma’lum bir vaziyatini aniq ko’rsatadi.

50-yillarda V. A. Artyomov, V. G. Ginzburg kabi olimlar tomonidan ishlab chiqilgan rentgenografik metod texnik tomonidan ancha mukammal bo’lib, keyingi qirq yildan buyon ko’pgina tillarning tovush tizimini o’rganishda keng foydalanilmoqsa. Bu metod yordamida eksperimental-fonetik kuzatishlar olib borilganda suxandon (diktor) stulga o’tirgani holda boshini va bo’ynini maxsus tirgakga qo’yib o’rnashib olgach, tovushlarni (yoki so’zlarni, so’z birikmalarini, gaplarni) hijjalab talaffuz qiladi, tirgakning chap tomoniga joylashgan kassetadagi rentgen plyonkalari almashtirilganda ham suxandon holati o’zgarmaydi.

Suxandonning tabiiy talaffuzi uchun yaratilgan bunday sharoitda tajriba o’tkazuvchi fonetist olim (eksperimentator) suxandonning talaffuzini diqqat bilan kuzatib boradi va unta rahbarlik qiladi. Ma’lum bir nutq tovushini talaffuz qilayotganidagi eng muhim vaziyatlarni eksperimentator tugmacha (knopkami bosish yo’li bilan rentgen plyonkasiga suratini tushiradi. O’tkazilgan tajribalar shuni ko’rsatadiki, unli govushlarning rentgen suratini olish undoshlarga nisbatan ancha oson, chunki unli tovushlarni rentgenografiya iaytida 0,5 sekund cho’zib talaffuz qilish bilan talaffuz apparatining aniq artikulyatsion holatini rentgenoskopiya qilish ham shu yo’l bilan amalga oshiriladi. Portlovchi undosh tovushlar rentgen suratini olishda bir oz boshqacha yo’l tutiladi, ya’ni bu tovushlarning ekskursiya qismi tamomlanib, rekursiyasi boshlanishidan oldingi talaffuz holati rentgenografiya qilinadi. Har bir seriyada ana shu yo’l bilan 6 yoki 7 tovushning rentgen surati tushiriladi. Bunda talaffuz apparatining rentgen plyonkasi aniq o’qili- shini ta’minalash maqsadida tilning o’rta chizig’iga, tanglayga bariy eritmasidan kichik yo’l chizib qo’yish lozim.

Rentgenografik metod asosida o’zbek tilidagi unli va undosh tovushlarni o’rganish, ular haqida aniq rentgenografik ma’lumotlar olishning quyidagi sxemasi ni ishlab chiqqanlar:

Aniqlaiayotgan ma’lumotlar	O’Ichov masofasi (millimetrik)
1	2
Og’iz ochilish darajasi: Lablarning holati:	yuqori va pastki tishlar o’rta- sidagi masofa; a) ustki va pastki lablar o’rta- sidagi masofa; b) yuqori kurak tishlarning quyi qismi bilan ustki lab o’rtasidagi masofa;

Til uchining holati:

Tilning ko’tarilishi:

Tilning eng ko’tarilgan cho’qqisining o’rni:

Til massasining holati:

Yumshoqtanglay bilan kichik tilning holati:

Bo’g’iz qopqog’ining holati:

Til osti suyagining holati: til ustining eng oldinga ko’tarilgan qismi bilan pastki ku rak tish uchi o’rtasidagi masofa;

a) til eng ko’tarilgan cho’qqisi va uning qarama-qarshisi tanglay o’rtasidagi bo’lgan masofa;

b) tanglayning eng ko’tarilgan cho’qqisi bilan til ustigacha bo’lgan masofa; uning qarama-qarshisi tanglay o’rtasidagi bo’lgan masofa; tilning ko’tarilgan cho’qqisi bilan yuqori kurak tishlarning uchi o’rtasidagi masofa;

a) til orqasi bilan kichik tilning oxiri o’rtasidagi masofa;

b) til orqasi bilan halqum orqa devorining eng yaqinlash- gan holatidagi masofa;

v) tilning tubi bilan halqum orqa devori (pastki jag’ suyagining sathida) o’rtasidagi masofa;

a) yumshoq tanglay bilan halqum devori o’rtasidagi masofa;

b) kichik tilning quyi qismi bilan pastki jag’ suyagining boshlangan qismi o’rtasidagi masofa;

v) kichik til bilan til orqasi o’rtasidagi masofa;

a) bo’g’iz qopqog’ining eng yuqori qismi bilan til tubi o’rtasidagi masofa;

b) bo’g’iz qopqog’ining usti bilan halqum devorigacha bo’lgan masofa;

a) til osti suyagining ustki qismi bilan yuqori kurak tish- larining uchi o’rtasidagi masofa;

b) til osti suyagining ustki qismi bilan halqum orqa devorigacha bo’lgan masofa;

1	2
Og‘iz rezonator ining kengligi: Oldingi og‘iz rezonatori:	a) tilning ustining eng ol- dinga ko‘tarilgan qismi bilan qattiq tanglay o‘rtasidagi ma- sofa; b) tanglayning eng ko‘tarilgan cho‘qqisi bilan til ustigacha bo‘lgan masofa;
Og‘iz rezonatori ning uzunligi; Halqum rezonator ining kengligi: Bo‘g‘in oralig‘i ning katta-kichikligi:	v) tilning eng ko‘tarilgan cho‘qqisi va tanglay o‘rtasidagi masofa; g) yumshoq tanglayning oldingi qismi bilan til usti o‘rtasidagi masofa; tilning eng ko‘tarilgan cho‘qqisi bilan yuqori labning o‘rtasidagi masofa; kichik til bilan yuqori lab o‘rtasidagi masofa; halqum orqa devori bilan (umurtqa pog‘ona suyaklarining birinchisi hisobvda) til o‘rtasidagi masofa; vallekullarning holati

Ana shunday rentgenografik ma'lumotlar asosida barcha unli tovushlarning, sonor, sirg‘aluvchi, shovqinli, portlovchi undoshlarning rentgenografik tahlili amalga oshirilgan. Masalan, rentgenografik ma'- lumotlarga ko‘ra «e» unlisini talaffuz qilishda og‘iz katta ochiladi, lablar ikki yonga biroz tortiladi. Til uchi pastki kurak tishlariga biroz tegib turadi. Lekin tilning oldingi, ko‘zga ko‘rinib turadigan qismi bilan pastki kurak tishlarining uchi o‘rtasida ozgina oraliq bo‘lib, u (a) unlisining talaffuziga nisbatan qisqaroqdир. Ana shunday tahlillar natijasida o‘zbek tilida «e» unlisi lablanmagan, old qator, o‘rta ko‘tarilishdagi fonema ekanligi aniqlangan. Uzbek adabiy tilidagi «e» unlisining urg‘usiz holatidan urg‘uli bo‘g‘indagi o‘rni miqsoriy cho‘ziqlikka ega bo‘lib, bu unliga jarangsiz jarangli va sonor undosh tovushlarning ham ma’lum darajada ta’siri borligidan dalolat beradi.

Umuman, rentgenografik metod yordamida unli va undosh tovushlarni tahlil etish, ularning akustik va artikulyatsion xususiyatlarini aniqlash, nutq tovushlari talaffuziga ishtirok etuvchi organlarining fiziologik holatini aniq belgilash tibbiyat ilmi uchun, o‘qish-o‘qitish, malakali suxandonlar, fonetistlar tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

V. Nutq intonatsiyasini o‘rganishming eksperimental-fonetik usullari

Intonatsiya lotincha so‘zdan olingen bo‘lib, nutqning sintaktik ma’nolarini va ekspressiv-emotsional bo‘yoqlarni ifodalash uchun xizmat qiluvchi ritmik-melodik tomonini bildiradi. Ohang, ovozning baland- pastligi ham intonatsiya bilan bog‘liqsir. Intonatsiya- ning tarkibiy elementlari qatoriga nutq melodikasi, nutq ritmi, nutq intensivligi, nutq tempi, logik urg‘u, fraza urg‘usi kabilar kiradi. Intonatsiyaning tarkibiy elementlarining barchasi bir-biri bilan uzviy aloqador bo‘lib, urg‘uli va urg‘usiz, cho‘ziq va qisqa bo‘g‘in- larning birin-ketin kelishi, tovush ohangi, nutq takagini urg‘u yordamida ajratish singari akustik-arkulyatsion, fonetik-sintaktik vazifalarni o‘zida birlashtiradi. Intonatsiyaning bunday xususiyatlarini keyingi yillarda maxsus eksperimental-fonetik usullar yordamida tadqiq etishga ham alohida ahamiyat berilmoqda.

Umuman, intonatsiyani aniq fizik xususiyatlarga ega bo‘lgan akustik hodisa sifatida va eshitish orqali qabul qilinadigan o‘ziga xos struktura sifatida o‘rganish mumkin. Eksperimental-fonetik usullar yordamida intonatsiyaning kommunikativ, ma’noviy, auditiv va akustik tarkiblari tadqiq etiladi. Masalan, intonatsiyani kommunikativ tahlil qilishga darak, so‘roq, buyruq va undov gaplar kommunikativ turlarining tas- nifini belgilash va tekshirishning eksperimental materialini tuzish uchun biror asos topish maqsadida ularning muhim kommunikativ tomonlarini aniqlash kiradi. Shu bilan birga kommunikativ tahlil tanlab olingen eksperimental materialning tekshirilayotgan til tizimiga muvofiqlik darajasini ham aniqlaydi. Masalan, 1. Nazoratchi tomoshabinlarga murojaat qildi: Kech qolibsizlar-ku! Opera boshlandi. Tezroq kiringlar. 2. Uyda diktorning salobatli ovozi yangradi: — Hurmatli radioeshituvchilar! Hozir biz sizlarga Alisher Navoiy nomidagi katta opera va balet teatridan «Bo‘ron» operasini olib eshittiramiz. Opera boshlandi. Radio karnaylari oldiga yaqinroq keling.

Opera boshlandi gapi kontekstdan ajratib olinsa ko‘p ma’noli xarakterga ega. U darak ham, e’lon ham va boshqa ma’nolarda qo‘llanilishi mumkin. Demak, bu gap ajratilgan holda konkret kommunikativ ahamiyat kasb etmaydi. Faqat so‘zlashuvda va kontekstda bu gap bir ma’noli bo‘ladi. Birinchi matnda Opera boshlandi gapi xabar, ikkinchi matnda esa kuchli his- hayajon

ifodalovchi e'lon bo'lib keladi. Shuning uchun ham intonatsiyasi tekshirilayotgan gaplar matn tarkibida, ya'ni nutq vaziyatida olinishi kerak.

Tekshirish uchun gaplar monolog va dialogga oid nutqlardan olinadi, tanlab olingen material magnitofon lentasiga yoziladi.

Intonatsiyani o'rganishda undagi fizik xususiyatlarning elektro-akustik tahlili ham alohida o'rin tutadi. Bunday tahlil dastlabki faraz (gipoteza)ni tasdiqlash va tekshirilayotgan gaplarning qabul qili- nadigan sifatlari va fizik xususiyatlari orasidagi munosabatni aniqlash uchun o'tkaziladi. Auditor tahli- lidan keyin ajratib olingen gaplar, jumlalar 8 shleyfli 4-102 ossillografi yordamida magnitofon lentasidan OFXARS (nutq signalining asosiy fizik xususiyatlarini aniqpovchi apparat) intonografi ki- nopylonkasiga ko'chirib yoziladi.

Umuman olganda, har bir gapda informatsion markaz bo'lib, informatsiya beruvchining asosiy diqqa- ti shunga qaratilgan bo'ladi. Bu markazni ichki markaz deb nomlash mumkin. Til ichki markazni ifodalashda fonetik, leksik va grammatik vositalardan tashqari intonatsion (prosodik) vositadan ham foydalanadi. Ichki markazning intonatsion ifodasi nutkdan tempo- ral, tonal va dinamik vositalarning turli kombinasiyada kompleks kuchayishi natijasida yuzaga keladi. Bu akustik kuchayish nuqtasi eksperimental fonetikada tashqi akustika deb yuritiladi.

Keyingi yillarda eksperimental-fonetik tadqiqotlar natijasida intonatsiyadagi universal holatlar ko'proq aniqlanmoqsa. Jumladan, akustik maksi- mal nuqtalar ko'pgina tillarda universal xarakterga ega bo'lib, gapdag'i, jumladagi muhim qismni belgilaydi.

Eksperimental-fonetik tadqiqot natijalari o'zbek tilida so'roq gaplar intonatsiyasida tashqi markaz uch yoki ikki akustik birlikning yig'indisidan tashkil topishini, ikki elementli tashqi markaz tarkibiga ko'ra turli kombinatsiyalarda kela olishini, uning akustik tiplari bilan so'roq gaplardagi o'rniga ko'ra muayyan qonuniyatga bo'ysunishini, ular morfema turiga ko'ra ham farq qilishini ko'rsatdi. Masalan, tashqi markaz har uch akustik parametrning maksimal nuqtalari bir bo'g'inda keladi: Nahotki hech narsani sezmasa? so'roq gapida maksimal nuqtalarga ega bo'lgan bo'g'in — hech. Maksimal chastota 370 gs., o'rtacha maksimal uzunlik 160 m/sek., maksimal intensivlik — 8 mm.

Siz-chi — 300 gs, 126 m/sek., 12 mm;

Keldingmi? — 370 gs, 76 m/sek., 12 mm;

Do'smat polvon qani? — 285 gs, 130 m/sek., 12 mm;

Sizni-ya — 250 gs, 75 m/sek., 12 mm;

Nima-nima? — 300 gs, 125 m/sek., 8,5 mm. kabilar.

Shunday qilib, gapning ichki informatsion markazini tashqi akustik markaz tashkil etadi; ichki va tashqi markazlar munosabatida ichki markaz birlamchi xususiyatga ega; tashqi markaz informatsion funksiya- siga ko'ra har xil akustik miqsorga ega; ichki va tashqi markazlarning birligigina har qanday gapning kom- munikativ to'laligini ta'min etadi.

Nutq intonatsiyasini o'rganishning eksperimental-fonetik usullar juda xilma-xil, hozirgi paytda bunday tadqiqotlar olib borish uchun yangi texnik vositalar ham qo'llanilmoqsa, bu esa eksperimental fonetik izlanishlar doirasini yanada kengaytirish, uning natijalarini ishlab chiqarishga kengroq jalg etish uchun zamin hozirlamoqda.

Til kishilar o'rtasidagi eng muhim aloqa vosigasidir. U obyektiv borlikdagi ma'lum voqeahodisa haqida axborot tashuvchi asosiy vositadir. Bunday axborot tashishning boshqa yo'llari ham borligi ma'lum bo'ladi. Masalan, yo'l harakatidan ma'lumot beruvchi vositalar, yo'ldan o'tish-o'tmaslik xabarini beruvchi vositalar va boshqalar. Bu jihatdan til ham axborot berish uchun xizmat qiladigan yuqoridagi vositalar sirasida turadi. Ularning hammasi uchun umumiyl narsa, avvalo o'zi haqida va shu bilan birga borlikdagi ma'lum narsa-hodisalar haqida ma'lumot berishdir. Bunday vositalar belgilar deb nomланади. Inson o'zini qurshab turgan olamni bilish jarayonida olam unsurla- rini obrazlar orqali ongida aks ettiradi va bu ongda aks etgan olam unsurlari belgi orqali ifodalananadi. Sotsial axborotning har qanday moddiy ifodalovchilari belgi hisobланади.

Tilning belgilar sistemasi ekanligi uning asosiy xususiyati va universal tomonidir.

XIX asr oxiriga qadar belgi nazariyasi bilan asosan faylasuflar shug'ullandilar. Faqat XIX asr oxiridan boshlab bu masala ruhshunoslarning ham diqqatini jalg qildi. Belgi haqidagi falsafiy nazariya o'zining usoq tarixiga ega.

Qadimgi ellinlar narsaning mohiyati va ularning nomlanishi yuzasidan ilmiy bahslaridayoq yashirin holda belgi tushunchasiga asoslangan edilar.

Faylasuflar ta'sirida XIX asrdan boshlab tilning umumiy nazariyasiga bag'ishlangan deyarli barcha lingvistik asarlarda so'z ikki tomonlama xarakterga ega bo'lgan belgi sifatida talqin qilina boshlandi. V. Humboldt, Shleyxer, Shteyntal, L. Breal, A. Meyye, F. Fortunatov, I. A. Boduen de Kurtene, asarlarida so'zga belgi nuqtai nazaridan yondashiladi. Lekin F. de Sossyur tilning belgili tabiatini aniq-ravshan yoritib berdi. Hatto belgi nazariyasi bilan shug'ullanuvchi alohida fan-semiologiya fani mavjud bo'lishini va lingvistika ham semiologiya tarkibiga kirishi lozim- ligini ta'kidladi.

Hozirgi kunda belgilarni sistemasini o'rganuvchi alohida fan-semiotika fani maydonga keldi.

Til ham belgilarni sistemasi sifatida e'tirof etilar ekan, demak, u ham semiotikaning tarkibiy qismi sifatida qaralishi va semiotikaning boshqa qismlari bilan uzviy aloqada o'rganilishi lozim bo'ladi.

Lingvistik belgilarni bilan boshqa belgilarni sistemasi (masalan, Morze alifbo sistemasi, musiqa ijrolari, mimika va imo-ishoralar, yorug'lik va tovush signallari va boshqalar) muayyan umumiyligka ega. Ular quyidagilardan iborat:

- a) ularning hammasi ma'lum axborot tashiydi;
- b) ularning hammasi sotsial hodisa. Chunki ular jamiyatga xizmat qilish uchun jamiyat tomonidan yara- tilgan;
- v) Ularning hammasi moddiylikka ega (lekin bu modsiilik turlicha kurinishga ega; yorug'lik to'lqini, tovush to'lqini, grafik tasvir va boshqa.);
- g) ularning hammasi obyektiv borliqni ifodalaydi.

Lingvistik belgilarni bilan boshqa belgilarni sistemasi o'rtaida yuqoridagi kabi umumiyligi jihatlar bo'lishi bilan birga, ular o'zaro bir qator farqli tomon- larga ham ega. Ular quyidagilardan iborat:

Til kishilar o'rtaida eng muhim aloqa vositasi sanalib, u umuminsoniy xususiyatga ega. Barcha kishilar o'zining turli xil faoliyat doirasida lingvistik belgilarni vositasida o'z fikrini bayon qiladi. Boshqa tur- lagi belgilarni esa bu jihatdan ma'lum guruh doirasida chegaralanganligi bilan farqlanadi.

Lingvistik belgi har qanday axborotni, insonning ichki kechinmalarini chegaralanmagan holda ifodalash imkoniyatiga ega. Boshqa belgilarni esa chegaralangan axborotni ifodalash imkoniyatiga ega. Masalan, muzika insonning ichki kechinmalarini hissiyotlarini ifodalashi mumkin. Lekin u tushuncha va hukmlarni ifodalay olmaydi.

Lingvistik belgi kishilarining obyektiv olam haqidagi bilimlarini boshqalarga uzatish vazifasini bajarish bilan birga, so'zlovchining bu axborotga munosabatini va, ayni paytda, tinglovchiga ta'sir qilish vazifasini ham bajaradi. Bu jihatdan, boshqa belgilarni sistemasi faqat axborot berish (imo-ishoralar, Morze alifbosi, yorug'lik to'lqini va boshqa) yoki tinglovchiga ta'sir qilish (muzika) vazifasini bajaradi.

Lingvistik belgilardan boshqa barcha belgilarni sistemasi insonning sun'iy ijod mahsulidir. Ular ma'lum guruhning kelishuvi yo'li bilan sun'iy ravishda yaratiladi. Lingvistik belgilarni esa jamiyatning u yoki bu a'zosi ixtiyoriga bog'liq bo'limgan holda rivojlanadi. Har bir yangi avlod shu jamiyatning tarixiy tarkib topgan va uzuksiz rivojlanishda bo'lgan tili- ni o'zlashtiradi va keyingi avlodga yetkazadi.

Lingvistik belgilarni yana eng muhim belgisi uning diskretligi, ketma-ket joylashuvi va erkinli gidir.

Lingvistik belgilarni inson kommunikativ faoliyatining asosini tashkil qiladi. Boshqa barcha belgilarni sistemasi kommunikatsiya jarayonida tovushlar yordamida ifodalanayotgan axborotga qo'shimcha axborotni bil- dirish yoki «tovush nutqi»ga yordamchilik qilish vazifasini bajaradi.

Kishilar o'z nutqiy faoliyatida tez-tez qo'llab turadigan mimika va turli xil imo-ishoralar ham nutqni kuzatib boruvchi qo'shimcha vositalar sanaladi. Ba'zi o'rnlarda qisman uning o'rnnini bosishi mumkin.

Mustahkamlash uchun savollar

1. Maydon nazariyasi nima?
2. Lingvogeografiya nima?

3. Tilshunoslik va kartografiya munosabati.
4. Lingvistik geografiya va dialektologiya.
5. Lingvogeografiya va areal tilshunoslik.

12-ma’ruza. Tilshunoslikning matematika va axborot nazariyasi bilan munosabati Reja

1. Matematik lingvistika – chegaradosh fan.
2. Kibernetika.
3. Matematik metodlarning tilshunoslikka o’tishi.
4. Axborot tushunchasi. Signal tushunchasi. Axborot va signalning bir-biridan farqi.

tayanch tushunchalar: Matematik lingvistika – chegaradosh fan. Kibernetika. Matematik metodlarning tilshunoslikka o’tishi. Axborot tushunchasi. Signal tushunchasi. Axborot va signalning bir-biridan farqi.

Har qanday fan matematika bilan chambarchas bog’liq bo’lgandagina, yuksak maqsadlariga erisha oladi. Tilshunoslik ham undan mustasno emas. Shuning uchun ham XX asrning o’rtalariga kelib tilshunoslikda bir qator lingvistik tushunchalarni aniqlashtirishga bo’lgan ehtiyojli qondirish uchun matematik lingvistika nomi bilan yuritiluvchi alohida yo’nalish may-donga keldi.

Muayyan matematik apparatlardan foydalilanidigan lingvistik tadqiqot usuli matematik lingvistika deb yuritiladi.

Hozirgi kunda bu atama ostida ikki xil fan sohasi tushunilmoqsa. Birinchisi matematikaning bo’limi bo’lgan matematik lingvistika. Uning tekshirish metodlari ko’p jihatdan matematik mantiq, ayniqsa, uning algoritm nazariyasi bo’limlari bilan ko’p jihatdan umumiylilikka ega.

Ikkinchisi lingvistika yo’nalishi bo’lgan matematik lingvistika matematik usullardan foydalangan holda olib boriladigan har qanday lingvistik tadqiqot metodi tilshunoslikda matematik lingvistika deb yuritiladi.

Tilni matematik yo’l bilan tasniflash F. de Sossyurning til haqidagi ta’limotiga, tilga shu til egalarining nutqiy faoliyatida vazifa bajaruvchi mexanizm sifatida qarashiga asoslanadi.

Nutqiy faoliyat natijasida «to’g’ri matn» deb yuritiluvchi nutqiy birliklar kema-ketligi maydonga keladi. Bu nutqiy birliklar muayyan qonuniyatlarga bo’ysu- nadi va ularning ko’pchiligi matematik tavsifga beri- ladi.

Gaplarni matematik tavsiflash usullarini ish- lab chiqish va o’rganish matematik lingvistikaning asosiy vazifalaridan biridir. Bunday vazifa matematik lingvistikaning sintaktik strukturani tavsiflash usullari nazariyasi bo’limi zimmasiga tushadi.

Gapning sintaktik strukturasini tavsiflash uchun ikki xil usuldan foydalilanadi:

gap tarkibidan uning alohida sintaktik birlik sifatida amal qiladigan ishtirokchilarini ajratish;

gap tarkibidagi so‘zlarning tobelanish munosabatini tavsiflash. Masalan, o‘quvchilar mifikatimiz bo’g’ida har xil mevalarni o’sтирадилар jumlesi birinchi usulga ko’ra, avvalo, yaxlit holda muayyan ishora bilan belgilanadi va u tadrijiy ravishda ishtirokchilarga bo’linadi.

Matematik lingvistikaning yana bir tarmogi formal grammatica nazariyasidir. Bu grammatica ham mashhur Amerika tilshunosi, transformatsion grammatica asoschisi Naum Xomskiy nomi bilan bog’liqsir. Formal grammatica alohida matnlarni emas, balki bir qancha to’g’ri matnlarni na qonuniyatlarini tavsiflash usullarini o’rganadi. Bu qonuniyatlar formal grammaticaning abstrakt simvollari orqali belgilanadi. Shu asosda «Tug’dirish grammatisasi» yoki «generativ lingvistika» maydonga keldi. Bularidan tashqari tilshunoslikda invariantlik nazariyasi ham matematika ta’sirida vujudga kelgan. Matematikada invariant atamasi orqali o’zgaruvchan sonlar ostidagi o’zgarmas, barqaror miqdor tushunchasi anglashiladi. Shuningdek tilshunoslikda keng qo’llanilayotgan statistik metodlar ham matematika fanining ta’siri natijasida maydonga kelgan.

Tilni o’rganishda statistik metodlardan foydalish o’zbek tilshunosligida ham bu sohada keyingi 30 yil davomida ko’pgina ishlar amalga oshirildi. A. Mahmudov, S. Rizayeva, S. Muhammedov, A. Bobonorov, H. Orziqulov, S. Otamirzayeva, H. Io’ldosheva, M. Ayimbetov kabi olimlarning monografiyalari, nomzodlik va doktorlik ishlari yuzaga keldi.

Umuman, o'zbek adabiy tilining barcha asosiy birliklarini, eng avvalo harflarni, unli va undosh tovushlar sistemasini, bo'gin tarkibini, so'z formalarini va boshqa hodisalarini statistik metod asosida o'rganish katta ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi:

Hozirgi o'zbek adabiy tilidagi harflar chastotasini aniqlash, ularning yozma matnlar tarkibida qo'lla-nilish darajasini belgilash bosmaxonalar uchun ma'lum darajada davlat moddiy mablag'iini tejash uchun xizmat qiladi. Shuningdek, yuqori chasgotali harf va harfiy birikmalarning aniqlanishi stenografiyada, yozuv mashinkalarida klavishlarni o'z o'rniда joylashtirishda muhim rol o'ynaydi.

Hozirgi o'zbek adabiy tili unli va undosh fonemalarini o'rganish asosida tilimiz tovush tarkibi- ning xarakteri yaxshiroq ochiladi. Ayniqsa, tez-gez uchrab turadigan unlilar, sonorlar, tovush birikmala- rining aniqdanishi telefon, telegraf ishlarida muayyan ahamiyat kasb etadi.

Tilning leksikasi, lug'aviy boyligini o'rganish orqali biror yozuv yoki shoirning uslubini, so'z yoki ibora boyligini aniqpashga imkon yaratiladi.

O'zbek tilidagi so'z formalarini statistik metodda o'rganish namunasini o'z vaqtida prof. S. Usmonov o'z doktorlik ishida ko'rsatgan edi. Uning hisob-kitoblari hozirgi o'zbek tili togyulogik jihatdan agglyuti- nativ tillar guruhidagi agglyutinativ-ajratuvchi til, grammatic shakllanishi jihatidan esa asosan «formali» til ekanligini ko'rsatdi.

Yuqori chastotali so'zlar, grammatic formalarining aniqlanishi, ularni o'zbek tilini amaliy maqsadlarda o'rganayotganlar uchun yaratilayotgan darslik yoki o'quv qo'llanmalariga kiritilishi bunday ishlarning o'quv-uslubiy sifatini va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Bu esa o'z navbatida o'qituvchilarga ma'nosi va chastotasi jihatdan faol bo'lgan so'zlar yordamida jumlalar tuzish, shu asosda o'z bilimlarini o'quvchilarga tez va oson yetkazish imkonini yaratadi.

Umuman olganda, filologik izlanishlarda statistik metodni ilk bor qo'llagan olim V. Y. Bunyakovskiy edi. Matematik olim Y. I. Levin fikr iga ko'ra, til hodisalarini o'rganishda ehtimollik nazariyasi va sta-tistikani qo'llash XX asrning boshlariga to'ri keladi. Bu soha bilan dastlab shug'ullangan shoir Andrey Belin va taniqli matematik A. A. Markovlar bo'lgan. Keyinchalik A. A. Chuprov, A. M. Peshkovskiy, V. F. Chistyakov, B. K. Kramorenko, A. A. Lyapidovskiy, E. A. Shteynfeldt, Y. Markov, I. I. Revzin, V. A. Artyomov, R. G. Piotrovskiy, YE. V. Paducheva, I. A. Malchuk, R. M. Frumkina kabi o'nlab shu sohaning mutaxassislari yetishib chiqsi.

Uzbek tilshunosligida esa statistik metodlardan foydalanish 30-yillardan boshlangan. Masalan, o'zbek tili matbuotining lug'aviy tarkibini birinchi bo'lib tekshirgan olim V. V. Reshetov edi. U o'z nomzodlik dissertatsiyasida va shu asosda e'lon qilingan maqola-larida o'zbek tili matbuotidagi so'zlarni kelib chiqishi (o'zbekcha, arabcha, forscha, ruscha va boshqalar) va so'z turkumlari bo'yicha chastotasini aniqladi. Xuddi shuningdek, 1940 yilda A. K. Borovkov ham gazeta materiallari bo'yicha tekshirish olib borgan edi.

Hozirgi o'zbek adabiy tilning chastotali lug'aviy- ni yaratish juda murakkab muammo sanaladi, shuning uchun hozirgi kunga qadar tilimizning to'la chastotali lug'aviy yaratilganicha yo'q. Bu muammoni hal qilish uchun eng avvalo umummilliy adabiy tilning barcha asosiy uslublari (ilmiy, badiiy, so'zlashuv, rasmiy, publitsistik kabilalar)ni, janrlarni (vaqtli matbuot, badiiy adabiyot, ilmiy-ommabop adabiyotlar, bolalar adabiyoti, xalq og'zaki ijodi, jonli so'zlashuv tili kabilarni) statistik metodsa to'liq o'rganib chiqili-shi asosida yuqori chastotali so'zlarni, grammatic formalarni har bir uslub va janr bo'yicha aniqlab olish lozim bo'ladi. Ana shundan keyin o'zbek adabiy tilining to'la chastotali lug'ati tuzish, uning chegarasi, tamoyillari haqida fikr yuritish mumkin. Hozircha o'zbek tilshunosligida I. A. Kissens⁵¹, S. Rizayev⁵², S. Muhammedov⁵³ larning chastotali lug'atlari yaratilgan. Bu lug'atlarga ma'lum darajada R. Ko'ng'urov, S. Karimovning lug'ati ham yaqin turadi. Bu chastotali lug'atlarning barchasi badiiy uslub va gazeta (publitsistik) uslub materiallari asosida tuzilgan.

Shunday qilib, o'zbek adabiy tilining barcha bir-liklarini statistik metod asosida o'rganish faqat o'zbek tili bo'yicha darslik va qo'llanma tuzuvchilar uchun nazariy va amaliy tomonidan qiziqish uyg'otib qolmay, balki o'zbek tili o'qituvchilari va o'zbekshunos mutaxassislar uchun ham juda qimmatlidir. Shunga ko'ra til materiallarini statistik metod bo'yicha ilmiy o'rganish sohasida

⁵¹ Буняковский В. Я. О возможности введения определительных мер доверия к результатам некоторых наук и преимущественно статистики, «Панаев и Некрасов», «Современник», том III, М., 1847, с. 36—49.

⁵² Бу хакда каранг: Фрумкина Р. М. Применение статистических методов в языкоznании // Вопросы языкоznания, 1960, 4-сон, 129-133-6.

⁵³ Решетов В. В. Лексический состав современной узбекской прессы // «Поблемы языка», вып. 1, Ташкент, 1934, 41—51-бетлар.

qilingan va qilinayotgan har bir ishning natijasi hozirgi o‘zbek adabiy tilining qo‘lla- nish doirasi kengayayotganligi va rivojlanayotganligidan guvohlik beradi.

Chastotali lug‘at va uning turlari. So‘zlarning nutqsa qo‘llanish miqdori, foyiz nisbati haqida ma’lumot beruvchi lug‘atda chastotali lug‘at deyiladi. Bunday lug‘at materiallari tildagi eng faol lug‘aviy qatlamini aniqlash imkonini beradi. So‘zlarni bunday tanlash ayniqsa o‘zga til vakillariga o‘zbek tilini o‘qitishda, darslik, o‘quv qo‘llanmalarini yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu bilan birga chastotali lug‘atlar bir qancha amaliy va ilmiy-tadqiqot muammolarini hal qilish uchun xizmat qiladi. Chastotali lug‘atlar negizida lingvostatistikidan alohida sohasi leksikostatistika shakllanadi, bu soha so‘zlarning tilda va matnda statistik va lisoniy tarqalish darajasini o‘rganadi. Shuningdek, 70-yillarda rus tilida bir qancha yozuvchi asarlari tilining va gazeta tilining chastotali lug‘atlari ham tuzilgan. O‘zbek tilshunosligida ham chastotali lug‘atlar yaratishda 70-yillardan buyon e’tibor berilmoqsa. Bunday chastotali lug‘atlarning ilk namunasi 1972 yilda I. A. Kissen tomonidan yaratilgan edi.

I. A. Kissen (1901—1978) o‘z ilmiy-pedagogik faoliyatida lug‘atshunoslik ishiga ham katta e’tibor bergen edi. Masalan, 1941 yilda bir necha oy ichida I. A. Kissen rahbarligi va ishtiropi bilan 17000 so‘zdan iborat katta o‘zbekcha-ruscha lug‘at tuzilgan edi.

I. A. Kissen «Hozirgi o‘zbek adabiy tilida faol qo‘llanuvchi so‘zlar lug‘ati»ni yaratish uchun qirqa o‘zbek roman va qissalardan (ro‘yxati ilova qilingan) 101,044 ta so‘z shaklini tanlab shundan 5,4 foizini atoqli otlar (5494 ta so‘z), qolgan 95,550 ta so‘z mustaqil va yordamchi so‘zlar bo‘lib, 94,6 foizini tashkil etadi. Umuman, lug‘atda 8052 ta mustaqil va yordamchi so‘zlar o‘zbek badiiy prozasida qo‘llanishda ekanligi aniqlangan, bu so‘zlardan 1227 ta so‘z faol so‘zlar deb belgilangan, chunki ular kamida 8 martadan ko‘p qo‘llanish chastotasiga ega. Ana shu faol qo‘llanishdagi 1227 ta so‘z barcha leksemaning (8052 ta so‘zning) 15,2 foizini tashkil etadi, ular o‘zbek badiiy prozasining 76,0 foiz matnini tushunish imkonini beradi.

Demak, o‘zbek badiiy prozasini lug‘atsiz tushunishni istagan kishi I. A. Kissen lug‘atida keltirilgan 1227 ta so‘zni chuqur o‘zlashtirishi talab qilinadi. Lug‘atda ana shu faol so‘zlar alifbo tartibida keltirilgan, ma’nosini izohlangan, ruscha tarjimasi berilgan. Masalan, «shabada» so‘zi kelib chiqish jihatidan eroncha ekanligi ta‘kidlangan, ot turkumiga mansubligi aytilgan, bu so‘z 534 marta qo‘llangani ko‘rsatilib, «lyogkiy, proxladniy veterok; veyaniye; proxlada» deb tarjimasi berilgan (49-bet).

Lug‘atda asosiy ro‘yxatdan tashqari yana beshta ro‘yxat berilgan, ularda hozirgi o‘zbek prozasida qo‘llanish chastotasi yuqori bo‘lgan so‘zlar (62-77-betlar), muallif nutqida faol qo‘llanishda bo‘lgan so‘zlar (78-89 betlar), muallif nutqida 8 martadan ko‘p uchragan faol qo‘llanishdagi so‘zlar (90-100 betlar), personajlar nutqida faol qo‘llanishgan so‘zlar (449 ta so‘z, 101- 107-betlar) va personaj nutqida 8 martadan ko‘p uchragan faol qo‘llanishdagi so‘zlar (107-112-betlar) keltirilgan.

Umuman, o‘ttiz yillik fidokorona mehnatning, qo‘lda elektr-hisoblash mashinasidan foydalanmasdan yaratilgan bu lug‘at lingvostatistika bo‘yicha mamlakatimizda amalga oshirilgan keyingi tadqiqotlar uchun katta material manbai bo‘lib xizmat qildi. Shuning uchun I. A. Kissen o‘zbek tili materiallari zaminida lingvostatistik tadqiqotchilikning asoschisi deb tan olingan.

S. Rizayev «O‘zbek bolalar adabiyoti tilining chastotali lug‘ati»ni yaratish bilan mamlakatimizda chastotali lug‘atlar doirasini kengaytirdi. Bu lug‘at «Minsk-22» elektron-hisoblash mashinasida amalga oshirilgan. Ushbu asar «So‘z boshi» (3—7-betlar), «Al- favit-chastotali lug‘at» (8—156-betlar), «Statistik ku- zatish uchun foydalilanilgan adabiyotlar» (157—158-bet- lar) qismlaridan iborat.

Lug‘at yuz ming so‘z («so‘z» — «so‘z qo‘llash», «so‘z shakl») ma’nosida hajmida bo‘lib, bundan ellik min- gi prozaik asarlardan, ellik mingi esa she’riyatdan olingan. Unda 26752 lug‘at birligi so‘z formasi va uning qo‘llanish chastotasi keltirilgan.

R. Qo‘ng‘urov va S. Karimovlarning «Zulfiya poezi yasi tilining lug‘ati» (Toshkent, «O‘qituvchi», 1981, 274 bet) nomli asari sevimli shoiramiz Zulfiyaning 1974—1975 yildagi choi etilgan ikki tomlik asarlar to‘plami asosida yaratilgan. Bu lug‘atda shoira ikki jildligiga kirgan barcha she’rlaridagi so‘zlar alifbo tartibida keltirilgan, ularning aniq sahifasi, jildi ko‘rsatilgan. Zulfiya tilining lug‘ati, bir tomondan 40—80- yillar o‘zbek adabiy tili xususiyatini, ikkinchi tomondan, shoiraning o‘z badiiy tilini to‘laroq, atroflicha tushunishga yordam beruvchi o‘ziga xos

lug‘at- ma’lumotnomma vazifasini bajaradi. Bu asar Zulfiya poeziyasida ishlatilgan so‘zlarning emotsiyonal-ekspressiv tomonlarini ochib berishga yordam beruvchi kalit hisoblanadi. Bu lug‘at ham til vositalarini o‘rga- nishda statistik metodlardan foydalanishning o‘ziga xos ko‘rinishi sanaladi. Lekin bu lug‘at ham qo‘lda, ko‘p yillik zahmatli mehnat natijasida elektron-hisoblash mashinalarsiz yaratilgan.

S. Muhamedov gazeta matnlari asosida «O‘zbek tilining alfavitli-chastotali lug‘ati» (Toshkent, «Fan», 1982, 111 bet)ni yaratdi. Bu lug‘at prof. R. G. Piotrovskiy rahbarligidagi «Nutq statistikasi» guruhi tomonidan ishlab chiqilgan chastotali lug‘atlar yaratish tamoyillariga asoslanib tuzilgan.

S. Rizayev, N. Bo‘ronovlar «Abdulla Qahhor «Sinchalak» povesti tilining chastotali lug‘ati» (Toshkent, O‘qituvchi, 1986, 172 bet) yozuvchining ko‘p tomlik tan- langan asarlari tili lug‘ati, ya’ni «Abdulla Qahhor asarlari tilining lug‘ati»ni yaratishning boshlanmasi sifatida yuzaga kelgan. Lug‘atda statistik kuzatishlar asosida 10590 so‘z formasi «Sinchalak» povesti matni da 37482 marta qo‘llanganani aniqlangan. Bu lug‘at ikki usulda yaratilgan, ya’ni «Sinchalak» povestining dast- labki 3—50-betlardagi so‘z formalari Chimkent Davlat pedagogika instituta «Mashina tarjimasi» laborato- riyasida prof. Q. Bekgayev boshchiligidagi «Minsk-22» elektron-hisoblash mashinasida aniqlangan bo‘lsa, qolgan 51—136-betlaridagi har bir so‘z shakli o‘za ishlatilgan qurshov bilan birgalikda kartochkalarga ko‘chirilib, qo‘l kuchi bilan bajarilgan.

Lug‘at mualliflari «Sinchalak» povestida 42 marta va undan yuqori qo‘llanish chastotasiga ega bo‘lgan so‘zлarni eng ko‘p va faol so‘zlar, deb hisoblanganlar. Masalan: bir — 562, ham — 514, Saida — 487, bilan — 457, bu — 429, Qalandarov — 383, va — 362, edi — 354, uning — 254 va hokazo. Shunisi muhimki, povestda qo‘llangan barcha so‘zlar 10,590 ta bo‘lib, 100 foizni tashkil etsa, shundan o‘n va undan ortiq marta qo‘llan- ganlari 565 ta bo‘lib, ular 5,34 foizga teng, 5—9 marta qo‘llanganlari 611 (5,77%), 3—4 marta qo‘llanganlari 1161(10,96%), 2 marta qo‘llanganlari 1625 ta (15,34%) va nihoyat bir marta qo‘llanganlari 6628 ta bo‘lib, ular poveyet matnidagi barcha so‘z shakllarining 62,59 foizini tashkil etadi.

Bu hisob-kitoblar har qanday chastotali lug‘atda (tekshirilayotgan matn hajmiga bog‘liq bo‘lmagan holda) bir marta uchragan so‘zlar ikki va undan ortiq marta uchragan so‘z shakllariga qaraganda ko‘proq qo‘llanilishi bilan xarakterlanishi haqida «Sipfa qonuni» deb yuritilgan qonunning naqadar to‘g‘ri ekanligini yana bir marta tasdiqlagan.

Adabiy tilning fonologik sistemasini statistik metodlar asosida o‘rganish ma’lum bir tilning fonematisk tarkib jihatidan ohangdorlik (sonantlik) darajasini aniqlashga yordam beradi.

Olimlarning 70-yillarda o‘zbek tili fonologik sistemasini statistik metodsa olib borgan tekshirishlari quyidagi natijalarini berdi.

O‘zbek adabiy tilida 6 unli (i, e, a, u, o‘, o) va 24 undosh fonema (b, v, g, d, y, j, z, dj, k, l, m, n, i, r, s, t, f, x, ch, sh, ng, q, g‘, h) bo‘lib, unlilar barcha fonemalarning 19 foizini, undoshlar esa 81 foizini tashkil etadi. Unlilar umumiy matn hajmining 42 foizini, undoshlar 58 foizini tashkil etishi aniqlangan.

Demak, hozirgi o‘zbek adabiy tilida fonologik nuqtai nazardan 100 unliga 138 undosh mos keladi, ya’ni o‘zbek tili uchun va undosh fonemalarning o‘zaro miqdoriy munosabati 1,38 o‘zgarmas statistik parametrga tengdir. Bundan ko‘rinadiki, tilimizda undosh fone- malar unlilarga nisbatan matnda (nutqiy jarayonda) ancha ko‘p qo‘llanish chastotasiga egadir.

Hozirgi o‘zbek adabiy tilida eng ko‘p qo‘llanadi- gan fonema a unli bo‘lib, u barcha unlilar qo‘llanish chastotasining 37 foizini tashkil qiladi. Undan keyin i (32%), o (12%), u (8%), ye-e (6%), o‘ (5%) unlilari keladi. Demak, tilimiz unlilar sistemasidagi ikki unli fonema (a,i) barcha unlilar qo‘llanish chastotasining 69% ni tashkil qiladi. O‘zbek tilidagi eng ko‘p qo‘llaniladigan undosh fonema n ekanligi aniqlangan, bu undosh barcha undosh tovushlar qo‘llanish chastotasining 11% ni tashkil etadi, undan keyingi o‘rnlarni l, r (10%), t, d (7%) undosh fonemalari egallaydi.

Umuman kuzatishlar natijasida tilimizdagи sonor undoshlar (n, l, r, mn, ng, y) umumiy matn hajmining 26% ni, shovqinlilar esa 32% ni tashkil etishi aniqlangan.

Keltirilgan statistik ma’lumotlardan o‘zbek adabiy tili fonematisk tarkibi jihatdan sonantli tillardan biri, degan xul osa kelib chiqadi, chunki olti unli va 6 sonor undosh, ya’ni hajmi 12 sonant tovushning umumiy matndagi salmog‘i 68% ga tengdir, qolgan undosh fonemaga esa matnning 32% to‘g‘ri keladi.

Shuningdek, tekshirishlar natijasida hozirgi o'zbek tilidagi lab undoshlari (b, p, m, v, f) barcha fonema- lar qo'llanish chastotasining 16% ni tashkil etishi ham aniqlangan. O'zbek tilidagi 8 ta juft jarangli- jarangsiz undoshlar (b-p, d-t, z-s, g-k, j-ch, j-sh, v- f, g'-x) ichida jarangli undosh fonemalar qo'llanish chastotasi 48%, jarangsiz undoshlar esa 52% ekanligi ham aniqlangan.

Ko'pgina matnlarni tekshirish natijasida tilimizdagi quyi-keng unlilar (i, u) 17%ni, o'rta-keng unlilar (e, o') 5% ni tashkil etishi aniqlangan.

Poetik matnlarda nasriy matnlarga nisbatan unli va undosh fonemalar qo'llanishida katta farqlar bor- ligi aniqlangan. Masalan, asar badiiy, ijtimoiy- siyosiy va ilmiy prozaik matnlarda 100 unliga 138 undosh to'g'ri kelsa, poetik matnlarda bu raqam 100 unliga 150 undosh to'g'ri kelishi ma'lum bo'ldi.

Umuman, fonostatistik tekshirishlar adabiy tilning vazifaviy uslublarining o'ziga xos fonetik belgilarni aniqlashga, fonetika bo'yicha darslik va qo'llanmalar uchun misollar, matnlar tanlashda katta yordam beradi.

Nisbiylik nazariyasi va tilshunoslik. Hozirgi barcha fanlar fizikaning nisbiylik nazariyasidan foydalangani kabi, tilshunoslikda ham bu nazariya ko'p hollarda qo'l kelmoqda. Ayniqsa til birliklarining chastota darajasi aniqlangandan so'ng, ularning boshqa birliklarga birikish ehtimolligini ehtimollik nazariyasi usullarini qo'llagan holda oldindan aytish mumkin bo'ladi. Masalan, yig'lamoq so'zi- ni eshitishimiz bilan uning odam leksemasi bilan boshlanishini oldindan taxmin qilamiz. Yoki nonni so'zidan so'ng yemoq, yopmoq, pishirmoq, uzmoq kabi o'tim- li fe'llar kelishini taxminlaymiz.

Fonetik sathda ham ma'lum bir tovushning boshqa- si bilan birika olish yoki birika olmaslik qonuniyat- lari bor. Ana shu qonuniyatatlarga asoslanib, qaysi tovushdan so'ng qanday tovushning kelishi yoki kelolmasligini faraz qilish imkoniyati bo'ladi. Ana shu imkoniyat ehtimollik nazariyasidan foydalangan holda amalga oshiriladi. Masalan, o'zbek tilida chuqur til orqa undoshlaridan so'ng til orqa yoki til o'rta undoshlari kelolmaydi. Yoki chuqur til orqa q, g' undoshlari bilan tugagan so'zning asos qismiga k va g undoshlari bilan boshlangan affikslar qo'shila olmaydi. Singormonizmni o'zida to'la saqlab qolgan turkiy tillarda, lab garmoniyasining talabiga muvofiq, tarkibida lab unlisi bo'lgan so'zning asos qismiga faqat lab unlisi ishtirot etgan affikslar ko'shiladi. Palatal garmoniya talabiga muvofiq, tarkibida qattiq undoshlar ishtirot etgan so'z asoslariga xудси shunday undoshli affikslar ko'shiladi. Aksincha bo'lishi mumkin emas. Buni matematik atamalar yordamida quyidagicha ifodalash mumkin bo'ladi.

Tilshunoslik va kibernetika.

Tilshunoslik kibernetika fani bilan ham aloqadordir.

Kibernetika grekcha boshqarish san'ati demakdir. U XX ayerning o'rtalarida mashina va jonli organizmlardagi aloqa, boshqarish va nazoratni o'rganuvchi fan tarmog'i sifatida maydonga keldi. Kibernetika haqidagi dastlabki g'oya Amerika olimi N. Vener tomonidan berilgan bo'lsa, keyinchalik rus matematiklari: A. A. Markov, A. M. Lyapunov, A. N. Kolmogorov, A. Y. Xinchin, Amerika olimlari K. Shannon, Fisherlar bu g'oyani rivojlantirdilar.

Kibernetika fanining shakllanishi va rivojlanishida faqat matematiklargina emas, balki fiziologlar, fiziklar, tilshunoslar, ruhshunoslar, mantiqshunoslar ham faol ishtirot etdilar.

Shunday qilib, kibernetika sintetik fan sanaladi va u matematika, fizika, mantiq, fiziologiya, psixologiya, tilshunoslik ma'lumotlarini sintezlashtiradi.

Kibernetika fani jonli organizm bilan mashina- lar o'rtasida aloqa, boshqarish va nazorat jarayonida qandaydir umumiy belgilarni mavjudligiga asoslanadi. Bu ayniqsa inson asab sistemasiga, uning fikrlash va refleks faoliyatiga asoslangan hozirgi elektron ma- shinalarda yaqqol ko'zga tashlanadi.

Hozirgi texnik taraqqiyot bosqichida insonning mehnat faoliyatini osonlashtirish maqsadida inson bajarishi lozim bo'lган bir qator vazifalar mashina- larga o'tkazilmoqda. Bu jarayonda insonga xos intellektual faoliyat mashinalarga ko'chiriladi. Natijada ma- shinalar insonning faqat jismoniy mehnatinigina emas, balki aqliy mehnatini ham yengillashtiradi. Masalan, yillar davomida sanash mumkin bo'lган narsa- larni mashina yordamida bir necha daqiqada bajarish mumkin. Bunday mashinalar elektron hisoblash mashinalaridir (EHM).

EHM bugungi kunda hayotimizning turli jabhalariga kirib bordi. Uning yordamida turli xil matnlarni qisqa muddatda terish, har qanday axborotni uzatish, qabul qilish va saqlash, hatto musiqa ijod qilish, shaxmat o'ynash imkoniyati mavjud.

Bunday mashinalarning ixtiro qilinishida mashina xizmati bilan jonli organizm faoliyati o'rtafigi o'xshashlik tayanch nuqta bo'lib xizmat qiladi. Jonli organizmda ham, mashinada ham tashqaridan olingan signallarga javob beradigan boshqaruvchi va boshqariluvchi tarkibiy qismlar mavjudsir. Signallar inson faoliyati va mashinalar ishini belgilovchi ma'lum axborotlarni tashiydi. Axborot va signal tushunchalari kibernetikaning markaziy tushunchalaridir.

Axborot xilma-xil bo'lganidek, signallar ham turli tumandir. U ko'rish, eshitish, yorug'lik kabi signal-laridan iborat bo'lishi mumkin. Masalan yo'ldagi svetofor chirog'i ham signal, mashinaning burilish chirog'ini yoqish ham signal, jang maydonida oq bayroqning ko'tarilishi ham, ko'shnlarning qurolini tashlab qo'l ko'tarishi ham signal. Elektr impulyelari, telegraf lentasidagi tire, nuqtalar ham signal. Ularning hammasi muayyan axborot tashiydi. Bu jihatdan so'zlar ham signaldir. U ham borliqsagi narsa va hodisalar haqida axborot beradi. Shuning uchun ham mashhur rus olimi I. Pavlov so'zni signallar signali degan edi.

Ma'lum axborot tashishda qo'llaniladigan signallar tizimi kod hisoblanadi. Kodlar EHM uchun katta ahamiyatga ega. U ham jonli organizm signallariga analogiya yo'li bilan yaratiladi.

Jonli organizm faoliyati va mashina ishi o'rtafigi o'xshashlikni quyidagicha izohlash mumkin.

Inson sezgi a'zolari orqali tashqi olam haqida turli axborot beruvchi signallarni qabul qiladi. «Kirish signali» nomi bilan yuritiluvchi bunday signallar asab tarmoqlari orqali miyaga uzatiladi. Qabul qilingan axborot xotirada saqlanadi, qayta ishlanadi va uning faoliyati belgilanadi: harakat orqali muayyan reaksiya chaqiriladi yoki turli xildagi yangi axborot qayta ishlanadi. «Kirish signallari» «chiqish signallari»ga aylantiriladi.

Masalan, «O'tkan kunlar» romanini kim yozgan?» degan savolni til yordamida kodlashtirilgan va tovush signallari — so'zlar vositasi orqali uzatilgan axborot sifatida qarash mumkin. Eshitish a'zolari bu signallarni qabul qilib, miyaga uzatadi. Bu axborot miyadagi xotira uyalariga qabul qilinadi va qayta shakllanadi.

Miya bo'lagi bilan xuddi o'shanday til yordamida markaziy aloqa kanallari orqali kodlashtirilgan yangi axborot uzatiladi: javobi — Abdulla Qodiriy. Abdulla Qodiriy so'zlovchi uchun «chiquvchi signal», ayni paytda, tinglovchi uchun esa «kiruvchi signal» hisoblanadi. Shunday qilib, yangi axborot qabul qilishda «kiruvchi signal» bilan «chiquvchi signal» zanjiri takrorlanib turadi.

Mashina ham xuddi shu tamoyil asosiga qurilgan- dir. Uning vazifasi ham axborotni qabul qilish, saq- lash, qayta shakllantirish va uzatishdan iboratdir.

Hozirgi kunda mashinalar yordamida inson mehnatini yengillatuvchi xilma-xil ishlar amalga oshirilmoqda. Ana shulardan biri avtomatik tarjimadir.

Avtomatik tarjima. Hozirgi kunda matnni avtomatik ishlash va mashina yordamida tarjima qilish tobora rivojlanib bormokda. Bu esa tilshunoslikning kibernetika bilan mustahkam aloqasi tufayli ro'yobga chiqmokda.

Avtomatik tarjima (mashina tarjimasi) muayyan bir tildagi matnni EHM (elektron hisoblash mashi-nasi) orqali boshqa tildagi mazmuni bir xil bo'lgan tekstga aylantirish yo'li bilan amalga oshiriladi. Avtomatik tarjimani amalga oshirish uchun EHM ga dastur (algoritm), tarjima qilinayotgan har ikki tillarning xilma-xil axborotlarni bildiruvchi lug'ati kiritiladi. Dastur mashina xotirasiga shunday kiri- tiladiki, uning har bir xotira uyasida so'zning barcha ma'no va shakllari hamda turli xil tarjima usullari o'rinni oladi. Tarjima qoidasi qisqa formulalar shak- lida juda aniq va lo'nda tuzilishi lozim bo'ladi.

Dastur kiritilgandan so'ng mashina tarjima uchun matn qabul qilishga tayyor holga keladi. Mashina faqat raqamlar orqali ish ko'rganligi sababli, matn raqamlarga kodlashtiriladi. Har bir harf ma'lum raqam orqali ifodalananadi. Har ikki tilda bir xil fonemani ifodalovchi harflar bir xil raqam bilan ifodalananadi.

Mashina berilgan matnni olgandan so'ng tarjimaga kirishadi. Tarjima uchun mashina matnni, avvalo, tahliddan analizdan boshlaydi, so'ngra sintezlashtiradi: matn tarkibidagi so'z qaysi ma'noda qo'llanilyapti? Uni qanday so'z bilan tarjima qilish mumkin? So'z qaysi grammatik shaklda turibdi va u tarjima qilinayotgan tilning qaysi so'z shakliga mos keladi? Bu savollarga javob qidirib, mos so'z shaklini topgandan so'ng, mashina bu so'zni boshqa tilning amal qiladigan so'z tartibi

qonuniyati asosida joylashtiradi. Mashinaning har bir harakati «ha» «yo‘q» ja- voblaridan birini tanlash yo‘li bilan amalgalashadi.

Olingan natija tahrirga muhtoj bo‘ladi. Ba’zan mashina so‘z shakllarini, so‘zning fonetik variantini, gapda so‘zlar tartibini noto‘g‘ri tanlab qo‘yish mumkin. Mashina ba’zi o‘rinlarda so‘zning optimal varianta bilan qavs ichida imkoniyat darajasidagi variantni ham keltirishi mumkin. Shu bilan birligida mashina xotirasida kerakli so‘z bo‘lmasa, bu so‘zni tarjima qilmasdan original tildagi shaklda beraveradi.

Ko‘rinadiki, avtomatik tarjima kibernetika bilan tilshunoslikning o‘zaro mustahkam aloqasi tufayli amalgalashadi. Bu jarayonda dasturchi albatga tarjimaga berilayotgan va tarjima qilinayotgan tillarning o‘ziga xos fonetik, grammatik xususiyatlarini, leksik imkoniyatlarini, leksemalarning semik tuzilishlarini yaxshi egallagan bo‘lishi kerak.

Avtomatik tarjima birinchi martda 1954 yilda Amerikaning Nyu-York shahrida sinab ko‘rildi. Unda ayrim iboralar rus tilidan ingliz tiliga tarjima qilindi. Shundan so‘ng bu muammo bilan Fransiya, Kanada, Rossiya kabi bir necha mamlakatlar shug‘ullana boshladi. Avtomatik garjimaning bar qator sistemalari vujudga keldi: SISTRAN (AQSH, Kanada, Yevropa), LOGOS (AQSH), KULT (Gonkong) va boshqa.

Sobiq sho‘rolar davrida avtomatik tarjima ilk marta I. K. Velskiy va D. Y. Panovlar tomonidan 1954 yilda Aniq mexanik va hisoblash texnikasi institutida sinab ko‘rildi. I. K. Velskiy algoritmning lingvistik asoslarini, D. Y. Panov amalgalashadi dasturini ishlab chiqsdi.

Hozirgacha mashina xotirasiga kiritilgan so‘zlar- ning hajmi 1000 dan oshmaydi. Bu imkoniyat bilan faqat ilmiy-texnik va qisman rasmiy matnlarni tarjima qilish mumkin.

Ko‘pma’nolilikka, obrazlilikka asoslangan badiiy matnlarni tarjima qilish avtomatik tarjima oldida turgan eng dolzarb muammolardandir.

Ayrim mutaxassislar badiiy asarni mashina yo‘li bilan tarjima qilish mumkinligiga shubha bilan qaraydilar. Chunki badiiy asar tilida o‘n minglab so‘zlar ishlataladi. Shu bilan birga bu so‘zlar bir necha ko‘chma ma’nolarda qo‘llanilgan, ifodalilik, ekspressiv-emotsional ma’nolarga yo‘g‘rilgan bo‘ladi.

Mashina bilan tarjimada matn mazmunidan tashqari, asar muallifining o‘ziga xos bo‘lgan individual uslubi, badiiy-estetik quvvati, qo‘yinki, asarning barcha badiiy xususiyatlarini ta’minlab turuvchi badiiy-tasviriy vositalarini, xilma-xil leksik-grammatik vositalar yordamida hosil qilingan asarning butun go‘zalligini berish kerak bo‘ladi. Bularni mashinada berish uchun esa formallashtirish, algoritmga solish nihoyatda qiyin kechadi. Shuning uchun ham ular buni amalgalashadi amalda mumkin emas deb o‘ylaydilar.

Mustahkamlash uchun savollar

1. Matematik lingvistika deganda nimani tushunasiz?
2. Kibernetika nima?
3. Matematik metodlarning tilshunoslikka o‘tishi.
4. Axborot tushunchasi. Signal tushunchasi. Axborot va signalning bir-biridan farqi.

13-ma’ruza. Tilshunoslik va semiotika

Reja

1. Tilning belgilar sistemasi ekanligi.
2. Lingvistik belgining tinglovchiga ta’sir qilish vazifasi
3. Til bilan boshqa belgilar tizimining o‘xshashlik va farqli jihatlari.
4. Tilshunoslik va axborot nazariyasi.
5. Til – muloqot va fikr bildirish vositasini.
6. Millatlararo belgilar. Shartlilik elementlari. Abstrakt va fonetik belgilar.

tayanch tushunchalar: Tilning belgilar sistemasi ekanligi. Lingvistik belgi kishilarning obyektiv olam haqidagi bilimlarini boshqalarga uzatish vazifasini bajarish bilan birga, so‘zlovchining bu axborotga munosabatini va, ayni paytda, tinglovchiga ta’sir qilish vazifasini ham bajarishi.

Til kishilar o'rtasidagi eng muhim aloqa vositasidir. U obyektiv borlikdagi ma'lum voqeahodisa haqida axborot tashuvchi asosiy vositadir. Bunday axborot tashishning boshqa yo'llari ham borligi ma'lum bo'ladi. Masalan, yo'l harakatidan ma'lumot beruvchi vositalar, yo'ldan o'tish-o'tmaslik xabarini beruvchi vositalar va boshqalar. Bu jihatdan til ham axborot berish uchun xizmat qiladigan yuqoridagi vositalar sirasida turadi. Ularning hammasi uchun umumiy narsa, avvalo o'zi haqida va shu bilan birga borlikdagi ma'lum narsa-hodisalar haqida ma'lumot berishdir. Bunday vositalar belgilar deb nomlanadi. Inson o'zini qurshab turgan olamni bilish jarayonida olam unsurlarini obrazlar orqali ongida aks ettiradi va bu ongda aks etgan olam unsurlari belgi orqali ifodalananadi. Sotsial axborotning har qanday moddiy ifodalovchi-lari belgi hisoblanadi.

Tilning belgilar sistemasi ekanligi uning asosiy xususiyati va universal tomonidir.

XIX asr oxiriga qadar belgi nazariyasi bilan asosan faylasuflar shug'ullandilar. Faqat XIX asr oxiridan boshlab bu masala ruhshunoslarning ham diqqatini jal b qildi. Belgi haqidagi falsafiy nazariya o'zining uzoq tarixiga ega.

Qadimgi ellinlar narsaning mohiyati va ularning nomlanishi yuzasidan ilmiy bahslaridayoq yashirin holda belgi tushunchasiga asoslangan edilar.

Faylasuflar ta'sirida XIX asrdan boshlab tilning umumiy nazariyasiga bag'ishlangan deyarli barcha lingvistik asarlarda so'z ikki tomonlama xarakterga ega bo'lgan belgi sifatida talqin qilina boshlandi. V. Humboldt, Shleyxer, Shteyntal, L. Breal, A. Meyye, F. Fortunatov, I. A. Boduen de Kurtene, asarlarida so'zga belgi nuqtai nazaridan yondashiladi. Lekin F. de Sossyur tilning belgili tabiatini aniq-ravshan yoritib berdi. Hatto belgi nazariyasi bilan shug'ullanuvchi alohida fan-semiologiya fani mavjud bo'lishini va lingvistika ham semiologiya tarkibiga kirishi lozimligini ta'kidladi.

Hozirgi kunda belgilar sistemasini o'rghanuvchi alohida fan-semiotika fani maydonga keldi.

Til ham belgilar sistemasi sifatida e'tirof eti-lar ekan, demak, u ham semiotikaning tarkibiy qismi sifatida qaralishi va semiotikaning boshqa qismlari bilan uzviy aloqada o'rGANILISHI lozim bo'ladi.

Lingvistik belgilar bilan boshqa belgilar sistemasi (masalan, Morze alifbo sistemasi, musiqa ijrolari, mimika va imo-ishoralar, yorug'lik va tovush signallari va boshqalar) muayyan umumiylukka ega. Ular quyidagilardan iborat:

- a) ularning hammasi ma'lum axborot tashiydi;
- b) ularning hammasi sotsial hodisa. Chunki ular jamiyatga xizmat qilish uchun jamiyat tomonidan yara-tilgan;
- v) Ularning hammasi moddiylikka ega (lekin bu modsiilik turlicha kurinishga ega; yorug'lik to'lqini, tovush to'lqini, grafik tasvir va boshqa.);
- g) ularning hammasi obyektiv borliqni ifodalaydi.

Lingvistik belgilar bilan boshqa belgilar sistemasi o'rtasida yuqoridagi kabi umumiy jihatlar bo'lishi bilan birga, ular o'zaro bir qator farqli tomonlarga ham ega. Ular quyidagilardan iborat:

Til kishilar o'rtasida eng muhim aloqa vositasi sanalib, u umuminsoniy xususiyatga ega. Barcha kishilar o'zining turli xil faoliyat doirasida lingvistik belgilar vositasida o'z fikrini bayon qiladi. Boshqa turdag'i belgilar esa bu jihatdan ma'lum guruh doirasida chegaralanganligi bilan farqlanadi.

Lingvistik belgi har qanday axborotni, insonning ichki kechinmalarini chegaralanmagan holda ifodalash imkoniyatiga ega. Boshqa belgilar esa chegaralangan axborotni ifodalash imkoniyatiga ega. Masalan, muzika insonning ichki kechinmalarini hissiyotlarini ifodalashi mumkin. Lekin u tushuncha va hukmlarni ifodalay olmaydi.

Lingvistik belgi kishilarning obyektiv olam haqidagi bilimlarini boshqalarga uzatish vazifasini bajarish bilan birga, so'zlovchining bu axborotga munosabatini va, ayni paytda, tinglovchiga ta'sir qilish vazifasini ham bajaradi. Bu jihatdan, boshqa belgilar sistemasi faqat axborot berish (imo-ishoralar, Morze alifbosi, yorug'lik to'lqini va boshqa) yoki tinglovchiga ta'sir qilish (muzika) vazifasini bajaradi.

Lingvistik belgilardan boshqa barcha belgilar sistemasi insonning sun'iy ijod mahsulidir. Ular ma'lum guruhning kelishuvi yo'li bilan sun'iy ravishda yaratiladi. Lingvistik belgilar esa jamiyatning u yoki bu a'zosi ixtiyoriga bog'liq bo'limgan holda rivoj-lanadi. Har bir yangi avlod

shu jamiyatning tarixiy tarkib topgan va uzluksiz rivojlanishda bo‘lgan tili- ni o‘zlashtiradi va keyingi avlodga yetkazadi.

Lingvistik belgining yana eng muhim belgisi uning diskretligi, ketma-ket joylashuvi va erkinligidir.

Lingvistik belgilar inson kommunikativ faoliya- tining asosini tashkil qiladi. Boshqa barcha 'belgilar sistemasi kommunikatsiya jarayonida tovushlar yordamida ifodalananayotgan axborotga qo‘sishimcha axborotni bil- dirish yoki «tovush nutqi»ga yordamchilik qilish vazi- fasini bajaradi.

Kishilar o‘z nutqiy faoliyatida tez-tez qo‘llab tura- digan mimika va turli xil imo-ishoralar ham nutqni kuzatib boruvchi qo‘sishimcha vositalar sanaladi. Ba’zi o‘rnarda qisman uning o‘rnini bosishi mumkin.

Mustahkamlash uchun savollar

1. Sistemasi deganda nimani tushunasiz?
2. Lingvistik belgining tinglovchiga ta’sir qilish vazifasi
3. Til bilan boshqa belgilar tizimining o‘xhashlik va farqli jihatlari.
4. Tilshunoslik va axborot nazariyasi.
5. Til – muloqot va fikr bildirish vositasi.
6. Millatlararo belgilar nima?
7. Shartlilik elementlari?
8. Abstrakt va fonetik belgilar.

14-ma’ruza. Tilshunoslikning logopediya va defektologiya bilan munosabati

Reja

1. Logopedianing tilshunoslik bilan aloqadorligi.
2. Logopedianing vazifalari.
3. Bolalar nutqiga atrofdagilarning ta’siri.
4. Kamchiliklari mavjud insonlarning ijtimoilashuvi va ularga nutqning ta’siri. Tiflo va surdo psixologiya va pedagogika

tayanch tushunchalar: Logopedianing tilshunoslik bilan aloqadorligi. Logopedianing vazifalari. Bolalar nutqiga atrofdagilarning ta’siri.

Kamchiliklari mavjud insonlarning ijtimoilashuvi va ularga nutqning ta’siri. Tiflo va surdo psixologiya va pedagogika

Hozirgi kunda nutq tovushlarining bevosa kuzatishda oddiy eshitish yo‘li bilan aniqlash mumkin bo‘limgan ma’lum jihatlarini muayyan tajribaga asoslanib o‘rganadigan maxsus tilshunoslik yo‘nalishi paydo bo‘ldiki, bu yo‘nalish tajribaviy (eksperimental) fonetika nomi bilan yuritiladi.

Tajribaviy fonetika metodlaridan eng muhimi tovushni ma’lum asboblar yordamida tekshirishdir. Bunday tekshirish instrumental fonetik tekshirish usuli sanaladi. Fonetikaning xuddi shunday tekshirish usuli fizika bilan bevosa aloqadordir.

Tilning fonologik tizimini eksperimentam (tajribaviy) usulda tadqiq etish yo‘llaridan biri intonografik metod deb yuritiladi.

Eksperimental-fonetik tadqiqotlar olib borilgan dastlabki davrda talaffuz qonunlari fiziologik, psixologik vositalar, oddiy kuzatish, eshitish yo‘li bilan o‘rganilgan edi. Bu usullar eksperimental fonetikada pnevmatik metod deb yuritiladi. Bu metod amaliy fonetika taraqqiyotida muhim rol o‘ynaydi, chunki uning yordamida ko‘pgina fonetik jarayonlar (nazalizatsiya, aspiratsiya, assimilyatsiya, sonantizatsiya, dissimilyatsiya, metateza, dizreza, singarmonizm kabi- lar)ning mohiyati aniqlandi.

30-yillarga kelib, prof. V. A. Artyomov intonatsiya, pauza, bo‘g‘in kabi fonetik hodisalarini o‘rganishda elektroakustik metodlardan foydalanish ishini boshlab berdi, bu esa ilgari ko‘llanilgan pnevmatik metodsan o‘z ustunliklariga ega edi. V. A. Artyomov nutqning fonetik xususiyatlarini tadqiq etishga mo‘ljallangan elektrordinamik rekardyor, spektograf singari yangi appa- ratlar ixtiro qildi[1]. Bu bilan olim eksperimental fonetik tadqiqotlardan elektroakustik metodlarning mustahkam o‘rin egallashini ta’mirladi.

Intonograf elektroakustik tadqiqotlar uchun mo‘ljallangan asboblaridan biridir. U tekshirish uchun zarur materialni fizik jihatdan aniq, to‘lasicha yozib oladi va elektromagnit tasmalarga tushiradi. I-67 ra-qamli shunday intonograf 70-yillarda Uzbeki ston Fanlar akademiyasi Til va adabiyot instituta qoshida gi eksperimental fonetika laboratoriyasida o‘rnatil gan bo‘lib, A. Mahmudov, S. Otamirzayeva, H. Yo‘ldosheva kabi olimlar shu asbob yordamida o‘zbek tilining fonetik xususiyatlari o‘rganish bilan shug‘ullanganlar. Ana shu asbob yordamida til (nutq)ning tovush xususiyatlari, o‘zbek adabiy tilining boy intonatsion sistemasi- ga oid aniq eksperimental materiallar to‘plandi.

Intonografning asosini funksional bloklar tashkil etadi. Bu bloklarning chiqish klemmalaridagi elektr kuchlanishi nutq to‘lqinining ossillogrammasiga, aso-siy ton chastotasining harakatiga hamda magnit tasma-siga yozib olingan va tekshirilayotgan signalning tovush bosimi darajasiga muvofiq keladi. Intonografik metod yordamida fonetik hodisalar tadqiq etilar ekan, alohida blok orqali vaqt signallari ham uzatib turiladi. Bunday signallarning intonografda tahlil etish va olingan ma’lumotlarni registratsiya qilish quyidagi ikki usulda amalga oshiriladi:

a) asbobning ichiga o‘rnatilgan magnitofon yordamida nutq signal i intonografga uzatiladi. Tahlil natijalari esa 12 sm kenglikdagi fotolentaga yorug‘lik nuri ossillograf orqali nutq ossillogrammasi, nutq tovushi bosimining o‘rtacha darajasi, tovush psychalari asosiy tonining chastotasi, vaqt belgilari egri chiziqlar asosida yozib olinadi;

b) olingan eksperimental materiallar (magnitofon lentalari) segmentator yordamida tekshirib ko‘riladi. Segmentator ishlayotgan paytda elektron nur trubkasining uzoq vaqt yorishib turadigan ekranida ossilogrammaga, asosiy tonga, tovush bosimining darajasiga yoki vaqt belgilari mos egri chiziqlardan biri operatorning hoxishiga qarab paydo bo‘ladi. Segmentatorning bunday holatdagi ish sikli 2,4 sekundga teng keladi, bu esa uni qayta-qayta ko‘rish imkonini beradi. Natijada tadqiqotchi butun materialni fotoristratsiya qilmasdan turib qayta ko‘rib chiqish imkoniga ega bo‘ladi. Umuman, intonografik metod nutq tovushlarini, bo‘g‘in, so‘z, so‘z birikmasi yoki gap tarkibida tadqiq etish uchun zamin yaratadi.

Rentgenografiya talaffuz apparati harakatining ma’lum bir o‘rnini emas, balki uning umum, yaxlit ko‘rinishini aks ettirish imkonini beradi. Hozirgi rentgenografiya metodi tovush artikulyatsiyasining statikasi, ya’ni talaffuz apparati harakatining ma’lum bir vaziyatini aniq ko‘rsatadi.

50-yillarda V. A. Artyomov, V. G. Ginzburg kabi olimlar tomonidan ishlab chiqilgan rentgenografik metod texnik tomonidan ancha mukammal bo‘lib, keyingi qirq yildan buyon ko‘pgina tillarning tovush tizimini o‘rganishda keng foydalanilmoqsa. Bu metod yordamida eksperimental-fonetik kuzatishlar olib bo‘rilganda suxandon (diktör) stulga o‘tirgani holda boshini va bo‘ynini maxsus tirkakga qo‘yib o‘rnashib olgach, tovushlarni (yoki so‘zlarni, so‘z birikmalarini, gaplarni) hijjalab talaffuz qiladi, tirkakning chap tomoniga joylashgan kassetadagi rentgen plyonkalari almashtirilganda ham suxandon holati o‘zgarmaydi.

Suxandonning tabiiy talaffuzi uchun yaratilgan bunday sharoitda tajriba o‘tkazuvchi fonetist olim (eksperimentator) suxandonning talaffuzini diqqat bilan kuzatib boradi va unta rahbarlik qiladi. Ma’lum bir nutq tovushini talaffuz qilayotganidagi eng muhim vaziyatlarni eksperimentator tugmacha (knopkami bosish yo‘li bilan rentgen plyonkasiga suratini tushiradi. O‘tkazilgan tajribalar shuni ko‘rsatadiki, unli govushlarning rentgen suratini olish undoshlar- ga nisbatan ancha oson, chunki unli tovushlarni rentgenografiya iaytida 0,5 sekund cho‘zib talaffuz qilish bilan talaffuz apparatining aniq artikulyatsion holatini rentgenoskopiya qilish ham shu yo‘l bilan amalgalashiriladi. Portlovchi undosh tovushlar rentgen suratini olishda bir oz boshqacha yo‘l tutiladi, ya’ni bu tovushlarning ekskursiya qismi tamomlanib, rekursiya- si boshlanishidan oldingi talaffuz holati rentgenografiya qilinadi. Har bir seriyada ana shu yo‘l bilan 6 yoki 7 tovushning rentgen surati tushiriladi. Bunda talaffuz apparatining rentgen plyonkasi aniq o‘qili- shini ta’minlash maqsadida tilning o‘rta chizig‘iga, tanglayga bariy eritmasidan kichik yo‘l chizib qo‘yish lozim.

Intonatsiya lotincha so‘zdan olingan bo‘lib, nutqning sintaktik ma’nolarini va ekspressiv-emotsional bo‘yoqlarni ifodalash uchun xizmat qiluvchi ritmik-melodik tomonini bildiradi. Ohang, ovozning baland-pastligi ham intonatsiya bilan bog‘liqsir. Intonatsiyaning tarkibiy elementlari qatoriga nutq melodikasi, nutq ritmi, nutq intensivligi, nutq tempi, logik urg‘u, fraza urg‘usi kabilalar kiradi. Intonatsiyaning tarkibiy elementlarining barchasi bir-biri bilan uzviy aloqador bo‘lib, urg‘uli

va urg'usiz, cho'ziq va qisqa bo'g'inlarning birin-ketin kelishi, tovush ohangi, nutq takgini urg'u yordamida ajratish singari akustik-arkulyatsion, fonetik-sintaktik vazifalarni o'zida birlashtiradi. Intonatsiyaning bunday xususiyatlarini keyingi yillarda maxsus eksperimental-fonetik usullar yordamida tadqiq etishga ham alohida ahamiyat berilmoqda.

Umuman, intonatsiyani aniq fizik xususiyatlarga ega bo'lgan akustik hodisa sifatida va eshitish orqali qabul qilinadigan o'ziga xos struktura sifatida o'rganish mumkin. Eksperimental-fonetik usullar yordamida intonatsiyaning kommunikativ, ma'noviy, auditiv va akustik tarkiblari tadqiq etiladi. Masalan, intonatsiyani kommunikativ tahlil qilishga darak, so'roq, buyruq va undov gaplar kommunikativ turlarining tas-nisfini belgilash va tekshirishning eksperimental materialini tuzish uchun biror asos topish maqsadida ularning muhim kommunikativ tomonlarini aniqlash kiradi. Shu bilan birga kommunikativ tahlil tanlab olingan eksperimental materialning tekshirilayotgan til tizimiga muvofiqlik darajasini ham aniqlaydi.

Mustahkamlash uchun savollar

1. Logopediyaning tilshunoslik bilan aloqadorligi.
2. Logopediyaning vazifalari.
3. Bolalar nutqiga atrofdagilarning ta'siri.
4. Kamchiliklari mavjud insonlarning ijtimoilashuvi va ularga nutqning ta'siri
5. Tiflo va surdo psixologiya va pedagogika

15-ma'ruza. Tilshunoslikning tabiiy fanlarga ta'siri

Reja

1. Tilshunoslikning tabiiy fanlar yutuqlariga tayanishi bilan birga tabiiy fanlarning tilshunoslikka tayanishi.
2. Atamalarni meyorlashtirish.

(tayanch tushunchalar: Tilshunoslikning tabiiy fanlar yutuqlariga tayanishi bilan birga tabiiy fanlarning tilshunoslikka tayanishi. Atamalarni meyorlashtirish.

Biz yuqorida ko'proq tilshunoslikning tabiiy fanlar erishgan'yutuqlardan oziqlanishi haqida fikr yuritdik. (bu o'rinda ijtimoiy-gumanitar fanlardan boshqa barcha fanlar nazarda tutiladi). Shuni ta'kidlash kerakki, fanlar sistemasida turli fanlar o'zaro munosabatda, aloqada ekan, bu aloqa hech qachon bir tomonlama bo'lmaydi. Ma'lum bir fan boshqa bir fanga ta'sir qilar ekan, ayni paytda, u aksta'sirga ham uchraydi. tilshunoslikning tabiiy fanlar bilan muno-sabatida ham shuni kuzatish mumkin. Tilshunoslik tabiiy fanlar yutuqlaridan bahramand bo'lishi bilan birga, o'z navbatida, tilshunoslik ham bu fanlarga ma'lum ta'sirini ko'rsatadi. Ayniqsa bu turli fanlar atamalaridi meyorlashtirish, atamalar lug'atini tuzish tamoyillarini belgilashda yorqin namoyon bo'ladi.

Tabiiy fanlar bo'yicha atamalarni meyorlashtirish va bu fanlarga xos atamalar izohpi lug'atini tuzishda tilshunoslar tabiiy fan vakillariga amaliy yordam bermoqsalar. Xususan, kimyo atamalari bo'yicha filologiya fanlari nomzodi Abduvahob Madvaliyev, ilmiy-texnik atamalar bo'yicha professor Renat Doniyorov, botanika atamalari bo'yicha filologiya fanlari nomzodi, dotsent Hasanboy Jamolxonov singari bir qator olimlar barakali mehnat qilmoqdalar.

Ayniqsa mustaqillik davrida ilmiy-texnik atamalarni tartibga solish muammosi ko'tarildi. Umumiylar texnik atamalarni tartibga solishning lingvistik asos-lari bayon qilindi.

Ilmiy-texnik atamalarni tartibga solish muammosi o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilishi munosabati bilan yanada jiddiy tus oldi. Vazirlar Mahkamasi qoshida bu muammo bilan shug'ullanadigan atamaqo'm tashkil etildi. Shundan buyon atamaqo'm qoshida tabiiy fanlarning turli sohalari bo'yicha bir necha bo'linmalarda ilmiy-texnik atamalarni mu vofi ql ashtiri sh bo'yicha jiddiy ishlar olib borilmoqsa. Bu ishlarning muvaffaqiyatli amalga oshishida, tabiiy ravishda, tilshunoslar ko'magiga suyanmoqdalar.

Tilshunoslar ilmiy-texnik atamalarni tartibga solishda tabiiy fan vakillariga qanday ko'mak berishlari mumkin?

Avvalo, yangi ilmiy-texnik tushunchalarni ifodalash uchun atamalar belgilashda tilshunoslik faniga suyanadi. Yangi tushunchalarga ikki xil yo‘l bilan atamalar belgilanadi: 1) o‘zbek tilining o‘z ichki imkoniyatlari asosida; 2) boshqa tillardan so‘z olish asosida.

Har ikki holda ham tabiiy fanlar tilshunoslik yutuqlariga tayanadi. Uzbek tilining ichki imkoniyatlari asosida atamalar tanlashda o‘zbek tilining leksikografiyasi, dialektologiyasi erishgan yutuqlarga suyaniladi.

Boshqa tillardan so‘z olish muammosi bo‘yicha esa o‘zbek tilshunoslikning fonetika, leksikologiya etimologiya bo‘limlari erishgan yutuqlar asosida ish ko‘riladi.

Masalan, o‘zbek tiliga Davlat tili maqomi berilish arafasida matbuotimizda atamalarni izga solish, bo‘yicha ko‘tarilgan baholarni Ovro‘po tillardan olingen atamalarni chiqarib tashlab, o‘rniga arabiy va forsiy atamalarni yoki atama variantlarini qo‘llash tav-siya etuvchi maqolalar paydo bo‘ldi. Masalan, samolyot o‘rniga tayyora, institut o‘rniga oliyoh kabi. Fors-tojik tilida goh «o‘rin», «joy» ma’nosi bildirishi, shuning uchun ham u oliv sifatini ololmasligi, ya’ni «oliy joy (o‘rin)» ma’nosi «ilm oladigan joy» ma’nosini bermasligi, shuning uchun ham institut o‘rniga tavsiya etilgan oliyoh atamasi noto‘g‘ri ekanligi til-shunoslardan to‘g‘ri ko‘rsatib berildi.

Ayrim lotincha ilmiy-texnik atamalar asrimiz boshlarida o‘zbek tiliga rus tili orqali qabul qilindi. Shuning uchun ham rus tiliga lotin va yunon tillaridagi atamalar qaysi fonetik qiyofada o‘zlashtirilgan bo‘lsa, shundayligicha qabul qilindi. Masalan, geografiya, algebra kabi. Shuni ta’kidlash kerakki, lotin va yunon tillaridan ilmiy terminlar asrimiz boshlari-gacha ham o‘zbek tiliga o‘zlashgan edi. Lekin bunday terminlarning ko‘pchiligi arab tili orqali o‘tganligi uchun arab tilining fonetik xususiyatiga moslashtirilgan variantda qabul qilingan edi. Masalan, jug‘rofij, aljabr. Chunki arab tilida g fonemasi bo‘lmaganligi uchun bu fonemani j fonemasiga almashtiradi. Arab tilining bunday xususiyatini Zahiridsin Muhammad Bobur ham «Boburnoma» asarida ta’kidlagan edi. U bu haqsa quyidagilarni yozadi: «Arablar norgilni muar-rab (arab tiliga moslashtirib) qilib norjil derlar⁵⁴»

Ayrim tabiatshunos olimlar rus tili orqali kirib kelgan atamalarni o‘gmishda arab tili orqali kirib kelgan atamalar bilan almashtirishni taklif etdilar. Jumladan, geografiyani jo‘g‘rofijoga almashtirsak, tarixiylik tiklangan bo‘ladi degan g‘oyani olg‘a surdilar.

Lekin hozirgi kunda geo bilan hosil bo‘lgan bir qator atamalar tizimi borki, ularda g fonemasini j fonemasiga almashtirib bo‘lmaydi. Masalan, geologiyani julogiya, geodeziyani judeziya, geometriyani jumetriya deb bo‘lmaydi. Geo qismi bugungi o‘zbek tilida bir qancha atamalar tarkibida kelib, bir uya (paradigma) ni tashkil etar ekan, demak, geografiyaning ham o‘zi qolgani lingvistik asosga ega.

Ko‘rinadiki, ilmiy-texnik atamalarni tartibga solishda ana shunday lingvistik qonuniyatlar asos rolini o‘ynaydi.

Boshqa tillardan birikmali atamalar ham olinishi mumkin. Bunday atamalarning ko‘nchiligi asrimiz boshlarida rus tili orqali kirib keldi.

Birikmali atamalarning katta qismi tarkibiga ko‘ra aniqlovchili biriqmalar sanaladi. Aniqlovchili bi- rikmalarning tobe qismi hokim qismiga rus tilida xil shakllar yordamida bog‘lanadi: 1) -(i) ches- kiy (-oye, aya-, -skiy (-re, -aya): borovskoy radius, matematicheskiy analiz; 2) -niy (-oye, -aya): konturnaya karta; 3) -iy (-oye, -aya): kalsevoye soyedineniye kabi.

Bu tushunchalarning o‘zbek tilida ifodalanishi turlicha: 1) har ikki qismni tarjima qilish: kalsevoye soyedineniye — doirasimon ularish;

birinchi qismning grammatik shaklini o‘zbek tiliga moslashtirish. Grammatik shaklini moslashtirish bo‘yicha o‘zbek tilshunosligida 70-yillarning boshlarida ikki xil oqim maydonga keldi. Ularning birinchisi (Ayub G‘ulom boshchiligidagi tilshunoslardan) ruscha grammatik shaklini olib tashlash yoki qisqartirish yo‘li bilan o‘zbekchalaشتirish g‘oyasini olg‘a tashladilar.

Boshqa bir guruh tilshunoslardan esa (Olim Usmon) aniqlovchi qismiga izchillik bilan -iy, -viy qo‘sish- chalarini qo‘sishni taklif qildilar. Masalan. Texnikavesiye nauki — texnikaviy fanlar (texnik fanlar emas) Rentgenovskiy luchey - rentgeniy nurlar Tilshunoslariq sagi bu ikki oqimning ta’siri tabiiy fanlar bo‘yicha tuzilgan lug‘atlarda ham o‘z ifodasini topdi. Masalan, S. 3. Zaynobilov va YE. G. Zaugolnikovalarning «Inglizcha-ruscha-o‘zbekcha lug‘at»ida ana

⁵⁴ Захирийдичи Муҳаммад Бобур. Бобурнома. Тошкент, «Юлдузча», 1990, 262-бет

shunday ta'sirni kuzatish mumkin. Masalan, korrelyasiyonniy integral — korrelyatsion integral deb beril-gani holda (175-bet), temperaturniy skachok, magnitnoye soyedineniye kabi atamalar temperaturaviy sakrash, magnitoviy ulanish deb beriladi.

Ko'rinadiki, tilshunoslikning atamashunoslik bo'limi bo'yicha nazariy xulosalar barcha fan atamalarning izga solinishida asos bo'lib xizmat qiladi. Shu- ning uchun ham barcha fan sohalari bo'yicha atamalar lug'atini tuzishda shu fan sohasi vakillari bilan tilshunoslarning hamkorlik qilishlari katta samara beradi.

Bizni qurshab turgan olam uzvlari o'zaro uzviy aloqada, o'zaro shartlangan munosabatda bo'lgani kabi, ularni o'rganuvchi fanlar ham bir-biri bilan chambar-chas aloqadadir. Fanlar sistemasida biron-bir fan yo'qki, boshqa fanlar bilan munosabatda bo'limgan, uning erishgan yutuqlaridan oziqlanmagan, bo'lsin. Ma'lum bir fanda muvaffaqiyat qozongan tadqiqot usuli, albatta boshqasiga ta'sir etmay qolmaydi.

Bir necha fanda bir-biriga yaqin bo'lgan tushunchalarning kelib chiqish ildizlarini ochishda bu fanlarning o'zaro munosabatini, bir-biriga ta'sirini o'rganish katta ahamiyatga ega.

Fanni sistema sifatida e'tirof etar ekanmiz, har bir fanga fanlar sistemasining bir uzvi sifatida qarash va uni boshqa fan uzvlari bilan munosabatda o'rganish fandagi sistemaviylik tabiatini ochishda qulay imkoniyat yaratib beradi.

Tilshunoslikning fanlar sistemasidagi o'rnini belgilash, uning boshqa fanlar bilan munosabatini yoritish bu fanning fanlar sistemasidagi qimmatini belgilashda, tilshunoslikning bir qator tushunchalarining kelib chiqish ildizlarini yoritishda, umuman, tilshunoslikning ko'pgina nazariy muammoLariga oydinlik kiritishda muhim ahamiyati bor.

Tilshunoslik fanlar sistemasidagi boshqa fanlar erishgan yutuqlar bilan oziqlanibgina qolmasdan, o'z navbatida, uning o'zi ham bir qancha fanlarda mavjud bo'lgan muammolarni ijobiy hal qilish uchun yordam beradi. Xususan, mantiq, psixologiya, tarix, etnografiya tilshunoslik yutuqlariga tayanadi. Shuningdek, tabiiy fanlarning atamalar tizimini shakllantirish va tartibga solishda ham tilshunoslik yordamga keladi.

Tilshunoslikning boshqa fanlar bilan bog'liqlik darajasi turlicha. Ayrim fanlar bilan tilshunoslikning ba'zi masalalarigina aloqadordir. Xususan, geografiya bilan lisoniy hodisalarining tarqalish hududlarini belgilashda, bu hududlarni kartalashtirishda: fizikaning akustika bo'limi bilan nutq tovushlarining fizik hossasini o'rganishda; tibbiyat bilan nutqiy afaziya masalalarini o'rganishda aloqadorlik seziladi. Boshqa fanlar bilan esa tilshunoslik o'ta zinch munosabatdadir. Masalan falsafa tilshunoslikning barcha masalalari bilan uzviy aloqadadir.

Tilshunoslik qo'lga kiritgan yutuqlarini xalq xo'jaligining turli jabhalariga qo'llash natijasida tilshunoslikning amaliy tarmoqlari vujudga keldi. Masalan, avtomatik tarjima, telekommunikatsiya, nutqiy faoliyat buzilishini davolash, ruhiy terapiya, yozuvi bo'limgan xalqlarga alfavit yaratish va boshq.

Tilshunoslikning boshqa fanlar bilan munosabatini o'rganish natijasida hozirgi kunda fanlar sistemasida ikki fan oralig'idagi yo'nalishlar maydonga keldi, masalan, mentolingvistika (tilshunoslik va falsafa munosabati), etnolingvistika (etnografiya va tilshunoslik munosabati), psixolingvistika (psixologiya va tilshunoslik munosabati), paralingvistika (semiotika bilan tilshunoslik munosabati) neyrolingvisti (tibbiyat, fiziologiya bilan tilshunoslik).

Boshqa fanlar bilan qanchalik munosabatda bo'lma-sin, tilshunoslik o'z tadqiqoti obyekta va tadqiqot chegarasiga ega bo'lgan mustaqil fan sifatida fanlar sistemasida qatiy o'rniiga ega.

Mustahkamlash uchun savollar

3. Tilshunoslikning tabiiy fanlar yutuqlariga tayanishi bilan birga tabiiy fanlarning tilshunoslikka tayanishi.
4. Atamalarni meyorlashtirish.

AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI

1-amaliy mashg‘ulot. Tilshunoslikda falsafa kategoriyalarining voqelanishi

1. Reja asosida tahlil o‘tkazing.

1. Substansiallik va substansial yondashuv
2. Dialektik kategoriylar.
3. Narsaning haqqoniy (obyektiv, mustaqil) alohidalik ekanligi.
4. Narsa munosabat majmui.
5. Narsa o‘zgarish va taraqqiyotda.
6. Narsada ichki ziddiyat.
7. Narsa ziddiyat (qarama-qarshilik) butunligi sifatida.
8. Qarama-qarshi tomonning voqelanishi.
9. Analiz (tahlil) va sintez (umumlashtirish) birligi.
10. Narsa munosabatining o‘zga narsa bilan cheksizligi.
11. Narsaning o‘z aksiga o‘tishi.
12. Narsa munosabat (aloqadorlik)ining cheksizligi.
13. Narsa mohiyatiga chuqurlashishning cheksizligi.
14. Narsa aloqadorligining cheksiz miqdorda oshib borishi.
15. Taraqqiyot bosqichida o‘tgan bosqich takrori.
16. Inkorning inkori natijasida eskiga qaytganday bo‘lish.
17. Mazmunni saqlab, shaklni yangilash.
18. Miqdoriy o‘zgarishning sifat o‘zgarishiga o‘tishi.
19. Sabab va oqibat

2. Falsafiy-metodologik adabiyotda qo‘llanadigan narsani fahmiy o‘rganish usuli sifatida **sensualizm, empirizm, realizm, atomizm, fenomenalizm** kabi atamalarga ta’rif bering.

Substansiallik va substansial yondashuv. Narsa va hodisani o‘rganish jarayoni ikki zaruriy bosqichda kechadi. Birinchisi sezgi orqali fahmiy bilish bo‘lib, ikkinchisi aqliy (idrokiy) bilishdan iborat¹. Borliqni o‘rganishning ikki bosqichda sodir bo‘lishi gnoseologiyada tan olingen qarash desa xato bo‘lmaydi. Borliqni bilishning bu ikki bosqichi falsafiy metodik adabiyotlarda empirik va teoritik, hissiy va idrokiy, hayotiy va oddiy (formal) kabi o‘ndan ortiq xilma-xil atama bilan nomlansa-da,² mohiyatan bu ikki bilish bosqichi orasida farq behad sodda. Biri, ya’ni fahmiy/hissiy sezgi uzvi – ko‘rish, sezish, tuyish va hatto tushunish, qabul qilish orqali hosil qilingan bilimni mutlaq haqiqat deb bilsa, ikkinchisi idrokiy (aqliy) bilim (ko‘rgani, sezgani, eshitgani, tuygani) mohiyat bo‘lmay, qandaydir boshqa bir hodisaning yuzaga chiqish shakli, ya’ni qandaydir imkoniyatning bir tasodifiy voqelanish ko‘rinishi deb biladi va bu mohiyat fahmiy bilimdan, uning shakl moddiyligidan uzelib aqliy, idrokiy yo‘l bilan hodisa zamirida yotgan asosni, mohiyatni munosabat asosida ochishga intiladi. Shuning uchun fahmiy usul tasvirlasa, idrokiy usul ochadi. Bunday yondashishda odatda fahmiy/hissiy ma’lumot idrokiy usul bilan ochiladigan mohiyatni to‘sib qorong‘ilashtirib turadi. Shuning uchun mutafakkir A.Navoiy “Lison-ut tayr”da “Qosir etdi fahmdan idrokni” deb, bu ziddiyatni juda ixcham iborada mujassamlashtiradi. Fahmiy jarayonda narsadagi bevosita kuzatishda berilgan turli jihat tasvirlanadi. Fahmiy (zohiri, hissiy, tashqi) bilim insonning sezgi a‘zosi vositasida hosil qilinadi. Fahmiy bilish orqali tilshunos til birligining tashqi his qilib bo‘ladigan belgi-xususiyati haqida bilimga ega bo‘ladi. Bilishning bu usulida bevosita kuzatishda berilgan nutqiy birlik tasvirlanadi, har bir xususiyati izohlaniladi. Boshqacha qilib aytganda, bilishning bu bosqichida mohiyati hali aniq bo‘limgan butunlik ilmiy bilish maqsadida qismga ajratiladi. Asosiy diqqat – e’tibor ajratilgan qismning ichki va tashqi holatini sezilib turgan belgisi asosida bilib olishga qaratilgan bo‘ladi. Darhaqiqat, fahmiy bilish usulida unli – undoshning fonetik xususiyati, fonetik o‘zgarish, orfoepik meyor, so‘z va qo‘shimchaning nutqiy ma’nosi, so‘z birikmasi hamda gap turi, uning qo‘llanishi, ma’no xususiyati tasvirlangan. “Fahmiy bilim istagan fonda, jumladan, tilshunoslikda beqiyos ahamiyatga ega. U barcha turdag'i nazariy ish uchun zamin, moddiy asosdir”. Ammo bunday turdag'i ilmiy faoliyat tilni, uning haqiqiy mohiyatini chuqur anglashga imkon bera olmaydi. Mutafakkir shoir A.Navoiy fahmiy bilimning bir yoqlamalik xususiyatini, hissiy bilishda biluvchining narsani butunlikda ko‘ra olmasligini, boshqacha qilib aytganda, haqiqatni bilishga intilgan idrokka juvv (qism)ni tasvirlovchi fahm (hissiy bilish) to‘sinqinlik qilishini o‘zining “Lison-ut tayr” dostonining fil tasviriga bag‘ishlangan hikoyasida mahorat bilan

tasvirlaydi³. “Ko‘rlar va fil hikoyati”da keltirilgan ko‘rlarning fil haqidagi bilimi, ya’ni ojizlik yuzasidan fil to‘g‘risidagi nomukammal tasavvuri barchasi to‘g‘ri bo‘lsa-da, uning hammasi nuqsonli edi, unda tartib mavjud emas edi. Bu bilim sezish orqali hosil qilingan fahmiy (empirik) bilish.

Falsafiy-metodologik adabiyotda narsani fahmiy o‘rganish usuli sifatida sensualizm, empirizm, realizm, atomizm, fenomenalizm kabi atama qo‘llanildi. Bu oddiy materialistik yondashish usuli bo‘lib, narsaga mustaqil barqaror alohidalik sifatida yondashadi. Oddiy (vulgar) materialistik yondashuv bevosita kuzatishda berilgan narsa voqelikda qanday mavjud bo‘lsa, uni xuddi shunday tasvirlashga asoslanadi. Uning turli yo‘nalishi mana shu bevosita kuzatishda berilgan narsa hodisaning turli tomoniga alohida e’tibor qaratish bilan bir-biridan ajralib tursa-da, bevosita kuzatishda bergen ma’lumotni haqiqat deb bilganligi bilan birlashadi. Chunonchi,

Atomizm – “alohida zarra” so‘zidan olingen narsa, materiya tuzilishining fizikaviy – ximiyaviy asosiga tayanadi. Sensualizm (lotincha sensus – his, sezgi) – gnoseologiya sohasidagi ta’limot bo‘lib, u sezgini bilishning birdan bir manbai deb e’tirof qiladi. Sezgi bilish jarayonining boshqa tomoni bilan, ya’ni tajriba va abstrakt tafakkur bilan uzviy birlikda bo‘lgan taqdirdagina bilishning zarur tomoni bo‘lishi mumkin.

Empirizm (grekcha emperia – tajriba) hissiy tajribani bilimning birdan-bir manbai deb hisoblaydi.

Empirokrititsizm – “tajribani tanqid” degan ma’noni bildirib, tajriba tushunchasini substansiya, zarurat, sababiyat tushunchasidan tozalaydi.

Bu tushunchaga qarama-qarshi o‘laroq ratsionalizm, funksionalizm, strukturalizm, semantizm kabi idrokiy bilim usuli nomlanishi mavjudki, bunda narsaning o‘zga aloqadori bilan munosabati, uning butun tarkibida tutgan o‘rni, vazifasi ochib beriladi, ya’ni narsaga dialektik yondashiladi. Dialektik yondashuv asosida hosil qilingan bilim fahmiy usul bilan aniqlangan, tavsiflangan va sistemalashtirilgan hodisa rang-barangligining sababini ochib berishga asoslangan bo‘ladi. Dialektik yondashuv nominalistik yondashuvning davomi, ya’ni nominalistik yondashuv dialetik yondashuvni taqozo qiladi. Fandagi bu bog‘liqlik quyidagi fikrda aniq asoslab berilgan: “Insoniyat tarixida fanlar taraqqiyoti dialektikasi shuni ko‘rsatadiki, har bir fanning taraqqiyoti uzlusiz “empirik – dialektik – empirik – dialektik...” zanjirdan iborat... avvalo, narsa jonli mushohada, bevosita kuzatish vositasida o‘rganilib, uning xususiyati, qirrasi, tomoni aniqlanadi, natijada bu xususiyat, dalil, hodisa to‘planadi, saralanadi;... aqliy, dialektik tahlil usuliga o‘tish ehtiyoji paydo bo‘ladi”⁴.

Dialektik substansial yondashish esa shu narsaning cheksiz shakl va ko‘rinish hamda sharoitda voqelanishini o‘zaro munosabatni tahlil qilgan holda, mana shu xilma-xil ko‘rinish, shaklda voqelanish sababini ochib beradi. Dialektik tushunilgan substansiallik “munosabat majmuasi” sifatida qaraladi.

Yuqorida sanab o‘tilgan 16 tamoyildan birinchi (Narsaning haqqoniy (obyektiv, mustaqil) alohidalik ekanligi;), ikkinchi (Narsa munosabat majmui), uchinchi (Narsa o‘zgarish va taraqqiyotda), to‘rtinchi (Narsada ichki ziddiyat), beshinchi (Narsa ziddiyat (qarama-qarshilik) butunligi sifatida), oltinchi (qarama-qarshi tomonning voqelanishi) unsuri narsani dialektik o‘rganishning substansiallik tamoyilini o‘rganish bilan aloqador.

Sabab va oqibat ham borliqsagi narsa va hodisalar o‘rtasidagi aloqadorlikni ifodalovchi bir kategoriyadir. Darhaqiqat, dunyodagi narsa va hodisalar o‘zlarining paydo bo‘lishlari, shakllanish va rivojlanishlarida o‘zaro aloqadorlikda bo‘ladi va bu aloqadorlikda biri sabab, ikkinchisi esa shu sabab tufayli yuzaga chiqqan oqibat bo‘ladi. Muayyan hodisalarini yuzaga keltirgan, lekin bevosita sezgi a’zolarimizga berilmaydigan yashirin jihat, mohiyat sabab, u tufayli yuzaga chiqqan, sezgi a’zolarimiz yordamida his qiladigan narsa va hodisalar oqibat sanaladi.

Sabab va oqibat aloqadorligi, sababiyat til sistemasi va uning funksiyasida ham amal qiladi. Xususan, nutqiy jarayonda turli xil fonetik o‘zgarishlar ro‘y beradi. Bu fonetik o‘zgarishlar ham ma’lum sababiyat tufayli maydonga keladi. Chunki til sistemasidagi har bir o‘zgarish ham, shuningdek, bevosita nutqiy jarayon-dagi o‘zgarishlar ham ma’lum sababiyat natijasidir.

Har qanday fonetik o‘zgarishlarning sababi inson- ning talaffuz qilish qulayligiga intilish harakati natijasidir. Sabab talaffuz noqulayligini bartaraf etish, oqibat esa fonetik o‘zgarish, ya’ni qulaylikka erishish. Nutqiy jarayondagi ana shu sababiyatga yosh grammatichilar maktabi

vakillari katta e'tibor berdilar va nutqsagi har bir fonetik o'zgarishlar zamirida yotgan sababni topishga alohida diqqatni jalg qiladilar.

Falsafadagi imkoniyat va voqelik dialektik bog'lanishi ham til va nutq dixotomiyasida yorqin o'z ifodasini topadi. Imkoniyat yuzaga chiqmagan, lekin yuzaga chiqishi mumkin bo'lgan voqelikdir. Uning yuzaga chiqishi voqe liklarni vujudga keltiradi.

Agar bu aloqadorlikni tilshunoslik asosida ko'rib chiqadigan bo'lsak, til-nutq dixotomiyasida barcha til birliklari imkoniyat, ularning nutq jarayonida turli xil moddiy ko'rinishlari voqeliklar sanaladi.

Bulardan tashqari dialektikadagi taraqqiyot qonun- lari: miqdor va sifat o'zgarishlari birligi qonuni, qarama-qarshiliklar birligi qonuni, inkorni inkor qonuni tilda ham amal qiladi.

Dialektikaning bir shakli sinergetikadir. Sinergetika tabiat va jamiyat taraqqiyotida oraliq, o'tkinchi holatlarning bo'lishi mumkinligini e'tirof etadi. U taraqqiyot jarayonida beqaror holat bilan barqaror holat o'rtasidagi qonuniyatga tayanadi. Barqarorlik qonuniyat va sababiyat natijasidir. Uni oldindan bilish, boshqarish mumkin. Barqarorlik hodisaning mohiyatini tushunish uchun unga teran va sinchkov nazar tashlash lozim bo'ladi.

Bunday oraliq holatlar tilshunoslikka ham bevosita dahldordir. Shuning uchun ham ayrim tilshunoslar lingvistik birliklarni o'rganar ekanlar ularni markaziyi va chegara holatlarga ajratadilar. Chegara holatdagi lisoniy birliklarda ikki qutbiy birliklarga xos xususiyatlar aralashgan, tutashgan bo'ladi. Bunday holatni quyidagi sxema orqali tasvirlash mumkin:

2-amaliy mashg'ulot. Tilshunoslikda mantiq tamoyillarining qo'llanilishi

1. Reja asosida quyidagi topshiriqlarni bajaring

1. Tilshunoslik va mantiq munosabati.
2. An'anaviy mantiq.
3. Dialektik mantiq.
4. Oraliq uchinchi qonuniyati

2. Oraliq uchinchi qonuniyatiga morfologik shakllar, so'z turkumlari, gap bo'laklari, qo'shma gaplar, so'z birikmalaridan misollar topib tahlil qiling.

Avvalo, har qanday nutqiy jarayon muayyan nutqiy intensiya (maqsad) asosida shakllanishi, ro'y berishi mumkinligini ta'kidlamoq lozim. Yozma nutqdagagi intensiya avvaldan rejalaشتirilgan, so'zlovchi ongida shakllangan, buning natijasida nutqda tartib kuchayishini keltirib chiqaradi. Ko'p hollarda yozma nutq o'zida tartib omilining kuchayganligi va buning natijasida xaosning susayganligi bilan belgilanadi. Ammo adiblar tomonidan yaratilayotgan asar yozuvchining o'zi uchun ham kutilmagan natijani keltirib chiqarganligi (masalan, Abdulla Qodiriyning «O'tkan kunlar» romanida Kumush o'limi voqeasi adibning o'zi uchun ham kutilmaganligi) yozma nutqda ham xaosning mavjudligi, yondosh omillar ta'sirida sinergetik jarayonning yuz berishini ko'rsatadi. Yozuvchining roman ibtidosidagi «Modomiki biz yangi davrga oyoq qo'yidik, bas, biz har bir yo'sunda ham shu yangi davrning yangiliklari ketidan ergashamiz va shunga o'xshash dostonchiliq, ro'monchiliq va hikoyachiliqlarda ham yangarishg'a, xalqimizni shu zamonning «Tohir-Zuhra»lari, «Chor darvesh»lari, «Farhod-Shirin» va «Bahromgo'r»lari bilan tanishdirishka o'zimizda majburiyat his etamiz. Yozmoqqa niyatlanganim ushbu «O'tkan kunlar» yangi zamon ro'monchiliq'i bilan tanishish yo'lida kichkina bir tajriba, yana to'g'risi, bir havasdir. Ma'lumki, har bir ishning ham yangi – ibridoiy davrida talay kamchiliklar bilan maydong'a chiqishi, ahllarining yetishmaklari ila sekin-sekin tuzalib, takomulga yuz tutishi tabiiy bir holdir. Mana shuning daldasida havasimda jasorat etdim, havaskorlik orqasida kechaturgan qusur va xatolardan cho'chib turmadim».

Adib maqsadini bayon qilar ekan, tarixga murojaat metodologiyasiga tayanganligini e'tirof etadi: «Moziyg'a qaytib ish ko'rish xayrlik deydilar. Shunga ko'ra mavzuni moziydan, yaqin o'tkan kunlardan, tariximizning eng kirlik, qora kunlari bo'lg'an keyingi «xon zamonlari»dan belkuladim». Parchada nutqiy intensiyasi quyidagilardir:

xalqimizni shu zamonning «Tohir-Zuhra»lari, «Chor darvesh»lari, «Farhod-Shirin» va «Bahromgo'r»lari bilan tanishtirish;

«O'tkan kunlar», yangi zamon romanchiligi bilan tanishish yo'lida kichkina bir tajriba qilib ko'rish;

tariximizning eng kir, qora kunlari bo'lgan keyingi «xon zamonlari»ga doir voqelikni tasvirlash.

Ana shu uch intensiyani birlashtirgan yagona maqsad roman konsepsiyasini belgilagan, nutqiy sistemadagi tartibni keltirib chiqargan. Qat'iy tartibga rioya qilish esa asarning muvaffaqiyatini ta'minlagan.

Ajratilgan uch intensiya orasida yadroviy va markaziy darajalilari mavjud. Nazarimizda, «O'tkan kunlar» orqali yangi zamon romanchiligi bilan tanishish yo'lida kichkina bir tajriba qilib ko'rish yozuvchining bosh, yadroviy maqsadi bo'lishi kerak. Buni quyidagilar asosida dalillash mumkin:

Birinchidan, xalqimiz ko'plab ishqiy-intim adabiyot namunalariga ega edi. Zero, muhabbat qadimi tuyg'u, faqat har bir qalb uni yangilaydi (H.Toqtosh). Demak, Otabek va Kumush o'rtaсидаги ishqiy munosabat xalqimiz uchun yangilik emas.

Ikkinchidan, asarda tasvirlangan «tariximizning eng kirlik, qora kunlari bo'lg'an keyingi «xon zamonlari»da yuz bergan voqelar» «yaqin o'tkan kunlar»dan olingan bo'lib, u davrda xalqimiz ularni unutmagan, voqealar haqidagi hikoyalar og'izdan og'izga ko'chib yurar edi.

Shu asosda yangi shaklda (1-intensiya) «eng kirlik, qora kunlari bo'lg'an xon zamonlari»ga doir (2) «Tohir-Zuhra»lari, «Chor darvesh»lari, «Farhod-Shirin» va «Bahromgo'r»lari bilan tanishtirish» (3) adibning asosiy nutqiy intensiyasi deyish mumkin. Butun-qism dialektikasiga tayangan holda yangi shakldagi asar yaratish intensiyasi yadroviy, qolgan ikki intensiyani markaziy intensiya sifatida baholash mumkin.

3-amaliy mashg'ulot. Tilshunoslik va badiy adabiyot munosabati

1. Asar badiiyligini ta'minlashda tilning fonetik imkoniyatlaridan foydalanish bo'yicha tahsil.

Badiiy asarlarda ruhiy holatni yozuvda ifodalash o'ziga xos murakkablikni yuzaga chiqaradi. Qahramonlar ruhiyatidagi ichki hayajon, xursand bo'lish, xafa bo'lish, rozilik, taajjub, yalinish, hayratlanish, kinoya, piching, kesatiq, olqish, so'roq, ta'kid, qoniqmaslik, norizolik, tilak-istik, qo'llab-quvvatlash kabi holatlarni aynan berishda yozuvchilar fonetik birlıklarning estetik xususiyatlaridan foydalanadilar.

She'riyatda asosan, alliteratsiya (undoshlar takrori), assonans (unlilar takrori), geminatsiya (undoshlarni qavatlash) kabi fonetik usullardan foydalaniadi. Nasrda unlilarni cho'zish, undoshlarni qavatlash, tovushlarni takrorlash, so'zlarni noto'g'ri talaffuz qilish, tovush orttirish yoki tovush tushirish kabi fonetik usullar yordamida ekspressivlik ta'minlanadi.

Asar badiiyligini ta'minlashda intonatsiya, pauza, urg'u, ritm va bo'g'in singari fonetik vositalar muhim ahamiyat kasb etadi. Ular nutq jarayonida yuzaga keladi va asosan, she'riy asarlar ta'sir kuchini oshirishga xizmat qiladi.

Intonatsiya (lot. intonare – baland tovush bilan talaffuz qilish, o'qish) – tovushning baland va past ohangi, gapirish uslubi, so'zlarni talaffuz etish usullaridir. Intonatsiya poetik fikrni tinglovchiga jozibali tarzda yetib borishiga xizmat qiladi. Badiiy asarda intonatsiya juda muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir asarning o'ziga xos intonatsiyasi bo'ladi. Nutqning o'ziga xos sintaktik tuzilishi, so'zlarning gapdag'i o'rni, ulardan ayrimlarini pauza bilan, sekin yoki tez talaffuz etilishi turli xildagi intonatsiyani paydo qiladi. San'at asarining intonatsion bir butunligi unda olingan mavzu, g'oya va obrazlar tizimi talablariga butunlay mos bo'ladi. Har bir so'z, intonatsiya, mazmun bilan uzviy bog'liq. She'riy so'z matndagi o'rniga qarab xitob, kinoya, shama, gina, o'pkalash, taajjub, shodlanish, murojaat, g'urur, undov, g'azab singari ma'nolarni anglatadi. Intonatsiya jonli nutqimizda qanchalik rang–barang bo'lsa, poetik nutqda ham shunchalik rang–barangdir.

She'r intonatsiyasi intonatsion davrlar (ikki nuqta o'rtaсидаги mustaqil va tugal jumla) va ular tarkibiga kiruvchi intonatsion bo'laklar (intonatsion davr ichidagi intonatsiya jihatdan mustaqil bo'limgan va ikki pauza o'rtaсидада kelgan nutq birligi) bilan izohlanadi. Masalan:

Hayot kitobimni hexos varaqlab,

Men o'tgan umrga achinmay qo'ydim.

Tabassum o'rnida kuldim charaqlab.

Suyish kerak bo 'lsa, telbacha suydim. (Zulfiya)

Bu bandda uch intonatsion davr va besh intonatsion bo'lak bor. Intonatsiya o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi, balki uni asosan, pauza, urg'u va nutq sur'ati vujudga keltiradi.

Pauza (yun. pausis – to'xtash, tinish) – she'riy nutqda katta rol o'ynaydi. U aksar misralar orasidagi turoqlarning oxiriga tushadi, ayrim so'z yoki so'z birikmalarini bo'rttiradi, ularning ma'no va ahamiyatini ta'kidlaydi, she'riy nutqqa his-hayajon bag'ishlaydi. Ayniqsa, she'rdagi bayt yoki bandlar she'riyatning tugallangan bir bo'lagi sifatida doimo pauza bilan bir-biridan ajraladi.

She'r ritmini tartibli joylashgan nutq bo'laklarining qonuniy takrorlanishisiz yaratib bo'lmaydi, poetik nutqdagi bu bo'laklarni esa pauzasiz tasavvur qilish qiyin. Masalan, Zulfiyaning "Bahor keldi seni so'roqlab" she'ridan bir bandni olib ko'raylik :

*Salqin sahrlarda, bodom gulida,
Binafsha labida, yerlarda bahor,
Qushlarning parvozi, yellarning nozi,
Baxmal vodiylarda, qirlarda bahor...*

Bu to'rtlik 6+5 vaznida. Bunda faqat ikkinchi turoq oxiridagina emas, balki birinchi turoqdan keyin ham pauza paydo bo'ladi. Bu — ritmik pauzadir. Ritmik pauza she'r ritmining bir bosqichini bildirib keladi, ammo u misralar oxiridagi pauzalardan ancha qisqadir. Misra oxiridagi pauza cho'ziqroqdir. Shu sababli kichik turoqdan so'ng keluvchi pauzani kichik ritmik pauza, misra oxirida keluvchi pauzani katta ritmik pauza deb atash mumkin. Pauza misra tugallanishida muhim rol o'ynaydi. Zotan, bo'linishda juda oddiy ko'ringan har bir tovush, har bir so'z faqat intonatsiya bilan o'qilgandagina to'la mazmunni ifodalab o'z ta'sir kuchini namoyon qiladi.

Urg'u – so'zdagi bo'g'in yoki gapdagi so'zlarni ovozni kuchaytirish, tovushni baland qilish yo'li bilan ajratib, bo'rttirib va ta'kidlab o'qishdir. Urg'u she'rdagi so'zlarning ahamiyatiga ko'ra ajratib va bo'rttirib ko'rsatishga, she'rning vazni va oxirini ko'rsatishga xizmat qiladi. Masalan, Zulfiyaning "Uni Farhod der edilar" manzumasidan olingan quyidagi misralarda urg'u misradagi so'zlarning ma'no va intonatsiya jihatdan bo'ladi mustaqilligini bo'rttiradi:

*Daryolardan, bog 'lardan o 'tdim,
Sahrolardan, tog 'lardan o 'tdim.*

Ritm (yun. rhytmos – vazndosh, ohangdosh) – she'r misralaridagi bir-biriga teng nutq bo'laklarining bir tekisda izchil yoxud noizchil takrorlanib kelishidan paydo bo'ladigan ohangdoshlik. Bu ohangdoshlikni biz she'r o'qilayotgan paytdagina his qila olamiz. Ritm she'r musiqiyligini va umuman badiyiligin ta'minlovchi asosiy vositalardan biri. Shu sababli ritmsiz she'rni sira tasavvur qilib bo'lmaydi Aruz va barmoqda she'r "ritm"ini badiiy zarb va bir me'yordagi ha-rakat – marom vujudga keltirsa, erkin she'rda, xususan, sarbast she'rda ritm nutq bo'laklarining notekis harakati va badiiy zarbdan paydo bo'ladi.

Bo'g'in – bir nafas zarbi bilan aytildigan tovush yoxud tovushlar birikmasi, so'zning mustaqil talaffuz qilinishi mumkin bo'lgan bo'lagi. Bo'g'in nutq tovushlaridan tarkib topadi. Bo'g'in tuzilishi, asosan, unli tovushlar bilan bog'liq: so'zda unli tovushlar nechta bo'lsa shuncha bo'g'in bo'ladi. Bo'g'inlar tuzilishiga ko'ra – bir tovushli va ko'p tovushli bo'ladi. Agar bo'g'in bir tovushli bo'lsa, unda, albatta, bir unli tovush bo'lishi shart; ko'p tovushli bo'g'in tarkibida, albatta, bir unli hamda bir, ikki va undan ortiq undosh tovush bo'ladi.

Bo'g'in mumtoz she'riyatimizda "hijo" deb yuritilgan. Aruzda yozilgan she'rda qisqa va cho'ziq hijolar tartibi hal qiluvchi rol o'ynagan. Masalan:

*Orazin yopg'och ko 'zimdin sochilur har lahza yosh,
Bo 'ylakim, paydo bo 'lur yulduz nihon bo 'lg 'och quyosh.*

2. Asar badiyiligin ta'minlashda tilning leksik imkoniyatlarining o'rni

Adabiy asar tili (asosan personajlar nutqi, qisman muallif nutqi)da bir necha g'oyaviy-badiiy maqsadlarda tilning maxsus leksik resurslari – eskirgan so'zlar, neologizmlar, varvarizmlar, vulgarizmlar, dialektizmlar, jargon so'zlar, professionalizm (kasb-korga oid maxsus so'zlar)lar, frazeologizmlar, mahalliy joy bilan bog'liq so'zlar, maqollar-matallar, hikmatli so'zlar, folklorizmlar va boshqalar qo'llaniladi. Asar tilini tipiklashtirishda, davr ruhini aks ettirishda, qahramonlar tilini individualashtirishda, personaj-larning muayyan vaziyatdagi ruhiy kechinmalarini ifodalashda, ularning kasb-kori va ma'naviy saviyasini ko'rsatishda yozuvchiga

maxsus leksik resurslar juda qo'l keladi. Shuningdek, leksik resurslar adabiy asar tilini boyitadi badiiy tilning obrazli va ta'sirchan bo'lishiga ko'mak beradi.

Eskirgan so'zlar. So'z ifodalaydigan tushuncha hayotda yo'qolishi, yoxud shu tushunchani ifodalaydigan boshqa so'z paydo bo'lishi bilan shu xil so'zlar asta-sekin eskirib, muomala munosabatdan chiqa boradi. Bunday so'zlarning kishilarga tushunarli bo'lishi ham borgan sari qiyinlashib boraveradi, hatto, ba'zi eski so'zlarning ma'nolari butunlay tushunarli bo'lmay qolishi mumkin. Bunday so'zlar kitoblarda qo'llanilganda, ularga, albatta, izoh beriladi. Shu xil so'zlar ilmda eskirgan so'zlar deb yuritiladi. "Tarixiy, tarixiy-inqilobiy mavzularagi badiiy asarlar tilida konkret g'oyaviy-badiiy maqsadlarda ana shunday eskirgan so'zlar ham muayyan me'yordi qo'llaniladi. Bunday so'zlar, birinchidan, davr ruhini ifodalashda, ikkinchidan, qahramonlar tilini individuallashtirishda yozuvchiga qo'l keladi. Chunonchi, "O'tgan kunlar" romanida arabcha forscha va eskirgan so'zlar mahorat bilan ishlatilgan. Bu so'zlar XV asr o'rtalaridagi o'zbek tili va shu davrning tarixiy ruhini ifoda qilgan".

Eskirgan so'zlar ikki xil bo'ladi: tarixiy so'zlar va arxaizmlar.

Tarixiy so'zlar – o'tmishda ma'lum tushunchalarni ifodalagan, ammo keyinchalik, shu tushunchalarning o'zi yo'qolib ketishi bilan ularning ifodasi sifatida iste'moldan chiqib ketgan so'zlar. Masalan, yorg'uchaq, faytun, qozi, qalandar, yasovul, charx kabi so'zlar tarixiy so'zlardir.

Arxaizm (yunon. archaios – qadimgi so'z) — faol so'zlar qatorida sinonimi mavjud bo'lgan eski so'zlar. Bu o'rinda so'zning shakli eskirgan, ammo ma'nosi saqlangan, boshqa so'zga ko'chgan bo'ladi. Masalan, *oraz-yuz, dudoq-lab, ulus-xalq, aqcha-pul, firqa-partiya, jumhuriyat-hokimiyat, majmua-to'plam* kabi so'zlarda so'zning birinchi shakli eskirgan, ammo uning ikkinchi shakli hozirgi adabiy tilimizda faol bo'lgan adabiy so'zlar qatorida qo'llaniladi. Shunday so'zlarning birinchi shakllari arxaik so'zlardir.

Neologizm (yunon. neos + logos — yangi so'z) — hayot yangiliklarini ifodalovchi yangi so'zlar, xalq yoki yozuvchi tomonidan yangidan yasalgan so'zlar. Jamiyat taraqqiy etgan sari yangi tushunchalar paydo bo'ladi va ularni yangi so'zlar orqali ifoda qilish ehtiyoji tug'iladi. Natijada yangi so'zlar yuzaga keladi. Chunonchi, *futbol, voleybol, xokkey, elektr, traktor, raketa, sun'iy yo'ldosh* kabi juda ko'p so'zlar o'zbek tiliga keyinchalik kirib kelgan so'zlardir. Masalan,

Dialektizm (yunon. dialektos — sheva) — ma'lum bir joyning aholisi ishlatadigan, boshqalarga u qadar tushunarli bo'lмаган so'z va iboralar. Masalan: adabiy tildagi "hovli" so'zi Farg'ona vodiysida "eshik" deb yuritiladi; *boriboq* (*borgan hamona*) so'zi ba'zi joylarda *boribla* shaklida ishlatiladi. Shuningdek, *qalampir, ishqilib, kelayotir* so'zları Toshkent shevasida *garmdori, haytovur, kevotti* deb ishlatiladi. Bu — dialektizmdir.

Varvarizm (lotin. barbarus — ajnabiy) — boshqa tillardan kelib kirgan so'z va iboralar. Masalan, E.Vohidovning "Matmusaning mehmono'stligi" she'ridan olingan quyidagi bandga e'tibor qaratamiz:

Goh cho'kar, goh ko'rinar.

Dod solar: "Qutqaringiz",

"Spasite", "dast bideh",

"O may frend, xelp mi, pliz".

Vulgarizm (lotin. vulgaris – dag'al) – adabiy tilda ishlatilmaydigan dag'al so'zlar va noto'g'ri tuzilgan jumlalar. Yozuvchilar o'z asarlaridagi ayrim qahramonlarning madaniyatsizligini, dag'alligini va shu asosda qahramon saviyasini kitobxon ko'z oldida yaqqol gavdalantirish, bo'rttirib ko'rsatish uchun ba'zan ularning nutqida vulgarizmdan foydalanadilar. Masalan, shoir E.Vohidov "Matmusaning eshak sotgani" hazil she'ridagi Matmusa nutqida vulgarizmni qo'llash bilan eshakning salbiy jihatlarini bo'rttiradi va bu orqali she'rning ta'sirini kuchaytiradi, badiyligini oshiradi:

Qo'shqavat arqonni ham

Uzar bo'ldi xaromi.

Hangraganda olamni

Buzar bo'ldi xaromi.

Hech kimsa Matmusadek

Qiyin holga qolmaydi.

Bachchag'arning aybini

Atsang, birov olmaydi.

Jargon so'zlar (frans. jargon — buzilgan til) — muayyan ijtimoiy tabaqa yoki kishilar guruhi tomonidan shartli so'zlar va iboralar. Jargon o'zbek tilida *abdal tili* deb ham yuritiladi. O'g'rilar, qimorbozlar, chayqovchilar, otarchilar, chapanilar, poraxo'rlar va boshqa guruhdagi odamlarning o'z jargonlari bo'ladi. Ular o'zaro so'zlashuvda (boshqalardan sir saqdash uchun) sun'iy so'z va shartli iboralar, tilda mavjud bo'lgan so'zlarni shartli, kelishilgan ma'noda ishlata dilar. Masalan, otarchilar "soqqa", "yakandoz", "loy" kabi so'zlarni jargon sifatida qo'llaydilar. Jargon so'zlar udabiy tilni bulg'aydi. Ammo ular badiiy adabiyotda joyini topib ishlatsa, xususan, hajviyada personajlar tilini tipiklashtirishda va individullahtirishda yozuvchiga juda qo'l keladi — xarakter qirralarini ochishga, obrazlarga tabiiylik va haqqoniylig ruhini baxsh etishga xizmat qiladi.

Omonim (yunon. homos — bir xil va onymu — nom) — talaffuzi va yozilishi (shakli) bir xil, amma ma'nolari har xil bo'lgan so'zlar va iboralar. Masalan, *ot* (hayvon), *ot* (buyruq fe'li); *chaqmoq* (tabiat hodisasi), *chaqmoq* (chaqimchilik qilmoq), *chaqmoq* (danakni chaqmoq); *tush* (tush ko'rmoq), *tush* (buyruq fe'li) kabi so'zlarning talaffuzi ham, yozilishi ham bir xil bo'lsa-da, ular matnda rang-barang ma'nolarni ifodalaydi. Bular — omonimlardir. Masalan:

*Qo'lingdan kelgancha chiqar yaxshi ot,
Yaxshilik qil, bolam, yomonlikni ot.
Nasihatim yod qilib ol, farzandim,
Yolg'iz yursa chang chiqarmas yaxshi ot.*

Sinonim (yunon. synonymous — bir xil) — talaffuzi va yozilishi boshqa-boshqa, lekin birlashtiruvchi umumiy ma'nolari bir xil bo'lgan, qo'shimcha ma'no ottenkalari, emotsiyal bo'yog'i va stilistik jihatdan bir-biridan farqlanuvchi so'zlar yoxud iboralar. Masalan, *ko'p, ancha, talay, sonsiz, sanoqsiz, behisob, mo'l, serob, beedad, bisyor* so'zlarining sinonimik lug'atdagi talqinini eslaymiz: "Ko'p so'zi keng tushunchaga ega. U predmetga xos miqdorning kattaligini ifodalash uchun ham, harakatning son jihatdan kattaligini ifodalash uchun ham qo'llaniladi.

Antonim (yunon. Anti — qarshi va onoma — nom) — bir-biriga qarama-qarshi, zid ma'nolarni ifodalovchi so'z va iboralar. *Qish-yoz, issiq-sovuq, yaxshi-yomon, ko'p-oz, do'st-dushman, kecha-kunduz, dono-axmoq, keng-tor, achchiq-chuchuk, yosh-qari, katta-kichik, past-baland, aktiv-passiv, yolg'onchi-rostgo'y, kam-ko'p, olmoq-bermoq, mard-nomard, mehnatsevar-dangasa* kabi bir-biriga zid ma'nolarni tashuvchi so'zlar antonimlardir. Antonimik munosabatga kirishgan ikki so'z **antonimik juft** so'z deb yuritiladi. Antonimik juft so'zlar, odatda, bir so'z turkumidan olinadi. Masalan, *kecha-kunduz* (ot), *issiq-sovuq* (sifat), *ko'p-oz* (ravish), *olmoq-bermoq* (fe'l) kabi".

3. Badiiylikni ta'minlashda tilning morfologik imkoniyatlaridan foydalanish

Til bir ummonki, so'z san'atkori, xususan, shoir va yozuvchilar badiiy asar yaratish jarayonida bu ummon ziynatlaridan unumli foydalanishga harakat qiladilar, tilning hech bir imkoniyatini e'tibordan chetda qoldirmaydilar. Tilning morfologik hodisalari ham bundan mustasno emas, albatta.

Morfologiyada so'z turkumi, unga xos grammatik kategoriya va grammatic shakl, bu shaklni hosil qilish yo'li va vositasi o'rganiladi. Morfologiyaning obyekti, asosan, so'zning shakl yasalishi masalasidir. Bunda esa qo'shimchalar muhim ahamiyatga egadir. Quyida biz poeziyada shoirlarimizning so'z shakllarini yasashlarida qo'shimchalardan foydalanish mahoratlarini ko'rib o'tamiz. Bu shakllar o'zining noodatiyligi va takrorlanmasligi bilan ahamiyatlidir. Fikrimizni dalillash uchun bir necha misol keltiramiz:

*Oltmis yillik umrning hayajonlarin,
To'polonlar, hujumlar, qahqahalarin,
Ko'priklarni, bog'larni, chorrahalarini,
G'azablarni, mehrni, so'z marjonlarini –
Bir lahzada tark etib ko'chdingmi, do'stim?
Shahringning ro'yhatidan o'chdingmi, do'stim? (Maqsud Shayxzoda)*

4. Asar badiiyligini ta'minlashda tilning sintaktik imkoniyatlaridan foydalanish

Til o'z ijtimoiy vazifasini sintaktik qurilma — gap vositasida amalga oshiradi. Tildagi barcha — fonetik, leksik, morfologik hodisalar ana shu sintaktik qurilishlarga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazaridan kelib chiqib aytish mumkinki, adiblarimiz asar yaratayotganda badiiylikni ta'minlashda boshqa unsurlar qatori tilning sintaktik imkoniyatlaridan ham unumli foydalanadilar.

Gap o‘z-o‘zidan paydo bo‘lmaydi, uning grammatic jihatdan to‘g‘riligi va mantiqan tuzilishining xatolardan xoli bo‘lmog‘i muhim ahamiyatga ega. Bunda gapda ishtirok etgan gap bo‘laklari, ularni bog‘lovchi grammatic vositalar, kiritmalar, undalmalar va ular o‘rtasida to‘xtamlarni ta‘minlovchi tinish belgilarini o‘z o‘rnida qo‘llash nutqni yaratuvchi shaxsdan yuksak mahoratni talab qiladi. Chunonchi, bu imkoniyatlaridan unumli foydalanayotgan shoirlar o‘z she‘rlarida gap bo‘laklarining odatdagagi tartibini o‘zgartirish (inversiya), undalmalardan misralarni kengaytirishda foydalanish va tinish belgilarini o‘z o‘rnida ishlatish orqali she‘rning ta‘sirchanligini yanada oshiradilar. Misol uchun, undalma ishtirok etgan she‘r misralariga nazar tashlaylik:

Yurak, sensan mening sozim,

Tilimni nayga jo‘r etding.

Ko‘zimga oyni berkitting,

Yurak, sensan ishqibozim.(Usmon Nosir)

Poetik sintaksisning asosiy vositalari quyidagilar: 1.Sintaktik parallelizm. 2.Emotsional gap. 3.Ritorik so‘roq gap. 4.Inversiya. 5.Ellipsis. 6.Gradatsiya. 7.Antiteza. 8.Farqlash. 9.O‘xshatish.

Sintaktik parallelizm

Badiiy matnda sintaktik jihatdan bir xil shakllangan gaplar ko‘p qo‘llaniladi. Tilshunoslikda bunday qurilmalar parallelizm atamasi ostida o‘rganiladi. **Parallelizm** (yunoncha, parallelos-yonma-yon boruvchi) yonma-yon gaplar, sintagmalarning bir xil sintaktik qurilishga ega bo‘lishi. Masalan: *Oshxona taraf qulog tutadi. Darvoza taraf qulog tutadi. Molxona taraf qulog tutadi. Ovoz qayerdan kelyapti – bilolmaydi* (T.Murod).

Parallelizm qadimda xalq qo‘shiqlarida keng qo‘llanilgan, so‘ng yozma adabiyotga o‘tgan. Parallelizm va saj’ ilk turkiy qofiqyaning paydo bo‘lishiga zamin yaratgan. She‘riyatimizda parallelizmlarning rang-barang turlari ishlatilgan. Chunonchi:

Emotsional gap

So‘zlovchining o‘ta xursandlik yoki o‘ta tushkunlik, ma‘yuslik holatlarini yoki qahramonning his-hayajonini, voqeа va hodisalarga emotsional munosabatini ifodalovchi gaplar emotsional gaplar hisoblanadi. Emotsional gaplar tarkibida maxsus ijobjiy (*chehra, tabassum, o‘ktam*) yoki salbiy (*turq, tirjaymoq, qo‘pol*) bo‘yoqdor so‘zlar mavjud bo‘ladi. Mana shu so‘zlar orqali qahramon ruhiyatida kechayotgan sevinish, shukronalik, quvonch yoki qo‘rquv, g‘azab, hadiksirash kabi psixologik jarayonlarni va yozuvchi yoki shoirning tasvir obyektiga nisbatan subyektiv munosabatini bilib olamiz:

Ko‘zingni o‘ynatma, kulma, qarama,

Nozli nigohlaring kerakmas sening.

Jilmayma, qarama, so‘zlama menga,

Eski afsonani kuylama menga... (Mirtemir)

Ritorik so‘roq gap

Ritorik so‘roq – hayratlanish, zavq-shavq, quvonch, shubha, g‘azab kabi his-tuyg‘ularni ifodalovchi va badiiy matnning emotsional ta‘sir kuchini ta‘minlovchi uslubiy vositalardan biri hisoblanadi. Bunday sintaktik konstruksiylar, odatda, badiiy nutqqa lirik bo‘yoq beradi, uning ta‘sirchanligini oshiradi.

Gap bo‘laklari tartibi

Poetik sintaksisning muhim jihatlaridan yana biri gap bo‘laklari tartibining o‘zgarishidir. Bu holat ilmiy adabiyotlarda inversiya (lot. inversio – o‘rnini almashtirish) hodisasi deb yuritiladi. O‘zbek tilida gap qurilishining odatdagagi tartibiga muuvofiq ega o‘z aniqlovchisi bilan birinchi o‘rinda, kesim esa gapning eng oxirida kelsa, hol kesim oldidan kelishga xoslangan. Ammo bu chegara nisbiydir. Sababi nutq talabiga ko‘ra, masalan, hayajon kuchli bo‘lganda (*Ber kitobimni!*), shior va chaqiriqlarda (*Yashasinadolat!*) va mantiqiy urg‘u talabi bilan (*Ayting o‘zingiz!*) gap bo‘laklari tartibining o‘zgarishi kuzatiladi. Gapda so‘zlarning joylashish tartibining buzilish hodisasi inversiya deyiladi. Bu holat badiiy nutqda, ko‘pincha, she‘riyat asarlarda ko‘zga tashlanadi. Masalan:

Vodiylarni yayov kezganda,

Bir ajib his bor edi manda...

Chappar urib gullagan bog‘in,

Ellipsis

Ellipsis (yunon. elleipsis – tushirib qoldirish, so'z tejash) — asar tilida so'zlarni tejab ishlatish usuli hisoblanadi. U yoxud bu fikrni ifodalash uchun eng zarur so'zlarnigina ishlatish, ikkinchi darajali so'zlarni ongli ravishda tushirib qoldirish yo'li bilan shoirlar lokanizmga erishadilar. Ellipsis xuddi mana shu holatning o'zginasidir. Masalan, Abdulhamid Cho'lponning "Xalq" she'ri:

Xalq dengizdir, xalq to'lqindir, xalq kuchdir,

Xalq isyondir, xalq olov, xalq o'chdir...

bayti bilan boshlanadiki, bu bayt ellipsisning ajoyib namunasidir.

Gradatsiya

Gradatsiya (lot. gradatio — zinapoya) — tasvir obyekti (ma'nosi)ning misradan misraga (so'zdan so'zga) o'tgan sari kuchayib borishini ifodalovchi so'zlar (o'ziga xos gap tuzilishi). Gradatsiya erkin she'rda, oq she'rda, sochma she'rda ko'proq uchraydi. Gradatsiya bo'lib kelgan so'zlar she'r to'qimasidan ko'pincha zinapoya tartibda joy oladi. Gradatsiya ikki ko'rinishga ega:

Klimaks — tasvir obyektining ma'nosi yoxud ehtiroslar oqimining misradan misraga, so'zdan so'zga o'tgan sari kuchayib, zo'rayib borishi hisoblanadi. Masalan, G'afur G'ulomning "Sen yetim emassan" she'ri.

Antiklimaks — misradan misraga, so'zdan-so'zga o'tgan sari tavsir obyekti va uning ma'nosi yoxud ehtiroslar oqimining susayib borishidir. Misol uchun shoir Erkin Vohidovning "Asablar" she'ri.

Antiteza

Antiteza (yunon. antithesis – qarama-qarshi qo'yish, zidlash) deb mantiqiy jihatdan qiyoslanuvchi fikr, tushuncha, sezgi va timsollarni qarama-qarshi qo'yish, zidlash hodisasiiga aytildi. Voqeа-hodisalar mohiyatidagi ziddiyatni ochish uchun asosan, badiiy nutqda zid ma'noli qo'shimchalar, zidlovchi bog'lovchilar, so'z va iboralardan foydalanadi. "Zidlashda voqeа, hodisa, belgilarni o'zaro zid qo'yib shulardan birining belgisi alohida ta'kidlanadi. Zidlash hodisasi ham ikki komponentdan iborat bo'ladi va keyingi komponentdan anglashilgan mazmun ta'kidlanadi. Demak, zidlashda ikki qism mavjud: zidlovchi qism va zidlash asosida ta'kidlanuvchi qism."

Farqlash

Farqlash deb ikki narsa – buyum, voqeа – hodisa yoki holatlardagi differensial belgini aniqlashga aytildi. Farqlash ham qiyos va chog'ishtirishga asoslanadi. Ifoda usuliga ko'ra antitezaga yaqin, lekin antitezada mantiqiy jihatdan qarama-qarshi bo'lган ikki qutb qiyoslanadi. Farqlashda esa biri ikkinchisini rad etadi yoki inkor qiladi. Tasviriy vosita farqlashda belgilar qaysi xususiyatiga ko'ra farq qilayotganligi aniqlanadi. O'xshatish ham qiyosga asoslanadi, biroq o'xshatishda integral belgilar idrok qilinadi. Farqlashda esa qiyos asnosida o'rtaga chiqadigan fundamental tafovut nazarda tutiladi. Farqlashning ifoda unsurlarini quyidagicha tartiblash mumkin: 1)farqlash subyekti; 2)farqlash nisbati; 3)farqlash asosi; 4)farqlashni yuzaga keltiruvchi shakli belgilar; 5)farqlash natilasi.

O'xshatish

Keling, avvalo olimlarimizning o'xshatish haqidagi ta'riflarini eslaymiz: "O'xshatish deb ikki narsa yoki voqeа-hodisa o'rtasidagi o'xshashlikka asoslanib, ularning biri orqali ikkinchisining belgisini, mohiyatini to'laroq, aniqroq, bo'rttiribroq ifodalashga aytildi". Bu ta'rifdan kelib chiqib aytish mumkinki, o'xshatish ikki voqeа-hodisa yoki predmetning turli jihatlarini o'zaro qiyoslab ta'riflashdir. O'xshatishlar eng qadimiy tasvir vositalaridan biri sifatida nutqimizda, ayniqsa, badiiy adabiyot tilini bezashda, tasvirning anqligi va obrazlilagini ta'minlashda foydalanib kelinadi. Adabiyotlarda har qanday o'xshatish munosabati tilda ifodalanan ekan, albatta, to'rt unsur nazarda tutiladi, ya'ni: 1) o'xshatish subyekti; 2) o'xshatish etaloni; 3) o'xshatish asosi; 4) o'xshatishning shakliy ko'rsatkichlari. Masalan, [Anvar tulki day ayyor bola] gapida Anvar – o'xshatish subyekti; tulki - o'xshatish etaloni; ayyor - o'xshatish asosi; -day — o'xshatishning shakliy ko'rsatkichi hisoblanadi.

Tinish belgilari poetik sintaksis unsuri sifatida. So'nggi yillarda yuqorida sanalganlar bilan bir qatorda tinish belgilaringin ham muallif ijodiy maqsadini bayon qilishdagi roli ortib bormoqda. Bugungi davr ijodkorlarining bir guruhi tinish belgilaridan badiiy vosita sifatida foydalanishda o'z

mahoratini namoyon qilayotgan bo'lsa, yana bir guruhi tilning ko'pgina ilmiy meyorlari, jumladan, tinish belgilari xizmatidan ham butunlay voz kechish orqali o'z uslubini yaratishga urinmoqda.

Quyidagi she'rda ko'p nuqta va undov belgisi she'rning badiiy qimmatini oshirish bilan birga, undan anglashilayotgan mazmunning yanada bo'rttirilishiga xizmat qilayotganini kuzatish mumkin:

Osmon baravar plan berdilar.

– *Bajarasan! – dedilar.*

– *Bajarolmayman, – dedi.*

– *Bajarasan!! – dedilar.*

– *Bajarmayman!! – dedi.*

– *Qamalasan!!! – dedilar.*

Bajardi... Bola-chaqasi ko'p edi...

Orden berdilar... Planni oshirib bajargani uchun...

Bola-chaqasi ko'p edi... (O'.Hoshimov)

Ko'rinib turibdiki, undov belgisi sonining ortib borishi matnda u birga qo'llangan so'z tashiydigan ma'noning kuchayib borishiga sabab bo'lган bo'lsa (*Bajarasan! Bajarasan!! Qamalasan!!!*), ko'p nuqta ilojsizlik (*Bajardi...*), aytilmagan sabab (*Bola-chaqasi ko'p edi...*), oqibat (*Keyin... qamadilar... Qo'shib yozgani uchun...*), afsus (*Bola-chaqasi ko'p edi...*) kabi qo'shimcha emotsiyal-ekspressiv bo'yoq berib ta'sirchanlikni oshirish uchun xizmat qilish bilan birga yozuvchiga jumlalarni ixcham bayon qilish imkonini bermoqda.

Tinish belgilarining poetik imkoniyatlari punktuatsiya va adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan tadqiq etilganda yanada oydinlashadi.

Tiredan individual foydalanish, ayniqsa, qisqa, lo'nda nutqli mualliflarda seziladi. Deylik, Tog'ay Murot uslubida tirening faolligini oshirish nutq vositalalarini "iqtisod qilish" bilan bog'liq: *Sizga yolg'on, menga chin. Manavi barmoqlarim bilan sanab aytaman: ovozlarning ichida cholnikiyam bor – bir! Yoshnikiyam bor – ikki! Momonikiyam bor – uch! Qiznikiyam bor – to'rt! Chaqaloqnikiyam bor – besh! Xo'-o'sh, beshta bo'ldimi?* (T.M.) X.Do'stmuhammad esa nutq vositalalarini tejashda ko'p nuqtadan o'rinli foydalanadi: *Faqat, ko'pdan buyon ko'nglimga tugib yurgan orzum-armonim hurmati so'nggi marta xat yoza qolay.....; Mayli, ularning soni ko'paygandan-ko'paysin, ammo Siz yolg'iz meni , xo'p?*

Kel, oqibatli Do'st, beg'ubor tuyg'ularimiz qissasiga g'oyatda oddiy, lekin bag'oyat yuksak maqomdagи so'zsiz savol-javobimiz nuqta vazifasini o'tasin:

—

— ...-? ?

—! ("Men – sensiz, Sen – mensiz")

X.Do'stmuhammad uslubida tinish belgilarining o'ziga xos tarzda qator ishlatilishi ham muallif individualligini belgilab beradi: – *Qayerdasaannn?????!!!! – deya oh chekadi. Tap topmay takrorlayveradi: – Qayerdasaannn?????!!!!* ("Men – sensiz, Sen – mensiz")

Keyingi davr yozuvchilari uslubida jahon adabiyoti ta'sirida tinish belgilaridan butunlay voz kechishni maxsus uslubiy qo'llanish sifatida ko'rish mumkin:

kim o'ylab topgan ekan bu so'zni

idishga o'xshash bir so'z

nimani joylasang joylashaverar

bemor ishtahasiday

Nozik emas so'zning ta'bi u qadar (Faxriyor)

Yozuvda tinish belgilarining o'rinli ishlatilishi nafaqat yozuv egasining, balki millatning saviyasini, yozuv madaniyatini ko'rsatib turadi. Muallif punktuatsiyasi muallifga mayjud har qanday qonuniylardan chetga chiqish – punktuatsion tizimni buzish emas, balki badiiy ifodani yaratishda qo'shimcha vositalardan foydalanish imkonini berish demakdir.

4-amaliy mashg'ulot. Tilshunoslik va badiiy san'atlar

Topshiriqlar

1. Lafziy san'atlarni hosil qilishda til birliklaridan foydalanish yuzasidan mashqlar bajarish
2. Ma'naviy san'atlari va ularni hosil qilishda til vositalarining o'rnini yuzasidan mashqlar bajarish

Til bir ummonki, so‘z san’atkorlari, xususan, shoir va yozuvchilar badiiy asar yaratish jarayonida bu ummon ziynatlaridan unumli foydalanishga harakat qiladilar, tilning hech bir imkoniyatini e’tibordan chetda qoldirmaydilar. Tilning morfologik hodisalari ham bundan mustasno emas, albatta.

Morfologiyada so‘z turkumi, unga xos grammatik kategoriya va grammatik shakl, bu shaklni hosil qilish yo‘li va vositasi o‘rganiladi. Morfologiyaning obyekti, asosan, so‘zning shakl yasalishi masalasidir. Bunda esa qo‘srimchalar muhim ahamiyatga egadir. Quyida biz poeziyada shoirlarimizning so‘z shakllarini yashashlarida qo‘srimchalardan foydalanish mahoratlarini ko‘rib o‘tamiz. Bu shakllar o‘zining noodatiyligi va takrorlanmasligi bilan ahamiyatlidir. Fikrimizni dalillash uchun bir necha misol keltiramiz:

*Oltmish yillik umrning hayajonlarin,
To ‘polonlar, hujumlar, qahqahalarin,
Ko ‘priklarni, bog ‘larni, chorrahalarin,
G ‘azablarni, mehrni, so ‘z marjonlarin –
Bir lahzada tark etib ko ‘chdingmi, do ‘stim?
Shahrinng ro ‘yhatidan o ‘chdingmi, do ‘stim? (Maqsud Shayxzoda)*

Til o‘z ijtimoiy vazifasini sintaktik qurilma – gap vositasida amalga oshiradi. Tildagi barcha – fonetik, leksik, morfologik hodisalar ana shu sintaktik qurilishlarga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan kelib chiqib aytish mumkinki, adiblarimiz asar yaratayotganda badiiylikni ta’minalashda boshqa unsurlar qatori tilning sintaktik imkoniyatlaridan ham unumli foydalanadilar.

Gap o‘z-o‘zidan paydo bo‘lmaydi, uning grammatik jihatdan to‘g‘riligi va mantiqan tuzilishining xatolardan xoli bo‘lmog‘i muhim ahamiyatga ega. Bunda gapda ishtirok etgan gap bo‘laklari, ularni bog‘lovchi grammatik vositalar, kirimtalar, undalmalar va ular o‘rtasida to‘xtamlarni ta‘minlovchi tinish belgilarini o‘z o‘rnida qo‘llash nutqni yaratuvchi shaxsdan yuksak mahoratni talab qiladi. Chunonchi, bu imkoniyatlaridan unumli foydalanayotgan shoirlar o‘z she’rlarida gap bo‘laklarining odatdagи tartibini o‘zgartirish (inversiya), undalmalardan misralarni kengaytirishda foydalanish va tinish belgilarini o‘z o‘rnida ishlatalish orqali she’rning ta’sirchanligini yanada oshiradilar. Misol uchun, undalma ishtirok etgan she’r misralariga nazar tashlaylik:

*Yurak, sensan mening sozim,
Tilimni nayga jo ‘r etding.
Ko ‘zimga oyni berkitding,
Yurak, sensan ishqibozim. (Usmon Nosir)*

5-amaliy mashg‘ulot. Psixoterapiyada nutq va intonatsiyaning o‘rni Topshiriqlar

1. Tilshunoslik va psixoterapiya munosabati yuzasidan badiiy asarlar asosida tahlil.
2. Psixoterapiya va notiqlik san’ati munosabati yuzasidan badiiy asarlar asosida tahlil.
3. Tilshunoslik va psixiatriya munosabati yuzasidan badiiy asarlar asosida tahlil.
4. Tilshunoslik va psixiatriya kesishmasida turli ruhiy kasallikkarda nutqiy xususiyatlarni tadqiqi.

Psixolingvistikidan biri til birliklari ortida yashiringan psixologik omillarni matnning lingvistik xususiyatlari bilan uyg‘unlikda o‘rganishdan iboratdir. Psixologiyaga doir adabiyotlarda inson emotsiyasi affekt (kuchli, lekin qisqa muddatli emotsiyalerni), hissiyot (uzoq va turg‘un emotsiyalar), kayfiyat va stress (kuchli ruhiy zarba) kabi turlarga bo‘lib o‘rganiladi. Tabiiyki, badiiy adabiyot bu emotsiyalarning barcha turlarini ifodalash imkoniga ega.

Psixolingvistikada o‘ziga xos yo‘nalish yaratgan V.P.Belyanin o‘zining “Osnovi psixolingvisticheskoy diagnostiki (modeli mira v literature)” nomli kitobida matnni psixolingvistik tahlil qilib, matnda ifodalangan emotsiya turlariga ko‘ra ularni 6 turga ajratadi: 1) yorug‘ matnlari; 2) qorong‘i matnlari; 3) qayg‘uli matnlari; 4) quvnoq matnlari; 5) chiroyli matnlari; 6) murakkab matnlari. Uning “Psixologicheskoye literaturovedeniye” nomli kitobida bu fikrlar yanada chuqurlashtirilib, badiiy matnlari psixiatrik adabiyotshunoslik nomli yangi yo‘nalish nuqtai nazaridan tahlil qilingan.

O‘zbek badiiy prozasida ham insoniy hissiyotlar ifodasi berilgan mikromatnlari ko‘plab uchraydi. Biz tadqiqotimizning ushbu qismida, Belyanin izidan borib, turli hissiyotlarning ifodalinishida qanday til birliklari aktuallashishini tahlil etishga urinib ko‘ramiz.

Matnda psixologik holatlarni ifodalashda assotsiativ so‘zlar ham muhim o‘rin egallaydi. Bunday so‘zlar matnda o‘ziga xos assotsiativ maydon hosil qilib, matn o‘quvchisining ruhiyatida ham muayyan holatni yuzaga keltiradi. Bunday holatning yuzaga kelishiga matnda qo‘llangan, psixologik jihatdan o‘zaro aloqador bo‘lgan so‘zlar haqidagi obrazlarning qayta tiklanishi sabab bo‘ladi.

6-amaliy mashg‘ulot. Tilshunoslik va sotsiologiya Topshiriqlar

1. Tilshunoslikning sotsiologiya bilan aloqasi yuzasidan tahlil.
2. Sotsiolingvistika yuzasidan badiiy asarlar asosida tahlil.
3. Til vaziyatlari yuzasidan badiiy asarlar asosida tahlil.

Ma’lumki, so‘zlar o‘z ma’nosi bilan inson psixikasiga ta’sir etish xususiyatiga ega. Inson o‘z xotirasida so‘zlarning ma’nolari bilan birga ularning obyektiv olamda o‘z sezgi a’zolari orqali his etgan xususiyatlari haqidagi ma’lumotlarni ham saqlaydi. Shu sababli muayyan so‘z uni eshituvchi odam xotirasida muayyan assotsiatsiyalarni paydo qiladi. Agar matnda bir assotsiativ maydonga kiruvchi so‘zlar qo‘llangan bo‘lsa, ular o‘quvchi psixikasiga yanada kuchliroq ta’sir etadi. Quyidagi matnga e’tibor bering: *Unsin xuddi dadasidan katta hayitlik olib bozorboshiga ketayotgan yosh boladay chopqillab, qarshisidan esayotgan shamolga so‘z bermay, ba’zan irg’ishlab borar edi; biroq go’riston ko’chasiga burilib, salobat bilan tebranayotgan qop-qora chinor ostida oqarishib turgan sag‘analarni, belgisiz zulmatni ko’rganda yuragi uvushdi-yu, zovur ko’prigidan o’tib, ikki qadam yurgancha to’xtab qoldi. Dahshat uning yuragiga rahna soldi: Ganjiravon, ota-onasi, dugonalari xayolidan ko’tarilib, ko’z oldiga oppoq kafanga o’ralib sag‘ana va go’rlar atrofida yelib yurgan arvoхlar keldi. Uning eti jivirlashib, sochi boshidagi ro’molini bir qarich ko’targanday bo’ldi. Unsin beixtiyor bir qadam orqaga chekindi, lekin shu ondayoq xuddi o’likdan qo’rmasligini birovga pisanda qilayotganday, baqirib: “O’likning joni yo’q, o’likning joni yo’q!” – deb olg’a intildi. Shu yugurbanicha chinor ostidagi Onhazratim sag‘anasi oldida to’xtadi; choynak bilan qumg‘onni oyog‘i ostiga qo’ydi, paranji-chimmatini bir chekkaga tashladi, ichida: “Ko’pi ketib ozi qoldi”, - deb suyundi.* (A.Qahhor. “Dahshat” hikoyasi)

Demak, adabiyotshunos olimlar tomonidan “so‘z sehri” deb ta’riflanuvchi ushbu jarayon ma’lum ma’noda o‘z moddiy asosiga ega, deyish mumkin. Bunda matn o‘quvchisining tezaurusi, so‘zni va ohangni his etish salohiyati, shuningdek, muayyan adabiy jarayon meyorlari haqidagi bilimi ham muhim ahamiyatga ega. Bu borada matn muallifi va o‘quvchi teng darajada bo‘lmas ekan, o‘quvchi matnda ifodalangan badiiy mazmunni hech qachon uning muallifi darajasida anglab yetolmaydi.

7-amaliy mashg‘ulot. Tilshunoslik, antropologiya va tarix Topshiriqlar

1. Tilshunoslikning antropologiya bilan aloqasi yuzasidan tahlil.
2. Nutqning kelib chiqishi haqida tilshunoslar va antropologlar qarashlari yuzasidan tahlil.
3. Nutqning paydo bo‘lish bosqichlari yuzasidan tahlil.
4. Nutq ontogenezi yuzasidan tahlil..

Hissiyot ifodasi berilgan mikromatnlar badiiy asarlarda turli holatlar vositasida yuzaga keltiriladi. Ulardan asosiyлари, bizningcha, quyidagilardan iborat:

1. Asar personajining ruhiy holati uning nutqidan anglashiladi:

Nahot, Siz yoki Sizga nisbatan ko’nglimda tug‘ilgan telba muhabbat faqat va faqat o‘zimning ustimdan kulish uchun yaralgan bo‘lsa?! Biron kimsaga lom-lim deb og‘iz ocholmayman, achchiq-achchiq kulaman, xolos. Sog‘inchning zo‘ridan ezilib-kichrayib, holsizlanib qolgan lahzalarda – bedor tunlar yurak dukuridan o‘zga hamroh topolmay alamdan avval o‘zimga malomat toshlarini yog‘diraman, so‘ng Sizni ayplashga o’taman. Ayblayman... ardoqlayman... sog‘inaman... O‘zimni zo‘rlab bo‘lsa-da, Sizni eslamaslikka, ismingizu suratingizni xotiramda tiklamaslikka urinaman va harchand uringanim sari... Sizni avvalgidan ko‘ra qattiqroq yaxshi ko‘rib qolaman, avvalgidan ko‘proq va tezroq sog‘inaman. Sizga atalgan qaynoq ehtiroslarimni

avvalgidan ko'ra yonib-toshib izhor etish ehtiyoji ortib boradi... (X.Do'stmuhammad. "Hijronim mingdir mening" qissasi)

2. Personajning ruhiy holati asar muallifi nutqi vositasida beriladi. Bunda muallif quyidagi usullardan foydalanadi: a) personajning ruhiy holatini bevosita bayon qiladi:

Eshikdan qoqinib-surinib Salohiddin zargar kirdi va uydan chiqayotgan tabibga to'qnashib yiqilib tushdi. Tabib uni o'rnidan turg'izmoqchi bo'lgan edi, chol uning qo'lini siltab tashlab, o'ksib yig'laganicha o'zini murda ustiga tashladi:

– Bo'stonimning guli! Ochilmay so'lgan g'uncham! Sen o'lguncha men o'lsam bo'lmasmu? Qari qo'yday ma'ratib, qari buvangni kimga tashlab ketmishsen, qo'zichog'im?.. Inongan farzandim sen eding! Endi bu davlat, bu xonumonim kimga qolur, oltinim? Kimga?..

Mushtdekkina bo'lib qolgan zargarning go'daklarcha faryodi Ali Qushchini titratib yubordi. Ko'zida g'ilt-g'ilt yosh, u devorga suyanganicha garangsib turardi. (O.Yoqubov. "Ulug'bek xazinası" romani);

b) personajning jismoniy xatti-harakatlarini tasvirlash orqali uning ruhiy holatiga ishora qiladi. Ma'lumki, inson ruhiyatidagi biror o'zgarish, masalan, quvonish, xafa bo'lish, qo'rquvga tushish va shu kabi turli holatlar uning zohiriyo ko'rinishida namoyon bo'ladi. Masalan, inson noxush xabarni eshitganda rangi oqarib ketishi, uyalganida qizarib ketishi, qo'rqqanida tizzalari qaltirashi tabiiy holatdir.

8-amaliy mashg'ulot. Til bilan boshqa belgilar tizimining o'xshashlik va farqli jihatlari.

Axborot va signal tushunchasi

Topshiriqlar

1. Tilning belgilar sistemasi ekanligi yuzasidan tahlil.
2. Lingvistik belgi kishilarning obyektiv olam haqidagi bilimlarini boshqalarga uzatish vazifasini bajarish bilan birga, so'zlovchining bu axborotga mu nosabatini va, ayni paytda, tinglovchiga ta'sir qilish vazifasini ham bajarishi yuzasidan tahlil.
3. Til bilan boshqa belgilar tizimining o'xshashlik va farqli jihatlari yuzasidan tahlil. Tilshunoslik va axborot nazariyasi yuzasidan tahlil.
4. Til – muloqot va fikr bildirish vositasi yuzasidan tahlil.
5. Millatlararo belgilar yuzasidan tahlil.
6. Shartlilik elementlari yuzasidan tahlil
7. Abstrakt va fonetik belgilar yuzasidan tahlil.

Badiiy matnda muayyan shaxs ruhiy holatini bevosita tasvirlashdan ko'ra ana shu holatga ishora qiluvchi jismoniy o'zgarishlarni ifodalovchi birliklarni berish nisbatan ko'p kuzatiladi. Aytish mumkinki, bunday birliklar hatto stereotip birliklarga aylanib qolgan. Buni quyidagi izohlarda ko'rish mumkin:

–ko'zları charaqlamoq – xursand bo'lmoq
–tizzalari bo'shashib ketmoq – ruhan tushkunlikka tushmoq
–yuzi oqarmoq – noxush xabardan o'ta ta'sirlanmoq
–yuzi qizarmoq – uyalmoq, qattiq hayajonlanmoq
–oyog'ini sudramoq – umidsizlikka tushmoq
–o'rnidan sakrab turmoq – biror narsadan o'ta hayajonlanmoq
–qo'llari qaltiramoq – o'ta qo'rmoq yoki o'ta asabiy lashmoq
–eti jimirlamoq – biror hodisadan o'ta ta'sirlanmoq
–ovozi qaltiramoq – hayajonlanmoq
–yuragi dukullamoq – o'ta hayajonlanmoq
–yerga qaramoq – uyalmoq

Quyida berilgan matnlarda mana shu vositalar qo'llanilganini ko'rish mumkin:

– Onabibi!

Hech kim javob bermadi. Qo'shnining iti vovilladi, xolos.

Orif aka birdan majolsizlangan oyog'ini bazo'r sudrab uyga qarab intildi. (A.Muxtor. "Chinor" romani)

Matnda qo'llangan oyog'ini bazo'r sudramoq birikmasi roman personajlaridan biri bo'lgan Orif akaning asrab olgan qizi Onabibi haqiqiy otasi bilan ketib qoldi, deb o'ylab, birdan umidsizlikka tushib qolish holatiga ishora qilgan.

O'zining mundan keyingi ko'rguliklarini fojia'lar vodiysida ko'rgan qo'rboshi boshlab kishan kalidini qutidor qo'liga soldi. Kalidni burar ekan, uning qo'li dir-dir qaltiramoqda edi. Homidning noma'lum bir g'arazi yo'lida qurban qilinayotg'an va bu g'arazda o'zining ham ishtirokining borlig'ig'a qoyil bo'lg'on qo'rboshi ishni bu yanglig' akslanishidan sirning ochilg'anini muqarrar bilib, o'zini shu soat jallod qo'lig'a topshirilishini aniq kutmakda edi. (A.Qodiriy. "O'tkan kunlar" romani)

Bu matnda esa siri ochilib qolishdan benihoya qo'rquyotgan qo'rboshining holati qo'li dir-dir qaltiramoqda edi birikmasi vositasida ko'rsatib berilgan.

Badiiy asarlarni kuzatish natijasida aytish mumkinki, ohang insonning affektiv holatini tasvirlashda eng aktual birlik sifatida namoyon bo'ladi. Quyidagi matnlarga e'tibor bering:

Ikromjon hamon uning duch kelgan joyiga mushti solardi. U mushtlardi-yu, allaqanday xunuk ovoz bilan baqirardi:

— *Onang qandoq xotin edi! Qandoq xotin edi! Nomard! Ona qabrga qo'yilayotganda ko'rib turib yoniga borolmagan, oqpadar! O'z qo'li bilan tuproqqa qo'yishdan qochgan, yaramas! Onang qandoq xotin edi-ya! Sen juvonmargga qandoq mehr qo'ygan edi-ya! Sen uni o'ldirding! O'zing o'ldirib, yana o'zing uni tuproqqa qo'yganlarini tomosha qildingmi? Iflos!* (S.Ahmad. "Ufq" romani)

Yuqoridaq matnda ajratib ko'rsatilgan so'zlarga e'tibor beradigan bo'lsak, ularning alohida ohang bilan aytlishini sezish mumkin. Albatta, bunday ohangni yozuvda ko'rsatib berishning iloji yo'q. Shu sababli bunday holatlarda retsipyentning ohangni his qilish salohiyati muhim ahamiyat kasb etadi.

9-amaliy mashg'ulot. Tilshunoslikning biologiya va fiziologiya bilan munosabati


Topshiriqlar

1. Tilshunoslikning biologoya bilan aloqasi yuzasidan tahlil.
2. I.M.Sechenov va I.P.Pavlovning ta'limotining tilshunoslikka ta'siri.
3. Tilshunoslikning fiziologiya bilan aloqasi yuzasidan tahlil.
4. Nutq mexanizmi.
5. Neyrolingvistika fanning ma'lumotlariga tayangan holda nutqdagi norma va patologik holatlarining tahlili.
6. Nutqiy patologiya. Afaziyalar va ularning turlari.

Fonetikaning anatomik-fiziologik aspektida fonetik birlıklarning biologik asosi - inson organizmidagi ayrim a'zolarning nutq tovushlarini hosil qilishdagi harakati-holati, shu a'zolarning tuzilishi, o'rni tadqiq qilinadi. Shunga ko'ra bu aspekt artikulyatsion fonetika deb ham yuritiladi.

Nutq tovushlarining biologik asosini quyidagi turlarga bo'lish mumkin: 1) nutq a'zolarining anatomiyasi; 2) nutq a'zolarining fiziologiyasi; 3) nutq a'zolarining ijro kechimi.


1. Nutq a'zolarining anatomiyasi deyilganda shu a'zolarning shakli, tuzilishi, joylashgan o'rni nazarda tutiladi. Bunday a'zolar quyidagi apparatlarga birlashadi:



a) nafas apparati – o'pka, bronxlar, traxeya, diafragma, ko'krak qafasi (1-rasm). Bu apparat a'zolari tovush hosil qilish uchun zarur bo'lgan havo oqimini boshqa a'zolarga yetkazib beradi, shu ma'noda havo manbai sanaladi;

1-rasm. Nafas apparati: 1-qalqonsimon tog‘ay; 2-uzuksimon tog‘ay; 3-kekirdak (traxeya); 4-bronxlar; 5-bronxlarning uchki tarmoqlari; 6-o‘pkaning tepe qismi, 7- o‘pkaning tag (ost) qismi.


b) bo‘giz bo‘shligi – traxeyaning yuqori (kengaygan) qismi (2 va 3 - rasmlar). Unda un paychalari, uzuksimon, qalqonsimon, cho‘michsimon, ponasimon, shoxsimon tog‘aylar mavjud. Bu apparatdagi eng faol a’zolar un (ovoz) paychalaridir;



2-rasm. Bo‘g‘iz (hiqildoq):

A – bo‘g‘izning old tomoni: 1-qalqonsimon tog‘ay; 2-uzuksimon tog‘ay; 3-til osti suyagi; 4-qalqonsimon tog‘ayni til osti suyagiga ulab turuvchi pay; 5-uzuksimon tog‘ay bilan qalqonsimon tog‘ay o‘rtasidagi pay; 6-kekirdak (traxeya).


B – bo‘g‘izning orqa tomoni: 1-qalqonsimon tog‘ay; 2-uzuksimon tog‘ay; 3-qalqonsimon tog‘ayning yuqori shoxlari; 4-qalqonsimon tog‘ayning quyi shoxlari; 5-cho‘michsimon tog‘aylar; 6-bo‘g‘iz qopqog‘i; 7-traxeyaning pardasimon (orqa) qismi.



3-rasm. Bo‘g‘izning ko‘ndalang kesilgandagi ko‘rinishi:

1-qalqonsimon tog‘ay; 2-cho‘michsimon tog‘aylar; 3-un (ovoz) paychalarining qirralari; 4-ovoz paychalari orasidagi tirkish.

- un paychalari tinch holatda turganda, ularning oralig‘i yumuq bo‘ladi, natijada nafas apparatidan kelayottan havo oqimi paychalarini tebratmay o‘tadi. Bunday vaziyatda ovoz hosil bo‘lmaydi (4-rasmning a ko‘rinishi);



4-rasm. Ovoz paychalari orasidagi tirkish ko‘rinishlari:

a-yopiq (yumuq) holat; b-ovoz holati; v-shivirlash (pichirlash) holati; g-nafas chiqarish holati; d-nafas olish holati.


-ovoz paychalari tortilgan (taranglashgan)da, o‘pkadan kelayotgan havo oqimi taranglashgan un paychalariga urilib, davriy tebranishni yuzaga keltiradi. Bunday tebranish ovozni (asosiy tonni) hosil qiladi (4-6 rasm). Shuning uchun bo‘g‘iz bo‘shlig‘i ovoz manbai hisoblanadi. Ovoz esa unli tovushlarni, jarangli va sonor undoshlarni shakllantirishda fizik-akustik komponent sifatida qatnashadi;

-ovoz paychalari bo‘shroq tortilgan holatda shu paychalar orasida torroq bo‘shliq yuzaga keladi, havo oqimi shu bo‘shliqdan sirg‘alib, ishqalanib o‘tadi, ammo un paychalarini tebratmaydi, natijada shovqin hosil bo‘ladi, bu shovqin pichirlab yoki shivirlab gapirganda qo‘llanadi (4-v rasm).

v) halqum – bo‘g‘izdan yuqoriroqda joylashgan bo‘shliq. U uch qismidan iborat: pastki qismi - hiqildoqqa (bo‘g‘izga) tutashgan o‘mi; o‘rta qismi - halqumning og‘zi. Bu qism og‘iz bo‘shlig‘i tomonga ochilgan bo‘ladi: yuqori qismi - burun bo‘shlig‘iga va eshitish paylariga birikkan (tutashgan) qismi;


g) og‘iz bo‘shligi – til, kichik til, tishlar, lablar, lunjlar, qattiq va yumshoq tanglaylar, til osti muskulidan iborat apparat. U orqa tomonidagi tomoq orqali halqumga tutashadi;

d) burun bo‘shligi – qo‘srimcha ton manbai. U yumshoq tanglay oxiridagi kichik tilning quyi tomon harakat qilishi natijasida rezonatorga aylanadi: havo oqimining bir qismi burun bo‘shlig‘idan o‘tib, qo‘srimcha tonlarni hosil qiladi. O‘zbek tilining m, n, ng undoshlari shu apparat ishtirotkida yuzaga keladi.



5-rasm. Boshning bo‘ylama kesimi. Yumshoq tanglay pastga tomon siljigan:
1-og‘iz bo‘shlig‘i; 2-halqum; 3-burun bo‘shlig‘i; 4- bo‘g‘iz

6-rasm. Boshning bo‘ylama kesimi. Yumshoq tanglay yuqori tomon siljigan:



Faol a’zolar: 1-lablar; 2-tilning old qismi; 3-tilning o‘rta qismi; 4-tilning orqa qismi; 5-til o‘zagi; 6-kichik til; 7-yumshoq tanglay; 8-halqumning orqa qismi.

Nofaol a’zolar: 9-old tomonidagi yuqori tishlarning uchi; 10-old tomonidagi yuqori tishlarning orqa qismi; 11-12-qattiq tanglayning old qismi; 13-tanglayning o‘rta qismi; 14-yumshoq tanglayning old qismi. 15- yumshoq tanglayning orqa qismi.

10-amaliy mashg‘ulot. Tilshunoslik va kimyo Topshiriqlar

1. Ximiyadagi valentlik nazariyasining tilshunoslikda tafbiq qilinishi.
2. Lisoniy valentlik va uning turlari yuzasidan tahlil.

Valentlik haqida tushuncha. Valentlik aslida ximiyaviy atama bo‘lib, tilshunoslikda lisoniy birliklarning amalga oshmagan birikuvchanlik-biriktiruvchanlik imkoniyatlari sifatida qaraluvchi lisoniy hodisaga nisbatan qo‘llanadi. Valentlikning ximiyaviy tavsifi quyidagicha. Masalan, kislorod (O) atomi boshqa turdag'i yana ikkita atomni biriktirish imkoniyatiga ega. Bu uning elektron qavatidagi ikkita atomning bo‘sh o‘rniga qarab belgilanadi. Suv molekulasi (N_2O)da bu bo‘sh o‘rinlar to‘ldirilgan. Shuningdek, nafaqat kislorod, balki vodorod (N) ham valentlikka ega bo‘lib, uning bo‘sh o‘rn ni bittadir. Demak, ko‘rinadiki, suv molekulasiida kislorodning ham, vodorodning ham valentlik imkoniyatlari voqelikka aylangan bo‘lib, ular kislorod biriktiruvchi, vodorodda esa birikuvchi tabiatga ega. Har ikkal atom (vodorod va kislorod) ham bir-biriga muvofiq bo‘lgandagina birikma hosil qilishi mumkin. Masalan, vodorod va oltin atomlari birikib, molekula hosil qila olmaydi.

Atomlarning valentligi royobga chiqmagan, namoyon bo'lishi uchun sharoit talab etiladigan imkoniyatdir. Lisoniy birliklar ham ana shunday birikish-biriktirish imkoniyatiga ega bo'lib, bu (ya'ni valentlik) ham lisoniy birliklarning o'zi bilan muayyan til jamiyatni a'zolari ongida yashaydi. Masalan, [o'qi] leksemasi kishi ongida 8 ta bo'sh o'rniga ega holda mavjud bo'ladi va nutqda voqelanib, bir vaqtning o'zida o'ziga 8 ta birikuvchini ham torta olishi mumkin. Uni chizmada quyidagicha tasavvur qilish mumkin:

kim	
nimani	
kimga	
qanday	o'qidi
qachon	
nima bilan	
nima sababdan	
qancha	

8 ta so'roq olmoshi [o'qi] leksemasiga birikish imkoniyatiga ega bo'lgan so'zlarga ishora qiladi. Bu imkoniyat bevosita kuzatishda berilmagan bo'lib, [o'qi] leksemasining mohiyatida yashiringandir. Lekin (kitobni o'qimoq), (har kuni o'qimoq), (ko'p o'qimoq) nutqiy birikuvlardida bu imkoniyatlar bitta-bitta voqelangan. Quyidagi birikuvlarning birinchisida bir vaqtning o'zida bu imkoniyatdan ikkitasi, ikkinchisida esa uchtasi voqelikka aylangan, so'z birikmasi hosil qilingan: kitobni tez o'qimoq; kutubxonada kitobni tez o'qimoq; [o'qi] leksemasining ongdagi birikish imkoniyati valentlik ekan, uning nutqiy voqelanishi sintaktik aloqa hisoblanadi. Demak, valentlik lisoniy, sintaktik aloqa esa nutqiy hodisa sifatida qaraladi. Ular lison va nutqning barcha qaramaqarshi belgilarni o'zida aks ettiradi. Lisoniy birlikning valentlik o'rinarini to'ldiruvchi birliklar aktantlar deb ham yuritiladi.

Yuqorida aytigelganidek, kislrorod atomi bilan birga vodorod atomi ham valentlikka ega bo'lganligi kabi [o'qi] leksemasiga birikuvchi leksemalar ham valentlikka ega. Biroq [o'qi] leksemasi hokim, tortuvchi mavqeda bo'lganligi sababli uning valentligi hokim valentlik, unga birikuvchi leksemaning valentligi esa tobe valentlik deyiladi:

Turli atomlar bir-biriga mos bo'lgandagina birika organligi kabi lisoniy birliklar ham ma'no va grammatik jihatdan muvofiq bo'lumog'i lozim. Boshqacha aytganda, biriktiruvchi leksema birikishi lozim bo'lgan leksemani nafaqat ma'no jihatdan, balki uning ma'lum bir grammatik shaklda bo'lishini ham talab etadi. Shunga ko'ra, valentlik lug'aviy va sintaktik qatlamlarga ajraladi.

Lug'aviy valentlik. Lug'aviy valentlik biriktiruvchi leksemaning ma'noviy jihatdan o'ziga mos birikuvchilarni tanlashidir. Masalan, [hangra] leksemasi [qush] leksemasini o'ziga torta olmaydi, [qush] leksemasi [hangra] leksemasidagi birorta ham bo'sh o'ringa tusha olmaydi. Chunki ularda ma'noviy muvofiqlik mavjud emas. Leksemalar bir-biriga ma'noviy mos bo'lishi uchun ularning ma'no strukturalarida o'xshash ma'no bo'lakchalari - semalari bo'lumog'i lozim. [qush] leksemasi ma'no tarkibidagi «sayray oladigan» ma'no bo'lakchasi «sayramoq» leksemasida va «sayramoq» leksemasidagi «qushlarga xos» ma'no bo'lakchaga qush leksemasida mavjud. Bu ularning birikma hosil qilishga asos bo'la oladi.

Leksemalarning valentliklari tor yoki keng bo'lishi mumkin. Masalan: [hangramoq] leksemasining nima? so'rog'iga javob bo'ladigan valentligi to'ldiruvchisi - [eshak] [xo'tik], [hangi] leksemadaridir. [kishnamoq] leksemasining bunday valentligini to'ldiruvchi unsurlar - [ot], [toy], [bedov], [saman] leksemalaridir. Ba'zan birikuvchi yoki biriktiruvchi leksemalar ma'nolari muvofiq bo'limgani holda ular nutqda birikuvlardan hosil qilishi mumkin. Masalan, artist hangradi kabi. Bunda endi me'yoriy valentlik buzilgan holda namoyon bo'lib, ko'chma, obrazli ma'no yuzaga chiqadi. Lekin bu sof nutqiy hodisa bo'lib, [hangra] va [artist] leksemalarining lisoniy mohiyatidan joy olmagan. Chunki [artist] leksemasining ma'no tarkibi «san'atkor», «qo'shiqchilik-teatrga» semalari bo'lib, unda «hangra» semasi yo'q, [hangramoq] leksemasi «eshakka xos», «ovozi chiqarish» ma'no tarkibiga ega bo'lib, unda «san'atkor», «qo'shiqchilikka xos» ma'no bo'lakchalari mavjud emas.

Biz lug'aviy valentlikni ot va fe'l turkumlaridan olingen namunalar asosida dalillashga harakat qildik. Lekin lisoniy-lug'aviy valentlik nafaqat ot yoki fe'lga, balki boshqa so'z turkumlariga ham xosdir.

Sintaktik valentlik. Sintaktik valentlik leksema valentligining ikkinchi tomoni bo'lib, u hokim mavqedagi leksemaning tobe leksemalarni o'ziga tortish uchun ularning ma'lum bir sintaktik shaklda - kelishik, ko'makchi, ravishdosh, sifatdosh qo'shimchalarini olgan holda bo'lishini talab qilishidir. Bu hokim leksemaning sintaktik mavqeい, grammatic shakli tomonidan belgilanadi. Masalan, Xatni yozdi, Xat yozildi sintaktik qurilmalaridagi xatni va xat so'zlarining grammatic shakli bosh so'zning grammatic shakli bilan belgilangan.

Sintaktik valentlik lug'aviy valentlik bilan zich bog'langan bo'lib, ikkinchisi ham o'zgaradi, biri yo'qolsa, ikkinchisi ham bo'lmaydi. Masalan, [etakla] leksemasi jo'nalish kelishigidagi otni o'ziga tortmaydi (Salimga yetakla tarzida). Lekin [etakla] leksemasi orttirma nisbat shakli -t bilan shakllansa, (Salimga) so'z shakli unga tortila oladi. Bunda, [etakla] leksemasining sintaktik valentligi o'zgardi.

Lug'aviy va sintaktik valentliklar o'zaro bog'liq bo'lsa-da, ular tez-tez o'zgarishga uchrab turadi. Masalan, (ashulachi hangradi) birikuvida sintaktik valentlik o'zgarmasdan voqelangan, ammo lug'aviy valentlik yangilangan holda yuzaga chiqqan. Bunday hol ko'chma ma'no yuzaga chiqqanidan dalolat beradi. (xat yozildi), (xatni yozdi) birikuvlarida ma'noviy valentlik joyida, biroq sintaktik valentlik o'zgargan. Bu turlicha sintaktik shakllar voqelanganligini ko'rsatadi. Biroq aytilgan har ikkala o'zgarish ham bir yoqlama - yo ma'noviy, yo sintaktik tabiatga egadir. Agar o'zgarish birdaniga ikki tomonlama - ham lug'aviy, ham sintaktik bo'lsa-chi? Bunda so'z yasalishi sodir bo'ladi. Dalil sifatida [ochmoq] fe'lining lug'aviy va sintaktik valentliklarini aniqlash orqali bunga amin bo'lish mumkin:

Tegrovchi jinoyatni ochdi.

Jinoyatchi tergovchi tomonidan ochildi.

Amerikani Vespuuchchi ochdi.

Gul ochildi.

Grammatic shakl valentligi. Leksemalarga grammatic shakllar qo'shilganda ularning birikuvchilar sirasida jiddiy o'zgarish yuz beradi. Bunga amin bo'lish uchun [kitob] leksemasining grammatic shaksiz va grammatic shakllangan holatlarida valentlik imkoniyatlarini taqqoslash kifoY.

Qiziq

Katta

Badiiy

kitob

O'nta

Ko'p

Qiziq

Katta

Badiiy

kitoblar

Ko'p

Qiziq

Badiiy

kitobcha

O'nta

Ko'p

Ayon bo'ladiki, 2- va 3- chizmalarda [kitob] leksemasining birikuv imkoniyatlari ko'plik son shakli -lar va kichraytirish qo'shimchasi -cha hisobiga toraygan. Quyidagi gaplarda esa leksemaning biriktirish imkoniyati kengayganligiga amin bo'lamic: 1. Salim kitob o'qidi. 2. Salim ukasiga kitob o'qitdi.

Demak, leksemalar kabi grammatic shakllar ham valentlikka ega bo'lib, ular leksemalar valentligiga ta'sir qilishi - uni toraytirishi yoki kengaytirishi mumkin.

11-amaliy mashg'ulot. Tilshunoslikning fizika bilan munosabati Topshiriqlar

1. Fizikadagi maydon nazariyasining tilshunoslikda tatbiq qilinishi bo'yicha tahlil

2. Akustika bo'yicha tahlil

Maydon «biror fizik hodisa ro'y beradigan yoki uning ta'siri seziladigan fazo» bo'lib, fiziklarning kuzatishicha, har qanday elektr zaryadi o'z atrofida magnit maydoni hosil qiladi. Tabiiyki, zaryadga yaqin fazoda uning ta'siri kuchli bo'lsa, uzoqlashgan sayin ta'sir kuchsizlanib boradi.

Tilshunoslikda maydon nazariyasi borasida yuzaga kelgan bir qancha tadqiqotlarda maydonlarni ajratish va tushunishda qator ilg'or fikrlar bilan birga chalkashliklar ham yuzaga keldi. Ayrim tadqiqotchilar maydonlar, aytaylik, kategoriyalardan hajmiga ko'ra farq qiladi, deb hisoblaydilar. Farq esa boshqa jihatdan bo'lib, maydon kategoriyyadan katta ham, kichik ham bo'lishi mumkin. Maydon umumiyligi atrofida birlashadigan va o'ziga xos belgilari bilan ana shu umumiyligi ziddiyatda turadigan birliliklardan tuzilishi lozim. Masalan, kelishik shuning uchun ham maydon bo'lolmaydiki, kelishiklar bir butun umumiyligi ma'no atrofida birlashadilar va ana shu umumiyligi grammatick ma'noni parchalab ekvipotent ziddiyatga kirishadilar. Kelishiklar alohida holda maydon bo'lolmasa-da, deylik, ko'makchilar bilan qo'shilib maydon hosil qila oladi. Bu maydon a'zolari «so'zni so'zga bog'lash» belgisi atrofida birlashib, shu bilan birga har biri o'zaro mustaqil yo'nalish bilan uzoqlashadilar, bu belgilarning eng ibtidoysi ularning shakliy xususiyatlarida ko'rindi.

Tilshunoslikda maydon tushunchasi qator obyektlarga talqin etildi. Xususan, G.S.Shchur quyidagilarni sanab o'tadi: funksional-semantik maydon, morfem maydon, fonem maydon, so'z yasovchilar maydoni, leksik maydon, mazmuniy maydon, mikro va makro maydon, nisbiylik maydoni, vaqt maydoni, son maydoni, inkor maydoni, mavjudlik maydoni, leksik-grammatik maydon, transformatsion maydon, mutlaq maydon, faoliyat maydoni, holat maydoni va hokazo. Ayrim so'z turkumlarining maydonlik xususiyati haqidagi tadqiqotlar ham yuzaga keldi.

Akustika bo'yicha tahlil

Fonetikaning fizik-akustik aspektida fonetik birliliklarning fizik tabiatini va akustik jihatlarini tadqiq qilinadi, shuning uchun u akustik fonetika deb ham nomlanadi. Fonetik birliliklarning fizik tabiatiga tovushning balandligi, kuchi, tembri, cho'ziqligi kiradi. Tovush tarkibida ishtiroy etuvchi ovoz, shovqin, ko'shimcha ton kabi komponentlar ham fizik-akustik omillar sanaladi.

1. Tovushning balandligi – tovushning un paychalarini tebranishi chastotasidan kelib chiqadigan sifat belgilari. Ma'lum vaqt o'lchovida (masalan, bir sekundda) un paychalarining tebranish miqdori qancha ko'p bo'lsa, tovush shuncha baland bo'ladi yoki, aksincha, shu vaqt o'lchovi hisobida un paychalarini qancha kam tebransa, tovush shuncha past chiqadi. Tebranayotgan jismning, masalan, un paychalarining tinch holatidagi nuqtadan ikki (qarama-qarshi) tomonga bir marta borib qaytishi bitta to'la tebranish sanaladi, ana shu to'la tebranish bir gers hisoblanadi, demak, baland ovozda gerstar miqdori ko'p (tebranish zikh), past ovozda esa gerslar miqdori kam (tebranish siyrak) bo'ladi. Insonning eshitish qobiliyati 16 gersdan 20000 gersgachadir: 16 gers eshitishning eng quyig'i pog'onasi, 20000 gers esa eshitishning eng yuqori pog'onasi hisoblanadi. 16 gersdan past chastotali tebranish infratovush, 20000 gersdan ortiq chastotali tebranish esa ultratovush sanaladi. Inson oddiy so'zlashuvda 100 gersdan 400 gersgacha balandlikdagi tovushni qo'llaydi. Insonning eng past tovushi bas (u 40 gersga teng), eng baland tovushi esa soprano (u 170 gersga teng).

Nutqda ovozning (tonning) baland-past tarzda to'lqinlanishi melodikani yuzaga keltiradi, melodika esa gapning ifoda maqsadiga yoki emotsiyonallikka ko'ra turlarini belgilashda, sintagmalarni, kirish so'z yoki kiritma gaplarni ifodalashda muhim vosita sanaladi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, tebranish chastotasi nutqda boshqa akustik vositalar (urg'u, intonatsiya, tembr, temp kabilalar) bilan munosabatga kirishib, murakkab tovushni hosil qilishi ham mumkin, bunday murakkab tovushlardan esa turli ekspressiv-stilistik maqsadlarda, ayniqsa, she'riy misralardagi tovush tovlanishlarini tarkib toptirishda foydalilaniladi.

2. Tovushning kuchi (intensivligi) – 1 sm² maydondan 1 sekundda o'tadigan energiya miqdori. Bunday energiya miqdorining ko'p yoki oz bo'lishi tebranish amplitudasining (kengligining) katta yoki kichikligiga bog'liqdir: tebranish amplitudasining katta bo'lishi unga berilayotgan zarba darajasiga, pastligi o'pkadan kelayotgan havo oqimi kuchiga bog'liq. Masalan, zarb urg'usini (dinamik urg'uni) yuzaga keltirishda havo zarbi kuchli bo'ladi. Demak, tovush kuchining nutqdagi ahamiyati ko'proq zarb urg'usini ifodalashda namoyon bo'ladi.

Tovush kuchi odatda detsibel bilan o'chanadi. Masalan, soatning chiqillashi – 20 db, pichirlash – 40 db, yarim ovoz bilan gapiresh – 60 db, baland ovoz bilan gapiresh – 80 db, simfonik orkestr ovozi – 100-110 db bo'ladi. 130 detsibeldan ortiq kuchdag'i tovush qulokka og'riq beradi, insonni noxush qiladi.

3. Tovush tembri – tovushning asosiy ton va yordamchi tonlar (oberton, parsial tonlar) qo'shilmasidan tarkib topadigan sifati. Tovush tembrini ifodalovchi va uning boshqa tovushlar tembridan farqini ko'rsatuvchi chastotalar formantlar deyiladi. Tovush formantlari maxsus eksperimental apparat – spektograf yordamida aniqlanadi.

Tovush tembrining turli xil formantlarga ega bo'lishida bo'g'iz bo'shlig'i, halqum, og'iz bo'shlig'i va burun bo'shligi maxsus rezonatorlik (akustik filtrlik) vazifasini bajaradi: bunday bo'shliqlarning turli shaklga kirishi, hajmi, undagi a'zolarning harakat-holati tovushning bo'yoqdorligini (sifat belgilarini) o'zgartirib turadi. Shu tariqa fonemalarning o'zaro farqlanishi ta'minlanadi. Odatda, tovush tembri unli fonemalarda muhim rol o'ynaydi: hamma unli fonemalarda ovoz bor, ammo ular bir-biridan tembri bilan farq qiladi. Ayni paytda, tovush tembri undoshlarni, masalan, sonantlarni farqlashda ham qatnashadi. Bulardan tashqari, tembr nutqning supersegment birligi, ovoz tovulanishlari tarzida ham namoyon bo'ladi: quvnoq tembr, mayus tembr kabi. Tembrning bu turlari nutqning ekspressiv-emotsional xususiyatlarini ta'minlaydi.

4. Tovush cho'ziqligi – tebranishning oz yoki ko'p vaqt davom etishi. Tovush cho'ziqligi ikki xil bo'ladi:

a) fonologik cho'ziklik (birlamchi cho'ziqlik). Bunday cho'ziqlik, odatda, ma'noni farqlash uchun xizmat qiladi. Masalan, turkman tilida "yilqi" ma'nosidagi "ot" so'zi bilan "ism" ma'nosidagi "ot" so'zining ma'nolari shu so'zlar tarkibidagi "o" unlisining cho'ziqlik darajasi bilan farqlanadi: ot (turkmancha ad – "yilqi") va o:t (turkmancha a:d – "ism") kabi;

b) fonetik cho'ziklik (ikkilamchi cho'ziqlik) – sof fizik-akustik faktorga asoslangan (fonologik vazifa bajarmaydigan) cho'ziqlik. Masalan, urg'uli yo'g'indagi unli bir oz cho'ziladi, ammo u so'z ma'nosini farqdash uchun xizmat qilmaydi (atlás va átlas kabi ayrim holatlar bundan mustasno). Shuningdek, imon so'zi boshidagi "i" cho'ziqroq talaffuz etilganidan, unda bir "y" orttiriladi (iymon kabi) yoki shahar, zahar so'zlarida "h" ning tushib qolishi natijasida ikki "a" yonma-yon kelib, bir cho'ziq "a" tarzida talaffuz qilinadi (sha.ar, za:ar kabi), ammo bu holat so'z ma'nolarini o'zgartirmaydi.

Izoh: nutq tovushlarining balandligi, kuchi (intensivligi) va tembri ularning sifat belgilari sanaladi, tovushning cho'ziqligi esa miqdor belgisi hisoblanadi.

12-amaliy mashg'ulot. Tilshunoslikning axborot nazariyasini bilan bog'liqligi

Topshiriqlar

1. Kibernetika.
2. Axborot tushunchasi.
3. Signal tushunchasi.
4. Axborot va signalning bir-biridan farqi.

Tavanch so'z va iboralar: mantiq, grammatika, semiotika, algoritm, uchinchisi mustasno qonuni, oraliq uchinehi, matematik mantiq, dialektik mantiq, konyunksiya, dizyunksiya, implikatsiya, ekvivalensiya, kvantor, lingvistik protsessor, tabiiy tilli interfeys, semantika, sintaktika, semiotika, lingvosemiotika, pragmatilca, kod, kodlash, dekodlash, denotat, signifikat, algoritmik tillar, translyator dasturlar (kompilyatorlar).

Mantiq, grammatika, semiotika va algoritm kompyuter lingvistikasining muhim unsurlari hisoblanadi. Ular til va nutqning funksionallashuv jara-yonini anglashda hamda lingvistik muammolarni avtomatik hal etish tizimini yaratishda poydevor boiib xizmat qiladi. Mantiq, grammatika, semiotika va algoritm bir-biri bilan chambarchas bog'liq tushunchalar bo'lib, ular kompyuter lingvistikasida bir-birini to'ldiradi. taqozo etadi hamda hamkorlikda ishlovchi qoidalar tizimini tashkil qiladi.

13-amaliy mashg'ulot. Matematik metodlarning tilshunoslikda qo'llanishi Topshiriqlar

O'tgan asrning o'rtalaridan boshlab tilshunoslikda matematik metodlarni qo'llash keng ommalasha boshladi. Bunda asosan 3 xil metoddan foydalanildi:

1. To'plam nazariyasi.
2. Transfonnatsion metod.
3. Statistik metod.

Harqanday elementlarning yig'indisi to'plam deyiladi. To'plamning ayrim elementlari ba'zi hollarda kesishadi. Nazariy to'plam metodidan tilshunoslikda ko'p ma'noli so'zlaming tahlilida foydalanish mumkirt. M-n: ko'z so'zi; 1. Odamning ko'zi. 2. Taxtaning ko'zi. 3. Buloqning ko'zi.

4.Uzukning ko'zi.

1. ko'rish organi belgisi;
2. muayyan bir shaklga ega bo'lism;
3. juftlik belgisi;
4. bo'rtib chiqqanlik;
5. cheti botiqlik belgisi;
6. G) muayyan bir materialdan iborat bo'lism belgisi.
7. l.Odamning ko'zi - a ,b, d
8. Taxtaning ko'zi - b,d,g,e
9. Buloqning ko'zi - b,d
10. Uzukning ko'zi - b,d,e, f

Ko'rinadiki, 1-, 2-, 3 -, 4- to'pianilaming ayrim elementlari farqli va ayrim elementlari umumiy.

Trasformatsion metoddagi gapning shakli o'zgartiriladi, lekin bu uning mazmuniga ta'sir ko'rsatmaydi. Bu metod asoslari Amerika tilshunosi N. Xomskiy tomonidan ishlab chiqilgan. 'ingлиз, nemis, rus, ispan, hind, fin, eslon, turk, yapon, arab tillarining transformatsion grammatikalari yaratilgan. Uning asosiy g'oyasi quyidagidan iborat: til juda murakkab, ko'p sathli strukturadir. Eiunda yuqori sath birliklari qurilishi qonuniyatlarini pastki sathdagi birliklar qurilishidan farq qiladi. Aytaylik, ko'p tillarda so'zdagi ntorfemalar ketrna-ketligi qat'iy belgilangan, ammo bog'langan qo'shma gap tarkibidagi so<lida gaplar ketma-ketligini o'zgartirish gap strukturasiga ta'sir qilmaydi. Shu birgina misoldan ko'rinadiki, yuqori sathdagi birliklarning qurilishi qonuniyati pastki sathdagi birliklar qurilishidan farq qiladi. Shuning uchun grammatik model bir necha bosqichli tahlildan iborat bo'lishi kerak. Bunda har bir bosqich tilning qaysidir sathdagi dalillarrii tahlil qilishi uchun maxsus qoidalar to'plamiga ega bo'lishi ko'zda tutiladi.

Transformatsion hosil qiluvchi giramatika rich bosqichli tahlildan iborat: 1) bevosita. tashkil etuvchilar (BTE) qoidalari; 2) transformatsion qoidalari; 3) morfonologik qoidalari.

Matematik statistika metodidan tilshunoslikda, ayniqsa, til o'rgatish jarayonida keng foydalaniladi. Buning uchun muayyan tilda qo'llaniluvchi fonemalar, leksemalar, so'z shakllarining ishlatilish chastotasi tekshiriladi.

Matematik mantiq asoslari

Dastlab matematik mantiq faqat tabiiy fanlarda qo'llanilib kelindi, keyinchaJik u gumanitar sohalariga ham tatbiq etilgan.

Mantiq - muhokama yuritishnieg qonun-qoidalari, usullari va formalari haqidagi fan bo'lib, uning asoschisi qadimgi grek olimi Aristotel hisoblanad . U birinchilardan bo'lib deduktsiya nazariyasini ishlab chiqdi, yard mantiqiy xulosa chiqarishnirtg formal xarakterga ega ekanligini ko'rsatdi.

Aristotelning ta'lirnoti Farobiv, Beruniy, Umar Xayyom, Alisher Navoiy kabi buyuk olirnlar tomonidan davom ettirildi.

Nemis faylasufi va matematigi G.Leybnits (1646-1716) birinchilardan bo'lib mantiqiy fikrlashrtning bisob xarakteriga ega ekanligini ko'rsatdi. Uning fikricha, barcha ilmiy tushuncha va mulohazalarning asosini mantiqiy elementlar tashkil qiladi. Mana shu mantiqiy elementlarni muayyan simvollar bilan belgilash mumkin bo'ladi.

14-amaliy mashg'ulot. Lingvogeografiya va areal tilshunoslik Topshiriqlar

1. Lingvogeografiya.
2. Tilshunoslik va kartografiya.
3. Lingvistik geografiya va dialektologiya.
4. Lingvogeografiya va areal tilshunoslik yuzasidan tahlil.

Tafakkur qonuniyatlarini, muhokama yuritish qonun-qoidalari, usullari va formalarini o'rghanuvchi fan mantiq sanaladi. Unda tushuncha, hukm, xulosa chiqarish kabi mantiqiy operatsiyalar o'rghaniladi. Mantiq dastlab Qadimgi Xitoy va Hindistonda miloddan avvalgi V asrda grammatika bilan uzviy bog'liq holda shakllana boshladi. Miloddan avvalgi IV asrda Qadimgi Yunonistonda mantiq mustaqil fan maqomiga ega bo'ldi. Bu ho-disa yunon faylasufi Aristotel nomi bilan bog'liq, u mantiq fani asoschisidir. Olim «Organon» (bu so'z «qurol», «vosita» ma'nolarini anglatadi) asarini yozib, tafakkur qonuniyatlarini birinchi bo'lib tushuntirdi, deduksiya na-zariyasini - mantiqiy xulosa chiqarishning formal xarakterga ega ekanligi- ni ko'rsatdi, mantiqni fikrlash quroli sifatida tavsifladi. Aristotel nominativ (otli) ifodalarning mantig'ini ishlab chiqdi. Keyinroq Aristotelning shogirdi Teofrast va stoiklar maktabi vakillari jumla mantig'ini yaratdilar

Aksiomatik nazariya miloddan avvalgi VII - VI asrlarda shakllangan. Uning yaratilishi matematik olim Pifagor nomi bilan bog'liq. Lekin bu metodni birinchi marta miloddan avvalgi III asrda yashab ijod etgan yunon olimi Yevklid o'zining «Negizlar» asarida qo'mlagan. Aksiomatik nazariya bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Postulat - yunoncha «talab» ma'nosini anglatadi. Qadimgi dialektika o'yinida har bir kishining ilgari surgan g'oyasi, fikri. Uni tasdiqlash ham, inkor qilish ham mumkin.

2. Aksioma - yunoncha «hurmat qilaman» ma'nosini anglatadi. U ilmiy nazariyaning hech qanday mantiqiy isbotsiz to'g'ri deb tan olinuvchi va boshqa ilmiy xulosalar uchun asos bo'luvchi maqbul deb topilgan haqiqat, go'yo olimlar bu fikrni «hurmat qilib» inkor etmaydi. Arirstotel aksiomani «har qanday isbotsiz e'tirof etiladigan boshlang'ich hukmlar», «ilm-fanning poydevori, ibtidosi» sifatida talqin qilgan.

3. Teorema - aksiomadan farqli ravishda mantiqan keltirib chiqariladi- gan jumlalar, u shart, isbot va xulosa qismlariga ega.

15-amaliy mashg'ulot. Tilshunoslikda statistik metoddan foydalanish Topshiriqlar

1. Statistik metoddan foydalanish yuzasidan mashqlar bajarish.

Fonologik oppozitsiya – ikki so'zning ma'nolarini bir-biridan farqlash uchun xizmat qiladigan tovushlar o'rtasidagi qarama-qarshilik (fonologik zidlanish). Masalan, i-u unlilari oppozitsiyasidagi lablanmagan" va "lablangan" belgilari ich va uch so'zlarining ma'nolarini farqlash uchun xizmat qilmoqda.

Bir o'lchovli oppozitsiya. Bunda oppozitsiyalar sistemasi tarkibidagi bir oppozitsiya a'zolariga xos bo'lgan belgilari yig'indisi shu sistema tarkibidagi boshqa oppozitsiyalarning a'zolarida uchramaydi. Mas., (p-b)dagi "lab-lab, portlovchi" belgilari yig'indisi (t-d) oppozitsiyasida yo'q, (t-d) dagi "til oldi, portlovchi" belgilari yig'indisi (k-g) oppozitsiyasida yo'q, (k-g)dagi "til orqa, portlovchi" belgilari yig'indisi "s-z" oppozitsiyasida yo'q, (s-z)dagi "til oldi-dental, sirg'aluvchi" belgilari yig'indisi (sh-j) oppozitsiyasida yo'q, (sh-j)-dagi "til oldi – tanglay, sirg'aluvchi" belgilari yig'indisi esa (ch-dj) oppozitsiyasida yo'q, demak, bu sistema tarkibidagi oppozitsiyalardan birortasida uchinchi a'zo uchramaydi.

Bir o'lchovli oppozitsiyalar ba'zan "bilateral oppozitsiyalar" deb ham nomланади.

Ko'p o'lchovli oppozitsiyalar. Bunda bir oppozitsiya a'zolaridagi belgilari yig'indisi shu sistemadagi boshqa oppozitsiya a'zolariga ham xos bo'ladi. Mac, (b-d) dagi "portlovchi-jarangli"lik belgilari yig'indisi (d-g) oppozitsiyasida ham bor, shuning uchun (b-d) oppozitsiyasi tarkibiga uchinchi a'zo sifatida "g"ni ham qo'shish mumkin (b-d-g kabi).

Yakkalangan oppozitsiya («protivopostavleniye izolirovannoye»). Bunday oppozitsiya a'zolari o'rtasidagi aloqa boshqa oppozitsiyalarda takrorlanmaydi. Mas, o'zbek tilidagi (l-r) oppozitsiyasiga xos "yon sonant-titroq sonant" farqlanish belgisi boshqa biror oppozitsiyada yo'q.

16-amaliy mashg‘ulot. Tilning leksik taraqqiyotidagi ichki va tashqi omillar

Badiiy matnni lingvopoetik jihatdan tadqiq etgan M.Yo‘ldoshev o‘z ilmiy ishida prof. N.Mahmudovning quyidagi fikrlariga e’tibor qaratadi: “Tilni faqat va faqat kishilar o‘rtasidagi aloqa vositasi sifatida talqin etish insonning tabiiy tilini, bu murakkab va muhtasham hodisani, eng kami, jo‘nlashtirishdan, aniq bir milliy qiyofa yoki milliy-ruhiy zamindan mosuvo bo‘lgan sun‘iy tilga (masalan, esperanto kabi) tenglashtirishdan, yo‘l harakatini tartibga solish maqsadida yaratilgan shartli “til”ga baravarlashtirishdan boshqa narsa emas... Holbuki, odamlar til vositasida tuyg‘u va kechinmalari, quvonch va qayg‘ulari, hayrat va hayronliklari, qalbdagi huzurlari kabi xilma-xil sezgilarni ham ifodalaydilarki, bular hamisha ham sof kommunikativ maqsadlarni ko‘zda tutmaydi”¹.

Haqiqatan, til insoniy his-tuyg‘ularni ifodalashning eng samarali usullaridan biridir. U shunday xususiyatga ega bo‘lganligi uchun ham o‘quvchining tuyg‘ularini “boshqara oladi” – uning qalbida turli kechinmalar, hissiyotlarni paydo qiladi. Xususan, badiiy matn “Insonni ruhan to‘lqinlantirish, yig‘latish, kuldirish, xayolot olamiga yetaklash, o‘yga cho‘mdirish, estetik tafakkurini shakllantirish, voqeа-hodisalarga teran, boshqacha nazar bilan boqishga o‘rgatish kabi ko‘plab imkoniyatlarni o‘zida mujassam qilgan bo‘ladi”².

Badiiy matnning ayni shu xususiyatini tadqiq etgan rus tilshunosi V.P.Belyanin o‘z kitoblaridan birida Vigotskiyning “Hamma joyda – fonetikada, morfologiya, leksika va semantikada, hatto ritmika, vazn va musiqada – grammatick va shakliy kategoriyalar ortida psixologik omillar yashiringan!” – degan fikrini keltirib o‘tadi³.

17-amaliy mashg‘ulot. Tilning leksik-semantik sathi

